T. QUDRATOV, N. FAYZIYEVA

KORXONALAR FAOLIYATINING TAHLILI VA NAZORATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

T. QUDRATOV, N. FAYZIYEVA

KORXONALAR FAOLIYATINING TAHLILI VA NAZORATI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5610100 – Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha o'qiyotgan talabalarga darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
«VORIS-NASHRIYOT»
2012

UDK: 631(075)
65.290 3(2)29
Q-73 858

Taqrizchilar:

K.B. Urazov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi mudiri, professor, iqtisod fanlari doktori;

D.X. Xolbayev – Samarqand qishloq xo'jalik instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Qudratov T.

Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati: oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ **T. Qudratov, N. Fayziyeva;** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Voris-nashriyot», 2012. – 256 b.

Mazkur darslikda «Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati» fanining nazariy, uslubiy va amaliy masalalari bayon qilingan. U O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2006-yilda tasdiqlangan o'quv dasturi talablariga muvofiq tayyorlangan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining «Fermer xo'jaligini boshqarish» ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan talabalarga mo'ljallangan. Undan, «Iqtisodiyot» va «Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishlari bo'yicha o'qiyotgan talabalar ham, shuningdek, buxgalter va iqtisodchilar ham foydalanishlari mumkin.

УДК 631(075)
КВК 65.290

ISBN 978-9943-375-62-8

© «VORIS-NASHRIYOT», 2012-y.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rinni egallaydi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismi shu sohada yetishtiriladi. Aholining 60 foizdan ortiq qismi qishloqda yashaydi. Shuning uchun sohani rivojlantirish masalasiga mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq katta e’tibor berila boshlandi, ya’ni qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida qator qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi, natijada ushbu sohada ular o‘z samarasini bera boshladi. Shular orasida O‘zbekiston Prezidentining 2003-yil 24-martda «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishnng eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida» qabul qilgan farmoni qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim rol’ o‘ynadi. Mazkur farmon qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqaruvchilarning asosiy subekti sifatida fermer xo‘jaligini rivojlantirishni ustivor yo‘nalish deb belgilab berdi. Shundan keyin fermer xo‘jaliklari rivojlanib, ishlab chiqarish hajmi keskin o‘sdi va o‘sib bormoqda. 2008-yilda yetishtirilgan paxta xomashyosining 99,1 foizi, g‘allaning 79,2 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, fermer xo‘jaliklari yildan-yilga o‘sib va taraqqiy etib, iqtisodiyotda salmoqli o‘rinni egallab bormoqda.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarishni yanada samarali rivojlantirish uchun ular faoliyatining barcha tomonlarida sodir bo‘lgan va bo‘layotgan jarayonlarni, ularning natijalarini har taraflama chuqur o‘rganish va nazorat qilish natijasida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni ishlab chiqarishga jalb etish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatish zarur. Bu muammolarni hal qilishda iqtisodiy tahlil va nazoratning roli nihoyatda kattadir.

Har bir qishloq xo‘jaligi korxonasining faoliyatini har tomonlama va chuqur tahlil va nazorat qilish orqali mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, tannarxni pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, foydani ko‘paytirish, to‘lov qobiliyatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni yaxshilash imkoniyatlari aniqlanadi. Mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlab, ulardan samarali foydalanish nafaqat xo‘jalik iqtisodiyotining, balki mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qonuniyatni

SAMARQAND ... KUTUBXONASI
AXBOROT ... MARKAZI
№ 461368

kelajakda mustaqil Vatanimiz ravnaqi yo'lida xizmat qiladigan har bir talaba mukammal va to'liq bilib olishi zarur. Talaba bu sharafli burchi va vazifasini har doim yodida saqlashi zarur. Shuning uchun bilim olayotgan har bir talaba, har bir mutaxassis hamda faoliyat ko'rsatayotgan fermer iqtisodiy tahlil va nazoratni ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak. Iqtisodiy tahlil va nazorat asoslarini talaba asosan oliy o'quv yurti bazasida egallaydi. Shuning uchun o'quv rejaning III – «Umumkasbiy fanlari» blokida «Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati» faniga 92 soat, shu jumladan ma'ruzaga 28 soat, amaliy mashg'ulotga 28 soat, mustaqil ishga 36 soat hajmida yuklama ajratilgan. Talabalar bu fan orqali qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning holati va ularning natijalarini omilli tahlil etish va nazorat qilish hamda chora-tadbirlar ishlab chiqish usullarini va jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganishadi va egallashadi, oqibatda korxona to'g'risidagi axborot ma'lumotlarini to'plash, qayta ishlash va ularni tahlil qilish hamda xo'jalik mulkining saqlanishi ustidan nazorat o'rnatish ko'nikmalarini egallashadi.

Ma'lumki, zamon talabiga javob beradigan sifatli kadrlarni tayyorlash uchun ularni darslik va o'quv qo'llanmalar kabi o'quv adabiyotlari bilan yetarli darajada ta'minlash zarur. Shu nuqtayi nazardan «Fermer xo'jaligini boshqarish» yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga uslubiy jihatdan yordam berish hamda fan bo'yicha mavjud bo'lgan bo'shliqni qisman to'ldirish maqsadida mualliflar ushbu darslikni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'iyshdi. Mazkur darslik talabalarga korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati fani bo'yicha nazariy va uslubiy bilimlarni berishga hamda ularda zaruriy amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2006-yil 10-avgustda tasdiqlangan «Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati» fanining o'quv dasturiga to'liq mos holda tayyorlangan.

Fanning metodologik asosi. Barcha fanlar kabi tahlil va nazorat fanining ham metodologik asosi bo'lib, falsafaning bilish nazariyasi hisoblanadi. Bu nazariya tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, harakatda va o'zgarishda deb ta'lim beradi. Tahlil va nazorat fani ham, ushbu nazariya asosida, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko'rsatkichlarni uzviy bog'liqlikda, harakatda va o'zgarishda deb qaraydi, o'rganadi va xulosalar chiqaradi.

Fanning maqsadi. Fanning maqsadi bo'lib. qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining barcha tomonlarida obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida

sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini o'rganish va nazorat qilish usullarining mazmun-mohiyatini yoritish hamda talaba egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish hisoblanadi.

Fanning vazifalari. Fanning vazifalari bo'lib, qishloq xo'jalik korxonalarining boshqaruv va moliyaviy faoliyatlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini tahlil etish va nazorat qilish usullarining mazmun-mohiyatini talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Fanning yechimini kutayotgan muammolari. Iqtisodiy tahlil fanining echimini kutayotgan muammolari bo'lib, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining ayrim ko'rsatkichlarini tahlil etish va nazorat qilish usullarini takomillashtirish masalasi hisoblanadi.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati fani iqtisodiyot nazariyasi, falsafa, mikro-makroiqtisodiyot, statistika, moliya, buxgalteriya hisobi, huquqshunoslik kabi boshqa fanlar bilan ham o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Masalan, tahlil fani iqtisodiyot nazariyasining umumiqtisodiy qonuniyatlari, kategoriyalari va atamalari asosida iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini o'rganadi. Falsafaning «Bilish nazariyasi»ga asoslanib, iqtisodiy tahlil o'zining usullarini ishlab chiqadi va predmetini o'rganishda ulardan foydalanadi. Shularga o'xshash, boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liqlikda bo'ladi.

Tahlil va nazoratning bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati. Joriy, tezkor va istiqbolli tahlil usullarini iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda qo'llashga, korxona faoliyatidagi jarayonlarni axborot manbalaridan foydalanib, to'g'ri ta'riflashga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanganlik darajasiga obyektiv baho bera olishligiga, mahsulotlarni sotishdan, asosiy va umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlay bilishga, xo'jalikning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qodirligi holatini o'rganib, raqobatga barboshli bo'lishlik uchun amalga oshiriladigan tadbirlarni ishlab chiqa bilishga, xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berishga va nazoratni usullarini qo'llashga o'rgata bilishligi bilan bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi.

Fanga tegishli sohaning darslikda yoritilishi. Darslikda aks ettirilgan masalalarning ham nazariy, ham uslubiy jihatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohalari – o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarining hisobot ma'lumotlari asosida yoritilgan.

Fanning umumiy o'quv maqsadlari. «Fermer xo'jaligini boshqarish» yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlarga olishi zarur bo'lgan

bilimlarni berish hamda egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakani hosil qilish tahlil va nazorat fanining umumiy maqsadlari bo'lib hisoblanadi.

Bakalavrlarning qishloq xo'jalik korxonalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etishi va amalga oshirishi hamda nazorat haqidagi bilimga ega bo'lishiga, ho'jaliklarning hisobi, hisobotlari va biznes-rejalaridan hamda yuridik hujjatlardan mustaqil foydalanib, barcha faoliyatlarining natijalarini omilli tahlil qilish va nazoratni o'tkazish usullarining mazmun-mohiyatini egallashiga hamda tahlil natijalariga kompleks baho berish ko'nikmalari va malakasiga ega bo'lishiga imkoniyatlar berishi fanning umumiy o'quv maqsadlari bo'lib hisoblanadi.

Darslik qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlarining «Fermer xo'jaligini boshqarish» ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan talabalarga va shu fandan dars berayotgan o'qituvchilarga hamda shu soha mutaxassislari va fermerlariga mo'ljallangan. Undan «Iqtisodiyot» va «Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishlari bo'yicha o'qiyotgan talabalar ham, dars berayotgan o'qituvchilar ham, buxgalter va iqtisodchilar ham foydalanishlari mumkin.

O'QUV MAQSADI

Tahlil fanining mazmunini, predmeti va obyektini, vazifalari va ta'-moyillari, metodi va usullari mazmun-mohiyatining hamda iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari va tahlil natijalarini rasmiylashtirish tartib-qoidalarining mazkur yoritilishi va ular bilan talabalarni qurollantirilishi – ushbu mavzu bo'yicha ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir qilib, ularning shakllanishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil tufayli ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samara-dorligini oshirish va moddiy manfaatdorlik darajasining yaxshilanish imkoniyatlari aniqlanadi. Bularni faoliyatga o'z vaqtida jalb etish nafaqat korxona iqtisodiyotini, balki milliy iqtisodiyotning ham mustahkamlanishiga va aholi farovonligining oshishiga olib keladi. Bu fikr va g'oyalarni talabalar ongiga singdirish mavzuning *tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Tahlilning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini yanada samarali yetkazish uchun unda qo'llaniladigan an'anaviy usullarni takomillashtirish zarur. Omilli tahlilda qo'llaniladigan usullarni takomillashtirish to'g'risidagi fikrlar mavzuning *rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* o'quv tashkil qiladi.

1.1. Tahlil fanining shakllanishi, tashkil topishi va rivojlanishi

Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan uning a'zolarining ongi o'sib, rivojlanib, taraqqiy etib borgan, oqibatda uning barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlar hamda ularning natijalarini kuzatish va o'rganish asosida borliq to'g'risida turli fikrlar va qarashlar yuzaga kelgan va rivojlana boshlagan. Bular esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonining kengayishi va uning natijalarini o'sishiga hamda ular bo'yicha hisob ishlarini olib borishga sabab bo'lgan. Xullas, bu fikr va qarashlarning shakllanishi hamda rivojlanib borishi turli yo'nalishdagi fanlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Shunday fanlardan biri iqtisodiy tahlil fani hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fani «Buxgalteriya hisobi» va «Statistika» fanlari negizida yuzaga kelgan. Bu fanning paydo bo'lishiga, shakllanishiga va takomillashi-

shiga olib keluvchi omillar, jamiyatda yuzaga kelgan obyektiv shart-sharoitlar hisoblanadi. XV–XVII asrlarda ishlab chiqarish jamiyatning barcha sohalarida keng ko'lamda rivojlana boshlagan. Bu esa o'z navbatida hisob ishlarini ham yuritishni taqozo etgan, ya'ni ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan moddiy va mehnat resurslari sarfini hamda uning natijalarini qayd qilish uchun hisob ishini olib borishga ehtiyoj tug'ilgan, natijada hisob-kitob ishlari yuritila boshlagan. Ishlab chiqarishning yanada rivojlanib, kengayib va taraqqiy etib borishi mavjud imkoniyatlarni aniqlab, xo'jalik faoliyatiga jalb etishni talab qilgan. Ammo ushbu muammoni hal qilishda hisob ma'lumotlari yetarli bo'lmasdan qolgan. Bu esa obyektiv holatda tahlilning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Buxgalteriya hisobi fanining paydo bo'lganligiga taxminan 500 yildan, iqtisodiy tahlilning vujudga kelganligiga esa 100 yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Demak, iqtisodiy tahlil ham eskidan shakllangan fanlardan biridir. Buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi asar XV asrda paydo bo'lgan. Ushbu fikrni professor M. Q. Pardayevning «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligida keltirilgan ma'lumotlar asosida bayon qildik. Buxgalteriya hisobi bo'yicha yaratilgan birinchi asar Vendrikt Katrul'inning 1458-yilda «Savdo va xususiy savdogar» nomi bilan nashr qilingan kitobi hisoblanadi. Ana o'sha yildan boshlab, buxgalteriya hisobining yaratilganligi e'tiborga olinsa, uning yoshi 500 yildan oshgan hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlar Evropa mamlakatlarida (Gollandiya, Angliya, Fransiya kabi mamlakatlarda) XVI–XVII asrlarda keng ko'lamda yaratila boshlagan. Rossiyada esa XIX asrda paydo bo'lgan. Rossiyada buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan birinchi asar bo'lib, V. S. Nemchinov tomonidan 1840-yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat bo'lgan «Hisob fani» kitobi hisoblanadi. Bu ma'lumot ham professor M. Q. Pardayevning yuqorida nomi zikr etilgan darsligi asosida bayon qilindi. Shundan keyin buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan kitoblar safi Rossiyada kengayib borgan.

Tahlilning elementlari XVIII asr oxirlarida hisob ma'lumotlari asosida paydo bo'la boshlagan. Tahlil elementlari Rossiyada 1880-yildan boshlab chiqa boshlagan «Schetovodstvo» jurnali sahifalaridan o'rin olgan maqolalarda aks ettirila boshlagan. Ushbu maqolalar asosan buxgalteriya balansining tahliliga bag'ishlangan. Natijada iqtisodiy tahlil faniga asos solingan. Mazkur fan ilk marta «Balansshunoslik» fani tariqasida paydo bo'lgan. Iqtisodiy tahlil hozirgi shakllangan fan shakliga kelgunga qadar bir qancha evolutsion yo'lni bosib o'tgan. U balansshunoslik, balans tahlili, hisob tahlili, balans va tahlil, iqtisodiy tahlil shakllarida paydo bo'lgan.

Bu fan 1940-yillarga kelib, «Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» fani sifatida to'liq shakllangan va oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan tariqasida o'qitila boshlandi. Keyinroq «buxgalteriya hisobi va xo'jalik faoliyatining tahlili» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlana boshlangan, mustaqillikka erishiganidan keyin respublikamizda iqtisodiy tahlil mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlanmoqda.

XX asrning 50–60-yillaridan boshlab, tahlil fanining iqtisodiyot tarmoqlariga mos holda bir qancha turlari vujudga keldi. Bularga sanoat korxonalari faoliyatining tahlili, qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili, savdo korxonalari faoliyatining tahlili hamda boshqa sohalar korxonalari faoliyatining tahlili kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo'yicha ijodiy ishlar olib borildi va natijada u fan shaklida tashkil topdi. Ushbu fan nazariyasini birinchi bo'lib Moskvalik olimlar M. I. Bakanov va A. D. Sheremet 1987-yilda «Teoriya ekonomicheskogo analiza» nomi bilan yaratishgan. Shundan keyin bu fan Ukrainalik, Belorussiyalik va O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham darslik sifatida yaratildi. Mazkur fan MDH davlatlari oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'rganib kelinmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining tashkil topishida va shakllanishida Samarqandlik va Toshkentlik olimlarning xizmati kattadir. Shunday olimlar qarotida I. T. Abdukarimov, Y. Abdullayev, A. V. Vahobov, A. T. Ibrohimov, M. Q. Pardayev, A. A. Abdiyev, N. F. Ishonqulov kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu olimlarning darslik va o'quv qo'llanmalari oliy o'quv yurtlari talabalari uchun iqtisodiy tahlil fani bo'yicha asosiy o'quv quroli bo'lib qo'llanilib kelinmoqda.

Yaratilgan o'quv adabiyotlari orasida A. V. Vahobov, A. T. Ibrohimov, N. F. Ishonqulov tomonidan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligi alohida o'rinni egallaydi, chunki u «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlar talablariga to'liq mos holda tayyorlangan.

Samarqandlik olimlardan iqtisodiy tahlil fani bo'yicha o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda professor I. T. Abdukarimov va professor M. Q. Pardayevning xizmati kattadir. Professor M. Q. Pardayev tomonidan yaratilgan «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligi hozirgi paytda O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarining «Iqtisodiyot», «Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishlari talabalari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida foydalanib kelinmoqda.

1.2. Bilish nazariyasi va tahlil

Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat va jamiyatni hamda o'zini-o'zi o'zgartiradi. Inson, uning ongi va bilimi to'g'risidagi fanlar orasida falsafaning maxsus bo'limi «Gneseologiya» muhim o'rinni egallaydi.

Gneseologiya umumiy bilish nazariyasi bo'lib hisoblanadi, ya'ni buni «Bilish falsafasi» deb ham atashadi.

«Gneseologiya» yunoncha so'z bo'lib, «gnosis» – bilish, «logos» – nazariya ma'nosini anglatadi. Demak, gneseologiya – bilish nazariyasi, bilish to'g'risidagi ta'limot ma'nosini bildiradi.

«Olam va odam» tizimida dunyoni anglash, subyekt va obyektlar orasidagi munosabatlar dialektikasi «Bilish nazariyasi» orqali namoyon bo'ladi. Bilish nazariyasi orqali jamiyatda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlarning o'zaro aloqasi va bog'liqligi, harakati va o'zgarishi o'rganiladi, baho beriladi hamda ular orasidagi qonuniyatlar ochilib, xulosalar chiqariladi. Demak, hodisa va jarayonlar o'zaro bog'liqlikda, o'zgarishda, rivojlanish va taraqqiy etishda ekanligi hamda biror-bir qotib qolgan jarayon yo'qligi ushbu nazariya orqali isbotlangan.

Bilish nazariyasi barcha fanlar uchun ham nazariy, ham uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlil fani va, shu jumladan, uning asosiy turlaridan biri bo'lgan «Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili» fani ham o'z faoliyatida dialektikaning barcha jarayonlar va hodisalar uzviy bog'liqlik va aloqada, doimiy harakat va o'zgarishda, rivojlanish va taraqqiyotda degan tamoyillariga asoslanadi, shuning uchun u ham barcha ishlab chiqarish tarmoqlarida va shu jumladan qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, harakatda va doimiy o'zgarishda deb qaraydi.

Iqtisodiy tahlil jamiyatda va shu jumladan korxonalar faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning o'zaro bog'liqligini, harakati va o'zgarishini chuqur o'rganish asosida ular orasidagi qonuniyatlarni ochadi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqaradi.

1.3. Korxonalar faoliyatining tahlili fanining mazmuni, predmeti va vazifalari

Tahlil yunoncha – «analisis» so'zidan olingan bo'lib, ajratish, bo'laklash, parchalash kabi ma'nolarni anglatadi. To'liqroq qilib aytganda, u makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyotda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlarni bo'laklarga, qismlarga bo'lib va ajratib o'rganishni bildiradi.

Qism va bo'laklarga ajratishda hodisa va jarayonlarning umumiylik, birlik va bog'liqlik xususiyatlari saqlanib qolishi kerak. Korxona faoliyatini maqsadli, tezkor, joriy va istiqbolli o'rganish asosida uning holatiga har taraflama baho berish tahlilning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil ham har qanday fan kabi o'zining predmetiga va metodiga egadir. ***Iqtisodiy tahlil fanining predmeti*** bo'lib, xo'jalik faoliyatida obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarilgan paxta, g'alla, sabzavot kabi mahsulotlar miqdorining o'zgarishi, ularning tannarxi yoki ularni sotishdan ko'rilgan foyda va boshqa shular kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilning predmetiga misol bo'la oladi. Boshqacha aytganda, shular va shularga o'xshash ta'minot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatda sodir bo'lgan jarayonlarning natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni, ularning o'zgarishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini o'rganish hamda mavjud imkoniyatlarni aniqlash korxonalar faoliyatining tahlili fanining predmetidir.

Iqtisodiy tahlilning predmetida omillar muhim o'rinni tutadi, chunki xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, yuzaga kelmaydi, balki ular qandaydir obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida paydo bo'ladi. Obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini boshqa fanlar o'rganmaydi, bularning ta'siri faqat iqtisodiy tahlil fanida o'rganiladi, shuning uchun ham ular iqtisodiy tahlil predmetining asosini tashkil qiladi. Shu bois ham iqtisodiy tahlil fani predmetining negizida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillarni o'rganish lozimligi qayd qilinishi bejiz emas.

Har qanday fan kabi tahlil fani ham o'z obyektiga ega. Obyekt ushbu fanning predmeti qayerlarda mujassamlanganligini va amalga oshishini ko'rsatadi. Tahlil fanining obyektiga qishloq xo'jalik korxonalari, ya'ni shirkat, fermer va boshqa xo'jaliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Makon va zamonning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, fanning predmeti o'zgarmasdan qoladi, obyekti o'zgarib turishi mumkin. Masalan, paxta ishlab chiqarish dinamikasining o'zgarishini olaylik. Bu ko'rsatkich tahlilning predmeti bo'lib hisoblanadi. Paxta ishlab chiqarish qaysi davrda sodir bo'lmasin, qaysi xo'jalikda ishlab chiqarilmasin, xo'jaliklarning turi va shaklidan qat'iy nazar, paxta o'zgarmasdan paxtaligicha qoladi. Shunga o'xshash barcha mahsulotlar va ular bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar ham xuddi shunday. Demak, ushbu ko'rsatkichlar tahlilning predmeti sifatida o'zgarmasdan qoladi. Paxta va boshqa mahsulotlar ilgari sovxoz va kolxozlarda ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi davrda ular o'rniga kelgan, ham shaklan, ham mazmunan o'zgargan shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklarida

ishlab chiqarilmoqda. Ular ham, bular ham tahlilning obyektidir. Demak, tahlil obyekti makon va zamon bo'yicha o'zgarib turishi mumkin ekan. Shuning ham tahlil predmeti va obyektini bir-biridan farqlash zarur.

Endi, hurmatli talaba, o'zingiz tahlilning predmeti va obyektini quyidagi ma'lumotlardan foydalanib va mustaqil fikrlab, aniqlang va tasvirlang, chunki bularni yaxshi o'zlashtirish fanning mazmunini yaxshi o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, hisobot va bazis yillarida tumanning fermer xo'jaliklarida paxta, g'alla va boshqa mahsulotlar, qorako'lchilik shirkat xo'jaliklarida jun, go'sht, qorako'lteri va boshqa mahsulotlar yetishtirilgan, ularni ishlab chiqarish uchun ma'lum hajmdagi moddiy va pul mablag'lari sarflangan. Shu ma'lumotlardan qaysi ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilning predmetini, qaysilari uning obyektini ifodalaydi. Shularni aniqlang, mazmunini bayon qiling.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi nimadan iborat?

Iqtisodiy tahlilning maqsadi – xo'jalik faoliyati barcha tomonlarining natijalarini, birinchi navbatda, uning zaif va oqsoq tomonlarining natijalarini chuqur tahlil qilib, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga jalb qilish asosida sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish hamda samaradorligini oshirish yo'llarni ko'rsatishdan iborat.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va samaradorligini oshirish masalasiga davlatimiz va hukumatimiz rahbarlari tomonidan har doim katta e'tibor berib kelinmoqda. ***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «Biz bugun faoliyatimizga xolisona va oshkora baho berishimiz, ijobiy siljishlarni e'tirof etish bilan birga, eng muhimi, ishimizdagi zaif va oqsoq joylarni ham aniqlab, ularni bartaraf qilish choralarini belgilab olishimiz zarur»*** deb qayd qilgan edi. Demak, faoliyatimizdagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qilib, imkoniyatlarni o'z vaqtida aniqlash zarur. Imkoniyatlarni aniqlash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'raytirish va ularning sifatini oshirish, tannarx va mehnat sarfini kamaytirish, barcha resurslardan foydalanish samarasini oshirish, pirovard natija – foydani ko'paytirish oqibatida boshqaruv va moliyaviy faoliyatni mustahkamlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, har bir xo'jalik iqtisodiyotining, qolaversa, mamlakat milliy iqtisodiyotining mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilning asoslarni o'rganish ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu haqiqatni har bir talaba o'zining muqaddas burchi deb bilishi va o'zlashtirishi zarur.

Tahlilning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) korxonaning biznes rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;

2) biznes rejaning bajarilishi, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash;

3) har bir jarayon va hodisaga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblash va safarbar qilish;

4) mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatish;

5) xo'jalikning iqtisodiy va moliyaviy salohiyotiga, uning to'lovga qodirligiga baho berish va chora-tadbirlar ishlab chiqish.

1.4. Tahlil fanining metodi va unda qo'llaniladigan usullar

Metod qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib tabiat va jamiyatda sodir bo'lgan, bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulidir.

Tabiat va jamiyatda paydo bo'lgan va bo'ladigan hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlik va aloqa bo'ladi. Iqtisodiy jarayonlarning qaysi jihati o'rganilishidan qat'iy nazar, ularni bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda, aloqada deb qarash lozim. Bu jarayonlarga dialektika nuqtayyi nazaridan yondoshish, ya'ni barcha hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, aloqada va doimiy o'zgarishda, rivojlanishda deb qarash zarur. Bu ta'rif dialektika metodining mazmunini tashkil qiladi. Materialistik dialektika qonunlariga asoslangan holda iqtisodiy tahlilda o'ziga xos maxsus usullar ishlatiladi. Mazkur usullar yig'indisi iqtisodiy tahlil metodi deb ataladi. Uni to'liqroq quyidagicha ta'riflash mumkin. **Iqtisodiy tahlil fanining metodi,** uning predmetini makon va zamonda iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida har tomonlanma majmuaviy o'rganish va tahlil etishda qo'llaniladigan usullar majmuyidan iboratdi. Tahlilning metodi uning predmetini qanday o'rganamiz degan savolga javob berishi kerak. Ma'lum miqdordagi usullardan foydalanish orqali tahlil predmetining holati va uning o'zgarishi o'rganiladi. Masalan, solishtirish, nisbiy miqdorlar, o'rtacha miqdorlar, indeks, zanjirli bog'lanish, ko'rsatkichlar farqi va boshqa usullarni qo'llash orqali tahlil predmeti o'rganiladi. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar, o'z navbatida, iqtisodiy-statistik va iqtisodiy-matematik usullarga bo'linadi. Keng tarqalgani iqtisodiy statistik usullardir. Bularga solishtirish, farqlash, guruhlash, zanjirli bog'lanish, indeks kabi usullarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullar ham keng qo'llaniladi. Shular jumlasiga korrelatsiya, dispersiya, integral usullarini ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy-matematik usullarni qo'llash asosida:

iqtisodiy tahlilni bajarish muddati tezlashadi;

o'zgarishlar va ularning ta'sirini aniq hisoblash mumkin bo'ladi;

oddiy, an'anaviy usullar bilan hisoblab bo'lmaydigan murakkab omillar va ko'p omilli ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish imkoni tug'iladi;

hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va hokazo.

Endi quyida iqtisodiy tahlilda ko'proq qo'llaniladigan iqtisodiy-statistik usullarning mazmuniga to'qtalamiz.

Ko'rsatkichlar farqi usuli. Hodisa va jarayonlar orasidagi bog'liqlik funksional bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, natija ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash uchun ta'siri aniqlanayotgan omillar orasidagi farqni qolgan omillarning miqdoriga ko'paytirish kerak. Iqtisodiy hodisaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni, o'z navbatida, ikki guruhga, ya'ni miqdoriy va sifatiy omillarga bo'lib o'rganiladi.

Agar hodisaning (natijaning) o'zgarishiga ikki omil ta'sir qilsa, ularning ta'siri quyidagi tartib bo'yicha aniqlanadi.

Natijaning o'zgarishiga miqdoriy omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi miqdoriy omil bilan bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) miqdoriy omil orasidagi farqni bazis davridagi yoki (rejadagi) sifatiy omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga xodimlar soni o'zgarishining ta'sirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin:

$$(T_1 - T_0) \cdot P_0 = \pm \Delta T,$$

bunda: T_1 – hisobot yilidagi xodimlar soni; T_0 – bazis davridagi (yoki rejadagi) xodimlar soni; P_0 – bazis davridagi (yoki rejadagi) 1 xodimning o'rtacha ish haqisi.

Natijaning o'zgarishiga sifatiy omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi sifatiy omil bilan bazis davridagi sifatiy omil orasidagi farqni hisobot davridagi miqdoriy omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga o'rtacha ish haqi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin:

$$(P_1 - P_0) \cdot T_1 = \Delta P,$$

bunda: P_1 – hisobot yilidagi bir xodimning o'rtacha mehnat haqisi.

U yoki bu jarayon natijasining o'zgarishiga bir necha miqdoriy va bir necha sifatiy omillar ta'sir qilgan taqdirda ham yuqoridagi qoidaga amal qilib, ularning ketma-ket joylashishi bo'yicha ta'siri aniqlanadi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga quyidagi uchta omil:

1) ishlovchilarning o'rtacha yillik soni (T);

2) bir ishlovchiga to'g'ri keladigan kishi-soatlar soni (Z);

3) bir kishi-soat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat haqi darajasi (*3*). ta'sir qilsa, bu omillarning ko'paytmasi ish haqi fondi hajmiga teng bo'ladi:

$$\sum T\ Z\ 3.$$

Bulardan birinchi ko'rsatkich miqdoriy omil (*T*), ikkinchi va uchinchi ko'rsatkichlar sifatiy omillar bo'lib hisoblanadi.

Demak, birinchi navbatda miqdoriy omil ta'siri, keyin sifatiy omillar ta'siri navbati bilan (ketma-ketlik saqlangan holda) aniqlanadi, ya'ni quyidagi tartibda aniqlanadi:

1) mehnat haqi fondining o'zgarishiga xodimlar soni o'zgarishining ta'siri:

$$(T_1 - T_0) \cdot Z_0 \cdot 3_0 = \pm \Delta T;$$

2) mehnat haqi fondining o'zgarishiga bir ishlovchiga to'g'ri keladigan kishi-soatlar sonining o'zgarishining ta'siri:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot T_1 \cdot 3_0;$$

3) bir kishi-soat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat haqi darajasining o'zgarishining ta'siri:

$$(3_1 - 3_0) \cdot T_1 \cdot Z_1.$$

Ushbu 3 omil ta'sirlarining yig'indisi natijaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

Zanjirli bog'lanish usuli. Mazkur usul ham ko'rsatkichlar farqi usuli kabi o'rganilayotgan jarayonni ifodalovchi ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish, ya'ni natija bilan omillar orasidagi bog'lanish funksional xarakterga ega bo'lgan taqdirda ishlatiladi. Bu usulda har bir ta'sir etuvchi omilning natijaga ta'sirini aniqlash yo'li uslubiy ketma-ketlikka ega. Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdagi uslubiy ketma-ketlik tamoyili shundan iboratki, rejadagi yoki o'tgan yildagi ko'rsatkichlarni hisobot ko'rsatkichlari bilan navbatli almashtirishni to'g'ri belgilash bo'lib hisoblanadi. Rejadagi yoki o'tgan yildagi omilli ko'rsatkichlarni almashtirishda miqdor va sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor beriladi. Ko'rsatkichlarni qatorlashda dastlab miqdor ko'rsatkichlar, so'ngra sifat ko'rsatkichlar joylashtiriladi. Boshqacha aytganda, dastlabki qatordagi qo'rsatkichlar haqiqiy qatordagi ko'rsatkichlar bilan navbati bilan joy almashib, oxirgi qatordagi haqiqiy ko'rsatkichlar holatiga keltiriladi. Bunda 1-qator ko'rsatkichlar har doim bazis yilidagi (rejadagi) ko'rsatkichlarni ifodalaydi. 1-qator bilan oxirgi qator oralaridagi qatorlar «shartli ko'rsatkichlar» bo'lib hisoblanadi. Yonma-yon turgan qatorlar orasidagi o'zgarish natijaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi bir omilning ta'sir darajasini ko'rsatadi. Omillar ta'sirlarining yig'indisi har doim umumiy o'zgarishga (natijaning o'zgarishiga) teng kelishi kerak.

Buni ish haqi fondini tahlil etish uslubi misolida ko'rib chiqamiz. Ish haqi fondining o'zgarishiga 3 omil ta'sir qiladi:

1) ishlovchilarning o'rtacha yillik soni (T) ning o'zgarishi;

2) 1 ishlovchining o'rtacha yillik ishlagan kishi-soatlar (Z) ning o'zgarishi;

3) 1 kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi ($З$) ning o'zgarishi.

Ushbu omillarning o'zaro ko'paytmalarining yig'indisi ish haqi fondining hajmiga teng bo'ladi:

$$T \cdot Z \cdot З = \sum T\, Z\, З.$$

Ish haqi fondining umumiy o'zgarishi: $\sum T_1 Z_1 З_1 - \sum T_0 Z_0 З_0 = \pm \Delta TZ З$.

Ish haqi fondining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari (ya'ni ish haqi fondi ko'rsatkichlari) aniqlanib olinadi:

1) $\sum T_0 Z_0 З_0$ – bazis davridagi ish haqi fondi;

2) $\sum T_1 Z_0 З_0$ – 1-shartli ish haqi fondi;

3) $\sum T_1 Z_1 З_0$ – 2-shartli ish xaqi fondi;

4) $\sum T_1 Z_1 З_1$ – hisobot davridagi ish haqi fondi.

Shundan so'ng ish haqi fondining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi:

1) xodimlar soni o'zgarishining ta'siri:

$$\sum T_1 Z_0 З_0 - \sum T_0 Z_0 З_0 = \pm \Delta T;$$

2) 1 ishchining ishlagan kishi-soatlari o'zgarishining ta'siri:

$$\sum T_1 Z_1 З_0 - \sum T_1 Z_0 З_0 = \pm \Delta Z;$$

3) 1 kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\sum T_1 Z_1 З_1 - \sum T_1 Z_1 З_0 = \pm \Delta З.$$

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi ish haqi fondining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Shundan so'ng omillar ta'sirini umumlashtirib, natija o'zgarishiga baho beriladi, imkoniyatlar ko'rsatiladi.

Balansli bog'lanish usuli. Bu usul ham korxona faoliyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisa va jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish funksional bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Ushbu usul yordamida moddiy va mehnat resurslari, korxona pul mablag'lari kirimi va chiqimi, daromad va xarajatlarning balansini tuzib va uning ma'lumotlarini o'zaro bog'lab tahlil qilinadi. Bu usul korxonalarning moliyaviy faollyatini tahlil etishda ham keng qo'llaniladi.

Bu usulga misol qilib, qo'yidagi tengliklarni ko'rsatish mumkin:

Aktivlar = Kapital + Majburiyatlar;

Kapital = Aktivlar – Majburiyatlar;

Majburiyatlar = Aktivlar – Kapital.

Mazkur bog'lanishlar korxona mulki va uning tashkil topish manbasining o'zaro tengligini bildiradi. Xuddi shu bog'lanishni oziqa balansini tuzishda ham, asosiy fondlar balansini tuzishda ham, mahsulotlar balansini tuzishda ham ko'rish mumkin. Masalan, asosiy fondlar balansini quyidagi ko'rinishda tuzish va ifodalash mumkin:

$$AF_1 + AK = ACh + AF_2,$$

bunda: AF_1 – asosiy fondlarning yil boshidagi qoldig'i; AF_2 – asosiy fondlarning yil oxiridagi qoldig'i; AK – asosiy fondlarning yil davridagi kirimi; ACh – asosiy fondlarning yil davridagi chiqimi.

Yoki tovarlar balansini quyidagi ko'rinishda tuzish va ifodalash mumkin:

$$TM_1 + IM + INO = SM + INK + TM_2;$$

bunda: TM_1 – tovar mahsulotining yil boshidagi qiymati bo'yicha qoldig'i; IM – ishlab chiqarilgan tovar mahsulot qiymati; INO – inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha mahsulot qiymati; SM – sotilgan tovar (mahsulot) hajmi; INK – inventarizatsiyada aniqlangan kamomad hajmi; TM_2 – tovar mahsulotining yil oxiridagi qiymati bo'yicha qoldig'i.

Bu formuladan foydalanib, har bir miqdorni qolganlarining algebraik yig'indisi ko'rinishida tasvirlash mumkin. Masalan, sotilgan tovarlar hajmini quyidagi funksional, ya'ni bevosita bog'liqlikda ifodalash mumkin:

$$SM = TM_1 + IM + INO - INK - TM_2.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, sotilgan tovarlar hajmiga beshta omil ta'sir qiladi.

Indeks usuli. Iqtisodiy tahlil fanida statistika fanining bir qancha usullaridan foydalaniladi. Shulardan biri indeks usulidir. U ko'p qirrali mavzudir. Biz bu yerda uning omilli tahlilda qo'llanilishini ko'rib chiqamiz. Bu usul ham iqtisodiy jarayonlar orasidagi bog'liqlik bevosita funksional bo'lgan taqdirda, ya'ni natija o'zgarishi omillar ta'sirlarining yig'indisiga teng bo'ladigan bog'liqlik ro'y berganda qo'llaniladigan usuldir. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga, yoki ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishiga, yoki mehnat sarfi hajmining o'zgarishiga, yoki boshqa natijaviy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga miqdor va sifat omillarining ta'sirini mazkur usuldan foydalanib aniqlash mumkin.

SAMARQAND ... INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 46136

Biz bu bo'limda sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishini indeks usuli yordamida tahlil qilish uslubini ko'rib chiqamiz.

Sotilgan mahsulot hajmining (Q) o'zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (p) bog'liqdir.

Sotilgan mahsulot hajmining rejaga yoki o'tgan yilga nisbatan omillar ta'siri ostida o'zgarishini mahsulot hajmining umumiy indeksidan foydalanib aniqlanadi:

$$I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0},$$

bunda: $\sum q_1 p_1$ – hisobot yilida sotilgan mahsulotlar hajmi (qiymati); $\sum q_0 p_0$ – bazis yilida sotilgan mahsulotlar hajmi (qiymati).

Ushbu indeks sotilgan mahsulot qiymati ikki omil ta'siri ostida necha foizga oshgan yoki kamayganligini ko'rsatadi.

Formulaning suratidan maxrajini ayirish orqali mahsulot hajmining bazis davriga nisbatan mutlaq o'zgarishi oshgan yoki kamayganligi aniqlanadi:

$$\sum q_1 p_1 - \sum q_0 p_0 = \Delta qp.$$

Bu o'zgarish kuyidagi ikki omil ta'sirida yuzaga kelgan:

1) sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi;

2) bir birlik mahsulot bahosining o'zgarishi.

Mahsulot hajmining o'zgarishiga mahsulot miqdorining ta'sirini mahsulot fizik miqdori umumiy indeksidan foydalanib aniqlanadi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}.$$

Bu indeks sotilgan mahsulot hajmining miqdoriy omil hisobiga necha foizga oshgan yoki kamayganligini bildiradi.

Suratidan maxrajini ayirish orqali mahsulot miqdori o'zgarishining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi, ya'ni shu omil hisobiga mahsulot hajmining necha ming so'mga ko'payganligi yoki kamayganligi kelib chiqadi:

$$\sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0 = \pm \Delta q.$$

Mahsulot hajmining o'zgarishiga baho o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun baho umumiy indeksidan foydalaniladi:

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}.$$

Bu indeks sotilgan mahsulot hajmining bahoning o'zgarishi hisobiga necha foizga oshganligini yoki kamayganligini bildiradi.

Suratidan maxrajini ayirish orqali mahsulot bahosi o'zgarishining sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi. Boshqacha aytganda, bahoning o'zgarishi hisobiga sotilgan mahsulot qiymati (summasi) necha ming so'mga ko'paygan yoki kamayganligi aniqlanadi:

$$\sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0 = \pm \Delta p.$$

Omillar ta'sirlarining yig'indisi sotilgan mahsulotlar umumiy hajmining o'zgarishiga teng kelishi kerak.

1.5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari va uning natijalarini rasmiylashtirish

Korxonalar xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) tahlil obyekti va predmetini tanlash va rejasini (dasturini) tuzish;
2) tahlil uchun zarur bo'lgan hisobot materiallarini yig'ish;
3) ma'lumotlarni tanlash, qayta ishlash va taqqoslash holatiga keltirish;
4) ko'rsatkichlarni taqqoslash, tahlil qilish, natijalarini baholash, o'zgarish sabablarini aniqlash va omillar ta'sirini hisoblash;
5) tahlil natijalarini umumlashtirish, xulosa va takliflar berish.

Tahlilning obyekti va predmetini tanlash va rejasini tuzish bosqichi xo'jalik nomi, tahlil mavzusi, o'tkazish muddatlari, ijrochilari, tahlil vazifalarini qamrab oladi.

Tahlilning ikkinchi bosqichi tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni o'zaro bog'liqligini, haqqoniyligini tekshirib ko'rish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Tahlilning uchinchi bosqichida ko'rsatkichlarni tanlash, qayta ishlash, ular orasidagi bog'liqlikni belgilash, tahliliy jadvallar tuzish, ma'lumotlar bazasini taqqoslash holatiga keltirish vazifasi bajariladi.

Tahlilning to'rtinchi bosqichida ko'rsatkichlarni taqqoslash va tahlil qilish asosida xo'jalikning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatiga baho beriladi. Biznes rejaning bajarilishi o'rganiladi. Qo'rsatkichlar dinamikasi tahlil etiladi. Erishilgan natijalar, ularning o'zgarish sabablari, omillarning ta'sir etish doiralari hajmi tahlil qilinadi.

Tahlilning yakuniy bosqichida tahlilning natijalari umumlashtirilgan holda rasmiylashtiriladi, taklif va tavsiyalar beriladi. Tahlil yakuni qisqa, lo'nda, tushunarli tarzda bayonnoma, ma'lumotnoma shaklida ifoda etiladi.

Tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim yakuniy bosqichi bo'lib hisoblanadi. Ushbu bosqichda tahlil natijalari umumlashtirilgan holda rasmiylashtiriladi. Tahlil natijalarini umumlashtirishda o'zaro ta'sir va uslubiy ketma-ketlik asosida korxona biznes-rejasining bajarilishi, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari hamda tadbirkorlik faoliyatidan foydalanish darajasiga

baho beriladi. Xo'jalik faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning sabablari, ichki imkoniyatlar va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Umumlashgan tahliliy ma'lumotlar korxona faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, istiqbolli reja topshiriqlarini belgilashning zaruriy asosi sifatida alohida bayonnoma va izohlar tarzidagi qisqa, lo'nda va tushunarli qilib yoritilishi lozim.

Bayonnoma ma'lumotlarining haqqoniyligi ko'p jihatdan hisob-kitob ishlarining hamda iqtisodiy tahlilning qay darajada yo'lga qo'yilganligiga va tahlil etuvchining kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Odatda, korxona faoliyatining natijasi yuzasidan umumiy xulosa – tavsifnoma mazkur korxona ma'sul xodimlari tomonidan tuziladi va tahlil natijalari yuzasidan tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib, korxona rahbariga, mulkdorlarga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatlarga olib kelganligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar uchun kimlar aybdor ekanligi ochiq-oydin ko'rsatilishi lozim, chunki bu tadbir kelajakda mazkur shaxs va boshqa ma'sul shaxslarning kamchilikka yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

1.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Tahlil, iqtisodiy tahlil, tahlil predmeti, tahlil obyekti, obyektiv omillar, subyektiv omillar, tahlil metodi, tahlil usullari, farqlash usuli, zanjirli bog'lanish usuli, indeks usuli, balansli bog'lanish usuli.

Takrorlash uchun savollar

1. Tahlil so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Iqtisodiy tahlil predmeti bo'lib nima hisoblanadi?
3. Iqtisodiy tahlil fanining obyekti deganda nima tushuniladi?
4. Iqtisodiy tahlilning qanday usullarini bilasiz?
5. Iqtisodiy tahlilda qanday iqtisodiy-matematik usullar qo'llaniladi?
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Iqtisodiy tahlilning maqsadi nimalardan iborat?
8. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari.
9. Tahlil natijalarni rasmiylashtirish tartibini tushuntiring.
10. Ko'rsatkichlar farqi usulining mazmunini tushuntiring.
11. Zanjirli bog'lanish usulining mazmun-mohiyatini bayon qiling.

MASHQ

Asosiy matnda keltirilgan «Ko'rsatkichlar farqi» usulini qo'llab, bug'doy yalpi hosili dinamikasini tahlil qiling va uni yanada ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsating. Buning uchun quyidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalaning

Fermer xo'jaligida yetishtirilgan bug'doy bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
Ekin maydoni, ga	50	55	+ 5
Hosildorligi, s/ga	40	38	– 2
Bug'doy yalpi hosili,	?	?	?

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang va tahlil qiling:

1) bazis va hisobot yillari uchun bug'doy yalpi hosili miqdorini va uning o'zgarishini;
2) bug'doy yalpi hosili miqdorining o'zgarishiga:
   a) bug'doy maydoni o'zgarishining ta'sirini;
   b) bug'doy hosildorligi o'zgarishining ta'sirini.
3) omillar ta'siriga baho berib, yalpi hosilni ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsating.

XULOSALAR

Rejalashtirilgan asosiy masalalar: fanning mazmuni, ahamiyati, maqsadi, vazifalari, predmeti va unda qo'llaniladigan asosiy usullarning mazmun-mohiyati ushbu bobda yoritildi. Bu masalalarni yaxshi o'zlashtirib olish kelajakda fanni to'liq o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratadi. Shuning uchun, bu masalalarni ham nazariy, ham uslubiy jihatdan bilib olish maqsadida mavzuni darslik bo'yicha o'qish hamda unda keltirilgan savollarga javob tayyorlash va mashqni mustaqil bajarish zarur. Shunday yondoshilgan taqdirda, mavzuni yaxshi o'zlashtirib olish mumkin.

2-bob. QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HAJMINING HAMDA ULARNING O'ZGARISHIGA OMILLAR TA'SIRINING TAHLILI

O'QUV MAQSADI

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati, maqsadi, vazifalari, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimining mazmuni hamda ular bo'yicha omilli tahlilning mazmun-mohiyatini yoritish mavzuning *ta'limiy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Talab va taklif tahlilining mazmun-mohiyati va ahamiyatini bozor iqtisodiyoti va munosabatlari asosida tushuntirish orqali mahsulot ishlab chiqarish holatini bozor talabiga mos holda tashkil etish g'oyasini talaba ongiga singdirish mavzuning *tarbiyaviy o'quv maqsadini* ifodalaydi.

Talab va taklifning tahlilini yanada samarali uyushtirish uchun marketing tahlilini takomillashtirish zarur. Shu kunga qadar marketing tahlilining takomillashgan usullari ishlab chiqilgan emas. Talab va taklif muammolarini yetarli darajada ijobiy hal qilish uchun ularni tahlil etish usullarini tamomillashtirish mavzuning *rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* tashkil etadi.

2.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifning tahlili

2.1.1 Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida marketing faoliyatini o'rganish katta ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, avvalo, bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti, marketing, talab va taklif tushunchalarining qisqacha mazmunini o'zlashtirib olish zarur.

Bozor munosabatlari deganda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tushuniladi. Oldi-sotdi xususida tovar va pul egalari o'rtasida shunday iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladiki, ularning aniq ijro etuvchilari bo'lib korxona va tashkilotlar hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti deganda tovar, pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisod tushuniladi. Shunday qonunlar tarkibiga «Talab va taklif qonuni» va «Pul muomalasi qonuni» kiradi. Bu qonunlar bozor munosabatlari jarayonida amal qiladi. Bozorda talab oshsa, bahoni ham oshiradilar, agar talab pasaysa, bahoni ham tushiradilar. Xullas, bozor munosabatlari bozor iqtisodiyoti tushunchasi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, uning bag'rida o'z ifodasini topadi.

Marketing hizmati qancha yaxshi yo'lga qo'yilsa, ishlab chiqarish shuncha samarali tashkil qilinadi va foyda shuncha ko'payadi.

Marketing deganda nima tushuniladi? Marketing deganda bozor holatini chuqur o'rganish asosida tovar ishlab chiqarishni va uni sotishni samarali tashkil etish hamda foyda topishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Marketing orqali moddiy ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif o'rganiladi.

Talab deganda nima tushuniladi? Talab – to'lovga qodir ehtiyojdir. Xaridorlarning moddiy ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji bozorda namoyon bo'ladi. Ushbu ehtiyojni ular to'liq qondira olishi ham mumkin, qondira olmasligi ham mumkin. Agar puli yetarli bo'lsa, ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira oladi, agar puli kam bo'lsa, faqat bir qismini qondira oladi. **Ehtiyojning qondirilgan qismini, ya'ni ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismini talab deb tushunish kerak.** Demak, talab – bozorda moddiy nematlar va xizmatlarga nisbatan namoyon bo'lgan ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismidir.

Taklif deganda nima tushuniladi? Taklif deganda ishlab chiqaruvchining bozorga sotish uchun taklif etadigan ne'matlari va xizmatlari hajmi tushuniladi.

Talab va taklif qonuni – bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunidir. Talab qonuni baho bilan talab o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Baho pasayishi talab hajmining o'sishiga, bahoning oshishi esa talab hajmining kamayishiga olib keladi. Ana shu bog'liqlik talab qonunining mazmunini ifodalaydi.

Baho bilan taklif orasidagi bog'liqlikni taklif qonuni ifodalaydi. Narxning o'sishi taklif hajmining o'sishiga, uning pasayishi taklif hajmining qisqarishiga olib keladi. Ushbu bog'liqlik taklif qonuni deyiladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni marketing orqali o'rganish katta ahamiyatga ega, chunki u orqali qanday mahsulotlarni ishlab chiqarish va har biridan qancha ishlab chiqarish zarurligi belgilanadi, bu esa korxona iqtisodiyotini mu'tadil rivojlanib borishiga va foyda bilan faoliyat ko'rsatishiga sababchi bo'ladi.

Talab va taklifni o'rganishning asosiy maqsadi bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan bozordagi ehtiyojni pul mablag'lari bilan ta'minlash darajasini oshirish hamda xaridorgir qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va ularning sifatini oshirish hamda mo'may foyda ko'rish imkoniyatlarni ko'rsatish hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda talabni tahlil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) bozorning alohida tovarlar bo'yicha to'yinganlik darajasini o'rganish;
2) tovarlar narxining o'zgaruvchanlik darajasining holatini o'rganish;
3) bozorning tovarlar bilan ta'minlanganlik darajasining yaqin va uzoq oraliqda o'zgaruvchanlik ehtimolini aniqlash;
4) muvozanatlashgan baho va muvozanatlashgan miqdorlardagi tovarlar dinamikasini o'rganish.

2.1.2. Talab va taklif hajmlari hamda ularning o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Iqtisodiyotda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisalar va jarayonlar ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Mazkur jarayonlar natijalari ko'rsatkichlar tariqasida o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, ular qandaydir omillar ta'siri ostida yuzaga keladi, paydo bo'ladi va o'zgaradi. Bozorda sodir bo'layotgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va ularning taklifi ham ma'lum bir omillar ta'siri ostida yuzaga keladi.

Mahsulotlarga bo'lgan talab hajmining shakllanishi va o'zgarishi taqriban quyidagi omilli ko'rsatkichlar ta'siri ostida yuzaga keladi:

1) shu tovar narxining o'zgarishi;
2) boshqa tovarlar (o'rnini bosadigan tovarlar) narxining o'zgarishi;
3) iste'molchilar pul daromadi miqdorining o'zgarishi;
4) xaridorlar soni, didi va istagining o'zgarishi;
5) talab hajmini belgilovchi boshqa omillarning o'zgarishi.

Bu omillar orasida eng muhimlari bo'lib, sotib olinayotgan tovarlar bahosining hamda iste'molchilar pul daromadlari hajmining o'zgarishi hisoblanadi.

Sotib olinayotgan tovarlar bahosi bilan talab o'rtasida bilvosita bog'liqliq mavjud. Tovarlar bahosining pasayishi talab hajmining o'sishiga, bahoning ko'tarilishi esa talab hajmining pasayishiga olib keladi. Masalan, mol go'shtiga bahoning pasayishi xaridor daromadining sotib olish quvvatini to'ldiradi va u oldingiga nisbatan ko'proq hajmda mol go'shti sotib oladi. Ana shu bog'liqlikka talab qonuni deyiladi. Talab bilan iste'molchilar pul daromadlari hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Iste'molchilar pul daromadi hajmining oshishi talab hajmining oshishiga, kamayishi esa talab hajmining kamayishiga olib keladi.

Talab hajmi deganda nima tushuniladi? «Talab hajmi» deganda iste'molchilar ma'lum baho bo'yicha vaqt birligi (kun, oy, yil) ichida sotib olishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori, ya'ni ma'lum miqdordagi tovarlarni xarid qilish uchun bo'lgan ehtiyoj tushuniladi.

Mahsulotlarga bo'lgan taklif hajmi va uning o'zgarishi ham ko'p omilli ko'rsatkichlar ta'siri ostida o'zgaradi. Bularga taqriban quyidagilarni kiritish mumkin:

1) taklif etiladigan tovarlar bahosining o'zgarishi;
2) tovar ishlab chiqaruvchilar sonining o'zgarishi;
3) resurslarga baholarning (ishlab chiqarish omillari baholarining) o'zgarishi;
4) ishlab chiqarish texnologiyasidagi o'zgarishlar;
5) soliq va subsidiyalar hajmining o'zgarishi;
6) boshqa tovarlarga bo'lgan bahoning o'zgarishi. Masalan, mol go'shtiga bo'lgan bahoning pasayishi qo'y go'shtining taklifini oshiradi. Shu ko'rsatkichlar orasida taklif hajmiga kuchli ta'sir etuvchi omilli ko'rsatkich bo'lib, tovarning bozordagi sotish bahosi hisoblanadi.

Bahoning o'sishi taklif hajmining ortishiga olib keladi, aksincha, bahoning pasayishi taklif hajmining qisqarishiga sabab bo'ladi. Taklif hajmi bilan tovar bahosi orasidagi ushbu o'ziga xos bog'liqlik taklif qonuni deyiladi.

Taklif hajmi deganda nima tushuniladi? «Taklif hajmi» deganda sotuvchi, sotuvchilar guruhi ma'lum narxda va vaqt birligi ichida sotmoqchi bo'lgan ma'lum turdagi mahsulotning miqdori tushuniladi.

Taklif hajmining o'zgarishi deganda nima tushuniladi? Sotiladigan tovar narxining o'zgarishi natijasida taklif hajmining ortishi yoki kamayishi tushuniladi. Masalan, kartoshka narxining ko'tarilishi uning taklifini oshiradi, uning bahosining pasayishi esa kartoshka taklifini qisqartiradi.

2.1.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklif hajmining omilli tahlili

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin korxonalarning erkin holda faoliyat yuritishi uchun katta imkoniyatlar yaratib bergan, ya'ni mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish yo'nalishlarini o'zlari belgilashi uchun erkin shart-sharoitlar yaratgan ko'plab qonunlar qabul qilindi. Xullas, korxonalarning xaridorgir sifatli mahsulotlar ishlab chiqarib va sotib, katta daromad olishlari asosida iqtisodiyotini rivojlantirish o'z harakatlariga bog'liq bo'lib qoldi. Shuning uchun ham har bir korxona marketing xizmati orqali bozordagi talab va taklif holatini chuqur o'rganishi hamda mahsulot ishlab chiqarishni barqaror yo'lga qo'yishi zarur. Buning uchun talab va taklifni uzluksiz ravishda omillar ta'siri ostida tahlil qilib turmog'i zarur. Shunday qilingan taqdirda talab va taklifning hajmini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Mahsulotga bo'lgan talabni tahlil etishning asosiy maqsadi bo'lib, mahsulotga bo'lgan talabning hajmini aniqlash hisoblanadi. Talab hajmi qandaydir omillar hisobiga ortishi ham mumkin, kamayishi ham mumkin. Bu holatlarni chuqur tahlil qilish katta ahamiyatga egadir.

Bozor muvozanatining muhim elementi bo'lgan talab va taklifni kuzatish hamda uning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash asosida korxonaning ishlab chiqarish sur'ati va uning tuzilishiga baho beriladi. Korxonaning ishlab chiqarish sur'ati talab darajasiga bog'liq bo'ladi. Talab hajmi oshgan sayin ishlab chiqarish ham o'sib boradi. Shuning uchun bozordagi talabni chuqur o'rganish zarur. Talab – iste'molchilar tomonidan ma'lum baho bo'yicha sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdoridir, ya'ni ehtiyojini mavjud puli hisobiga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar bilan qondirilgan qismidir. Talab hajmiga ko'p omillar ta'sir etadi, bular yuqorida 2.1.2-bandda omilli ko'rsatkichlar sifatida qayd qilingan edi, ya'ni bularga quyidagilar kiradi: taklif etilayotgan tovarlar bahosi, uning sifati, xaridorlarning pul daromadlari, xarid qobiliyati, o'rnini bosadigan tovarlar bahosi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi hamda jamg'armalar bo'yicha stavkalarining o'zgarishi kabi omillar.

Talab hajmi bilan omillar orasidagi bog'liqlikning tahlilini E. Egamberdiev darsligida (2005-yil) keltirilgan formuladan foydalanish orqali ta'riflash va tavsiflashni ma'qul ko'rdik.

Talab hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini quyidagi talab funksiyasi orqali ifodalash va tahlil etish mumkin:

$$Q_{da} = f(P_A, P_B, ..., P_3, I, ...T)$$

bunda: P_A – shu tovarning narxi; $P_B, ..., P_3$ – boshqa tovarla narxi; I – pul daromadlari; T – xaridorlarning didi; ... – talab hajmini belgilovchi boshqa omillar.

Agar shu tovarning bahosidan tashqari talab hajmini belgilovchi boshqa jami omillar o'zgarmas deb olinsa, talab funksiyasi faqat bahoga bog'liqlik funksiyasiga teng bo'ladi:

$$Q_{da} = f(P_A).$$

Agar bozorda sotilayotgan tovarlar bahosi pasaysa, bu talab hajmining o'sishiga, aksincha, oshsa, talab hajmining kamayishiga olib keladi.

Talabning bahoga bog'liqligini quyidagi shartli misolda bilan ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Talab hajmining tovar bahosiga bog'liqligi

P_A (1 s kartoshkaning bahosi), so'm	Q_{sa} (talab hajmi, s)
15000	100
20000	75
30000	55

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 s kartoshkaning bozordagi bahosi oshgan sayin kartoshkaga bo'lgan talab miqdori kamayib borgan. 1 s kartoshkaning sotib olish bahosi 15 000 so'm bo'lganda, 100 s kartoshka sotilgan, uning narxi 20 000 so'mga chiqqanda (33% ga oshganda) 75 s ga sotilgan, narxi 30 000 so'mga chiqqanda esa bor-yo'g'i 55 s sotilgan.

Taklif hajmining o'zgarishi ham ko'p omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Omillar ta'sirini taklif funksiyasi orqali hisoblash mumkin. Ushbu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Q_{sa} = f(P_A, P_B, ..., P_3, K, J),$$

bunda: Q sa – A turdagi tovarga vaqt birligi ichidagi taklif hajmi; P_A – shu tovarning bahosi; $P_B, ..., P_3$ – boshqa tovarlarning baholari; K – qo'llaniladigan texnologiyaning xususiyati; J – soliq va subsidiyalar.

«Taklif funksiyasi» deganda nima tushuniladi? Taklif hajmining o'zgarishi (ortishi yoki kamayishi) omillarga bog'liqligi tushuniladi. Shu omillar orasida taklif hajmiga kuchli ta'sir qiluvchi omil bo'lib, tovarni sotish

bahosi hisoblanadi. Sotish bahosi oshsa, taklif hajmi ham oshadi. Agar pasaysa, taklif hajmi ham pasayadi. Ushbu tovar bahosidan tashqari barcha omillarning ta'sirini o'zgarmas deb qabul qilinsa, taklif hajmi faqat baho o'zgarishiga bog'liq bo'lib qoladi. Shunda baho oshishi taklif hajmining oshishiga olib keladi. Buni quyidagi shartli misolda ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Taklif hajmining bahoga bog'liqligi

P_A tovarning (1 s kartoshkaning) bahosi, so'm	Q_S da taklif miqdori (sotiladigan kartoshka miqdori), s
15000	55
20000	75
30000	100

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 s kartoshkaning bozor bahosi oshgan sayin, ishlab chiqarilib, sotish uchun mo'ljallangan kartoshka miqdori ham oshib boradi. 1 s kartoshka bahosi 15 000 so'm bo'lganda, 55 s kartoshka sotilgan, bahosi 20 000 so'm bo'lganda 75 s, bahosi 30 000 so'm bo'lganda esa 100 s kartoshka sotilgan.

Talab va taklifni tahlil qilish ham iste'molchilar, ham ishlab chiqaruvchilar manfaati nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi.

2.1.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Talab hajmi, talab funksiyasi, talab qonuni, tovar bahosi, talabga ta'sir qiluvchi omillar, taklif, taklif hajmi, taklif funksiyasi, taklif qonuni, taklif bahosi, muvozanat baho.

Takrorlash uchun savollar

1. Talab va ehtiyoj to'g'risida tushuncha bering.
2. Talab hajmi deb nimaga aytiladi?
3. Talab funksiyasi nima va u qanday aniqlanadi?
4. Talab qonunining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
5. Talab hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntiring.
6. Talab hajmining o'zgarishiga bahoning ta'sirini aniqlash tartibini tushuntiring.
7. Taklif to'g'risida tushuncha.
8. Taklif hajmi deganda nima tushuniladi?
9. Taklif hajmiga qanday omillar ta'sir qiladi?
10. Taklif qonunining mohiyati nimada?
11. Taklif hajmining bahoga bog'liqligini tushuntiring.

MASHQ

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, talab darajasi o'zgarishiga baho bering.

Talab darajasining tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
Xaridorlarning pul daromadlari, ming so'm	15000	16920	+ 1920
1 s go'shtning bozor bahosi, ming so'm	300	360	+ 60
Go'shtga bo'lgan talab miqdori, s.	50	47	– 3

Bu ma'lumotlardan foydalanib, go'shtga bo'lgan talab miqdorining o'zgarishiga bozor bahosi o'zgarishining ta'sirini hisoblang. Buning uchun qo'yidagilarni aniqlang:

1) bozor bahosining nisbiy o'zgarishini;

2) go'shtga bo'lgan shartli talab miqdorini (xaridorlarning o'zgarmas pul daromadi bilan o'zgaruvchan (hisobot yilidagi) baho negizida hisoblangan go'shtga bo'lgan talab miqdorini);

3) go'shtga bo'lgan talab miqdorining o'zgarishiga baho o'zgarishining ta'sirini;

4) baho o'zgarishining ta'siriga baho bering. Mazkur o'zgarish aholining turmush darajasiga qanday ta'sir qiladi? Ijobiy ta'sir qiladimi yoki salbiy ta'sir qiladimi, shuni ta'riflang.

XULOSALAR

O'quv dasturiga mos holda rejalashtirilgan savollar: talab va taklifni o'rganishning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, ularning hajmi va o'zgarishini ifodalovchi omilli ko'rsatkichlar tizimi hamda ularning omilli tahlili ushbu bobda yetarli darajada yoritildi. Mavzudagi masalalarni to'liq o'zlashtirib olishi uchun, talabaga darslik bo'yicha ularni o'qish hamda unda keltirilgan savollarga javob tayyorlash va berilgan mashqni mustaqil bajarish tavsiya etiladi.

2.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili

O'quv maqsadi

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni tahlilining ahamiyati, maqsadi va vazifalari, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ahvolining omilli tahlili, o'rtacha hosildorlik va o'rta mahsuldorlik darajasi tahlilining mazmun-mohiyatini yoritish *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish aholining va sanoatning o'sib borayotgan talabini qondirishda katta rol o'ynashligi to'g'risidagi g'oyani talabalar ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Mavzuni puxta va samarali bayon qilish uchun uning tarkibida o'z aksini topgan ayrim ko'rsatkichlarni tahlil etish usullarini takomillashtirish zarur. Shular jumlasiga o'rtacha hosildorlik va o'rtacha mahsuldorlik ko'rsatkichlarini omilli tahlil qilish usullari kiradi. Shu muammolarni hal etish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

2.2.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz xalq xo'jaligi tarmoqlari orasida eng muhim o'rinni egallaydi. U mamlakat aholisi uchun hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishning asosiy manbaidir.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishi ham ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining taraqqiyotiga bog'liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti va hukumati qishloq xo'jaligini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Qishloq xo'jaligi o'zida o'simlikchilik va chorvachilikni mujassamlashtirgan tarmoqdir.

O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish – aholining oziq-ovqat mahsulotlariga va sanoatning xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda, hamda davlat zahiralarini tashkil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlarini izlab topish va ularni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish choralarini ko'rish tahlilning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Tahlil o'z maqsadiga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishadi:

1) o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va uning o'zgarishiga baho berish;

2) o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi va uning o'zgarishining sabablarini omilli tahlil qilish;

3) hosildorlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari darajasi o'zgarishining sababini omilli tahlil etish;

4) ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishining ishlab chiqarish miqdori (hajmi)ning o'zgarishiga ta'sirining tahlilini amalga oshirish;

5) o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash va hayotga tatbiq etish bo'yicha takliflar berish.

Shuning uchun talaba va fermer tahlil qilish hamda mavjud imkoniyatlarni aniqlash yo'llarini (usullarini) bilib olishi zarur. Shu nuqtayi nazardan ushbu bo'limda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili bayon qilinadi.

2.2.2. O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i, o'simlikchilik hisoblanadi. Ushbu tarmoqning barcha sohalarida yetishtiriladigan natura mahsulotlarining miqdori yalpi hosil deb ataladi.

Iqtisodiy tahlil yalpi hosilning o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi hosil miqdorini bazis yilidagi (yoki rejadagi) yalpi hosil miqdoriga solishtirib, o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. So'ngra ushbu o'zgarishning sabablari aniqlanib, o'simlikchilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Yalpi hosil miqdorining o'zgarishi bevosita ikki omil hisobiga yuzaga keladi:

1) ekin maydoni hajmining o'zgarishi hisobiga;

2) ekin hosildorligi darajasining o'zgarishi hisobiga.

Shu ikki omil ko'paytmalarining yig'indisi yalpi hosil miqdorini beradi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$\sum M_0 H_0$ – bazis davridagi (yoki rejadagi) yalpi hosil miqdori;

$\sum M_1 H_1$ – hisobot yilidagi (yoki haqiqiy) yalpi hosil miqdori,

bu yerda: M_1, M_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi (yoki rejadagi) ekin maydonini bildiradi; H_1, H_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi (yoki rejadagi) hosildorlik darajasini bildiradi.

Ushbu omillarning yalpi hosilning o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish», «Ko'rsatkichlar farqi», «Indeks» usullaridan foydalanib, aniqlash mumkin. Biz bu yerda «Ko'rsatkichlar farqi» usuli orqali omillar ta'sirini aniqlash va tahlil qilish tartibiga quyida to'xtaldik.

Hisobot yilidagi yalpi hosildan bazis yilidagi (yoki rejadagi) yalpi hosilni chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$M_1 H_1 - M_0 H_0 = \pm \Delta_{MH}.$$

Yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydoni miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi (yoki haqiqiy) ekin maydoni bilan bazis yilidagi (yoki rejadagi) ekin maydoni orasidagi farqni ($M_1 - M_0$) bazis yilidagi (yoki rejadagi) hosildorlik darajasiga ko'paytirish kerak:

$$(M_1 - M_0) \cdot H_0 = \pm \Delta_M.$$

Yalpi hosilning o'zgarishiga hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi (yoki haqiqiy) hosildorlik bilan bazis yilidagi (yoki rejadagi) hosildorlik orasidagi farqni $(H_1 - H_0)$ hisobot yilidagi (haqiqiy) ekin maydoniga ko'paytirish kerak:

$$(H_1 - H_0) \cdot M_1 = \pm \Delta_H.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi yalpi hosilning umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart:

$$\Delta_M \pm \Delta_H = \Delta_{MH}.$$

Endi, o'simlikchilikda yetishtirilgan mahsulotlar miqdori o'zgarishining tahlilini yuqorida keltirilgan usul qoidalariga suyangan holda fermer xo'jaligida yetishtirilgan paxta yalpi hosili misolida ko'rib chiqamiz. Tahlilni 3- jadvaldagi ma'lumotlar asosida amalga oshiramiz.

3- jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha yetishtirilgan paxta to'g'risidagi ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+, –)
1	Ekin maydoni, ga	160	158	–2
2	Paxta hosildorligi, s/ga	22,5	23,94	+1,44
3	Paxta yalpi hosili, s	3600	3783	+ 183

Paxta yalpi hosili hisobot yilida rejaga nisbatan 183 s ga oshgan:

$$M_1H_1 - M_0H_0 = (158 \cdot 23{,}94) - (160 \cdot 22{,}5) = 3783 - 3600 = +183 \text{ s.}$$

Bu o'zgarish paxta maydoni bilan hosildorligining o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan. Paxta maydoni 2 gektarga kamaygan. Bu esa yalpi hosilning kamayishiga sabab bo'lgan.

Paxta maydonining kamayishi tufayli yalpi hosil qanchaga kamaygan? Buni aniqlash uchun haqiqatda mavjud bo'lgan maydon (M_1) bilan rejalashtirilgan maydon (M_0) orasidagi farqni rejadagi hosildorlikka (H_0) ko'paytirish kerak:

$$(M_1 - M_0) \cdot H_0 = (158 - 160) \cdot 22{,}5 = -2 \cdot 22{,}50 = -45 \text{ s.}$$

Demak, paxta maydonining 2 gektarga kamayishi natijasida paxta yalpi hosili 45 s ga kamaygan.

Nima sababdan paxta maydoni kamaygan? Buning sababini fermer mustaqil o'zi aniqlashi va kelajakda kamaytirmaslik choralarini ko'rishi zarur.

Paxta hosildorligi rejaga nisbatan 1,44 sentnerga ko'paygan. Bu yalpi hosilning oshishiga sabab bo'lgan. Aniqrog'i, yalpi hosil miqdorini qancha

sentnerga oshirgan? Buni aniqlash uchun haqiqiy hosildorlik (H_1) bilan rejadagi hosildorlik (H_0) orasidagi farqni haqiqiy paxta maydoniga (M_1) ko'paytirish kerak:

$$(H_1 - H_0)M_1 = (23{,}94 - 22{,}5) \cdot 158 = +1{,}44 \cdot 158 = +228 \text{ s.}$$

Demak, paxta hosildorligining 1.44 s ga oshishi natijasida paxta yalpi hosili rejaga nisbatan 228 s ga ko'paygan.

Xullas, bir omilning salbiy, ikkinchi omilning ijobiy ta'siri ostida paxta yalpi hosili rejaga nisbatan 183 s ga oshgan.

Agar paxta maydoni 2 gektarga kamaymaganida paxta yalpi hosili haqiqatda 3783 s o'rniga 3830 s ni tashkil qilgan bo'lar edi. Agar haqiqiy hosildorlik darajasi ilg'or fermer xo'jaliklari darajasida (ya'ni kamida 30 s miqdorida) bo'lganida edi, yalpi hosil keskin oshgan bo'lar edi, ya'ni haqiqiy yalpi hosil 3783 s o'rniga 4740 s ni tashkil qilgan bo'lar edi. (158×30=4740 s).

Biz bu bandda paxta yalpi hosilini tahlil qilish usulini keltirdik. Ushbu usul yordamida o'simlikchilik mahsulotlarining barcha turlari bo'yicha yalpi hosil rejasining bajarilishini tahlil qilish mumkin.

Tahlil qilish usulini yaxshi o'zlashtirgandan keyin masala yechimini analitik jadval orqali amalga oshirish samarali bo'ladi. Jadvalda natija va unga ta'sir qiluvchi omillar ham, ularning natijaga ta'sir qilgan darajalari ham aniq ko'rinib turadi. Buni quyidagi 4-jadvaldan ko'rish mumkin.

4-jadval

O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasi bajarilishining tahlili

Ekinlarning turlari	Reja bo'yicha			Haqiqiy bajarilishi			Yalpi hosil o'zgarishi (+, –)		
	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, s/ga	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, s/ga	Jami bo'yicha	Shu jumladan	
								Maydon hisobiga	Hosildorlik hisobiga
Bug'doy	257	45,0	11565	250	57,0	14250	+2685	–315	+3000
Arpa	50	45,0	2250	50	53,0	2650	+400	–	+400
Paxta	160	22,5	3600	158	23,94	3783	+183	–45	+228

Ushbu 4-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Imkoniyatlarni aniqlash yo'llari yuqorida paxta yalpi hosilining tahlili qismida bayon qilindi, shuning uchun o'shalardan bemalol foydalanish mumkin.

O'simlikchilik mahsulotlarini ko'paytirish imkoniyatlari bo'lib, yuqori hosilli ekin turi, navi maydonlarini ko'paytirish, ekinlar hosildorligini oshirish hamda ekin maydoni strukturasini (tarkibiy qismini) yaxshilash hisoblanadi.

Yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydoni va hosildorlik o'zgarishining ta'siri bilan bir qatorda ekin maydoni strukturasi (tarkibiy tuzilishi)ning o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

2.2.3. Ekin maydoni strukturasi o'zgarishining yalpi hosilning o'zgarishiga ta'sirining tahlili

Ekin maydoni strukturasi (tarkibiy tuzilishi) ning o'zgarishi deganda ekin maydoni to'plamidagi ayrim ekinlar yoki ekin navlari maydoni salmog'ining oshishi va boshqa bir ekin maydoni yoki ekin navi salmog'ining kamayishi natijasida yuzaga keladigan o'zgarish tushuniladi, ya'ni hisobot yilida bazis yiliga (yoki rejaga) nisbatan ekin maydonlari to'plami ichida sodir bo'lgan hissaviy nisbiy o'zgarish tushuniladi.

Tahlil jarayonida ekin maydoni strukturasining o'zgarishini aniqlash va uning ishlab chiqarilgan yalpi hosil miqdorining o'zgarishiga ta'sirini hisoblash orqali xulosa chiqarish kerak. Buni paxta misolida ko'rib chiqamiz. Agar paxta maydoniga faqat bir seleksion nav ekilgan bo'lsa, unda yalpi hosil o'zgarishiga ekin maydoni strukturasi o'zgarishining ta'siri bo'lmaydi. Agar paxta maydoniga ikki va undan ko'p seleksion paxta navi ekilgan bo'lsa, yalpi hosilning o'zgarishiga boshqa omillar bilan bir qatorda paxta ekin maydoni strukturasining o'zgarishi ham albatta ta'sir qiladi. Mazkur qoida nafaqat paxtaga, balki barcha ekin turlariga ham tegishlidir.

Jami paxta maydoniga nisbatan yuqori hosilli seleksion nav maydoni salmog'i oshgan bo'lsa, ijobiy, agar kamaygan bo'lsa, salbiy ta'sir qiladi. Paxta maydoni strukturasining o'zgarishi o'rtacha hosildorlik darajasining o'zgarishiga ham, yalpi hosil miqdorining o'zgarishiga ham ta'sir qiladi.

Ushbu omilning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlash zarur.

Buning uchun oldin quyidagi ikki shartli yalpi hosil ko'rsatkichi aniqlab olinishi kerak:

1) hisobot yilidagi (yoki haqiqiy) jami ekin maydoni, bazis yilidagi (yoki rejadagi) har bir ekin maydoni salmog'i va bazis yilidagi (yoki rejadagi) har bir ekin hosildorligi asosida hisoblanib aniqlangan yalpi hosil (1-shartli yalpi hosil):

$$\sum(\sum JM_1 \cdot HEC_0 \cdot H_0);$$

2) hisobot yilidagi (yoki haqiqiy) jami ekin maydoni, hisobot yilidagi (yoki haqiqiy) har bir ekin maydoni salmog'i va bazis yilidagi (yoki rejadagi) har bir ekin hosildorligi asosida hisoblanib aniqlangan yalpi hosil (2-shartli yalpi hosil):

$$\sum(\sum JM_1 \cdot HEC_1 \cdot H_0),$$

bu yerda: $\sum JM_t$ – hisobot yilidagi jami ekin maydoni (jami paxta maydoni, jami boshoqli ekinlar maydoni va h.k.); HEC_0– bazis yilida ekin maydon to'plamiga kiruvchi har bir ekin maydonining salmog'i (koeffitsiyent hisobida); HEC_t– hisobot yilida (haqiqiy) ekin maydoni to'plamiga kiruvchi har bir ekin maydonining salmog'i; H_0 – bazis yilidagi har bir ekinning hosildorligi.

Ushbu shartli yalpi hosil ko'rsatkichlarini solishtirish orqali mazkur omilning yalpi hosilning o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi. Buning uchun 2-shartli yalpi hosil ko'rsatkichidan 1-shartli yalpi hosil ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$[\sum(\sum JM_t \cdot HEC_t \cdot H_0)] - [\sum(\sum JM_t \cdot HEC_0 \cdot H_0)] = \pm\Delta_C.$$

Endi, ekin maydoni strukturasi o'zgarishining paxta yalpi hosilining o'zgarishiga ta'sirining tahlilini amalda ko'rib chiqamiz. Buning uchun 5-jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

5-jadval

Ekin maydoni strukturasi o'zgarishining paxta yalpi hosilining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

Paxtaning seleksion navlari	Ekin maydoni, ga		Ekin maydoni strukturasi, %		Haqiqiy maydon jami va rejadagi struktura bo'yicha	Reja-dagi ho-sildor-lik, s/ga	1-shartli yalpi hosil $\sum(\sum JM_t \cdot HEC_0 \cdot H_0)$	2-shartli yalpi hosil $\sum(\sum JM_t \cdot HEC_t \cdot H_0)$
	Reja bo'yi-cha	Haqi-qiysi	Reja bo'yi-cha	Haqi-qiysi				
Omad	60	40	37,5	25,3	59	21,2	1250	848
Oqdaryo-6	100	118	62,5	74,7	99	23,3	2305	2749
Jami:	160	158	100	100	158	22,5	3555	3597

Hisoblangan shartli yalpi hosil ko'rsatkichlarining ikkalasida ham paxta maydoni haqiqiy darajada, hosildorlik esa rejadagi darajada ko'rsatilgan, maydon strukturasi (tarkibiy tuzilishi) bilan bir-biridan farq qiladi. Birinchi holatda yalpi hosil haqiqiy jami ekin maydoni va rejadagi har bir ekin maydonining hissasi, ikkinchi holatda haqiqiy jami ekin maydoni va haqiqiy har bir ekin maydoni hissasi bo'yicha ifodalangan. Shuning uchun bu ikkala yalpi hosil orasidagi farq ekin maydoni strukturasi o'zgarishining ta'sirini beradi.

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yuqori hosilli Oqdaryo-6 seleksion navining jami maydondagi salmog'i 62,5 foizdan 74,7 foizgacha ko'tarilgan, Omad navining salmog'i 37,5 foizdan 25,3 foizgacha pasaygan, ushbu o'zgarish ijobiy o'zgarish bo'lib hisoblanadi. Natijada shu omil hisobiga paxta yalpi hosili hisobot yilida amalda rejaga nisbatan 42 s ga ko'paygan.

$$[\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_1 \cdot H_0)] - [\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_0 \cdot H_0)] = 3597 - 3555 = +42 \text{ s.}$$

Demak, paxta maydoni strukturasining yaxshilanishi hisobiga paxta yalpi hosili hisobot yilida 42 s ga oshgan.

2.2.4. O'rtacha hosildorlikning omilli tahlili va uni oshirish imkoniyatlari

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi sifat va kompleks ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Hosildorlik oshgan sayin yalpi hosil ko'payib, oqibatda xo'jalikning iqtisodiyoti mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham hosildorlik darajasini tahlil qilish katta ahamiyatga egadir.

O'rtacha hosildorlikning o'zgarishiga bevosita ikki omil ta'sir qiladi:

1) ekin maydoni strukturasining o'zgarishi;

2) har bir ekin turi (yoki navi) bo'yicha hosildorlik darajasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlash tartibiga to'xtaldik. O'rtacha hosildorlikning umumiy o'zgarishini aniqlash uchun hisobot yilidagi hosildorlikdan bazis yilidagi hosildorlikni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_1 \cdot H_1)}{\Sigma JM_1} - \frac{\Sigma(\Sigma JM_0 \cdot HEC_0 \cdot H_0)}{\Sigma JM_0} = \frac{(158 \cdot 25{,}3 \cdot 21{,}1) + (158 \cdot 74{,}7 \cdot 24{,}9)}{158} -$$

$$- \frac{(160 \cdot 37{,}5 \cdot 21{,}2) + (160 \cdot 62.5 \cdot 23{,}3)}{160} = \frac{844 + 2939}{158} - \frac{1270 + 2330}{160} =$$

$$= \frac{3783}{158} - \frac{3600}{160} = 23{,}94 - 22{,}5 = +1{,}44 \text{ s.}$$

O'rtacha paxta hosildorligi xo'jalik bo'yicha 1,44 s ga yoki 6,4 % ga oshgan. Ushbu o'zgarish yuqorida ko'rsatilgan ikki omil xisobiga sodir bo'lgan. O'rtacha hosildorlikning o'zgarishi birinchi omilning, ya'ni ekin maydoni strukturasi o'zgarishining ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

$$\frac{\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_1 \cdot H_0)}{\Sigma JM_1} - \frac{\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_0 \cdot H0)}{\Sigma JM_1} = \frac{(158 \cdot 25{,}3 \cdot 21{,}2) + (158 \cdot 74{,}7 \cdot 23{,}3)}{158} -$$

$$- \frac{(158 \cdot 37{,}5 \cdot 21.2) + (158 \cdot 62{,}5 \cdot 23{,}3)}{158} = \frac{844 + 2749}{158} - \frac{1250 + 2305}{158} =$$

$$= \frac{3597}{158} - \frac{3555}{158} = 22{,}76 - 22{,}50 \approx +0{,}26 \text{ s.}$$

Yuqori hosilli Oqdaryo navining salmog'i rejadagi 62,5 foiz o'rniga amalda 74,7 foizni tashkil qilib, u 12,2% oshgan. Omad navining salmog'i esa shu foizga kamaygan. Demak, paxta maydoni strukturasi yaxshilangan. Strukturaning yaxshilanishi, ya'ni yuqori hosilli Oqdaryo navining jami maydondagi hissasining oshishi o'rtacha paxta hosildorligini 0,26 s ga yoki 1,2% ga oshirgan.

O'rtacha paxta hosildorligining o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni navlar bo'yicha hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_1 \cdot H_1)}{\Sigma JM_1} - \frac{\Sigma(\Sigma JM_1 \cdot HEC_1 \cdot H_0)}{\Sigma JM_1} = \frac{(158 \cdot 25{,}3 \cdot 21{,}1) + (158 \cdot 74{,}7 \cdot 24{,}9)}{158} -$$

$$- \frac{(158 \cdot 25{,}3 \cdot 21{,}2) + (158 \cdot 74{,}7 \cdot 23{,}3)}{158} = \frac{844 + 2939}{158} - \frac{847 + 2750}{158} =$$

$$= \frac{3783}{158} - \frac{3597}{158} = 23{,}94 - 22{,}76 = +1{,}18 \text{ s.}$$

Oqdaryo navi hosildorligi rejadagi 23,3 s o'rniga amalda 24,9 s tashkil qilib, u 1,6 s oshgan, natijada shu omil hisobiga paxtaning o'rtacha hosildorligi rejaga nisbatan 1,18 s yoki 5,2% ga oshgan.

Demak, o'rtacha hosildorlikning oshishiga ikkala omil ham ijobiy ta'sir qilgan, natijada o'rtacha hosildorlik 1,44 s ga oshgan.

Hosildorlikni oshirish imkoniyatlari bo'lib, ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuqori hosilli paxta navi hissasining yanada oshishi hamda har bir nav bo'yicha hosildorligining oshishi hisoblanadi. Buning uchun ilg'or xo'jaliklar va ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslanib, hosildorlikning ko'payishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni aniqlash va ta'sir qilish darajasini o'rganish zarur. Shu nuqtayi nazardan mineral o'g'it (masalan, azot) bilan hosildorlik, organik o'g'it bilan hosildorlik, mineral va organik o'g'itlarning tegishli nisbatdagi miqdori bilan hosildorlik, moddiy rag'batlantirish bilan hosildorlik kabi ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlikni o'rganib, tahlil qilish zarur. Ma'lumki, mineral o'g'it, organik o'g'it, moddiy manfaatdorlik – hosildorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillardir. Ularning ta'sirini aniqlashni tajriba o'tkazish, marjinal tahlil, tahliliy guruhlash, korrelatsiya usullari orqali amalga oshirish mumkin. Mineral o'g'it bilan bug'doy hosildorligi orasidagi bog'liqlik M. Bakettning «Fermer xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish» kitobida [19; 49–50 betlar] marjinal tahlil orqali yaxshi bayon qilingan, mineral va organik o'g'itlarning tegishli nisbatdagi miqdori bilan bug'doy hosildorligi orasidagi bog'liqlik A. Xorazmiy, Sh. Shodmonqulovning «O'g'it me'yori, sharoit va hosildorlik» maqolasida [35] yaxshi yoritilgan. Bularning mazmunini talaba yaxshi o'zlashtirib olishi uchun ularni albatta o'qib chiqishi kerak. Shunda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari to'g'risidagi tasavvurga yetarli darajada ega bo'ladi.

2.2.5. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili

Chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. Aholi turmush darajasining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab ortib boradi. Shuning uchun ushbu tarmoqda mavjud bo'lgan

holatni tahlil etish va uni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holatining omilli tahlili quyidagi tartib bo'yicha amalga oshiriladi.

Birinchi navbatda, taqqoslash usuli orqali yetishtirilgan mahsulot miqdorining umumiy o'zgarishi, so'ngra zanjirli bog'lanish, ko'rsatkichlar farqi yoki indeks usuli orqali o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Chorvachilik mahsulotlari bo'lib, go'sht, sut, jun, qorako'l teri, tuxum va boshqalar hisoblanadi. Biz ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari dinamikasining (yoki rejasi bajarilishining) tahliliga misol qilib sutni oldik, boshqalarining ham tahlili shunga o'xshash, farqi ularning nomida, tahlil usuli esa bir xildir.

Hisobot yilida yetishtirilgan haqiqiy yalpi sut miqdorini bazis yilida yetishtirilgan sut miqdoriga solishtirish orqali umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$S_1P_1 - S_0P_0 = \pm\Delta_{SP},$$

bu yerda: S_1, S_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi (yoki haqiqiy va rejadagi) sigirlarning o'rtacha soni; P_1, P_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi (yoki haqiqiy va rejadagi) sut mahsuldorligi.

Mazkur o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) sigirlarning o'rtacha yillik sonining o'zgarishi hisobiga $(S_1 - S_0)$;

2) sut mahsuldorligi darajasining o'zgarishi hisobiga $(P_1 - P_0)$.

Bu omillarning yalpi sut miqdorining o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash tartibini bayon qilamiz.

Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «shartli sut miqdori» ko'rsatkichini aniqlab olish kerak. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi sigirlarning haqiqiy o'rtacha yillik sonini (S_1) bazis yilidagi (yoki rejadagi) sut mahsuldorligiga (P_0) ko'paytirmoq kerak: S_1P_0.

Ushbu shartli sut miqdori ko'rsatkichi aniqlangandan keyin yalpi sut miqdorining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagi tartibda aniqlanadi:

Yalpi sut miqdorining o'zgarishiga sigirlar soni bo'yicha o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli sut miqdoridan bazis yilidagi (yoki rejadagi) sut miqdorini chegirib tashlash kerak:

$$S_1P_0 - S_0P_0 = \pm\Delta_S.$$

Yalpi sut miqdorining o'zgarishiga sut mahsuldorligi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy yalpi sut miqdoridan shartli sut miqdorini chegirib tashlash kerak:

$$S_1P_1 - S_1P_0 = \pm\Delta_P.$$

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi yetishtirilgan yalpi sut miqdorining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Endi yuqorida keltirilgan usul yordamida yetishtirilgan yalpi sut dinamikasining tahlilini 6-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz. Rejaning bajarilishini tahlil qilish dinamikasining tahlilidan farq qilmaydi, tahlil qilish usuli bir xildir. Shuning uchun unga alohida to'xtalmadik.

6-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha sigirlar soni va ishlab chiqarilgan yalpi sut miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar

T.r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Sigirlarning o'rtacha soni, bosh	50	70	+20
2	O'rtacha bir sigirdan sog'ib olingan sut, s/b	22,0	24,2	+2,2
3	Yalpi ishlab chiqarilgan sut, s	1100	1694	+594

6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yetishtirilgan sut hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 594 s ga ko'paygan:

$$S_1P_1 - S_0P_0 = (70 \cdot 24{,}2) - (50 \cdot 22{,}0) = 1694 - 1100 = +594 \text{ s.}$$

Bu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan. Endi, har birining ta'sirini aniqlaymiz.

Sigirlarning o'rtacha yillik soni o'zgarishining yalpi sut miqdorining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun shartli yalpi sut miqdoridan bazis yilidagi yalpi sut miqdorini ayirish kerak:

$$S_1P_0 - S_0P_0 = (70 \cdot 22{,}0) - (50 \cdot 22{,}0) = 1540 - 1100 = +440 \text{ s.}$$

Demak, sigirlar sonining 20 boshga ko'payishi natijasida yalpi sut miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 440 s ga ko'paygan.

Endi, sut mahsuldorligining yalpi sut miqdorining o'zgarishiga ta'sirini aniqlaymiz. Buning uchun hisobot yilidagi yalpi sut miqdoridan shartli yalpi sut miqdorini ayirish kerak:

$$S_1P_1 - S_1P_0 = (70 \cdot 24{,}2) - (70 \cdot 22{,}0) = 1694 - 1540 = +154 \text{ s.}$$

Demak, sut mahsuldorligining 2,2 s ga oshishi natijasida yalpi sut miqdori 154 s ga ko'paygan.

Demak, yalpi sut miqdorining o'zgarishi ikki omilning ham ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Natijada yetishtirilgan sut miqdori bazis yiliga nisbatan

594 s ga yoki 54% ga ko'paygan. Bu yaxshi ijobiy holat, ammo ushbu ko'rsatkichni agar ona mollar bosh soni tarkibidagi sigirlarning salmog'ini pasaytirmasdan, balki oshirilganda yoki bazis davridagi hissasini saqlab qolinganda yanada oshirish mumkin edi. Sigirlar salmog'i bazis yilida 80% ni, hisobot yilida 74% ni tashkil qilib, 6% ga pasaygan. Bunday o'zgarish, o'z navbatida, yetishtirilgan yalpi sut miqdorining kamayishiga sabab bo'lgan. Buning aniq ta'sirining miqdorini aniqlash uchun ona mollar strukturasi o'zgarishi ta'sirining tahlilini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali quyida ko'rib chiqamiz.

2.2.6. Ishlab chiqarilgan chorva mahsuloti miqdorining o'zgarishiga ona mollar strukturasi o'zgarishi ta'sirining tahlili

Ona mollar soni bo'yicha strukturasi o'zgarishining yetishtirilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sirining tahlilini yalpi sut misolida «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida ko'rib chiqamiz.

Ushbu omilning yalpi sut miqdorining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan oldin yalpi sut miqdorini ifodalovchi quyidagi ikki shartli ko'rsatkich hisoblab olinishi kerak:

1-shartli yalpi sut ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich hisobot yilidagi jami ona mollar sonini ($\sum S_1$) bazis yilidagi har bir guruhdagi ona mollarning salmog'iga (C_0) va bazis yilidagi har bir guruhdagi ona mollarning mahsuldorligiga (P_0) ko'paytirib, olingan natijalarni jamlash orqali aniqlanadi:

$$\sum(\sum S_1 \cdot C_0 \cdot P_0).$$

2-shartli yalpi sut ko'rsatkichi. Hisobot yilidagi jami ona mollar sonini ($\sum S_1$) hisobot yilidagi har bir guruhdagi ona mollarning salmog'iga (C_1) va bazis yilidagi har bir guruhdagi ona mollarning mahsuldorligiga (P_0) ko'paytirib, olingan natijasini jamlash orqali ushbu ko'rsatkich aniqlanadi:

$$\sum(\sum S_1 \cdot C_1 \cdot P_0).$$

Ikkinchi «Shartli yalpi sut» ko'rsatkichidan birinchisini ayirish orqali yetishtirilgan yalpi sut miqdorining o'zgarishiga ona mollar strukturasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi. 2-shartli sut miqdori birinchiga nisbatan ko'p bo'lsa, oraliqdagi farq ona mollar strukturasining yaxshilanishi hisobiga yalpi sut miqdorining ko'payganligini bildiradi, agar aksincha bo'lsa, struktura yomonlashganligi (ya'ni mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlar salmog'ining pasayishi) natijasida yalpi sut miqdorining kamayganligini ko'rsatadi.

Endi, fermer xo'jaligi misolida yalpi sut bilan ona mollar strukturasi orasidagi bog'liqlikning tahlilini ko'rib chiqamiz.

7-jadval

Yetishtirilgan sut miqdorining o'zgarishiga ona mollar strukturasi o'zgarishi ta'sirining tahlili

Ona mollarning guruhlari	Ona mollar soni, bosh		Mollar strukturasi, %		Hisobot yilidagi jami ona mollar soni va bazis yilidagi har bir guruhdagi ona molning hissasi bo'yicha aniqlangan mollar soni	Bazis yilida-gi sut mahsuldorligi, s/b	1-shartli yalpi sut ($\sum S_1 \cdot C_0 \cdot P_0$)	2-shartli yalpi sut ($\sum S_1 \cdot C_1 \cdot P_0$)
	Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot yili				
Sigirlar	40	52	80	74	56	22,5	1260	1170
G'unajinlar	10	18	20	26	14	20,0	280	360
Jami:	50	70	100	100	70	22.0	1540	1530

7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarning jami ona mollar tarkibidagi hissasi 6% ga pasaygan, natijada strukturaning yomonlashishi hisobiga yalpi yetishtirilgan sut 10 s ga kamaygan.

Ona mollar strukturasidagi o'zgarish o'rtacha mahsuldorlik darajasining o'zgarishiga ham ta'sir qiladi. Buning ta'sirini sut mahsuldorligining omilli tahlili qismida ko'rib chiqamiz.

2.2.7. O'rtacha mahsuldorlikning omilli tahlili va uni oshirish imkoniyatlari

Mahsuldorlik chorvachilikning eng asosiy sifat ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. U qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi va uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni u oshgan sayin sut, go'sht, jun kabi mahsulotlarning miqdori ko'payib, tannarxi pasayib, foydasi va rentabelligi oshib boradi, oqibatda fermer xo'jaligi iqtisodiy jihatdan mustahkam xo'jalikka aylanadi. Shuning uchun chorva mollari mahsuldorligi darajasini uzluksiz ravishda o'rganib va mavjud imkoniyatni aniqlab, ularni hayotga jalb etish zarur.

Mahsuldorlik ko'p omillar ta'siri ostida shakllanadi va o'zgaradi. Chorva mollarining o'rtacha mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi omillar ikki guruhga bo'linib o'rganiladi. Bular quyidagilardir:

1) chorva mollari soni bo'yicha strukturasining o'zgarishi;

2) o'rtacha ko'rsatkichni shakllantiruvchi miqdorlarning o'zgarishi.

Biz sut mahsuldorligi misolida o'rtacha mahsuldorlikning tahliliga to'xtalamiz. Yuqorida qayd qilinganidek, o'rtacha sut mahsuldorligi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,4 s ga oshgan. Bu o'zgarish quyidagi ikki guruh omillar ta'sirida paydo bo'lgan:

1) podadagi ona mollar tarkibiy tuzilishning (strukturasining) o'zgarishi;

2) har bir guruhdagi ona mollar (sigir, g'unajinlar) mahsuldorligining o'zgarishi.

Bu omillarning o'rtacha sut mahsuldorligining o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun, avvalo, quyidagi o'rtacha mahsuldorlik ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur:

I. $\frac{\Sigma(\Sigma S_0 \cdot C_0 \cdot P_0)}{\Sigma S_0} = \frac{(50 \cdot 0{,}8 \cdot 22{,}5) + (50 \cdot 0{,}2 \cdot 20{,}0)}{50} = \frac{1100}{50} = 22$ s;

II. $\frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_0 \cdot P_0)}{\Sigma S_1} = \frac{(70 \cdot 0{,}8 \cdot 22{,}5) + (70 \cdot 0{,}2 \cdot 20{,}0)}{70} = \frac{1540}{70} = 22$ s;

III. $\frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_1 \cdot P_0)}{\Sigma S_1} = \frac{(70 \cdot 0{,}74 \cdot 22{,}5) + (70 \cdot 0{,}26 \cdot 20{,}0)}{70} = \frac{1530}{70} = 21{,}86$ s;

IV. $\frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_1 \cdot P_1)}{\Sigma S_1} = \frac{(70 \cdot 0{,}74 \cdot 25{,}3) + (70 \cdot 0{,}26 \cdot 21{,}0)}{70} = \frac{1694}{70} = 24{,}2$ s.

Mazkur bog'lanish ko'rsatkichlarini solishtirish orqali omillar ta'siri aniqlanadi. Ma'lumki, mahsuldorlik darajasining o'zgarishiga mollar sonining o'zgarishi ta'sir qilmaydi, ularning o'zgarishi faqat mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bu fikrni II va I-bog'lanish ko'rsatkichlari orasidagi nolga teng farq ham isbotlab turibdi.

Demak, o'rtacha mahsuldorlikning o'zgarishiga yuqorida ko'rsatilgan ikki guruh omillarining ta'siri II, III va IV bog'lanish ko'rsatkichlarini bir-biriga qiyoslash orqali aniqlanadi.

III bog'lanish ko'rsatkichidan II bog'lanish ko'rsatkichini chegirib tashlash orqali, o'rtacha sut mahsuldorligining o'zgarishiga ona mollar strukturasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_1 \cdot P_0)}{\Sigma S_1} - \frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_0 \cdot P_0)}{\Sigma S_1} = \frac{1530}{70} - \frac{1540}{70} = 21{,}86 - 22 = -0{,}14 \text{ s}.$$

Demak, ona mollar tarkibidagi sigirlar soni salmog'ining 6% kamayishi natijasida sut mahsuldorligi 0,14 s ga kamaygan, natijada yalpi sut miqdori shu omil hisobiga 10 s kamaygan ($-0{,}14 \cdot 70$ bosh).

IV bog'lanish ko'rsatkichidan III-bog'lanish ko'rsatkichini chegirib tashlash orqali, o'rtacha sut mahsuldorligining o'zgarishiga har bir guruhga kiruvchi ona mollar mahsuldorligi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_1 \cdot P_1)}{\Sigma S_1} - \frac{\Sigma(\Sigma S_1 \cdot C_1 \cdot P_0)}{\Sigma S_1} = \frac{1694}{70} - \frac{1530}{70} = 24{,}2 - 21{,}86 = +2{,}34 \text{ s}.$$

Demak, har bir guruhdagi ona mollar mahsuldorligi darajasining o'zgarishi natijasida o'rtacha sut mahsuldorligi darajasi 2,34 s ga oshgan. Shu jumladan, sigirlar mahsuldorligi 22,5 s dan 25,3 s ga, g'unajinlar mahsuldorligi 20 s dan 21 s ga yetgan, natijada shu ikki turdagi mahsuldorlik ta'siri ostida o'rtacha mahsuldorlik 2,34 s ga oshgan.

2.2.8. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Yalpi hosil, hosildorlik, o'rtacha hosildorlik, ekin maydoni, ekin maydoni strukturasi, chorva mollarining o'rtacha soni, ona mollar strukturasi, yalpi sut, yalpi go'sht, yalpi jun, sut mahsuldorligi, go'sht mahsuldorligi, jun mahsuldorligi, ekstensiv omil, intensiv omil, miqdor omili, sifat omili.

Takrorlash uchun savollar

1. Yalpi hosil deb nimaga aytiladi? U qanday aniqlanadi?
2. Hosildorlik deganda *nimani tushunasiz*, u qanday hisoblanadi?
3. Yalpi hosil o'zgarishiga bevosita necha omil ta'sir qiladi? Ular qaysilar?
4. Yalpi hosil o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ekstensiv omil bo'lib, qaysi ko'rsatkich hisoblanadi?
5. Yalpi hosil o'zgarishiga ekstensiv omil ta'siri qanday aniqlanadi?
6. Yalpi hosil o'zgarishiga ta'sir qiluvchi *intensiv omil* bo'lib, qaysi ko'rsatkich tushuniladi?
7. Yalpi hosilning o'zgarishiga hosildorlik o'zgarishining ta'siri qanday hisoblanadi?
8. Yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydoni strukturasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash yo'lini tushuntiring.
9. Yalpi sut miqdori qanday aniqlanadi? Uning o'zgarishiga necha omil ta'sir qiladi?
10. Mahsuldorlik deganda nima tushuniladi?
11. O'rtacha hosildorlikni aniqlash tartibini tushuntiring.
12. Yalpi sut miqdorining o'zgarishiga sigirlar soni o'zgarishining ta'sirini aniqlash usulini tushuntiring.
13. O'rtacha sut mahsuldorligining o'zgarishiga ona mollar strukturasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash yo'lini tushuntiring.

MASHQ

Darslikda keltirilgan 6-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib va «Ko'rsatkichlar farqi» usulini qo'llab, ishlab chiqarilgan yalpi sut miqdori o'zgarishini omilli tahlil qiling va yalpi sut miqdorini ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsating. «Ko'rsatkichlar farqi» usulining mazmuni 1-bobda yoritilgan.

Izoh: 2- bobning 2.2.5-bandida yalpi sut dinamikasining amaliy tahlili «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali amalga oshirilgan (darslikning 36–39 betlariga qarang). O'sha joyda aniqlangan ma'lumotlarga siz bajargan omilli tahlilning natijalari to'liq mos kelishligi kerak. Shuni esdan chiqarmang. Shundan keyin omillar ta'siriga baho bering va sutni ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsatib, ularning iqtisodiyotda tutgan o'rniga ta'rif bering.

XULOSALAR

Namunaviy o'quv dasturiga mos holda rejalashtirilgan savollar: tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, o'rtacha hosildorlik va o'rtacha mahsuldorlik darajasi, ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'siri kabi masalalarning tahlili yetarli darajada ushbu bobda yoritildi. Ushbu masalalarni ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yaxshi o'zlashtirish uchun, talabaga darslik bo'yicha mavzuni o'qib, o'zlashtirishini hamda unda keltirilgan nazariy savollarga javob tayyorlashini va mashqni mustaqil bajarishini tavsiya qilamiz.

2.3. Mahsulotlarni sotish hajmi va uning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili

O'QUV MAQSADI

Mavzu bo'yicha o'quv dasturiga mos holda rejalashtirilgan savollar: tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, sotilgan mahsulotlar miqdori va hajmining omilli tahlili, mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar bajarilishining tahlili, mahsulot sifatining tahlili kabi masalalarni mazmun-mohiyati, amalga oshirish tartib-qoidalari va usullarini yoritish va o'rgatish *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish orqali pul daromadlari va foydani mavjud imkoniyatlarini topish hisobiga ko'paytirish mumkinligi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni talabalar ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadini* tashkil qiladi.

Mavzuni yanada samarali yoritish uchun mahsulot sifatini ifodalovchi o'rtacha navlik koeffitsiyentini hisoblash usulini hamda mahsulot sifatining baho va pul daromadining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash usulini takomillashtirish zarur. Bu esa mavzuning *rivojlantiruvchi o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

2.3.1. Tahlilning ahamiyati, vazifalari va manbalari

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot chetga chiqariladigan va xo'jalikning o'zida iste'mol qilinadigan mahsulot turlariga bo'linadi. Yalpi mahsulotning asosiy qismi chetga sotiladi, boshqacha aytganda, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga iste'mol uchun tushadi. Demak, har bir qishloq xo'jalik korxonasi o'zi ishlab chiqargan yalpi mahsulotning asosiy qismini chetga sotadi, undan tushadigan pul daromadi uning moliyaviy ahvolini belgilaydi, boshqacha aytganda, uning iqtisodiyotining taraqqiyoti

mahsulotlarni sotishdan tushadigan pul daromadining hajmiga bog'liq bo'ladi. Mahsulotlarni sotish jarayonini o'rganish va uning samarasini oshirish imkoniyatlarini izlab topish tahlilning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Sotilgan mahsulotlar hajmi pul tushumi orqali ifodalanadi. Pul tushumi, birinchi navbatda, barcha majburiyatlarni va xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonni o'rganish va to'g'ri tashkil qilish ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida katta ahamiyatga egadir, chunki sotish jarayonining samarali tashkil qilinishi ishlab chiqarish va ta'minot jarayonining tezlashishiga hamda moliyaviy faoliyatning yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun sotish jarayonini o'z vaqtida tahlil qilish va mavjud imkoniyatlarni aniqlash iqtisodiy tahlilning asosiy maqsadidir. Tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z maqsadiga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish orqali erishishi mumkin:

1) ishlab chiqarilgan o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish hajmi rejasining bajarilishiga baho berish hamda o'zgarish sabablarini omilli tahlil qilish;

2) o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish hajmi bo'yicha dinamikasi o'zgarishini o'rganish hamda omilli tahlil qilish;

3) sotilgan o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari bo'yicha sifat ko'rsatkichlari darajasi o'zgarishini sotish hajmi va o'rtacha sotish bahosining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash va baho berish;

4) shartnomaviy majburiyatlarning holatini o'rganish va ularga baho berish;

5) qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish va ularni jalb qilish bo'yicha tavsiyalar berish.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish jarayonining natijalarini tahlil etish uchun axborot manbalari bo'lib asosan quyidagilar hisoblanadi:

1) xo'jalikning biznes rejasi ma'lumotlari;

2) «qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;

3) «moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;

4) mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar va sotilgan mahsulotlar tannarxi hisobi schotlari ma'lumotlari.

Mahsulotlarni sotishdan olinadigan pul daromadlari o'z navbatida ikki ko'rsatkich orqali ifodalanadi:

1) jami pul daromadi (jami pul tushumi);

2) sof pul daromadi (sof pul tushumi).

«Jami pul daromadi» ko'rsatkichi sotish baholari bo'yicha mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul daromadlari bilan davlat budjetiga bevosita tushadigan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabilar) ni o'z ichiga oladi.

«Sof pul daromadi» ko'rsatkichi bo'lib, sotish baholari bo'yicha mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun «Jami pul daromadi (jami pul tushumi)» dan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi soliqlarni chegirib tashlash kerak.

2.3.2. Mahsulot sotish bo'yicha rejaning bajarilishini va dinamikasini tahlil qilish

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish holatining tahlili ularning fizik miqdorlari va qiymatlari bo'yicha amalga oshiriladi. Natura mahsulotlarini sotish dinamikasi (yoki rejasi bajarilishi)ning tahlili har bir mahsulot turi va xo'jalik bo'yicha amalga oshiriladi.

Har bir mahsulot turi bo'yicha hisobot yilida sotilgan miqdorini bazis yilidagi (yoki rejadagi) mahsulot miqdoriga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishi aniqlanadi:

Xo'jalikda sotilgan jami mahsulotlar bo'yicha fizik miqdori (hajmi) ning dinamikasiga (yoki rejasining bajarilishiga) baho berish uchun ularning hajmi barcha davrlar uchun taqqoslama (yoki baza) bahosi bo'yicha hisoblanib olinadi, so'ngra hisobot yilidagi (yoki rejadagi) ko'rsatkich bilan solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi.

Agar hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot shu yilda to'liq sotilgan taqdirda, sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ushbu ikki omil ta'sir qiladi:

1) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi $(Q_1 - Q_0)$;

2) ishlab chiqarilgan mahsulot tovarlik darajasining o'zgarishi $(T_1 - T_0)$.

Bunday holda sotilgan tovar mahsuloti miqdori Q bilan T ning ko'paytmasiga teng bo'ladi: QT.

Agar hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot shu yilda to'liq sotilmagan taqdirda (bir qismi kelgusi davrga o'tganda), hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1) yil boshiga qolgan mahsulot miqdorining o'zgarishi $(YBQ_1 - YBQ_0)$;

2) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi $(IM_1 - IM_0)$;

3) mahsulot bo'yicha har xil chiqimlar miqdorining o'zgarishi $(MCh_1 - MCh_0)$;

4) yil oxiriga qolgan mahsulot miqdorining o'zgarishi $(YOQ_1 - YOQ_0)$.

Ikkinchi holatda sotilgan mahsulot miqdori (SM) quyidagicha aniqlanadi:

$$SM = YBQ + IM - MCh - YOQ;$$

bu yerda: YBQ – yil boshiga qolgan mahsulot qoldig'i; IM – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori; MCh – mahsulot bo'yicha har xil chiqimlar miqdori; YOQ – yil oxiriga qolgan mahsulot miqdori.

Omillarning sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi», «Zanjirli bog'lanish», «Balansli bog'lanish» usullari orqali aniqlash mumkin.

Biz bu yerda sotilgan mahsulotning birinchi holatdagi o'zgarishining tahlili tartibiga to'xtalamiz.

Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi birinchi omil bo'lib ishlab chiqarilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi hisoblanadi. Ushbu omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida yetishtirilgan mahsulot miqdori (q_1) bilan bazis yilida yetishtirilgan mahsulot miqdori (q_0) orasidagi farqni ($q_1 - q_0$) bazis yilidagi tovarlilik darajasiga (T_0) ko'paytirish kerak:

$$(q_1 - q_0) \cdot T_0 = \pm\Delta_q.$$

Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil bo'lib, mahsulot tovarlilik darajasining o'zgarishi hisoblanadi. Mahsulotning tovarlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$T = \frac{\text{sotilgan mahsulot miqdori}}{\text{yetishtirilgan mahsulot miqdori}}.$$

Buni foizda ham, koeffitsiyentda ham ifodalash mumkin.

Ushbu omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillaridagi tovarlilik darajalari orasidagi farqni ($T_1 - T_0$) hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotning fizik miqdoriga ko'paytirish kerak:

$$(T_1 - T_0) \cdot q_1 = \pm\Delta_T.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi sotilgan natura mahsuloti miqdorining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$(q_1 - q_0) \cdot T_0 \pm (T_1 - T_0) \cdot q_1 = Q_1T_1 - Q_0T_0.$$

Endi sotilgan mahsulotning tahlilini bug'doy misolida ko'rib chiqamiz.

8-jadval

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarilgan va sotilgan bug'doy to'g'risidagi ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Ishlab chiqarilgan bug'doy, s	11565	14692	+3127
2	Sotilgan bug'doy, s	10433	12929	+2496
3	Tovarlilik darajasi, %	90,2	88,0	–2,2
4	1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosi, so'm	4463	4624	+161

8-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, sotilgan bug'doy miqdori o'zgarishini aniqlaymiz:

$$q_1T_1 - q_0T_0 = (14692 \cdot 0{,}88) - (11565 \cdot 0{,}902) = 12929 - 10433 = +2496 \text{ s.}$$

Demak, sotilgan bug'doy miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2496 s ga yoki 23,9% ga oshgan $\left(\frac{2496 \cdot 100}{10433}\right)$.

Ushbu o'zgarish bir omilning ijobiy, ikkinchi omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shundan, 1- omil, ya'ni ishlab chiqarilgan bug'doy miqdori ko'payishi uning o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan:

$$(q_1 - q_0) \cdot T_0 = (14692 - 11565) \cdot 0{,}902 = +3127 \cdot 0{,}902 = +2821 \text{ s.}$$

Demak, ishlab chiqarilgan bug'doy miqdorining 3127 s ga oshishi natijasida sotilgan bug'doy 2821 s ga ko'paygan.

Sotilgan bug'doy miqdorining o'zgarishiga ikkinchi omil, ya'ni tovarlilik darajasining o'zgarishi salbiy ta'sir qilib, uni kamaytirgan:

$$(T_1 - T_0) \cdot q_1 = (0{,}88 - 0{,}902) \cdot 14692 = -0{,}022 \cdot 14692 = -323 \text{ s.}$$

Demak, sotilgan bug'doyning tovarlilik darajasining 2,2% ga kamayishi natijasida sotilgan bug'doy miqdori 323 s ga kamaygan.

Agar tovarlilik darajasi hisobot yilida bazis yilidagi ko'rsatkich darajasida saqlanib qolinganda edi, sotilgan bug'doy miqdori hisobot yilida 12929 s o'rniga 13250 s ni tashkil qilgan bo'lib, sotilgan bug'doy miqdori kamayish o'rniga 321 s ga oshgan bo'lar edi. Ushbu imkoniyatdan xo'jalik foydalana olgan emas.

Endi, sotilgan bug'doy miqdori o'zgarishining omilli tahlilini o'zingiz, yuqoridagi ma'lumotlar asosida, «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, amalga oshiring.

Buning uchun quyidagi formulalardan foydalaning:

I. q_0T_0; $q_1T_1 - q_0T_0 = \pm\Delta_{qT}$ – sotilgan mahsulot miqdorining umumiy o'zgarishi.

II. q_1T_0; $q_1T_0 - q_0T_0 = \pm\Delta_{qT}$ – sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri.

III. q_1T_1; $q_1T_1 - q_1T_0 = \pm\Delta_T$ – sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri.

Siz bajargan tahlil natijalari yuqorida «Ko'rsatkichlar farqi» usuli orqali aniqlangan tahlil ko'rsatkichlaridan farq qilmasligi kerak, shuni esdan chiqarmang.

Biz sotilgan bug'doy misolida uning tahlilini bayon qildik. Yuqorida bayon qilingan usullar orqali o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining barcha turlari bo'yicha sotilgan mahsulot dinamikasini (yoki reja bajarilishini) tahlil qilish mumkin.

2.3.3. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining omilli tahlili

Sof pul tushumi dinamikasini tahlil kilish uchun solishtirish, ko'rsatkichlar farqi va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalanish mumkin.

Sof pul tushumining tahlili taqqoslashdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilidagi mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmini bazis yilidagi sof pul tushumi hajmiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy o'zgarishlari aniqlanadi.

Mutlaq o'zgarishini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$q_1 p_1 - q_0 p_0 = \pm\Delta_{qp},$$

bunda: q_1, q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlarni miqdori; p_1, p_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar birligi (1 s) ning o'rtacha sotish bahosi.

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, sof pul tushumining hajmi miqdoriy (q) va sifatiy (p) omillarning ko'paytmasi tariqasida aniqlangan.

Demak, mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga, bevosita ushbu ikki omil ta'sir qilishi yuqoridagi formuladan ko'rinib turibdi:

1. Sotilgan mahsulotlarning fizik miqdorlarining o'zgarishi ($q_1 - q_0$);
2. Sotilgan mahsulotlarning o'rtacha sotish baholarining o'zgarishi ($p_1 - p_0$).

Mazkur omillarning sof pul tushumining o'zgarishiga ta'sirini dastlab «Ko'rsatkichlar farqi» usuli, so'ngra «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash yo'llarini bayon qilamiz.

Pul tushumini «Ko'rsatkichlar farqi» usuli bo'yicha tahlil qilish. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga miqdoriy omilning, ya'ni sotilgan mahsulotlar fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdori (q_1) bilan bazis yilida sotilgan mahsulot miqdori (q_0) orasidagi farqni ($q_1 - q_0$) bazis yilidagi mahsulot bir birligining o'rtacha sotish bahosi (p_0) ga ko'paytirish kerak:

$$(q_1 - q_0) \cdot p_0 = \pm\Delta_q$$

bunda: $\pm\Delta_q$ – pul tushumining mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga oshgan yoki kamaygan qismi;

Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga sifatiy omilning, ya'ni mahsulot bir birligining o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulotning o'rtacha sotish bahosi (p_1) bilan bazis yilida sotilgan mahsulotning o'rtacha sotish bahosi (p_0) orasidagi farqni ($p_1 - p_0$) hisobot yilida sotilgan mahsulotning miqdoriga ko'paytirish kerak:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = \pm\Delta_p,$$

bunda: $\pm\Delta_p$ – o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi hisobiga sof pul tushumining ko'paygan yoki kamaygan qismi.

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi sof pul tushumi umumiy hajmining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$(q_1p_1 - q_0p_0) = (q_1 - q_0) \cdot p_0 \pm (p_1 - p_0) \cdot q_1.$$

Endi, 8-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan bug'doyni sotishdan olingan pul tushumining umumiy o'zgarishini aniqlaymiz:

$$q_1p_1 - q_0p_0 = (12929 \cdot 4624) - (10433 \cdot 4463) = 59783{,}7 - 46562{,}5 = +13221{,}2 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, birinchi navbatda, miqdoriy omilning, ya'ni sotilgan bug'doy miqdori o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(q_1 - q_0) \cdot p_0 = (12929 - 10433) \cdot 4463 = +2496 \cdot 4463 = +11139{,}6 \text{ ming so'm.}$$

Demak, sotilgan bug'doy miqdorining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2496 s ga ko'payishi tufayli, bug'doyni sotishdan olingan pul tushumi 11139 ming so'mga oshgan.

Endi, ikkinchi omilning, ya'ni o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining sof pul tushumini o'zgarishiga ta'sirini aniqlaymiz:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = (4624 - 4463) \cdot 12929 = +161 \cdot 12929 = +2081{,}6 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 161 so'mga oshgan bo'lib, u pul tushumining hajmiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada uni 2081,6 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

Xullas, pul tushumi hajmining o'zgarishiga ikki omil ham ijobiy ta'sir qilib, uning 13221,2 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

Demak, sof pul tushumining ko'payishiga olib keluvchi asosiy imkoniyatlar bo'lib sotiladigan mahsulot miqdorining ko'payishi va sifatining oshishi hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'rtacha sotish bahosida o'z aksini topadi.

Pul tushumini zanjirli bog'lanish usuli bo'yicha tahlil qilish

Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillarning ta'sirini hisoblashdan oldin «Shartli sof pul tushumi» ko'rsatkichini aniqlab olish kerak.

«Shartli sof pul tushumi» hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdorini (q_1) bazis yilidagi 1 s mahsulotning (bir birlik mahsulotning) o'rtacha sotish

bahosiga (p_0) ko'paytirish orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni mahsulot turlari va jami mahsulotlar bo'yicha quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

1) mahsulotlarning har bir turi bo'yicha: q_1p_0;

2) jami mahsulotlar bo'yicha: $\sum q_1p_0$.

«Shartli sof pul tushumi» aniqlangandan keyin bazis va hisobot yillaridagi «Sof pul tushumi» ko'rsatkichlarini «Shartli sof pul tushumi» ko'rsatkichi bilan solishtirish orqali omillar ta'siri aniqlanadi.

Mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga sotilgan mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Shartli sof pul tushumi» hajmidan (q_1p_0) bazis yilidagi sof pul tushumi hajmini (q_0p_0) chegirib tashlash kerak:

1) mahsulot turi bo'yicha: $q_1p_1 - q_1p_0 = \pm\Delta_q$;

2) jami mahsulotlar bo'yicha: $\sum q_1p_1 - \sum q_1p_0 = \pm\Delta_q$.

Mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga 1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi sof pul tushumi hajmidan (q_1p_1) shartli sof pul tushumi hajmini (q_1p_0) ayirish kerak:

1) mahsulot turi bo'yicha: $q_1p_1 - q_1p_0 = \pm\Delta_q$;

2) jami mahsulotlar bo'yicha: $\sum q_1p_1 - \sum q_1p_0 = \pm\Delta_p$.

Yuqoridagi tahlil etish yo'llarini o'zlashtirib olgan talaba, iqtisodchi-tahlilchi sof pul tushumining tahlilini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida tahliliy jadval asosida bemalol amalga oshirishi mumkin. Buni 9-jadvaldan ko'rish mumkin.

9-jadval

Bug'doyni sotishdan olingan sof pul tushumi dinamikasining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi sotilgan bug'doy miqdori va bazis yilidagi 1 s bahosi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu jumladan o'zgarishi	
						Mahsulot miqdori hisobiga	Baho hisobiga
1	Sotilgan bug'doy, s	10433	12929	12929	+2496	x	x
2	1 s ning o'rtacha sotish bahosi, so'm	4463	4463	4624	+161	x	x
3	Sof pul tushumi, ming so'm	46562,5	57702,1	59783,7	13221,2	+11139,6	+2081,6

9-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bug'doyni sotishdan olingan sof pul tushumi tahlil etilayotgan davrda 13221,2 ming so'mga oshgan. Shu

jumladan, sotilgan bug'doy miqdorining 2496 s ga oshishi tufayli sof pul tushumi hajmi 11139,6 ming so'mga oshgan, o'rtacha sotish bahosining 161 so'mga oshishi natijasida 2081,6 ming so'mga ko'paygan.

Xulosa. Ikkala omil ham pul tushumi o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada bug'doyni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmi 13221,2 ming so'mga oshgan.

Yuqorida, sotilgan mahsulotlarning miqdori va hajmining omilli tahlilini sotilgan g'alla misolida ko'rib chiqdik. Hurmatli talaba! Siz yuqorida bayon qilingan qoida va usullar yordamida o'zingiz sotilgan paxta misolida sof pul tushumi dinamikasining tahlilini 10-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib bajaring.

10-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha sotilgan paxta to'g'risidagi ko'rsatkichlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Hisobot yili
1	Sotilgan paxta miqdori, s	3600	3783
	Shu jumladan: I-nav	2772	2848
	II-nav	126	204
	III-nav	162	208
	IV-nav	216	242
	V-nav	324	281
2	Paxtani sotishdan olingan pul tushumi, ming so'm	64404	75311,5
	Shu jumladan: I-nav	56063	63000
	II-nav	2172	3890
	III-nav	2292	3688
	IV-nav	2272	3194
	V-nav	1605	1539
3	Sotilgan paxtaning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	55476	63127,0
4	Paxtani sotishdan olingan foyda, ming so'm	8928	12184,5
5	1 s paxtani o'rtacha sotish bahosi, so'm (2:1)	?	?
6	1 s paxtaning tannarxi, so'm (3:1)	?	?
7	1 s paxtani sotishdan olingan foyda, so'm (4:1)	?	?
8	Paxta rentabelligi %, (4:3 yoki 7:6)	?	?

2.3.4. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar bajarilishining tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi chetga sotiladi. Chetga sotiladigan mahsulotlar bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar shartnomalar asosida yuzaga keladi.

Shartnoma deganda nima tushuniladi? Shartnoma deganda ikki yoki bir necha shaxsning o'zaro kelishuvi tushuniladi. Shartnomada uni tuzgan shaxslarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi. Shartnomada belgilanadigan huquq va majburiyatlar bir-biri bilan bog'liq, chunki bir tarafning huquqi ikkinchi tarafning majburiyatini vujudga keltiradi. Xullas, shartnomada fermer xo'jaligining ham, xaridorning ham huquq va majburiyatlari o'z aksini topadi.

Shartnoma shartlariga amal qilmaslik, ularni buzish iqtisodiyotga salbiy ta'sir qiladi. Mahsulot yetkazib beruvchilarning shartnoma majburiyatini buzishi, o'z navbatida, boshqalarning majburiyatlarni bajarmasligiga olib keladi, oqibatda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonini paysalga soladi.

Endi, mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar rejasi bajarilishining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Bevosita tahlilga o'tishdan oldin zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash va ular asosida tahlil qilish usulining mazmunini bayon qilamiz.

Shartnomaviy majburiyat rejasi bajarilishining tahlilini amalga oshirishda, birinchi navbatda, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak:

1) biznes-reja bo'yicha mahsulotlarni sotish hajmini (q_{br}) ifodalovchi ko'rsatkich aniqlanadi;

2) shartnomaga ko'ra xaridorga yetkazib berilmagan mahsulotlar hajmi (q_{xb}) aniqlanadi;

3) shartnomaviy majburiyatlar chegarasida xaridorlarga sotilgan mahsulotlar hajmi aniqlanadi. Buni aniqlash uchun biznes-rejadagi mahsulotlar sotish hajmidan xaridorlarga yetkazib berilmagan mahsulotlar hajmi chegirib tashlanadi ($q_{br} - q_{xr}$);

4) shartnomaviy majburiyatlar rejasining bajarilishi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich shartnomaviy majburiyatlar chegarasida sotilgan mahsulotlar ($q_{br} - q_{xb}$) hajmini 100 foizga ko'paytirib, natijasini biznes-rejada ko'zda tutilgan sotish hajmiga (P_{br}) bo'lish orali aniqlanadi:

$$Sh_{mb} = \frac{(q_{br} - q_{xb}) \cdot 100}{q_{br}},$$

bunda: Sh_{mb} — mahsulotlar sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar rejasining bajarilishi (foiz hisobida).

Shartnomaviy majburiyatlar rejasining bajarilishini aniqlashda majburiyatlarga nisbatan yetkazib berilgan ortiqcha mahsulotlar hajmi hisobga olinmaydi. Bular sotilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini aniqlashda, ya'ni jami sotilgan mahsulotlarning haqiqiy hajmini biznes-rejadagi mahsulotlarni sotish hajmiga bo'lish orqali aniqlash paytida hisobga olinadi, ammo tuzilgan shartnomaviy majburiyat rejasining bajarilishini aniqlashda hisobga olinmaydi.

Bozor munosabatlari sharoitida biznes-rejaning bajarilishi bilan bir qatorda shartnomaviy majburiyatning bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega, chunki shartnoma aniq sharoitdan kelib chiqqan holda shu hudud talabiga muvofiq tuziladi, ya'ni unda aholining yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning aniq tovarlarga bo'lgan talabi hisobga olinadi. Talab qilinadigan tovarlardan ortiqcha yoki kam yuborish, yoki talab qilinmaydigan tovarlarni yuborish shartnoma shartini buzish hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklari mahsulot sotish rejasini nafaqat umumiy hajmi, balki shartnomada belgilangan mahsulotlarning turlari bo'yicha ham bajarishi zarur, chunki mahsulotlar turlicha iste'mol xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, ayrim mahsulotlar bo'yicha yuzaga kelgan tanqislikni boshqa bir mahsulotlarni iste'mol qilish bilan to'ldirib bo'lmaydi. Shuning uchun shartnomaviy majburiyatlarni bajarish katta ahamiyatga ega.

Fermer xo'jaligi tomonidan olingan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda xaridorlar tomonidan iqtisodiy jarimalar qo'llaniladi, ishonch yo'qoladi, oqibatda, uning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa raqobat bozorida o'z mavqeini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Fermer xo'jaligi bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar rejasi bajarilishining tahlilini ko'rib chiqamiz (11-jadval).

11-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilishining tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda
1	Sotilgan mahsulotlarning qiymati, ming so'm	121719	135092
2	Shartnomaga nisbatan yetkazib berilmagan mahsulotlar qiymati, ming so'm	X	6300
3	Shartnomaviy majburiyatlar chegarasida sotilgan mahsulotlar hajmi, ming so'm	X	115419
4	Shartnomaviy majburiyatlar rejasining bajarilishi, % hisobida	X	94,8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahsulotlarni sotish rejasi, hisobot yilida 13373 ming so'mga (135092–121719) yoki 11% ga (13373 : 121719 · 100) oshirib bajarilgan, ammo shartnomaviy majburiyatlar rejasi 94,8 % ga bajarilgan, xolos. Boshqacha aytganda, shartnomaviy majburiyatlar rejasi 5,2% ga bajarilmasdan qolgan. Natijada shartnomadagi 6300 ming so'mlik mahsulot iste'molchilarga shartnomada kelishilgan muddatlarda yetkazib berilmagan.

Xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi keskin oshishiga qaramasdan, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilmasdan qolishi ko'plab salbiy holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun shartnomaviy majburiyatlarning bajarilish darajasi bo'yicha dinamikasini ham o'rganish zarur. Majburiyatlarning bajarilish darajasiga qarab, ushbu jarayonga umumiy baho berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.3.5. Sotilgan mahsulot sifatining va uning o'rtacha sotish bahosi bilan pul daromadi hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili

Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati hisoblanadi. Mahsulotlar sifatining oshishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida va aholi moddiy farovonligining oshishida muhim rol o'ynaydi.

Mahsulot sifati ma'lum ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi. Masalan, paxtaning sifati uning navlari bilan, donning sifati uning klasslari bilan, qoramol go'shtining sifati semizlik kategoriyalari (yuqori, o'rta, o'rtadan past va oriq kategoriyalari) bilan, sutning sifati uning yog'lilik darajasi bilan ifodalanadi. Shunday tasnifiy belgilar boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarida ham mavjud. Mahsulot sifatining oshgan yoki kamayganligini aniqlash uchun, avvalo, uning sifatini ifodalovchi o'rtacha ko'rsatkichni (koeffitsiyenti) hisoblab olish zarur, ya'ni paxta bo'yicha o'rtacha navlik koeffitsiyentini, sut bo'yicha o'rtacha yog'lilik koeffitsiyentini, qoramol bo'yicha o'rtacha semizlik koeffitsiyentini va boshqa mahsulotlar bo'yicha ham o'rtacha koeffitsiyentlarni hisoblab olish kerak. O'rtacha koeffitsiyentlar yordamida mahsulot sifatining dinamikasi (yoki rejasining bajarilishi) qiyoslash orqali tahlil qilinadi.

Mahsulot sifatining oshishi, o'z navbatida, sotilgan mahsulot miqdori va hajmining oshishiga hamda foydaning ko'payishiga va rentabellikning oshishiga olib keladi. Mahsulot sifatining oshishi unga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'ladi. Mahsulot sifatining oshishi bozorda raqobat kurashida yutib chiqish yoki o'z mavqeyini ushlab turish imkoniyatini yaratadi. Sifatli mahsulot bozorda yuqori baholarda sotilib, qo'shimcha daromad olib kelish manbaiga aylanadi.

Mahsulot sifatini tahlil qilishning asosiy maqsadi – bu ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga baho berish hamda sotilgan mahsulot bo'yicha pul daromadi hajmining va foydasining ko'payishiga (yoki kamayishiga) uning tegishli ta'sirini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Mahsulot sifatining tahlilini sotilgan paxta misolida ko'rib chiqamiz. Sotilgan paxta sifati o'rtacha navlik koeffitsiyenti va o'rtacha sotish bahosi koeffitsiyenti ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

O'rtacha navlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi? *Sotilgan mahsu*lotning har bir navi bo'yicha hisoblangan qiymatlarining jami summasini jami mahsulotning birinchi nav bo'yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$\overline{KH}=\sum(\sum q_i \cdot c_i \cdot p_i)/\sum q_i \cdot p1_i,$$

bunda: $\sum q_i$ – sotilgan jami mahsulot miqdori; c_i – har bir navning salmog'i (hissasi), koeffitsiyent yoki foiz hisobida; $p1_i$ – mahsulot tarkibidagi birinchi navning bahosi; p_i – sotilgan har bir navga tegishli baho.

Agar ushbu koeffitsiyent joriy yil bo'yicha tahlil qilinsa, sotilgan mahsulotning barcha navlari bo'yicha qiymati joriy baholarda, agar dinamika bo'yicha tahlil qilinsa, barcha navlar bo'yicha qiymati bazis yilining baholarida hisoblab olinishi kerak. Agar dinamika tahlilida mahsulot qiymati joriy baholarda hisoblab olinsa, xatolikka yo'l qo'yiladi, chunki baholar yildan yilga o'zgarib turadi. Ayniqsa, bu paxta va g'alla bo'yicha hisoblanadigan o'rtacha navlik koeffitsiyentiga tegishlidir, chunki davlat tomonidan ushbu mahsulotlarning xarid narxlari har yili belgilanib, o'zgarib turadi.

Demak, o'rtacha navlik koeffitsiyenti quyidagi usullar bo'yicha aniqlanishi va tahlil qilinishi kerak:

1-usul. Joriy yil uchun hisoblanadigan koeffitsiyent sotilgan mahsulotning har bir navi bo'yicha tegishli joriy baholarda hisoblangan qiymatining jami summasini jami mahsulotning birinchi nav joriy bahosi bo'yicha hisoblangan qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

2-usul. O'rtacha navlik koeffitsiyenti dinamikasining tahlilida, ushbu koeffitsiyent sotilgan mahsulotning har bir navi bo'yicha tegishli bazis yili bahosida hisoblangan qiymatlarning jami summasini jami mahsulotning birinchi navning bazis yilidagi bahosi bo'yicha hisoblangan qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Endi, mahsulot sifatining tahlilini paxta misolida ko'rib chiqamiz. Hisobot yilidagi o'rtacha navlik koeffitsiyentini rejadagi yoki bazis yilidagi o'rtacha navlik koeffitsiyentiga solishtirib, paxta sifatining oshgan yoki pasayganligi aniqlanadi. Hisobot yilidagi koeffitsiyent oshgan bo'lsa, paxta

sifatining o'tgan yiligiga nisbatan yoki rejalashtirilgan sifatiga nisbatan oshganligini bildiradi.

Endi, fermer xo'jaligi misolida sotilgan paxta sifati dinamikasining tahlilini 12-jadvaldagi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

12-jadval

Paxta sifati va uning pul tushumining hajmiga ta'sirini aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Navlar	Bazis yilidagi 1 s bahosi, so'mda	Sotilgan paxta miqdori, s		Navlar salmog'i, %		Hisobot yilidagi paxta miqdori bazis yilidagi navligi darajasi bo'yicha $\sum q_1 \cdot c_0$	Bazis yilida sotishdan olingan pul tushumi, ming so'm $\sum q_0 \cdot c_0 \cdot p_0$	Hisobot yilida bazis yilidagi baho bo'yicha olinishi ko'zda tutilgan pul tushumi, ming so'm	
		Bazis yilida q_0	Hisobot yilida q_1	Bazis yilida c_0	Hisobot yilida c_1			Hisobot yilidagi navlik darajasi bo'yicha $\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_0$	Bazis yilidagi navlik darajasi bo'yicha $\sum q_1 \cdot c_0 \cdot p_0$
I	20225	2772	2848	77,0	75,3	2912,9	56063	57601	58913
II	17238	126	204	3,5	5,4	132,4	2172	3516	2282
III	14148	162	208	4,5	5,5	170.2	2292	2943	2408
IV	10518	216	242	6,0	6,4	227,0	2272	2545	2388
V	4954	324	281	9,0	7,4	340,5	1605	1392	1687
Jami	**17890**	**3600**	**3783**	**100,0**	**100,0**	**3783**	**64404**	**67997**	**67678**

12-jadval ma'lumotlari asosida sotilgan paxta bo'yicha o'rtacha navlik koeffitsiyentlarini aniqlaymiz:

bazis yili uchun:

$$\overline{KH}=\sum(\sum q_0 \cdot c_0 \cdot p_0)/\sum q_0 \cdot p1_0 = 64404/3600 \cdot 20225 = 64404/72810 = 0{,}885 \text{ yoki } 88{,}5\%;$$

hisobot yili uchun:

$$\overline{KH}_1=\sum(\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_0)/\sum q_1 \cdot p1_0 = 67997/3783 \cdot 20225 = 67997/76511 = 0{,}889 \text{ yoki } 88{,}9\%.$$

Demak, hisobot yilida sotilgan paxtaning o'rtacha navlik koeffitsiyenti 88,9% ni tashkil qilgan bo'lib, u bazis yilidagi 88,5% ga nisbatan 0,4% ga oshgan.

12-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot va bazis yillarida navlarning hissasi bir-biridan farq qiladi. I-navning salmog'i hisobot yilida 75,3% ni tashkil qilgan bo'lib, u bazis yilidagi hissaga nisbatan 1,7% ga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha amaliyotda ko'pincha paxta sifatiga baho beriladi. Agar oshgan bo'lsa, sifat oshgan deb, pasaygan bo'lsa, sifat pasaygan deb baho beriladi. Bizning misol bo'yicha ham ko'z bilan chamalab,

paxta sifati bazis yiliga nisbatan pasaygan deb xulosa qilish mumkin. Ammo bizning hisob-kitoblarimiz ushbu ko'rsatkich bo'yicha birdaniga kamaygan yoki oshgan deb xulosa chiqarish mumkin emasligini ko'rsatdi. Bizning hisob paxta sifati hisobot yilida bazis yiliga nisbatan o'rta hisobda pasaymaganligini, balki oz bo'lsa-da oshganligini ko'rsatdi.

Shuning uchun birdaniga xulosa chiqarmasdan, yuqorida keltirilgan tahlil usulidan foydalanib, mahsulot sifati bo'yicha o'rtacha navlik koeffitsiyentini aniqlab olgandan keyin xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Sotilgan mahsulot sifatining o'zgarishi o'rtacha sotish bahosining hamda pul tushumi hajmining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Pul tushumi hajmining o'zgarishiga mahsulot sifati o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Hisobot yilida shu yil navlik darajasi va bazis yilidagi baho bo'yicha hisoblangan pul tushumi» hajmidan «Hisobot yilida bazis yilidagi navlik darajasi va bazis yilidagi baho bo'yicha hisoblangan pul tushumi» hajmini chegirib tashlash kerak:

$$\sum(\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_0) - \sum(\sum q_1 \cdot c_0 \cdot p_0) = 67997 - 67678 = +319 \text{ ming so'm.}$$

Demak, paxta sifatining o'rtacha hisobda 0,4% ga oshishi natijasida pul tushumi hisobot yilida 319 ming so'mga ko'paygan.

Paxta sifati o'zgarishining o'rtacha sotish bahosining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun sifat o'zgarishi hisobiga olingan pul tushumi hajmini hisobot yilida sotilgan mahsulotning jami miqdoriga bo'lishi kerak: 319000/3783 = =+84,0 so'm.

Demak, 1 s paxtaning o'rtacha sotish bahosi hisobot yilida paxta sifatining oshishi tufayli 84,0 so'mga oshgan.

1 s paxtaning o'rtacha sotish bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2023 so'mga oshgan:

$$\frac{\sum(\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_1)}{\sum q_1} - \frac{\sum(\sum q_0 \cdot c_0 \cdot p_0)}{\sum q_0} = \frac{75311000}{3783} - \frac{64404000}{3600} = 19908 - 17890 = +2018 \text{ so'm.}$$

Shu jumladan, paxta sifati oshishi hisobiga o'rtacha sotish bahosi 84 so'mga oshgan:

$$\frac{\sum(\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_0)}{\sum q_1} - \frac{\sum(\sum q_1 \cdot c_0 \cdot p_0)}{\sum q_1} = \frac{67997}{3783} - \frac{67678}{3783} = 17974 - 17890 = 84 \text{ so'm.}$$

Davlat tomonidan bahoning oshirilishi hisobiga o'rtacha sotish bahosi 1934 so'mga oshgan:

$$\frac{\sum(\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_1)}{\sum q_1} - \frac{\sum(\sum q_1 \cdot c_1 \cdot p_0)}{\sum q_1} = \frac{75311}{3783} - \frac{67997}{3783} = 19908 - 17974 = +1934 \text{ so'm.}$$

Ushbu ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, o'rtacha sotish bahosining oshishi asosan davlat tomonidan xarid qilish baholarining oshirilishi hisobiga sodir bo'lgan, ya'ni 95,8% shu manba hisobiga sodir bo'lgan.

2.3.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Pul tushumi, sof pul tushumi, shartli pul tushumi, sotish hajmi, sotilgan mahsulot, o'rtacha sotish bahosi, mahsulot sifati, mahsulot navi,o'rtacha navlik koeffitsiyenti, sotilgan har bir navning salmog'i, har bir navga tegishli baho, shartnoma, shartnomaviy majburiyatlar, intensiv omil, ekstensiv omil.

Takrorlash uchun savollar

1. Pul tushumi va sof pul tushumi ko'rsatkichlarining mazmunini tushuntiring.
2. Sotilgan mahsulotlar hajmi deganda qaysi ko'rsatkich tushuniladi?
3. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi?
4. Sof pul tushumining o'zgarishiga omillarning ta'sirini qaysi usullaridan foydalanib aniqlash mumkin?
5. Sof pul tushumining o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash yo'lini bayon qiling.
6. Har bir sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi, ular qaysilar?
7. Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga omillarning ta'sirini qaysi usullar orqali aniqlash mumkin?
8. Mahsulot sifatini tahlil qilish tartibini tushuntiring.
9. Mahsulotning sifati qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
10. O'rtacha navlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi, u nima uchun kerak?
11. Mahsulot sifati o'zgarishining pul tushumi hajmining o'zgarishiga ta'sirini qanday aniqlash mumkin?
12. Mahsulot sifati o'zgarishining o'rtacha sotish bahosining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash tartibini tushuntiring.
13. Mahsulot sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi qanday tahlil qilinadi?
14. Mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini tushuntiring.

MASHQ

Sotilgan mahsulotlarning miqdori va hajmining omilli tahlili sotilgan bug'doy misolida asosiy matnda ko'rib chiqilgan (48–51-betlarga qarang). Siz o'sha joyda keltirilgan qoida va usullarni qo'llab, sotilgan paxta misolida sof pul tushumi dinamikasining tahlilini 10- jadvaldagi (51-betga qarang) ma'lumotlar asosida bajaring. Tahlil natijasi asosida pul tushumini yanada ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsating hamda ularning iqtisodiyotga ta'sir etuvchi kuchiga baho bering.

XULOSALAR

Mazkur bobda tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, mahsulot sotish rejasi va dinamikasining tahlili, sotilgan paxta sifatining tahlili, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishining tahlili, mahsulot sifati, baho va pul tushumi ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligining tahlili masalalari yetarli darajada yoritildi. Bularni talaba yaxshi o'zlashtirib olishi kerak. Bunga erishishi uchun talabaga, ushbu masalalarni darslik bo'yicha o'qib, o'zlashtirishni hamda darslikda keltirilgan nazariy savollarga javob tayyorlash va mashqni mustaqil bajarishini tavsiya qilamiz.

O'QUV MAQSADI

Yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligining tahlili mavzusi bo'yicha rejalashtirilgan savollar: tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili, iste'mol qilingan suvdan foydalanish samaradorligining tahlili, yer-suv va ulardan foydalanishning ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili kabi masalalarning mazmun-mohiyati va tahlil etish usullari yoritilgan. Bu esa *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Ushbu mavzuning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish orqali yer-suvdan foydalanish darajasining oshishi ishlab chiqarish hajmi va samaradorligining keskin oshishiga, oqibatda tarmoq, qolaversa, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelishligi to'g'risidagi g'oyani talabalar ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Suv bilan ta'minlanish va undan foydalanish darajasi holatini tahlil etish masalalari hozirgi kunga qadar yaratilgan adabiyotlarda o'z aksini topgan emas. Shuning uchun uni yerdan foydalanish darajasining tahlili kabi adabiyotlardagi mavzularda aks ettirib, tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o'z navbatida, *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

3.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Yer milliy boylikning asosiy turidir. U qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» to'g'risidagi qonunining 1-moddasida undan respublika xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida oqilona foydalanish zarurligi qayd qilingan. Shu qoidaga amal qilgan holda har bir xo'jalik yurituvchi subyekt (shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi va boshqalar) yerni asrashi, avaylashi va undan samarali foydalanishi zarur. Suvdan ham xuddi yerga o'xshash, avaylab-asrab samarali foydalanish zarur.

Qishloq xo'jalik yerlaridan va suvdan samarali foydalanish xo'jalik iqtisodiyotining, oqibatda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlardan hamda suvdan oqilona va samarali foydalanish – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali mamlakatda oziq-ovqat muammosini hal qilishda nihoyatda katta rol o'ynaydi. Ushbu iqtisodiy jarayon holatidan faqat iqtisodiy tahlil orqali xabardor bo'lish mumkin. Yerdan samarali foydalanish deganda 1 gektar

(yoki 100 gektar) hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmining oshishini, suvdan samarali foydalanish deganda 1 ming m^3 suv hajmi hisobiga olingan mahsulot hajmining (miqdorining) ortishini tushunmoq kerak. Demak, 1 gektar yer maydoni va 1 ming m^3 suv hajmi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining oshishi xo'jalik bo'yicha yalpi va sof mahsulot hajmining oshishiga, oqibatda, mamlakat yalpi ichki mahsulotining ko'payishiga, xullas, mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi.

Shuning uchun ham yerdan va suvdan foydalanish darajasini chuqur tahlil qilib turish iqtisodiyot taraqqiyoti nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Shu bois, tahlilning maqsadi nimadan iborat?

Tahlilning maqsadi nimadan iborat? Tahlilning maqsadi – qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yer va sarf bo'lgan suvdan foydalanish darajasini o'rganish asosida ulardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashdan iborat. Tahlil maqsadiga o'z oldida turgan vazifalarni bajarish orqali erishadi. Yer-suvdan foydalanish samaradorligi tahlilining asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1) qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan foydalanish darajasini aniqlash;

2) yerlardan foydalanish darajasi o'zgarishining sabablarini omilli tahlil qilish orqali aniqlash;

3) qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga sarf bo'lgan suvdan foydalanish darajasini aniqlash;

4) suvdan foydalanish darajasining o'zgarishini omilli tahlil qilish va o'zgarishiga obyektiv baho berish;

5) yerdan va suvdan foydalanish darajasini yaxshilash uchun mavjud imkoniyatlarni ko'rsatish va jalb etish bo'yicha takliflar berish.

3.2. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yerdan foydalanish darajasi oshgan sayin mahsulot hajmi ko'payib va ishlab chiqarish samaradorligi oshib, oqibatda iqtisodiyot mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham yerdan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda o'rganish zarur.

Yerdan foydalanish samaradorligi deganda nima tushuniladi? Bir birlik yer maydoni hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi yerdan foydalanish samaradorligi deb tushuniladi. Demak, yerdan foydalanish samaradorligi 1 yoki 100 gektar maydon hisobiga yetishtirilgan mahsulot bilan ifodalanadi.

Yerdan foydalanish samaradorligi asosan quyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

1) bir yoki yuz gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi;

2) bir yoki yuz gektar hisobiga olingan yalpi daromad (sof mahsulot) hajmi;

3) bir yoki yuz gektar hisobiga olingan sof daromad (foyda) hajmi.

Mazkur ko'rsatkichlar yer mahsuldorligi deb ham ataladi.

Yalpi mahsulot hajmi (yalpi daromad hajmi) ni yer maydoniga (M) bo'lish orqali saaradorlikning asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari aniqlanadi, ya'ni quyidagi formulalardan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$YERM = \frac{\sum YM}{\sum M}; \quad YERM = \frac{\sum YD}{\sum M}; \quad YERM = \frac{\sum CD}{\sum M};$$

bunda: $YERM$ – yer mahsuldorligi darajasi; $\sum YM$ – yalpi mahsulot; $\sum YD$ – yalpi daromad; $\sum SD$ – sof daromad; $\sum M$ – qishloq xo'jalik yerlari maydoni (kadastr maydon).

Yer mahsuldorligini qaysi maydonga nisbatan hisoblash to'g'riroq bo'lali? Agar ishlab chiqarish yo'nalishi bir ekin turiga moslashgan bo'lsa, yalpi mahsulotni ekinzor maydoniga, agar har xil yo'nalish ekinlari bo'yicha mahsulot yetishtirilgan bo'lsa, kadastr maydonga bo'lish orqali aniqlash to'g'riroq bo'ladi.

Kadastr maydon qanday aniqlanadi? Kadastr maydon har bir ekinning fizik maydoni o'lchamini (FM) kadastr maydonga aylantirish koeffitsiyentiga ($KMAK$) ko'paytirib, natijalarini jamlash orqali aniqlanadi:

$$\sum(FM \cdot KMAK).$$

Kadastr maydonga aylantirish koeffitsiyenti qanday topiladi? Har bir ekin turi bo'yicha 1 gektar maydon hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmini (BGM) shular orasida eng yuqori darajaga ega bo'lgan ko'rsatkich hajmiga ($BGYuM$) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$KMAK = \frac{\text{BGM}}{\text{BGYuM}}.$$

1 gektar maydon hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi ko'rsatkichlari orasida eng yuqori darajaga ega bo'lgani 1 koeffitsiyentga (yoki 100 ballga) teng deb olinadi, qolganlarini kadastr maydonga aylantirish koeffitsiyenti har doim birdan kam bo'ladi.

Biz yalpi mahsulot (YM) bo'yicha hisoblangan yer mahsuldorligi (1 ga hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot) misolida quyida tahlilni ko'rib chiqamiz. Buning uchun hisobot yilidagi yer mahsuldorligi darajasidan ($\sum YM_1 : M_1$) bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) yer mahsuldorligi darajasini ($\sum YM_0 : M_0$) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \pm\Delta_{M,YM}.$$

Bu o'zgarish qo'yidagi ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonining o'zgarish hisobiga (kadastr maydonining o'zgarishi hisobiga);

2) yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga.

Mazkur omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashga o'tishdan oldin «Shartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichini aniqlab olish zarur.

«Shartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi yalpi mahsulot hajmini (YM_0) hisobot yilidagi yer maydoniga (M_1) bo'lish kerak:

$$YEPM_{sh} = \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_1}.$$

Shundan keyin yer mahsuldorligi darajasining o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga yer maydoni hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Shartli yer mahsuldorligi» darajasidan bazis davrdagi (yoki rejadagi) yer mahsuldorligi darajasi chegirib tashlanadi:

$$\frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \pm\Delta_M.$$

Yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yer mahsuldorligi darajasidan shartli yer mahsuldorligi darajasi chegirib tashlanadi:

$$\frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_1} = \pm\Delta_{YM}.$$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yigindisi yer mahsuldorligi darjasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak: $\Delta_M \pm \Delta_{YM} = \pm\Delta_{M,YM}$.

Endi, 13-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib fermer xo'jaligi bo'yicha yer mahsuldorligining tahlilini yetishtirilgan paxta va bug'doy misolida ko'rib chiqamiz.

13-jadval

Yer mahsuldorligini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Paxta		Bug'doy	
		Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot yili
1	Ekin maydoni, ga	160	158	257	257
2	Hosildorligi, s/ga	22,5	23,9	45	57
3	Yalpi hosil, s	3600	3783	11565	14692
4	1 s mahsulotni taqqoslash bahosi (bazis yiliniki), so'm	17890	17890	4463	4463
5	Yalpi mahsulot (taqqos.bahoda), ming so'm	64404	67678	51614	65570
6	1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot, ming so'm	402,5	428,3	200,8	255,1
7	Kadastr maydonga aylantirish koeffitsiyenti	1,0	1,0	0,5	0,6
8	Kadastr maydon,ga (1qator:7qator100)	160	158	128,5	154

Birinchi navbatda 13-jadvaldagi ma'lumotlar asosida yerdan foydalanish samaradorligi darajasi va uning o'zgarish aniqlanadi:

bazis yili uchun $YEPM_0 = \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \frac{64404+51614}{160+128,5} = \frac{116018}{288,5} = 402,1$ ming so'm;

hisobot yili uchun $YEPM_1 = \frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} = \frac{67678+65570}{158+154} = \frac{133248}{312} = 427,1$ ming so'm;

Umumiy o'zgarishi:

$$\frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \frac{133248}{312} - \frac{116018}{288,5} = 427,1 - 402,1 = +25 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 gektar yer maydoni hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hisobot yilida 427,1 ming so'mni, bazis yilida 402,1 ming so'mni tashkil qilgan, natijada yer mahsuldorligi darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 25 ming so'mga yoki 6,2% ga oshgan. Ushbu o'zgarish yuqorida qayd qilganimizdek, ikki omil hisobiga yuzaga kelgan.

1-omil – kadastr maydon o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \frac{116018}{312} - \frac{116018}{288,5} = 371,8 - 402,1 = -30,3 \text{ ming so'm.}$$

Demak, kadastr maydonning 23,5 gektarga kamayishi natijasida 1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi (yer mahsuldorligi) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 30,3 ming so'mga yoki 7,5 % ga kamaygan.

2-omil – yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_1} = \frac{133248}{312} - \frac{116018}{312} = 427,1 - 371,8 = +55,3 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan yalpi mahsulot hajmining 17230 ming so'mga oshishi natijasida 1 gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 55,3 ming so'mga yoki 14,8% ga oshgan. Demak, yer mahsuldorligi darajasining oshishi asosan yalpi mahsulot hajmining oshishi natijasida yuzaga kelgan.

Yalpi daromad va sof daromad asosida hisoblanadigan yerdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish tartibi (usuli) yuqorida bayon qilingan tartibdan farq qilmaydi, shuning uchun ularni tahliliga bu yerda to'xtalmadik. Tahlil qilmoqchi bo'lsangiz, yalpi mahsulot ko'rsatkichi o'rniga yalpi daromad yoki sof daromad ko'rsatkichini qo'yib amalga oshiring. Kadastr maydon o'zgarmasdan qoladi.

3.3. Qishloq xo'jalik yerlarida iste'mol qilingan suvdan foydalanish samaradorligining tahlili

O'zbekistonda 1 yilda o'rtacha 60 mlrd kub metr suv iste'mol qilinadi, uning 90% i qishloq xo'jaligida, qolgan qismi esa aholi ta'minoti, sanoat, qurilish va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida iste'mol qilinadi. Mamlakatimizda foydalanilayotgan suv resurslarining 10–12 foizigina Respublikamiz hududida shakllanadi, qolgan 88–90 foizi esa qo'shni davlatlardan oqib keladi. Shuning uchun ham iste'mol qilinayotgan suvni tejash va samarali foydalanish masalasi har bir xo'jalik oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan har bir xo'jalikda suv bilan ta'minlanish va, ayniqsa, undan foydalanish ahvolidan xabardor bo'lib turish zarur. Ushbu ahvoldan iqtisodiy tahlil orqali xabardor bo'lish mumkin. Shuning uchun suvdan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish orqali qo'yilgan maqsadga erishish mumkin.

Suv bilan ta'minlanish darajasining tahlili ham hisobot va bazis yillardagi ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirib, farqini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot yilidagi suv bilan ta'minlanish darajasi ko'rsatkichini bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan ko'rsatkichi bilan solishtirilib uning o'zgarishi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda aniqlanadi. So'ngra omillarning ta'siri aniqlanib, suv bilan ta'minlanish darajasiga baho beriladi.

Suv bilan ta'minlanish darajasi qanday aniqlanadi? Suv bilan ta'minlanish darajasi (*STD*) sarf bo'lgan jami suv (ming kub metr hisobidagi) hajmini (*JSH*) jami maydonga (*JM*) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$STD = \frac{JSH}{JM}.$$

Ushbu ko'rsatkich 1 gektar maydonga sarf bo'lgan suv hajmini ifodalaydi.

Hisobot yilida 1 gektar maydonga sarf bo'lgan suv hajmini rejadagi yoki o'tgan yilda sarf bo'lgan suv hajmiga solishtirib, suv bilan ta'minlanish darajasining o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{JSH_1}{JM_1} - \frac{JSH_0}{JM_0} = \pm\Delta_{JM,\ SSH}.$$

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga yuzaga keladi.

1) jami maydon o'lchamining o'zgarishi hisobiga;

2) sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi hisobiga.

Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlaymiz. Yer maydoni o'lchami o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 gektar maydonga sarf bo'lgan shartli suv hajmi ko'rsatkichidan bazis yilidagi (yoki rejadagi) ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{JSH_0}{JM_1} - \frac{JSH_0}{JM_0} = \pm\Delta_{JM}.$$

Sarf bo'lgan suv hajmi bo'yicha o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida 1 gektar maydonga sarf bo'lgan suv hajmi ko'rsatkichidan shartli suv hajmi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{JSH_1}{JM_1} - \frac{JSH_0}{JM_1} = \pm\Delta_{JSH}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi suv bilan ta'minlanish ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan so'ng omillar ta'siriga baho berilib, imkoniyatlar ko'rsatiladi.

Tahlil jarayonida suvdan foydalanish samaradorligi darajasining o'zgarishiga alohida e'tibor berish zarur.

Suvdan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkich orqali ifodalanadi? Ushbu ko'rsatkich 1 ming m^3 suv hajmi hisobiga olingan mahsulot hajmi bilan ifodalanadi. Buni aniqlash uchun 1 gektardan olingan mahsulot miqdorini (H) 1 gektar uchun sarf bo'lgan suv hajmiga (SS) bo'lish kerak:

$$S = \frac{H}{SS}.$$

bunda: S – suvdan foydalanish ko'rsatkichi (1 ming kub metr suv hisobiga olingan mahsulot).

Hisobot yilidagi suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichidan bazis yilidagi ko'rsatkichini chegirib tashlash orqali uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$S_1 - S_0 = \frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \pm\Delta_{SS,H}.$$

Formuladan ko'rinib turibdiki, suvdan foydalanish samaradorligi darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1) 1 gektar maydon hisobiga sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi;

2) 1 gektar maydondan olingan mahsulot hajmining (miqdorining) (yoki hosildorlikning) o'zgarishi.

Ushbu omillarning suv foydalanish samaradorligining o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin suvdan foydalanish samaradorligining shartli ko'rsatkichini aniqlab olish zarur. Buni bazis yilidagi 1 gektar hisobiga olingan mahsulot miqdorini hisobot yilida 1 gektarga sarf bo'lgan suv hajmiga bo'lish orqali aniqlash mumkin:

$$S_{sh} = \frac{H_0}{SS_1}.$$

Shundan keyin omillarning suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi:

1 gektar hisobiga sarf bo'lgan suv hajmi bo'yicha o'zgarishining ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{H_0}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \pm\Delta_{SS}.$$

Suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga hosildorlik o'zgarishining ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

$$\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_1} = \pm\Delta_H.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichining o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Suvdan foydalanish samaradorligi darajasi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashni formula orqali ko'rsatdik. Hurmatli talaba! Har bir omilning ta'sirini aniqlash tartibini (qoidasini) o'zingiz yozma ravishda bayon qiling.

Endi, fermer xo'jaligi misolida suvdan foydalanish samaradorligining tahlilini yuqorida bayon qilingan usul asosida amalga oshiramiz. Buni 14-jadvaldan ko'rish mumkin.

14-jadval

Paxtachilikda suvdan foydalanish samaradorligining tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Bazis yilidagi hosildorlik va hisobot yilidagi 1 ga suv sarfi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarish (+, –)	Sh.J. o'zgarishi	
						1 gektarga sarf bo'lgan suv hajmi hisobiga	1 gektardan olingan hosil hisobiga
1	Bir gektarga sarflangan suv hajmi, ming m^3	11	9,6	9,6	–1,4	×	×
2	1 gektardan olingan hosil (hosildorlik), s/ga	22,5	22,5	23,9	+1,4	×	×
3	Bir ming m^3 suv hisobiga olingan hosil, kg (2 qator:1 qator)	204,5	234,4	248,9	+44,4	+29,9	+14,5

14-jadvaldan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida yetishtirilgan paxtaga sarf bo'lgan suvning samaradorligi darajasi hisobot yilida keskin oshgan, ya'ni 1 ming m^3 suv hisobiga olingan paxta miqdori 44,4 kg ga yoki 21,7% ga oshgan:

$$\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \frac{23,9}{9,6} - \frac{22,5}{11} = 248,9 - 204,5 = +44,4 \text{ kg}.$$

Suvdan foydalanish samaradorligining oshishiga ikkala omil ham ijobiy ta'sir qilgan. Shu jumladan, 1 gektar paxta maydoni hisobiga sarf bo'lgan suv hajmining kamayishi 1 ming m^3 maydon hisobiga olingan paxta hosilining 29,9 kg ga oshishiga olib kelgan:

$$\frac{H_0}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \frac{22,5}{9,6} - \frac{22,5}{11} = 234,4 - 204,5 = +29,9 \text{ kg}.$$

Paxta hosildorligi bazis yiliga nisbatan 1,4 s ga oshgan. Bu esa o'z navbatida, 1 ming m^3 suv hisobiga olingan paxta hosilini 14,5 kg ga oshishiga sabab bo'lgan:

$$\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_1} = \frac{23,9}{9,6} - \frac{22,5}{9,6} = 248,9 - 234,4 = +14,5 \text{ kg}.$$

Xullas, ikkala omilning ijobiy ta'siri ostida paxtachilikda suvdan foydalanish samaradorligining darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 21,7% ga ko'tarilgan. Suvdan foydalanish darajasining oshishi paxta yalpi hosilining keskin ko'payishiga sabab bo'lgan. Omilning ta'siri 3.5-§ da keltirilgan.

3.4. Yer va undan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili

Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish barcha resurslar bilan ta'minlanish va ayniqsa ulardan foydalanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shular orasida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida muhim o'rinni egallaydi.

Yer hajmi va uning mahsuldorligi oshib borgan sayin mahsulot hajmi ham oshib boradi. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga yer hajmi va undan foydalanish darajasining o'zgarishi bevosita ta'sir qiladi. Shu ikki omil ko'paytmalarining yig'indisi har doim yalpi mahsulot hajmiga teng bo'ladi (*MR*) Ushbu omillarning mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi (farqlash)», «zanjirli bog'lanish» usullaridan foydalanib aniqlash mumkin. Biz «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, tahlilni amalga oshiramiz.

Birinchi navbatda, yalpi mahsulot hajmi va uning o'zgarishini quyidagi formuladan foydalanib aniqlash zarur:

$$M_1R_1 - M_0R_0 = \pm\Delta_{MR},$$

bu yerda: M_1, M_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoni (ga hisobida): R_1, R_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi yer mahsuldorligi ko'rsatkichlari (1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi).

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmi quyidagi ikki omil ta'siri ostida o'zgaradi:

1) qishloq xo'jaligi yerlari maydonining o'zgarishi hisobiga;

2) yer mahsuldorligi darajasining o'zgarishi hisobiga.

Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin «**shartli yalpi mahsulot**» hajmini hisoblab olish zarur. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydoni hajmini bazis yilidagi yer mahsuldorligi darajasiga ko'paytirish kerak:

$$M_1 \cdot R_0.$$

Shundan keyin yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

1-omil – yer maydoni hajmi o'zgarishining ta'siri: ushbu omilning ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «shartli yalpi mahsulot»dan bazis yilidagi yalpi mahsulotni chegirib tashlash kerak:

$$M_1R_0 - M_0R_0 = \pm\Delta_M.$$

2-omil – yer mahsuldorligi darajasi o'zgarishining ta'siri: ushbu omilning ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi mahsulotdan shartli yalpi mahsulotni chegirib tashlash kerak:

$$M_1R_1 - M_1R_0 = \pm\Delta_R.$$

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi yalpi mahsulot hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$(M_1R_1 - M_0R_0) = (M_1R_0 - M_0R_0) \pm (M_1R_1 - M_1R_0).$$

Endi yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlilini xo'jalikning hisobot materiallari asosida ko'rib chiqamiz (materiallar 13-jadvalda keltirilgan).

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini bazis yilidagi hajmiga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi:

$(M_1R_1 - M_0R_0) = 312 \cdot 427{,}1 - 288{,}5 \cdot 402{,}1 = 133248 - 116018 = +17230$ ming so'm.

Demak, yalpi mahsulot hajmi tahlil qilinayotgan davrda 17230 ming so'mga ko'paygan. Bunga quyidagi ikki omil ta'sir qilgan:

1-omil – yer maydoni hajmi o'zgarishining ta'siri:

$(M_1R_0 - M_0R_0) = 312 \cdot 402,1 - 288,5 \cdot 402,1 = 125455 - 116018 = +9437$ ming so'm.

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan yer maydonining 23,5 gektarga ko'payishi natijasida yalpi mahsulot hajmi 9437 ming so'mga oshgan.

2-omil – yer mahsuldorligi darajasi o'zgarishining ta'siri:

$(M_1R_1 - M_1R_0) = 312 \cdot 427,1 - 312 \cdot 402,1 = 133248 - 125455 = +7793$ ming so'm.

Demak, 1 gektar yer maydoni hisobiga yetishtirilgan yalpi masulot hajmining 25 ming so'mga (427,1-402,1) ko'payishi natijasida yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 7793 ming so'mga ko'paygan.

Ushbu tahlilning natijasini 15-jadvaldan ko'rish mumkin.

15-jadval

Yer va undan foydalanish darajasi o'zgarishining yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi yer maydoni va bazis yilidagi yer mahsuldorligi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu jumladan o'zgarishi	
						Yer maydoni hisobiga	Yer mahsuldorligi hisobiga
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, ga	288,5	312	312	+23,5	×	×
2	Yer mahsuldorligi, ming so'm	402,1	402,1	427,1	+25	×	×
3	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, ming so'm	116018	125455	133248	+17230	+9437	+7793

15-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yer maydoni va yerdan foydalanish darajasining o'zgarishi bilan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Ushbu omillar darajalarining oshishi yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada yalpi mahsulot hajmini ko'payishiga sabab bo'lgan. Ikki omil ham yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 17230 ming so'mga ko'paygan. Demak, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining fizik miqdori oshgan.

Yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish imkoniyatlari bo'lib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqli bo'lgan yer maydonini ko'paytirish, ayniqsa, yerdan foydalanish darajasini oshirish hisoblanadi. Shularni amalga oshirish choralarini ko'rmoq zarur.

3.5. Suv va undan foydalanish darajasining ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili

Suv hajmi va undan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar bo'lib hisoblanadi. Shu ikki omil ko'paytmalarining yig'indisi yalpi hosilga teng bo'lishi kerak:

$$JSH \cdot S = YaH.$$

bunda: JSH – sarf bo'lgan jami suv hajmi (ming m^3 hisobida); S – 1 ming m^3 hisobiga olingan mahsulot miqdori; YaH – yetishtirilgan yalpi hosil miqdori.

Tahlil jarayonida, birinchi navbatda, yalpi hosil miqdorining o'zgarishi aniqlanadi:

$$(JSH_1 \cdot S_1) - (JSH_0 \cdot S_0) = \pm\Delta_{JSH,\,S}.$$

So'ngra omillar ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi:

1-omil – sarf bo'lgan jami suv hajmi o'zgarishining ta'siri: buni aniqlash uchun «Shartli yalpi hosil» miqdori ko'rsatkichidan $(JSH_1 \cdot S_0)$ bazis yilidagi yalpi hosil miqdori chegirib tashlanadi:

$$(JSH_1 \cdot S_0) - (JSH_0 \cdot S_0) = \pm\Delta_{JSH}.$$

Shartli yalpi hosil miqdori YaH_{sh} qanday aniqlanadi? Hisobot yilida sarf bo'lgan jami suv hajmini (JSH_1) bazis yilida 1 ming m^3 suv hisobiga olingan mahsulot miqdoriga (S_0) ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$JSH_1 \cdot S = YaH_{sh}.$$

2-omil – suvdan foydalanish samaradorligi (1 ming m^3 suv hisobiga olingan mahsulot miqdori) o'zgarishining ta'siri. Ushbu omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi hosil miqdoridan shartli yalpi hosil miqdorini chegirib tashlash kerak:

$$(JSH_1 \cdot S_1) - (JSH_1 \cdot S_0) = \pm\Delta_s.$$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi yalpi hosil miqdorining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shundan keyin omillarning ta'sirlariga baho berib, xulosa chiqarilishi kerak.

Endi, yuqorida bayon qilingan usul yordamida fermer xo'jaligi misolida paxta yalpi hosili, sarf bo'lgan suv hajmi va 1 ming m^3 suv hisobiga olingan paxta miqdori ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqlikning omilli tahlilini 16-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

16-jadval

Paxta yalpi hosili o'zgarishiga suv va undan foydalanish darajasi o'zgarishi ta'sirining tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi jami suv hajmi va bazis yilidagi suvdan foydalanish darajasi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu jumladan omillar ta'siri	
						Suv hajmining o'zgarishi hisobiga	Suvdan foydalanishning samaradorligi hisobiga
1	Sarf bo'lgan jami suv hajmi, ming m^3	1760	1517	1517	—43	×	×
2	1 ming m^3 hisobiga olingan paxta miqdori, kg	204,5	204,5	248,9	+44,4	×	×
3	Paxta yalpi hosili, s	3600	3102	3776	+176	–498	+674

16-jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta yalpi hosili hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 176 s ko'paygan:

$$(JSH_1 \cdot S_1)-(JSH_0 \cdot S_0)=(1517 \cdot 0{,}2489)-(1760 \cdot 0{,}2045)=3776-3600=+176 \text{ s.}$$

Bu o'zgarish bir omilning ijobiy, ikkinchisining salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Sarf bo'lgan jami suv hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 243 ming m^3 ga kamaygan, natijada shu omil hisobiga yetishtirilgan paxta yalpi hosili 498 s ga kamaygan:

$$(JSH_1 \cdot S_0)-(JSH_0 \cdot S_0)=(1517 \cdot 0{,}204{,}5)-(1760 \cdot 0{,}204{,}5)=3102-3600=-498 \text{ s.}$$

Suvdan foydalanish samaradorligi darajasi oshgan, ya'ni 1 ming m^3 suv hisobiga yetishtirilgan paxta hosili 44,4 kg ga ko'paygan, natijada shu omil hisobiga paxta yalpi hosili 674 s ga oshgan:

$$(JSH_1 - S_1)-(JSH_1 \cdot S_0)=(1517 \cdot 0{,}2489)-(1517 \cdot 204{,}5)=3776-3102=+674 \text{ s.}$$

Demak, suvdan foydalanish samaradorligi darajasining oshishi har doim ishlab chiqarish hajmining oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu omilning ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usuli orqali ham aniqlash mumkin. Buning uchun hisobot yilidagi suvdan foydalanish samaradorligi bilan bazis yilidagi samaradorligi orasidagi farqni $(S_1 - S_0)$ hisobot yilida sarf bo'lgan jami suv hajmiga ko'paytirish kerak:

$$(S_1-S_0) \cdot JSH_1=(0{,}2489-0{,}204{,}5) \cdot 1517=+674 \text{ s.}$$

3.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Yalpi mahsulot, yalpi daromad, sof daromad, ekin maydoni,ekinzor maydoni, kadastr maydon, yer mahsuldorligi, yerdan foydalanish samaradorligi, sarf bo'lgan suv hajmi, suvdoi foydalanish samaradorligi

Takrorlash uchun savollar

1. Yerdan foydalanish samaradorligini tahlil qilishning ahamiyati nimadan iborat?
2. Yerdan foydalanish samaradorligini tahlil qilishdan maqsad nima?
3. Yerdan foydalanish samaradorligi deganda nima tushuniladi?
4. Suvdan foydalanish samaradorligi deganda nima tushuniladi?
5. Yerdan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi? Har birining mazmunini tushuntiring.
6. Yer mahsuldorligi deb nimaga aytiladi? U qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
7. Yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi va ularning ta'siri qaysi usullar orqali aniqlanadi?
8. Yer va undan foydalanish darajasi o'zgarishining yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'siri qanday aniqlanadi?
9. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga yer hajmi va yer mahsuldorligi o'zgarishining ta'sirini qaysi usullar orqali aniqlash mumkun?
10. Shartli yer mahsuldorligi darajasi qanday hisoblanadi va unima uchun kerak?
11. Suvdan foydalanish samaradorligi qanday hisoblanadi? Uning mazmunini tushuntiring .
12. Suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi va ularning ta'siri qanday aniqlanadi?
13. Suv va suvdan foydalanish samaradorligi o'zgarishining paxta yalpi hosilining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash usulini tushuntiring.

MASHQ

Bug'doy yetishtirish bo'yicha sarf bo'lgan suvdan foydalanish samaradorligini «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaning.

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
Bug'doy maydoni, ga	50	54	+ 4
Bug'doy yalpi hosili, s	2000	2430	+ 430
Sarf bo'lgan suv hajmi, ming m^3	550	540	– 10

Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, hisoblang:

1) bazis va hisobot yillari uchun 1 gektarga sarf bo'lgan suv hajmini (ming m^3);

2) bazis va hisobot yillari uchun bug'doy hosildorligini;

3) 1 ming m^3 sarf bo'lgan suv hisobiga yetishtirilgan bug'doy hosili va uning o'zgarishini;

4) suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishini omilli tahlil qiling va uni oshirish imkoniyatlarini ko'rsating.

Izoh: suvdan foydalanish samaradorligining omilli tahlilini (4-savolga javobni) darslikning 66–68-betlarida keltirilgan qoida va usullardan hamda 14-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil etish yo'llaridan foydalanib, bajaring.

XULOSALAR

Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalar tahlili ushbu bobda yetarli darajada yoritildi. Ushbu mavzuni talaba yaxshi o'zlashtirib olishi uchun, unga darslikda keltirilgan mavzuni o'qib, yaxshi o'zlashtirishini hamda unda keltirilgan nazariy savollarga javob tayyorlashini va mashqni mustaqil o'zi bajarishini, qiyinchilik tug'ilgan taqdirda, ustoziga murojaat qilishini tavsiya qilamiz.

O'QUV MAQSADI

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining tahlili mavzusi bilan bog'liq bo'lgan masalalar: tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanishning tahlili, mehnat unumdorligining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlarining tahlili, mehnat resurslari va mehnat unumdorligining ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlilini mazmun-mohiyati, hisoblash va tahlil etish usullarining yoritilishi *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi tahlilining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish orqali ularning ta'siri ostida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va sarf-xarajatlarini kamaytirish tufayli, iqtisodiyotni mustahkamlash mumkinligi to'g'risidagi g'oyani talabalar ongiga sinidirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligini nafaqat ishlab chiqarish hajmi bilan, balki ularni mehnat haqi darajasi bilan ham uzviy bog'lagan holda o'rganish zarur. Bu jarayon o'quv dasturida o'z aksini topgan emas. Buni to'g'rilash zarur. Mehnat unumdorligi bilan mehnat haqining o'zaro bog'liqligi tahlilini ushbu mavzu bo'yicha o'rganish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* tashkil qiladi deb hisoblash mumkin.

4.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi va uning samaradorligining oshishi ko'p omillarga va shu jumladan mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan samarali foydalanish darajasiga ham bog'liqdir.

Mehnat resurslari deganda nima tushuniladi? Mehnat resurslari deganda mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlar tushuniladi. Mehnat resurslari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi. Qanday ishlab chiqarish korxonasi bo'lmasin, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida asosiy o'rinni jonli mehnat omili, ya'ni inson omili egallaydi, chunki fan – texnika taraqqiyoti rivojlanishi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar, inson omilining ishtirokisiz ishlab chiqarish yuzaga

kelmaydi, ya'ni inson omilisiz ishlab chiqarish jarayoni harakatga kelmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo'jalik korxonasining mehnat resurslari bilan ta'minlanish va, ayniqsa, ulardan foydalanish darajasini o'rganish korxona iqtisodiyotining taraqqiyoti nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga egadir.

Mehnat resurslarini tahlil etish orqali korxonaning xodimlar bilan ta'minlanish, ish vaqtidan foydalanish hamda mehnat unumdorligi darajasi kabi ko'rsatkichlar holatiga baho beriladi.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil qilishning maqsadi nimadan iborat? Tahlilning maqsadi ish vaqtidan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va sarf-xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Mehnat resurslaridan foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib, mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligining oshishi har doim ishlab chiqarish ko'lamining oshishiga sabab bo'ladi. Mehnat unumdorligi oshgan sayin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ko'payib, uning samaradorligi oshib boradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ham sabab bo'ldi.

Mehnat unumdorligining pasayishi ishlab chiqarish natijasiga salbiy ta'sir qiladi, boshqacha aytganda, mehnat unumdorligining pasayishi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori kamayib boradi. Bunday holat fermer xo'jaligi iqtisodiyoti, qolaversa, qishloq xo'jaligining taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiladi.

Mehnat unumdorligining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qilishi bilan bir qatorda uning iqtisodiy samaradorligining o'zgarishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, mehnat unumdorligining oshishi samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan mahsulot tannarxining pasayishiga sabab bo'ladi, aksincha, mehnat unumdorligining pasayishi mahsulot tannarxining qimmatlashishiga olib keladi. Shuning uchun mehnat unumdorligining tahlilini o'z vaqtida amalga oshirish katta ahamiyatga egadir.

Demak, mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham mehnat unumdorligini uzluksiz o'rganish asosida uni yanada oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish iqtisodiy tahlilning asosiy maqsadidir.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanish tahlili o'z maqsadiga quyidagi asosiy vazifalarni bajarish orqali erishadi:

1) korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasini o'rganish va baho berish;

2) ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish;

3) mehnat unumdorligi darajasini aniqlash va uning o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblab, baho berish;

4) mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga xodimlar soni va mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash va baho berish;

5) mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash.

4.2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish darajasining tahlili

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda boshqa iqtisodiy sharoitlar bilan bir qatorda xo'jalikning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ayniqsa, ulardan samarali foydalanishi ham muhim rol o'ynaydi.

Xo'jalikning mehnat resurslari bilan (ya'ni ishchi kuchi bilan) ta'minlanishini tahlil qilishda hisobot yilidagi mavjud haqiqiy ishlovchilar sonini talab qilinadigan soniga yoki bazis yilidagi soniga solishtirib, ta'minlanish darajasi aniqlanadi. U mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Xo'jalikning mehnat resurslari bilan ta'minlanish holatini tahlil qilishda xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va ularning qo'nimsizlik ahvoliga alohida e'tibor beriladi.

Mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi me'yor atrofida bo'lsa, ishlab chiqarishga albatta ijobiy ta'sir qiladi, ayniqsa, mehnat resurslaridan foydalanish samarali bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining o'sishiga, mehnat unumdorligining oshishiga sababchi bo'ladi.

Mehnat resurslaridan foydalanish quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

1) o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni (K);

2) o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni (S);

3) ish kunining o'rtacha davomiyligi (D);

4) ish vaqti fondi (soat hisobida).

Mazkur ko'rsatkichlar orqali mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyentlari aniqlanib, tahlil qilinadi. Ushbu koeffitsiyentlarni o'zaro solishtirib, tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, ish vaqti fondi hisoblanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili xo'jalik bo'yicha ham, uning har bir ishlab chiqarish bo'limi bo'yicha ham, ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha ham amalga oshiriladi. Biz bu ishni o'simlikchilik tarmog'i bo'yicha amalga oshiramiz. Buni 17-jadvaldan ko'rish mumkin.

17-jadval

Fermer xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish dinamikasining tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili		Farqi (+, –)		Hisobot yili, %	
			Reja	Haqiqiy	Bazis yilidan	Rejadan	Bazis yiliga nisbatan	Rejaga nisbatan
1	Ishlovchilarning o'rtacha soni (T), kishi	32	30	31	–1	+1	99,9	103,3
2	1 ishlovchining ishlagan kunlari soni (K), kun hisobida	260	250	229	–31	–21	88,1	91,6
3	1 ishlovchining ishlagan soatlari soni (S), soat hisobida	1820	1750	1580	–240	–170	86,8	90,3
4	Ish kunining o'rtacha davomiyligi (D), soat hisobida	7,0	7,0	6,9	–0,1	–0,1	98,6	98,6
5	Ish vaqti fondi (FS), soat hisobida	58240	52500	48980	–9260	–3520	84,1	93,3

17-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan ham, rejaga nisbatan ham pasaygan. Bazis yiliga nisbatan o'rtacha bir ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni 31 kunga, ishlagan soatlari soni esa 240 soatga kamaygan, ushbu ko'rsatkichlar mos holda rejaga nisbatan 21 kun va 170 soatga kamaygan. Bu o'zgarishlar ish vaqti bo'yicha yo'qotishlar sodir etilganligini ko'rsatadi.

Qancha ish vaqti yo'qotilgan, qancha ishchi kuchi bo'yicha yetishmovchilik sodir etilgan degan savollarga javob berish uchun ish vaqti fondidan foydalanish ahvolining tahlilini amalga oshirish zarur.

Ish vaqti fondidan foydalanish ahvolining omilli tahlili zanjirli bog'lanish usuli orqali amalga oshirildi. Ish vaqti fondining o'zgarishi quyidagi uch omil hisobiga yuzaga keladi:

1) ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik sonining (T) o'zgarishi;

2) bir ishlovchining o'rtacha ishlagan kunlari sonining (K) o'zgarishi;

3) ish kunining o'rtacha davomiyligining (D) (soat hisobida) o'zgarishi.

Ushbu omillar ko'paytmalarining yig'indisi ish vaqti fondining hajmiga teng keladi:

$$T \cdot K \cdot D = FS.$$

Bu omillarning ish vaqti fondining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi 4 ta zanjirli bog'lanish ko'rsatkichi aniqlab olinadi:

I. $FS_0 = T_0 \cdot K_0 \cdot D_0$.

II. $FS_{shi} = T_1 \cdot K_0 \cdot D_0$.

III. $FS_{sh2}=T_1\cdot K_1\cdot D_0$.

IV. $FS_1=T_1\cdot K_1\cdot D_1$.

Shundan keyin omillar ta'sirlari aniqlanadi.

Hisobot yilidagi haqiqiy ish vaqti fondidan bazis yilidagi ish haqi fondini ayirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$T_1K_1D_1-T_0K_0D_0=31\cdot 229\cdot 6{,}9-32\cdot 260\cdot 7{,}0=48980-58240=-9260 \text{ soat.}$$

Demak, hisobot yilidagi ish vaqti fondi bazis yiliga nisbatan 9260 soatga yoki 15,9% ga kamaygan. Bu o'zgarish uch omil hisobiga sodir bo'lgan.

Ish vaqti fondining o'zgarishiga 1-omil «ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soni o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun 1-shartli ish vaqti fondidan bazis yilidagi ish vaqti fondini chegirib tashlash kerak (II-bog'lanish ko'rsatkichidan I-bog'lanish ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak):

$$T_1K_0D_0-T_0K_0D_0=31\cdot 260\cdot 7{,}0-32\cdot 260\cdot 7{,}0=56420-58240=-1820 \text{ soat.}$$

Demak, ishlovchilarning o'rtacha yillik soni hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1 ishlovchiga kamayishi natijasida ish vaqti fondi hajmi 1820 soatga yoki 3,1% ga kamaygan.

Ish vaqti fondining o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni bir ishlovchi xodimning o'rtacha ishlagan kunlari soni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 2-shartli ish vaqti fondidan 1-shartli ish vaqti fondini (III-bog'lanish ko'rsatkichidan II-bog'lanish ko'rsatkichini) chegirib tashlash kerak:

$$T_1K_1D_0-T_1K_0D_0=31\cdot 229\cdot 7{,}0-31\cdot 260\cdot 7{,}0=49693-56420=-6727 \text{ soat.}$$

Demak, bir ishlovchi xodimning ishlagan kunlari soni 31 kunga qisqarishi natijasida ish vaqti fondi 6727 soatga kamaygan.

Ish vaqti fondining o'zgarishiga uchinchi omilning, ya'ni ish kuni davomiyligi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi ish vaqti fondidan 2-shartli ish vaqti fondini (IV-bog'lanish ko'rsatkichidan III-bog'lanish ko'rsatkichini) chegirib tashlash kerak:

$$T_1K_1D_1-T_1K_1D_0=31\cdot 229\cdot 6{,}9-31\cdot 229\cdot 7{,}0=48980-49693=-713 \text{ soat.}$$

Demak, ish kuni davomiyligi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 0,1 soatga kamayishi natijasida ish vaqti fondi hajmi 713 soatga yoki 1,4% ga kamaygan.

Ushbu uch omilning ta'sirlarining yig'indisi har doim ish vaqti fondining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Ish vaqti fondining o'zgarishi uch omilning ham salbiy ta'siri ostida o'zgargan. Bu esa mehnat resurslaridan foydalanish darajasining yomonlashganligidan dalolat beradi.

4.3. Mehnat unumdorligi to'g'risida tushuncha va uning ko'rsatkichlarini hisoblash usullari

Mehnat unumdorligi – mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichidir. Mehnat unumdorligi jonli mehnatning samarasi bo'lib hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi deganda nima tushuniladi? Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmi tushuniladi. Demak, 1 kishi-soatda ishlab chiqarilgan paxta, g'alla, go'sht kabi mahsulotlarning miqdori mehnat unumdorligiga misol bo'ladi.

Mehnat unumdorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi? Mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, aniq vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan o'simlikchilik yoki chorvachilik mahsulotlari miqdori va hajmi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichlari o'z navbatida uch turga bo'linadi.

1. 1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdorini (Q) jami kishi-soatlarga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}.$$

2. 1 kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) kishi-kunlari (T) jamiga bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}.$$

3. 1 ishlovchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (V). Buni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdorini (Q) ishlovchilarning o'rtacha soniga (T) bo'lish kerak:

$$V = \frac{Q}{T}.$$

Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi bo'lib, bir birlik mahsulotni (1 s mahsulotni, 1 dona qorako'l terini va boshqalarni) yetishtirish uchun sarf bo'lgan vaqt (t) miqdori (kishi-soat, kishi-kuni) hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun jami kishi-soatni, jami kishi-kunini jami mahsulot miqdoriga bo'lish kerak:

$$t = \frac{T}{Q}.$$

Mahsulot birligi uchun vaqt qancha kam sarflansa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichini aksidir.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga omillarning ta'sir etish xususiyatini hisobga olib, tahlilda yuqorida bayon qilingan usullar o'rniga omillarning bevosita ishtirokida yuzaga keladigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki qaysi usulda aniqlanmasin, mehnat unumdorligi darajasi o'zgarmaydi, bir darajada qoladi, ammo ikkinchi usulda mehnat unumdorligi darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rinib turadi, birinchi usulda esa ularni ko'rish mumkin emas.

Demak, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan jami mehnat sarfi ko'rsatkichlaridan foydalanib aniqlash o'rniga, 1 gektar ekin maydoni (1 bosh mol) hisobiga to'g'ri keladigan mehnat sarfi bilan 1 gektar ekin maydonidan (1 bosh moldan) olingan hosil (mahsulot) ko'rsatkichlaridan foydalanib aniqlash to'g'ri bo'ladi, chunki ushbu ko'rsatkichlar, o'z navbatida, mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi bevosita omillar bo'lib hisoblanadi. Shu qoidaga amal qilib, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini quyidagi formulalardan foydalanib aniqlash va tahlil qilish zarur:

1) mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichlari:

$$V = \frac{\text{1 gektardan (1 boshdan) olingan hosil (mahsulot)}}{\text{1 gektar ekin maydoniga (1 bosh molga) sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kun) yoki ishlovchilarning o'rtacha soni}} = \frac{H}{T},$$

2) mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi:

$$t = \frac{\text{1 gektar ekin maydoniga (1 bosh molga) sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kun)}}{\text{1 gektardan (1 boshdan) olingan hosil (mahsulot)}} = \frac{T}{H}.$$

Endi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarining tahlilini ko'rib chiqamiz.

4.4. Mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlarining tahlili

Hisobot yilidagi mehnat unumdorligi darajasini bazis yilidagi uning (yoki rejadagi) darajasiga solishtirib, oshgan yoki kamayganligi aniqlanadi:

$$(H_1 : T_1) - (H_0 : T_0) = \pm\Delta_{TH},$$

bunda: T_0, T_1 – bazis va hisobot yillarida 1 gektar ekin maydoni (1 bosh mol) hisobiga sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni hisobida); H_0, H_1 – bazis va hisobot yillaridagi hosildorlik (mahsuldorlik) darajasi; Δ_{TH} – ikki omil ta'sirida yuzaga kelgan mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichining o'zgarishini bildiradi.

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) 1 gektar ekin maydoni hisobiga (yoki 1 bosh mol hisobiga) sarf bo'lgan vaqtning o'zgarishi hisobiga ($T_1 - T_0$):

2) hosildorlik (yoki chorva mollari mahsuldorligi) darajasining o'zgarishi hisobiga ($H_1 - H_0$).

Ushbu omillarning mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanamiz.

Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli mehnat unumdorligi» ko'rsatkichini aniqlash zarur. **«Shartli mehnat unumdorligi»** ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi hosildorlikni (mahsuldorlikni) (H_0) hisobot yilida 1 gektar ekin maydoni (1 bosh mol) hisobiga sarf bo'lgan vaqt miqdoriga (T_1) bo'lish kerak:

$$V = H_0 : T_1.$$

Endi, mehnat unumdorligining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga miqdoriy omilning, ya'ni 1 gektar ekin maydoni (1 bosh mol) hisobiga sarf bo'lgan vaqt (kishi-soat, kishi-kuni) o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli mehnat unumdorligi darajasidan bazis yilidagi mehnat unumdorligi darajasini chegirib tashlash kerak:

$$(H_0 : T_1) - (H_0 : T_0) = \pm\Delta_T.$$

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga sifatiy omilning, ya'ni hosildorlik (mahsuldorlik) darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$(H_1 : T_1) - (H_0 : T_0) = \pm\Delta_H.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi har doim mehnat unumdorligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart.

Endi, paxta etishtirish misolida mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichining tahlilini fermer xo'jaligi misolida ko'rib chiqamiz. Buning uchun 18-jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

18-jadval

Paxtachilikda mehnat unumdorligini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1	Ekin maydoni, ga (M)	160	158
2	Yalpi hosil, s	3600	3776
3	Mehnat sarfi, ming kishi-soat hisobida (T)	138,6	129,9
4	1 gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladaigan mehnat sarfi (kishi-soat) (3 qator:1 qator)	866	822
5	1 gektar ekin maydoni hisobiga olingan hosil (hosildorlik), s/ga (2 qator:1 qator)	22,5	23,9
6	1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan paxta, kg (5 qator : 4 qator)	2,60	2,91

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, mehnat unumdorligi dinamikasining tahlilini ko'rib chiqamiz:

1. Hisobot yilidagi mehnat unumdorligi darajasidan bazis yilidagi mehnat unumdorligi darajasini chegirib tashlash orqali uning o'zgarishi aniqlanadi:

$$(H_1 : T_1) - (H_0 : T_0) = (23{,}9 : 822) - (22{,}5 : 866) = 2{,}91 - 2{,}60 = +0{,}31 \text{ kg.}$$

Demak, 1 kishi-soat hisobiga hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta miqdori bazis yilidagisiga nisbatan 0,31 kg ga ko'paygan, boshqacha aytganda, mehnat unumdorligi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 11,9% ga ($0{,}31 \cdot 100 : 22{,}5 = 11{,}9\%$) oshgan.

Ushbu o'zgarish ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan. Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli mehnat unumdorligi» ko'ratkichini aniqlab olamiz:

$$V_{sh} = H_0 : T_1 = 22{,}5 : 822 = 2{,}74 \text{ kg.}$$

Ushbu mehnat unumdorligi ko'rsatkichi, agar hisobot yilida 1 ga paxta maydonidan bazis yilidagi hosildorlik darajasi bo'yicha paxta ishlab chiqarilganda edi, hisobot yilida 1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan paxta 2,74 kg ni tashkil qilgan bo'lar edi, degan ma'noni anglatadi.

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ekstensiv omil – bir gektarga sarf bo'lgan kishi-soat miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash (aniqlash qoidasi yuqorida keltirilgan):

$$(H_0 : T_1) - (H_0 : T_0) = (22{,}5 : 822) - (22{,}5 : 866) = 2{,}74 - 2{,}60 = +0{,}14 \text{ kg.}$$

Demak, 1 gektar paxta ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan vaqtning bazis yiliga nisbatan 44 kishi-soatga kamayishi natijasida 1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan paxta miqdori hisobot yilida 0,14 kg ga oshgan, boshqacha aytganda, mehnat unumdorligi darajasi mehnat sarfi miqdorining kamayishi hisobiga 5,4 foizga oshgan ($0{,}14 \cdot 100 : 2{,}60 = +5{,}4\%$).

Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga intensiv omil – hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash (aniqlash qoidasi yuqorida ko'rsatilgan):

$$(H_1 : T_1) - (H_0 : T_1) = (23{,}9 : 822) - (22{,}5 : 822) = 2{,}91 - 2{,}74 = +0{,}17 \text{ kg.}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan paxta hosildorligining 1,4 s ga ($23{,}9 - 22{,}5 = +1{,}4$ s) oshishi natijasida 1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori 0,17 kg ga ortgan, ya'ni mehnat unumdorligi hosildorlik darajasining oshishi hisobiga 6,2 foizga oshgan ($0{,}17 \cdot 100 \cdot 2{,}74 = +6{,}2\%$).

Xullas, ikkala omil ham paxtachilik bo'yicha mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada mehnat unumdorligi 11,9 foizga oshgan.

Demak, ikki omil ta'sirining yig'indisi umumiy o'zgarishga teng. Bu hisobdan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligi paxtachilikda 11,9 foizga

oshgan. Shu jumladan, ekstensiv omil hisobiga 5,4 foizga, intensiv omil hisobiga 6,2 foizga oshgan.

Tahlilning mazmunini va usullarini yaxshi o'zlashtirib olgan talaba, fermer uni bemalol tahliliy jadvalda amalga oshirishi va undagi ma'lumotlarga suyanib xulosa qilishi mumkin. Shuning uchun biz yuqorida keltirilgan tahliliy hisob-kitoblar asosida paxtachilikda mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi tahlilini 19-jadvalda aks ettirdik. Bunday yondashish talabada tahlilga nisbatan amaliy ko'nikma hosil qiladi.

19-jadval

Paxtachilikda mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichi dinamikasi o'zgarishining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi 1 ga mehnat sarfi va bazis yilidagi hosildorlik b-cha	Hisobot yili	o'zgarishi (+,-)
1	1 gektar ekin maydoni hisobiga bo'lgan mehnat sarfi (kishi-soat hisobida)	866	822	822	+44
2	Hosildorligi, (s/ga)	22,5	22.5	23,9	+ 1,4
3	1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan paxta, kg	2,60	2,74	2,91	+ 0,31
	Shu jumladan o'zgarishi omillar hisobiga:	×	×	×	+ 0,14
	a) 1 gektar hisobiga qilingan mehnat sarfi miqdorining o'zgarishi hisobiga	×	×	×	+ 0,17
	b) hosildorlik darajasining o'zgarishi hisobiga				

Mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichlari 2-va 3- turlarining tahlili ham yuqorida keltirilgan usul bo'yicha amalga oshiriladi. Shuning uchun ularga to'xtalmadik.

Endi, mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichining tahliliga to'xtalamiz.

Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, uning bevosita ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Ushbu omillarning mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashda «indeks» usulidan foydalanamiz.

Omillarning ta'sirini aniqlagunga qadar mehnat sarfining quyidagi 3 ta bilvosita bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinadi:

1) bazis yilidagi mehnat sarfi ko'rsatkichi:

$$t_0 = T_0 : H_0;$$

2) shartli mehnat sarfi ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan mehnat sarfi miqdorini (T_1) bazis yilidagi ekin hosildorligiga (H_0) bo'lish kerak:

$$t_{sh} = T_0 : H_0;$$

3) hisobot yilidagi mehnat sarfi ko'rsatkichi:

$$t_1 = T_1 : H_1.$$

Shundan keyin mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichini omilli tahlil qilish mumkin.

Bazis yilida mahsulot birligi uchun sarf bo'lgan mehnat vaqtini (kishi-soatni, kishi-kunini) hisobot yilidagi bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan mehnat vaqtiga bo'lish orqali mehnat unumdorligini indeksi aniqlanadi, undan 1 koeffitsiyentni (100 foizni) chegirish orqali umumiy o'zgarishi aniqlanadi, buni quyidagi formula yordamida ifodalash mumkin:

$$\left(\frac{T_0}{H_0} : \frac{T_1}{H_1}\right) - 1 = \pm\Delta_{TH}.$$

Bu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1) 1 ga hisobiga sarf bo'lgan vaqtning o'zgarishi;

2) 1 ga hisobiga olingan hosilning o'zgarishi (hosildorlikning o'zgarishi).

Mehnat unumdorligining o'zgarishiga 1 gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan mehnat vaqti o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun bazis davridagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichini shartli-mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga bo'lib uning natijasidan 1 koffisiyentni chegirib tashlash kerak:

$$\left(\frac{T_0}{H_0} : \frac{T_1}{H_0}\right) - 1 = \pm\Delta_T.$$

Mehnat unumdorligining o'zgarishiga ekin hosildorligi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichini hisobot yilidagi mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichiga bo'lib, uning natijasidan 1 koeffitsiyentini (100 foizni) chegirib tashlash kerak.

$$\left(\frac{T_1}{H_0} : \frac{T_1}{H_1}\right) - 1 = \pm\Delta_H.$$

Yuqoridagi ikki omil ta'sirlarining yig'indisi mehnat unumdorligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Endi, mehnat unumdorligining tahlilini uning bilvosita ko'rsatkichi asosida hisobot materiallari negizida ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda, mehnat unumdorligining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\left(\frac{T_0}{H_0} : \frac{T_1}{H_1}\right) = \frac{866}{22{,}5} : \frac{822}{23{,}9} = 38{,}5{:}34{,}4 = 1{,}119 \text{ yoki } 111{,}9\%.$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1 s paxta uchun sarf bo'lgan vaqt 4,1 kishi-soatga (34,4–38,5=–4,1 k/s) kamayishi natijasida mehnat unumdorligi darajasi shu omil hisobiga 11,9% ga (111,9–100=+11,9%) oshgan.

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan.

1-omil – 1 gektar ekin maydoniga sarf bo'lgan kishi-soat miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$\left(\frac{T_0}{H_0} : \frac{T_1}{H_1}\right) = \frac{866}{22,5} : \frac{822}{22,5} = 38,5 : 36,5 = 1,054 \text{ yoki } 105,4\%.$$

Demak, 1 gektar ekin maydoniga sarf bo'lgan vaqtning 44 kishi-soatga (822–866=–44 k/s) kamayishi natijasida mehnat unumdorligi darajasi 5,4% ga oshgan.

2-omil – hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\left(\frac{T_1}{H_0} : \frac{T_1}{H_1}\right) = \frac{822}{22,5} : \frac{822}{23,9} = 36,5 : 34,4 = 1,062 \text{ yoki } 106,2\%.$$

Demak, hisobot davrida bazis yiliga nisbatan hosildorlik darajasining 1,4 s ga (23,9–22,5=+1,4 s) oshishi natijasida mehnat unumdorligi 6,2% ga oshgan.

Xulosa: ikkala omil ham mehnat unumdorligining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilib, uni 11,9% ga oshishiga sabab bo'lgan.

Biz mehnat unumdorligining tahlilini paxtachilik tarmog'i misolida ko'rib chiqdik. G'alla, sabzavot, tamaki va boshqa mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha ham mehnat unumdorligining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlarini tahlil qilish yo'llari yuqorida paxta yetishtirish bo'yicha amalga oshirilgan mehnat unumdorligini tahlil qilish usulidan farq qilmaydi. Shuning uchun Siz o'sha usullardan bemalol foydalanib, har bir mahsulot bo'yicha mehnat unumdorligining tahlilini amalga oshirishingiz mumkin. Shuning uchun biz ularning tahliliga bu bo'limda alohida to'xtalmadik.

4.5. Xo'jalik bo'yicha mehnat unumdorligining omilli tahlili

Xo'jalik yoki tarmoqlar bo'yicha hisoblanadigan mehnat unumdorligi ko'rsatkichi uning umumiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Mehnat unumdorligining umumiy ko'rsatkichlari uning bevosita ko'rsatkichlari bo'lib, faqat pul shaklida ifodalanuvchi miqdorlardir. Bularga 1 xodim, 1 kishi-kuni va 1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi (summasi)ni ifodalovchi ko'rsatkichlar misol bo'ladi.

Mehnat unumdorligining umumiy ko'rsatkichlari fermer xo'jaligi bo'yicha ham, o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari bo'yicha ham aniqlanib, tahlil qilinadi.

Mehnat unumdorligining eng muhim umumiy ko'rsatkichi bo'lib, o'rtacha bir xodim hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini ifodalovchi miqdor

hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning jami hajmini xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lish kerak. Mehnat unumdorligi umumiy ko'rsatkichining tahlilini o'rtacha 1 xodim hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot misolida «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, ko'rib chiqamiz.

Hisobot yilida o'rtacha 1 xodim hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini (V_1), bazis yilida o'rtacha 1 xodim hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmiga (V_0) solishtirib, mehnat unumdorligi darajasining umumiy o'zgarishi (oshganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. So'ngra ushbu o'zgarishga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanib, har biri ta'sirining hajmi topiladi hamda zaruriy xulosalar qilinadi.

Mehnat unumdorligi umumiy ko'rsatkichining o'zgarishi quyidagi 4 ta omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) ishchilarning jami xodimlar soniga nisbatan egallagan hissasi (salmog'i)ning o'zgarishi ($X_1 - X_0$);

2) 1 ishchining o'rtacha bir yilda ishlagan kunlari sonining o'zgarishi ($K_1 - K_0$);

3) ish kunining o'rtacha davomiyligining o'zgarishi (o'rtacha 1 kunda 1 ishchining ishlagan soatlari miqdorining o'zgarishi, ($D_1 - D_0$);

4) 1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi ($C_1 - C_0$).

Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun, birinchi navbatda mehnat unumdorligining quyidagi 5 ta umumiy ko'rsatkichlari «Zanjirli bog'lanish» usulining qoidalariga amal qilgan holda aniqlab olinadi:

I. $V_0 = X_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0$ – bazis davridagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichi;

II. $V_{sh1} = X_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0$;

III. $V_{sh2} = X_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot C_0$} – shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichi;

IV. $V_{sh3} = X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0$;

V. $V_1 = X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_1$ – hisobot yilidagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichi.

V-bog'lanish ko'rsatkichidan (hisobot yilidagi mehnat unumdorligining umumiy ko'rsatkichidan) I-bog'lanish ko'rsatkichini (bazis yilidagi mehnat unumdorligining umumiy ko'rsatkichini) ayirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$(X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_1) - (X_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) = \pm\Delta_{XKDC}.$$

Ushbu o'zgarish to'rt omil ta'siri tufayli paydo bo'lgan. Ularning har birining ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

II-bog'lanishdan (I-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan) I-bog'lanishni (bazis davridagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichini) ayirish orqali mehnat unumdorligining umumiy o'zgarishiga ishchilar salmog'i o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(X_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) - (X_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) = \pm\Delta_X.$$

III-bog'lanishdan (2-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan) II-bog'lanishni (birinchi shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini) ayirish orqali mehnat unumdorligining o'zgarishiga 2-omilning, ya'ni bir ishchining ishlagan kunlari soni o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(X_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot C_0) - (X_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) = \pm\Delta_K.$$

IV-bog'lanishdan (3-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan) III-bog'lanishni (2-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini) ayirish orqali mehnat unumdorligining o'zgarishiga 3-omilning, ya'ni ish kuni davomiyligi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0) - (X_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot C_0) = \pm\Delta_D.$$

V-bog'lanishdan (hisobot yilidagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan) IV-bog'lanishni (3-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini) ayirish orqali mehnat unumdorligining o'zgarishiga 4-omilning, ya'ni 1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri topiladi:

$$(X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_1) - (X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0) = \pm\Delta_C.$$

Yuqorida keltirilgan 4 ta omil ta'sirlarining yig'indisi mehnat unumdorligi umumiy ko'rsatkichining jami o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan so'ng xulosa qilinadi.

Endi xo'jalikning hisobot ma'lumotlari asosida xo'jalik bo'yicha mehnat unumdorligining tahlilini ko'rib chiqamiz.

20-jadval

Xo'jalik bo'yicha mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillarning tahlili

T.r.		Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishlovchilarning jami soni, kishi	250	253	+3
2	Doimiy ishchilar soni, kishi	227	240	+13
3	Qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti, ming so'm (bazis yili bahosi bo'yicha)	116018	133248	+17230
4	Jami mehnat sarfi, ming kishi-soat hisobida	398,0	399,1	+0,3
5	Asosiy ishchilarning jami ishlovchilar soniga nisbatan egallagan hissasi (X), %	90,8	94,9	+4,1
6	Bir ishchining o'rtacha bir yilda ishlagan kunlari soni	251	241	–10
7	Ish kunining o'rtacha davomiyligi (soat hisobida)	7	6,9	- 0,1
8	1 kishi-soatda yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi, so'm	290,4	333,8	+42,9
9	Qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir ishlovchi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot, ming so'm	464,1	526,7	+62,6

20-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xo'jalik bo'yicha 1 ishlovchi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 62,6 *ming so'mga oshgan. Boshqacha aytganda, mehnat unumdorligi darajasi* 13,5 foizga oshgan (62,2 · 100 : 464,1 = 13,5 %).

Ushbu o'zgarish yuqorida qayd qilinganidek, 4 ta omil hisobiga sodir bo'lgan. Ushbu omillar ta'siri aniqlanishidan oldin mehnat unumdorligini ifodalovchi quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinishi zarur.

I. $X_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0 = 0{,}908 \cdot 251 \cdot 7 \cdot 0{,}2909 = 464{,}1$ *ming* so'm;
II. $X_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0 = 0{,}949 \cdot 251 \cdot 7 \cdot 0{,}2909 = 485{,}0$ ming so'm;
III. $X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0 = 0{,}949 \cdot 241 \cdot 7 \cdot 0{,}2909 = 465{,}7$ ming so'm;
IV. $X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0 = 0{,}949 \cdot 241 \cdot 6{,}9 \cdot 0{,}2909 = 459{,}1$ ming so'm;
V. $X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_1 = 0{,}949 \cdot 241 \cdot 6{,}9 \cdot 0{,}3338 = 526{,}1$ ming so'm.

Shundan so'ng xo'jalik bo'yicha mehnat unumdorligining omilli tahlili bajariladi.

1-omil – ishchilar soni salmog'i o'zgarishining ta'siri:

II–I. $(X_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) - (X_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) = 485{,}0 - 464{,}1 = +20{,}9$ ming so'm.

Demak, ishchilar soni salmog'ining 4,1 foizga (94,9–90,8) oshishi natijasida 1 ishlovchi xodim hisobiga yetishtirilgan mahsulot 20,9 ming so'mga oshgan, ya'ni mehnat unumdorligi darajasi ushbu omil hisobiga 4,5% ga oshgan (20,9 · 100 : 461,1).

2-omil – o'rtacha 1 ishchining ishlagan kunlari soni o'zgarishining ta'siri:

III–II. $(X_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot C_0) - (X_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot C_0) = 485{,}0 - 464{,}1 = -19{,}3$ ming so'm.

Demak, bir ishchining o'rtacha 1 yilda ishlagan kunlari sonining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 10 kunga kamayishi natijasida 1 ishlovchi xodim hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi 19,3 ming so'mga kamaygan, ya'ni mehnat unumdorligi darajasi shu omil hisobiga 4 foizga kamaygan (19,3 · 100 : 48,5).

3-omil – ish kunining o'rtacha davomiyligining ta'siri:

IV–III. $(X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0) - (X_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot C_0) = 459{,}1 - 465{,}7 = -6{,}6$ ming so'm.

Demak, ish kuni davomiyligining 0,1 soatga qisqarishi natijasida mehnat unumdorligi 6,6 ming so'mga yoki 1,4% ga pasaygan.

4-omil – 1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri:

V–IV. $(X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_1) - (X_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot C_0) = 526{,}7 - 459{,}1 = +67{,}6$ ming so'm.

Demak, 1 kishi-soat hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 42,9 so'mga oshishi natijasida 1 ishlovchi xodim hisobiga

yetishtirilgan mahsulot hajmi 67,6 ming so'mga oshgan, ya'ni shu omil hisobiga mehnat unumdorligi 14,6 % ga oshgan.

Shu omillarning ta'sirlarining yig'indisi mehnat unumdorligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan xo'jalik yetarli darajada foydalangan emas.

4.6. Ishchi kuchi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili

Ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar orasida mehnat resurslari va ularning samarasi muhim o'rinni egallaydi. Mehnat resurslari ishchi kuchi tariqasida ishlovchilarning o'rtacha soni bilan, mehnat samarasi esa o'rtacha 1 ishlovchi hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi bilan tavsiflanadi. Demak, ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi bevosita omillardir. Ushbu ko'rsatkichlar bilan yetishtirilgan mahsulot hajmi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$YM = XC \cdot MU,$$

bunda: YM – yalpi mahsulot hajmi; XC – ishlovchi xodimlarning o'rtacha soni; MU – mehnat unumdorligi darajasi.

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi omillarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlilini ko'rib chiqamiz. Formuladan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi bevosita ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) xodimlar o'rtacha sonining o'zgarishi hisobiga;

2) mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi hisobiga.

Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini ko'rsatkichlar farqi, zanjirli bog'lanish va indeks usullaridan foydalanib, aniqlash mumkin. Bu yerda «ko'rsatkichlar farqi (farqlash)» usulidan foydalanib, tahlil etish tartibini keltiramiz.

Birinchi navbatda, yalpi mahsulot umumiy hajmining o'zgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot yilidagi yalpi mahsulot hajmidan bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) yalpi mahsulot hajmini chegirib tashlash kerak:

$$(XC_1 \cdot MU_1) - (XC_0 \cdot MU_0) = \pm\Delta_{XC,MU}.$$

Shundan keyin yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga xodimlarning o'rtacha yillik soni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi ishlovchi xodimlar

soni (XC_1) bilan bazis yilidagi (yoki rejadagi) ishlovchi xodimlar soni (HC_0) orasidagi farqni bazis yilidagi (yoki rejadagi) mehnat unumdorligi darajasiga (MU_0) ko'paytirish kerak:

$$(XC_1 \cdot XC_0) \cdot MU_0 = \pm\Delta_{XC}.$$

Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mehnat unumdorligi darajasi (MU_1) bilan bazis yilidagi (yoki rejadagi) mehnat unumdorligi darajasi (MU_0) orasidagi farqni hisobot yilidagi ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga (XC_1) ko'paytirish kerak:

$$(MU_1 - MU_0) \cdot XC_1 = \pm\Delta_{MU}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi yalpi mahsulot hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Endi, yalpi mahsulot hajmi dinamikasining omilli tahlilini fermer xo'jaligining ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

21-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha yalpi mahsulot dinamikasining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis Yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soni, kishi	250	253	+ 3
2	1 ishlovchi xodim hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot summasi (ya'ni mehnat unumdorligi). so'm	464,1	526,7	+ 62,6
3	Yetishtirilgan yalpi mahsulot, ming so'm	116018	133248	+17230
	Shu jumladan, o'zgarishiga omillar ta'siri:			
	– ishlovchi xodimlar sonining oshishi hisobiga $(XC_1 - XC_0) \cdot MU_0$	×	×	+ 1392
	– mehnat unumdorligi darajasining oshishi hisobiga $(MU_1 - MU_0) \cdot XC_0$	×	×	+ 15838

Fermer xo'jaligi bo'yicha yalpi mahsuloti hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 17230 ming so'mga oshgan:

$$(XC_1 \cdot MU_1) - (XC_0 \cdot MU_0) = (253 \cdot 526{,}7) - (250 \cdot 464{,}1) =$$
$$= 133248 - 116018 = \pm 17230 \text{ ming so'm.}$$

Bu o'zgarishga yuqoridagi ikki omil ta'sir qilgan.

Ishlovchi xodimlarning o'rtacha soni tahlil qilinayotgan davrda 3 kishiga ko'paygan. Natijada shu omil hisobiga yalpi mahsulot hajmi bazis yiliga nisbatan 1392 ming so'mga oshgan:

$$(XC_1 \cdot XC_0) \cdot MU_0 = (253 - 250) \cdot 464,1 = 3 \cdot 464,1 = +1392 \text{ ming so'm.}$$

Mehnat unumdorligi darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 62,6 ming so'mga oshgan, natijada yalpi mahsulot hajmi shu omil hisobiga 15838 ming so'mga ko'paygan:

$$(MU_1 \cdot MU_0) \cdot XC_0 = (526,7 - 464,1) \cdot 253 = +62,6 \cdot 253 = +15838 \text{ ming so'm.}$$

Demak, yalpi mahsulot hajmini ko'paytirishning asosiy imkoniyati bo'lib, mehnat unumdorligi darajasini oshirish hisoblanadi. Shuning uchun mehnat unumdorligi darajasini har doim tahlil qilib turish zarur.

4.7. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Mehnat resurslari, mehnat resrurslari bilan ta'minlanish, mehnat resurslaridan foydalanish, xodimlar o'rtacha soni, ishchilar o'rtacha soni, ishchilarning ishlovchilar tarkibida tutgan salmog'i, mehnat unumdorligi, mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi, mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichi, ish kunining o'rtacha davomiyligi (uzunligi), mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar, mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar, intensiv omillar, ekstensiv omillar.

Takrorlash uchun savollar

1. Mehnat resurslari deganda nima tushuniladi?
2. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasining tahlilini tushuntiring
3. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi?
4. Mehnat unumdorligini tahlil qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Mehnat unumdorligini tahlil qilishning ahamiyatini tushuntiring.
6. Mehnat unumdorligi deb nimaga aytiladi? Uning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
7. Mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichlarining mazmunini tushuntiring, ularni hisoblash usullarini bayon qiling.
8. Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichlari deganda qanday ko'rsatkichlarni tushunasiz, ular qanday aniqlanadi?
9. Mehnat unumdorligining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi va ularning ta'sir qilish darajasi qanday tahlil qilinadi?
10. Mehnat unumdorligining o'zgarishiga omillarning ta'sirini iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarning qaysilaridan foydalanib aniqlash mumkin?

11. Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichlari orqali uning darajasining o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlilini qanday usullar orqali amalga oshiriladi?
12. Mehnat unumdorligining umumiy ko'rsatkichi deganda qaysi ko'rsatkich tushuniladi va u qanday aniqlanadi?
13. Mehnat unumdorligi umumiy ko'rsatkichining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi va ularning ta'siri qaysi usullar yordamida aniqlanadi?
14. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bilan yalpi mahsulot orasida qanday bog'liqlik mavjud?
15. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'sirini aniqlash yo'lini tushuntiring.
16. O'rtacha yillik xodimlar soni bo'yicha o'zgarishining yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash tartibini bayon qiling.
17. Mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi ekstensiv omil deganda qaysi miqdor tushuniladi?
18. Mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi intensiv omil bo'lib, o'simlikchilikda qaysi miqdor hisoblanadi?

MASHQ

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlang va baho bering. Buning uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning.

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	Hisobot yili bazis yiliga nisbatan, %
Yalpi mahsulot, ming so'm	116018	133248	114,9
Shartli yalpi mahsulot, ming so'm	×	117410	×
Xodimlar sonining o'sish koeffitsiyenti, %	×	×	101,2
Mehnat unumdorligining o'sish koeffitsiyenti, %	×	×	113,49

Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:

1) yalpi mahsulot hajmining mutlaq o'zgarishini;

2) ishlovchi xodimlar sonining 1,2 foizga oshishi natijasida yalpi mahsulot hajmining mutlaq o'sish summasini (ya'ni necha ming so'mga oshganligini);

3) mehnat unumdorligi darajasining 13,49 foizga oshishi tufayli yalpi mahsulot hajmi necha ming so'mga oshgan summasini;

4) mashq yechimiga xulosa yozing.

Izoh: yalpi mahsulot hajmining mutlaq o'zgarishi ham, omillar ta'sirlarining natijalari ham darslikning 90–92-betlarida keltirilgan omilli tahlil natijalariga mos kelishi kerak.

XULOSALAR

Namunaviy o'quv dasturiga mos holda mavzu bo'yicha rejalashtirilgan asosiy savollar: tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish tahlili, mehnat unumdorligining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlarining tahlili, mehnat resurslari va mehnat unumdorligining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili kabi masalalar ushbu bobda yetarli darajada yoritildi. Mazkur masalalarni tahlil etish usullarini yaxshi o'zlashtirib olish uchun, talabaga darslik bo'yicha mavzuni o'qib, o'zlashtirish hamda unda keltirilgan nazariy savollarga manbalardan izlab javob topishni va keltirilgan mashqni mustaqil bajarishni tavsiya qilamiz. Shunday yondashilsa, mavzuni yaxshi o'zlashtirib olish mumkin.

5-bob. MODDIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANISH VA ULARDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

O'QUV MAQSADI

Moddiy resurslar bilan ta'minlanish va ulardan foydalanishning tahlili mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan barcha masalalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati, hisoblash va tahlil etish usullarini yoritish *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Moddiy resurslar tahlilining mazmun-mohiyatini va ahamiyatini tushuntirish natijasida talabalar ongiga moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda xo'jalik iqtisodiyotini mustahkamlashga yo'naltirilgan fikr va g'oyalarni singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Moddiy resurslar va ulardan foydalanishning yaxshilanishi nafaqat ishlab chiqarish hajmining oshishiga, balki moliyaviy faoliyatning mustahkamlanishiga ham sabab bo'ladi. Lekin adabiyotlarda moliyaviy faoliyatning mustahkamlanishiga olib kelishi to'g'risidagi fikrlar uchramaydi. Bu to'g'risidagi fikrlarni ushbu mavzuda aks ettirish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv dasturi* bo'lib hisoblanadi.

5.1. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish tahlilining ahamiyati, vazifalari va manbalari

Har qanday qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish faoliyatini mo'tadil yuritish va uning samaradorligini oshirish uchun moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan va ulardan samarali foydalangan bo'lishi kerak.

Moddiy resurslar deganda nima tushuniladi? Moddiy resurslar deganda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan urug', o'g'it, yoqilg'i, yem-xashak va boshqa turdagi xomashyo va materiallar qiymatlarining yig'indisi tushuniladi.

Barcha turdagi yaroqli va sifatli moddiy resurslar bilan xo'jalik yetarli darajada (me'yor chegarasida) ta'minlansa va ulardan samarali foydalansa, albatta mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi, natijada moddiy ne'matlar yetishtirish ko'payadi, sifati yaxshilanadi, sof foydasi ko'payib, iqtisodi

mustahkamlanadi, oqibatda, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga va xalq turmush darajasining o'sishiga sabab bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan xo'jalikning moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish va ular asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir.

Tahlilning asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1) xo'jalikning moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasini o'rganish va baholash;

2) moddiy resurslardan foydalanish darajasini aniqlash va uning o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblab baho berish;

3) moddiy resurslar bilan ta'minlanishni yaxshilash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash;

4) moddiy resurslar va ulardan foydalanish darajasining ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini o'rganish va baho berish.

Moddiy resurslar va ulardan foydalanish darajasini tahlil etishning asosiy manbalari bo'lib, quyida axborot ma'lumotlari hisoblanadi:

1) buxgalteriya balansi (1-shakl);

2) Tashkilot, korxonalarning asosiy faoliyati ko'rsatkichlari (6-ASK shakli);

3) o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning tannarxi to'g'risidagi hisobot (9-ASK shakli);

4) chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning tannarxi to'g'risidagi hisobot (13-ASK shakli);

5) buxgalteriya hisobining bosh va analitik schotlarining ma'lumotlari;

6) biznes-reja ma'lumotlari.

5.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari, ularning mazmuni va hisoblash usullari

Korxonada ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga boshqa omillar bilan bir qatorda moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi ham ta'sir qiladi.

Moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi qanday aniqlanadi?_Moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasini aniqlash uchun korxonada mavjud bo'lgan moddiy resurslarning haqiqiy hajmini (miqdorini) me'yor bo'yicha talab qilinadigan hajmiga (miqdoriga) bo'lish kerak. Ushbu ko'rsatkich xo'jalik bo'yicha ham, har bir moddiy resursning turi (urug', o'g'it, yoqilg'i va boshqalar) bo'yicha ham aniqlanadi.

Moddiy resurslar bilan ta'minlanish ahvolining tahlili solishtirish, ko'rsatkichlar farqi, zanjirli bog'lanish usullari yordamida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, ular bilan ta'minlanish darajasining umumiy o'zgarishi, so'ngra ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasiga baho beriladi. Shundan so'ng moddiy resurslardan foydalanish darajasining tahlili amalga oshiriladi.

Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Bularga quyidagi nisbiy miqdorlar kiradi:

1) moddiy resurslar qaytimi;
2) moddiy resurslar sig'imi;
3) moddiy resurslar rentabelligi;
4) moddiy resurslar xarajati koeffitsiyenti;
5) sarflangan moddiy resurslarning tannarxdagi hissasi.

Moddiy resurslar qaytimi deganda nima tushuniladi? Moddiy resurslar qaytimi deganda bir so'mlik moddiy xarajatlar hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi tushuniladi. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ifodalovchi ko'rsatkich moddiy resurslar qaytimi deb ataladi.

Moddiy resurslar qaytimi iste'mol qilingan moddiy resursning har bir so'mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich iste'mol qilingan moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi bevosita ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Demak, mahsulot hajmi qiyoslanayotgan davrga nisbatan oshib borgan bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining xarajatga nisbatan oshib borishi korxona iqtisodiy otining o'sishiga sabab bo'ladi.

Moddiy resurslar qaytimi koeffitsiyentini aniqlash uchun ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini shu mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar hajmiga bo'lish kerak:

$$KMQ = \frac{YM}{MX},$$

bunda: KMQ – moddiy resurslar qaytimi koeffitsiyenti (ko'rsatkichi); YM – yetishtirilgan yalpi mahsulotlar hajmi (summasi); MX – moddiy xarajatlar summasi.

Bu koeffitsiyent 1 dan katta bo'lsa, iste'mol qilingan moddiy resurslardan foydalanish samarali bo'lganligini, agar past bo'lsa, ishlab chiqarish moddiy zarar bilan ishlayotganligini bildiradi.

Moddiy resurslar sig'imi ko'rsatkichi nimani ifodalaydi? Moddiy resurslar sig'imi ko'rsatkichi bir so'mlik ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy (material) xarajatlar summasini ifodalaydi. Moddiy resurslar sig'imi moddiy resurslar qaytimining aksini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichni materiallar sig'imi deb ataladi. Materiallar sig'imi darajasi qancha past bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi, boshqacha aytganda, 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi oshib boradi. Bu xo'jalik iqtisodiyotining, qolaversa, mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanishi va mustahkamlanishiga ham sababchi bo'ladi.

Material sig'imi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi? Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasini yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmiga (summasiga) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$KMS = \frac{MX}{YM},$$

bunda: KMS – material sig'imi koeffitsiyenti; MH – yalpi mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasi; YM – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati.

Moddiy resurslar rentabelligi nimani bildiradi va u qanday aniqlanadi? Moddiy resurslar rentabelligi sarf bo'lgan moddiy xarajatlarning har bir so'mi hisobiga olingan foyda summasini bildiradi.

Moddiy resurslar rentabelligini aniqlash uchun mahsulot sotishdan olingan foyda summasini sarf bo'lgan moddiy resurslarning jami summasiga bo'lish kerak:

$$KMR = \frac{YaF}{MX},$$

bu yerda: KMR – moddiy resurslar rentabelligi koeffitsiyenti; YaF – mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda; MX – sarf bo'lgan moddiy resurslar hajmi.

Moddiy resurslar rentabelligi iste'mol qilingan moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biridir.

Bu koeffitsiyent qancha yuqori bo'lsa, moddiy sarflardan foydalanish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi, demak, samaradorlik darajasi oshadi. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga olingan foyda oshgan sayin, xo'jalikning moliyaviy ahvoli ham mustahkamlanib boradi.

Modiy resurslar xarajati koeffitsiyenti nimani bildiradi? Bu koeffitsiyent hisobot davrida sarf bo'lgan haqiqiy moddiy resurslar hajmining me'yor bo'yicha hisoblangan hajmiga yoki bazis davrida iste'mol qilingan moddiy resurslarning hajmiga nisbatan tejalganligini yoki ortiq xarajat bo'lganligini bildiradi.

Bu koeffitsiyent qanday aniqlanadi? Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun hisobot davrida sarf bo'lgan haqiqiy material resurslar summasini hisobot davrida yetishtirilgan mahsulot miqdoriga nisbatan me'yor bo'yicha hisoblab olingan material xarajatlar summasiga (yoki bazis davridagi xarajat darajasi bo'yicha hisoblab olingan xarajatlar summasiga) bo'lish kerak:

$$KMF = \frac{MX_1}{MX_{sh}},$$

bu yerda: KMF – moddiy resurslardan foydalanish koeffitsiyenti; MX_1 – hisobot davrida yetishtirilgan mahsulot uchun sarf bo'lgan haqiqiy materiallar summasi; MX_{sh} – shartli material xarajatlar summasi (hisobot davrida yetishtirilgan mahsulot hajmiga nisbatan me'yor bo'yicha hisoblab olingan yoki bazis davridagi mahsulot birligi uchun bo'lgan xarajat darajasi bo'yicha hisoblab olingan xarajatlar summasi).

Shartli material xarajatlar summasini aniqlash uchun hisobot yilida yetishtirilgan mahsulot miqdorini me'yor bo'yicha bir birlik mahsulot uchun belgilangan xarajat darajasiga yoki bazis davridagi xarajat darajasiga ko'paytiriladi.

Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsiyenti 1 dan past bo'lsa, moddiy xarajatlarning tejalganligini, 1 dan katta bo'lsa, ortiqcha xarajat sodir bo'lganligini bildiradi.

Sarf bo'lgan moddiy resurslarning tannarxdagi hissasi nimani bildiradi? Bu ko'rsatkich mahsulot tannarxining necha foizi iste'mol qilingan moddiy resurslarga to'g'ri kelishligini bildiradi. Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun moddiy xarajatlar summasini (MX) 100 foizga ko'paytirib, natijasini tannarxning hajmiga (TN) bo'lish kerak.

$$KMS = \frac{MX \cdot 100}{TN},$$

bu yerda: KMS – sarf bo'lgan moddiy resurslarning tannarxdagi hissasi (koeffitsiyenti).

Sarf bo'lgan moddiy resurslarning tannarxdagi hissasi qancha past bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni 1 so'm moddiy xarajat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oshadi.

5.3. Materiallar qaytimining omilli tahlili

Moddiy resurslardan foydalanishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, materiallar qaytimi koeffitsiyenti hisoblanadi. Uning tahlili hisobot yilidagi koeffitsiyentini bazis yilidagi koeffitsiyentiga yoki reja bo'yicha ko'zda tutilgan koeffitsiyentiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{YM_1}{MX_1} - \frac{YM_0}{MX_0} = \pm\Delta_{YM,\,MX}.$$

Bu formuladan ko'rinib turibdiki, materiallar qaytimining o'zgarishiga bevosita ikki omil ta'sir qiladi.

1) yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi;

2) moddiy (material) xarajatlar hajmining o'zgarishi.

Bular birlamchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Ushbu omillarning materiallar qaytimining o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlash zarur. Materiallar qaytimining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «shartli materiallar qaytimi» koeffitsiyentini aniqlab olish zarur. Buni aniqlash uchun hisobot yilida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini (YM_1) bazis yilidagi (yoki rejadagi) xarajatlar hajmiga (MX_0) bo'lish kerak:

$$KMQ_{sh} = \frac{YM_1}{MX_0}.$$

Shundan so'ng omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

Materiallar qaytimining o'zgarishiga birinchi omil – yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli materiallar qaytimi koeffitsiyentidan bazis davridagi (rejadagi) materiallar qaytimi koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YM_1}{MX_0} - \frac{YM_0}{MY_0} = \pm\Delta_{YM}.$$

Materiallar qaytimining o'zgarishiga ikkinchi omil – moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi materiallar qaytimi koeffitsiyentidan shartli materiallar qaytimi koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YM_1}{MX_0} - \frac{YM_0}{MX_0} = \pm\Delta_{MX}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi materiallar qaytimi koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{YM,\,MX} = \Delta_{YM} \pm \Delta_{MX}.$$

Endi, quyida keltirilgan hisobot materiallaridan foydalanib, paxta bo'yicha materiallar qaytimining tahlilini ko'rib chiqamiz. Ishlab chiqarilgan paxtaning moddiy xarajatlari bo'lib, o'g'it, urug', yoqilg'i-moylash materiallari hisoblanadi (22-jadval).

22-jadval

Paxta yetishtirish bo'yicha moddiy resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	*Paxta yalpi hosili (q), s*	*3600*	*3776*	*+176*
2	1 s paxta bahosi (*p*), so'm	17890	19908	+2018
3	1 *s* paxta uchun sarf bo'lgan material resurslar miqdori (*Y*), kg:			
	– o'g'it	25,78	6,359	– 19,421
	– urug'	1,972	3,019	+ 1,047
	– yoqilg'i-moylash materiallari	3,195	7,933	+ 4,738
4	Sarf bo'lgan moddiy resurslarning 1 s ning qiymati (*Z*), so'm:			
	– o'g'it	3218.1	22965	+19747
	– urug'	11307	28176	+16869
	– yoqilg'i-moylash materiallari	16948	16514	–434
5	*Paxta yalpi mahsuloti (q p), ming so'm*	*64404*	*75311*	*+10907*
6	Sarf bo'lgan moddiy xarajatlarning jami qiymati (*q·Z*), ming so'm	5738,8	13673	+7934,2
	Shu jumladan: – o'g'it	2986,6	5514,3	+2527,7
	– urug'	802,8	3212	2409,2
	– YoMM	1949,4	4946,7	+2997,3
7	Shartli yalpi mahsulot hajmi ($q_1\ p_0$), ming so'm	×	67553	×

Ushbu ma'lumotlar asosida materiallar qaytimi koeffitsiyentlarini hisoblab olamiz:

Bazis yili uchun $KMQ_0 = \frac{YM_0}{MX_0} = \frac{64404}{5738,8} = 11,2$ so'm;

Shartli materiallar qaytimi $KMQ_{sh} = \frac{YM_1}{MX_0} = \frac{75311}{5738,8} = 13,1$ so'm;

Hisobot yili uchun $KMQ_1 = \frac{YM_1}{MX_1} = \frac{75311}{13673} = 5,5$ so'm.

Mazkur ma'lumotlar asosida materiallar qaytimi o'zgarishining omilli tahlili amalga oshirildi, uni 23 jadvaldan ko'rish mumkin.

23-jadval

Materiallar qaytimining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi YM hajmi va bazis yili *MX* hajmi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Sh.j. o'zgarishi	
						Yalpi mahsulot hajmi hisobiga	Moddiy xarajatlar hajmi hisobiga
1	Yalpi mahsulot, ming so'm	64404	75311	75311	+10907	×	×
2	Moddiy xarajatlar, ming so'm	5738,8	5738,8	13673	+7934	×	×
3	Materiallar qaytimi, so'm	11,2	13,1	5,5	–5,7	+1,9	–7,6

23-jadvaldan ma'lumki, materiallar qaytimi (1 so'mlik xarajat hisobiga olingan mahsulot hajmi) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 5,7 so'mga yoki 50,9% ga kamaygan. Ushbu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1-omil – yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{YM_1}{MX_0} - \frac{YM_0}{MX_0} = \frac{75311}{5738,8} - \frac{64404}{5738,8} = 13,1 - 11,2 = +1,9 \text{ so'm}.$$

Demak, yalpi mahsulot hajmining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 10907 ming so'mga oshishi natijasida materiallar qaytimi darajasi 1,9 so'mga oshgan. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik material xarajatlari hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 1,9 so'mga ko'paygan.

2-omil – moddiy (material) xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{YM_1}{MX_1} - \frac{YM_1}{MX_0} = \frac{75311}{13673} - \frac{75311}{5738,8} = 5,5 - 13,1 = -7,6 \text{ so'm}.$$

Demak, hisobot yilidagi moddiy xarajatlar hajmi bazis yilidagi moddiy xarajatlar hajmiga nisbatan 7934,2 ming so'mga oshishi materiallar qaytimi darajasiga salbiy ta'sir qilib, uning 7,6 so'mga kamayishiga sababchi bo'lgan.

Mazkur ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, materiallar qaytimi darajasini oshirish uchun moddiy xarajatlar hajmini keskin kamaytirish choralarini ko'rish zarur.

5.4. Materiallar sig'imining omilli tahlili

Moddiy resurslardan foydalanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, materiallar sig'imi hisoblanadi. Materiallar sig'imi ko'rsatkichini o'rganish asosida faoliyatda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash va iste'mol qilingan moddiy resurslarning samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatish xo'jalikning iqtisodiyotini mustahkamlashga ma'lum darajada ijobiy ta'sir qiladi. Shuning uchun materiallar sig'imi darajasini uzluksiz ravishda o'rganish, omilli tahlil qilish katta ahamiyatga egadir.

Materiallar sig'imining tahlili o'zaro qiyoslashdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilidagi materiallar sig'imi ko'rsatkichini bazis yilidagi (yoki rejadagi) materiallar sig'imi ko'rsatkichiga solishtirib, umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{MX_1}{YM_1} - \frac{MX_0}{YM_0} = \pm\Delta_{YM,\,MX},$$

Shundan so'ng o'zgarishining sabablari omillar ta'sirini hisoblash orqali aniqlanadi. Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi;

2) moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishi.

Bu omillarning ta'sirini aniqlaganga qadar materiallar sig'imini ifodalovchi quyidagi uch bog'lanish ko'rsatkichi aniqlab olinsa, tahlilni amalga oshirish qulayroq bo'ladi:

I. Bazis davridagi materiallar sig'imi ko'rsatkichi (yoki rejalashtirilgan materiallar sig'imi):

$$KMS_0 = \frac{MX_0}{YM_0}.$$

II. Shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichi

$$KMS_{sh} = \frac{MX_0}{YM_1}.$$

III. Hisobot yilidagi materiallar sig'imi ko'rsatkichi

$$KMS_1 = \frac{MX_1}{YM_1}.$$

Shundan keyin materiallar sig'imi ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi:

1-omil – yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

II–I. $\frac{MX_0}{YM_1} - \frac{MX_0}{YM_0} = \pm\Delta_{YM}$.

2-omil – moddiy (material) xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

III–II. $\frac{MX_1}{YM_1} - \frac{MX_0}{YM_1} = \pm\Delta_{YM}$.

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi materiallar sig'imi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{YM} \pm \Delta_{MX} = \Delta_{YM,\,MX}.$$

Shundan keyin har bir omil ta'siriga baho berilib, umumiy xulosa qilinadi.

Endi yuqorida keltirilgan hisobot materiallari asosida materiallar sig'imining tahlilini ko'rib chiqamiz. Buning uchun avvalo quyidagi uch bog'lanish ko'rsatkichini aniqlab olish kerak:

I. $\frac{MX_0}{YM_0} = \frac{5738,8}{64404} = 0,089$ so'm yoki 8,9 tiyin.

II. $\frac{MX_0}{YM_1} = \frac{5738,8}{75311} = 0,076$ so'm yoki 7,6 tiyin.

III. $\frac{MX_1}{YM_1} = \frac{13673}{75311} = 0,182$ so'm yoki 18,2 tiyin.

Shundan keyin materiallar sig'imining umumiy o'zgarishi va unga omillar ta'siri aniqlanadi:

Materiallar sig'imining umumiy o'zgarishi:

III–I. $\frac{MX_1}{YM_1} - \frac{MX_0}{YM_0} = 18,2 - 8,9 = +9,3$ tiyin.

Demak, materiallar sig'imi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 9,3 tiyinga yoki 104% ga oshgan, ya'ni 1 so'mlik yalpi mahsulot uchun qilingan xarajat hajmi bazis yilida 8,9 tiyinni, hisobot yilida esa 18,2 tiyinni tashkil qilgan,

natijada 1 so'mlik yalpi mahsulot hisobiga qilingan xarajat hisobot yilida 9,3 tiyinga ko'paygan. Bu 1-omilning ijobiy, 2-omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Materiallar sig'imining o'zgarishiga 1-omil – yalpi mahsulot hajmi o'zgarishini ta'sirini aniqlash uchun shartli materiallar sig'imi (II-bog'lanish) ko'rsatkichidan bazis davridagi materiallar sig'imi (I-bog'lanish) ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\text{II–I.}\ \frac{MX_0}{YM_1} - \frac{MX_0}{YM_0} = \frac{5738{,}8}{75311} = \frac{5738{,}8}{64404} = 0{,}182 - 0{,}076 = +0{,}106 \text{ so'm (10,6 tiyin).}$$

Demak, hisobot yilida yalpi mahsulot hajmining keskin oshishi materiallar sig'imi darajasining 1,3 tiyinga yoki 14,6% ga oshishiga sababchi bo'lgan.

Materiallar sig'imining o'zgarishiga 2-omil – moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi materiallar sig'imi (III-bog'lanish) ko'rsatkichidan shartli materiallar sig'imi (II-bog'lanish) ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\text{III–II.}\ \frac{MX_1}{YM_1} - \frac{MX_0}{YM_1} = \frac{13673}{75311} = \frac{5738{,}8}{75311} = 0{,}182 - 0{,}076 = +0{,}106 \text{ so'm (10,6 tiyin).}$$

Demak, moddiy (material) xarajatlar hajmining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan keskin oshishi materiallar sig'imi darajasini 10,6 tiyinga yoki 139 foizga kamayishiga sababchi bo'lgan.

Materiallar sig'imi bir omilning ijobiy, ikkinchi omilning salbiy ta'siri ostida o'zgarib, pirovard natijada 9,3 tiyinga yoki 104% ga kamaygan.

Yuqorida materiallar sig'imining o'zgarishiga birinchi tartibli omillar ta'sirining tahlilini ko'rib chiqdik. Endi, ikkinchi tartibli omillarning ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Materiallar sig'imining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zi ham ikilamchi omillar ta'siri ostida o'zgaradi. Masalan, yalpi mahsulot hajmi birlamchi omil tariqasida o'z navbatida quyidagi ikki omil ta'siri ostida o'zgaradi:

1) mahsulot miqdorining (q) o'zgarishi;

2) mahsulot bir birligi bahosining (P) o'zgarishi.

Shu ikki omil ko'paytmalarining yig'indisi yalpi mahsulot hajmiga teng bo'ladi:

$$q \cdot P = YM.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi esa yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga teng bo'ladi. Materiallar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi moddiy

xarajatlar (MX) hajmining o'zgarishi, o'z navbatida, quyidagi ikkilamchi omillar ta'siri ostida o'zgaradi:

1) yetishtirilgan mahsulot fizik miqdorining (q) o'zgarishi;

2) bir birlik (1s) mahsulot uchun sarf bo'lgan har bir moddiy resurs miqdorining o'zgarishi (X);

3) bir birlik (1 s) har bir moddiy resurs qiymatining o'zgarishi (Z).

Shu uch omil ko'paytmalarining yig'indisi moddiy xarajatlar hajmiga (summasiga) teng bo'ladi:

$$\sum MX = \sum qXZ.$$

Shu omillar ta'sirlarining yig'indisi esa moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishiga teng bo'ladi. Demak, materiallar sig'imining koeffitsiyentini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$KMS = \frac{\sum qXZ}{\sum qP}.$$

Bu formuladan ko'rinib turibdiki, materiallar sig'imi darajasining o'zgarishiga quyidagi ikkinchi tartibli omillar ta'sir qiladi:

1) mahsulotlar miqdori va tarkibiy tuzilishining o'zgarishi;

2) mahsulot bir birligi bahosining o'zgarishi;

3) bir-birlik mahsulot uchun sarflangan material xarajatlar miqdorining o'zgarishi;

4) iste'mol qilingan bir birlik moddiy resurslar qiymatining (narxining) o'zgarishi.

Materiallar sig'imining o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlanadi. Buning uchun avvalo quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari hisoblab olinishi kerak:

I. $KMS_0 = \frac{\sum q_0 X_0 Z_0}{\sum q_0 P_0}$ – bazis yilidagi (yoki rejadagi) materiallar sig'imi.

II. $KMS_{sh1} = \frac{\sum q_1 X_0 Z_0}{\sum q_1 P_0}$ – birinchi shartli materiallar sig'imi.

III. $KMS_{sh2} = \frac{\sum q_1 X_0 Z_0}{\sum q_1 P_1}$ – ikkinchi shartli materiallar sig'imi.

IV. $KMS_{sh3} = \frac{\sum q_1 X_1 Z_0}{\sum q_1 P_1}$ – uchinchi shartli materiallar sig'imi.

V. $KMS_1 = \frac{\sum q_1 X_1 Z_1}{\sum q_1 P_1}$ – hisobot yilidagi (haqiqiy) materiallar sig'imi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida jami mahsulot bo'yicha materiallar sig'imining tahlili amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, materiallar sig'imining umumiy o'zgarishi, so'ngra omillarning ta'siri aniqlanadi.

Materiallar sig'imi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishini aniqlash uchun hisobot yili (V-bog'lanish)dagi materiallar sig'imi ko'rsatkichidan bazis yilidagi (yoki rejadagi) material sig'imi ko'rsatkichini (I-bog'lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\sum q_1 X_1 Z_1}{\sum q_1 P_1} - \frac{\sum q_0 X_0 Z_0}{\sum q_0 P_0} = \pm\Delta_{qpXZ},$$

bu o'zgarish barcha omillar ta'siri ostida yuzaga kelganligini ifodalaydi.

Materiallar sig'imi darajasining o'zgarishiga omillarning ta'siri quyidagi ketma-ketlik tartibi bo'yicha aniqlanadi.

1-omil – mahsulot miqdori va tarkibiy tuzilishi o'zgarishining materiallar sig'imi darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun I-shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichidan (II-bog'lanishdan) bazis yilidagi (yoki rejadagi) materiallar sig'imi ko'rsatkichini (I-bog'lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\sum q_1 X_0 Z_0}{\sum q_1 P_0} - \frac{\sum q_0 X_0 Z_0}{\sum q_0 P_0} = \pm\Delta_{q},$$

2-omil – mahsulot bir birligi bahosi o'zgarishining materiallar sig'imi darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun ikkinchi shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichidan (III-bog'lanishdan) birinchi shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichini (II-bog'lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\sum q_1 X_0 Z_0}{\sum q_1 P_1} - \frac{\sum q_1 X_0 Z_0}{\sum q_1 P_0} = \pm\Delta_{P},$$

3-omil – bir-birlik mahsulot uchun sarflangan material xarajatlar miqdori o'zgarishining materiallar sig'imi ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun uchinchi shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichidan (IV-bog'lanishdan) ikkinchi shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichini (III-bog'lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\sum q_1 X_1 Z_0}{\sum q_1 P_1} - \frac{\sum q_1 X_0 Z_0}{\sum q_1 P_1} = \pm\Delta_{X}.$$

4-omil – iste'mol qilingan birlik moddiy resurslar qiymati o'zgarishining materiallar sig'imi darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi materiallar sig'imi ko'rsatkichidan (V-bog'lanishdan) uchinchi shartli materiallar sig'imi ko'rsatkichini (IV-bog'lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\Sigma q_1 X_1 Z_1}{\Sigma q_1 P_1} - \frac{\Sigma q_1 X_1 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} = \pm \Delta_Z.$$

Mazkur to'rt omil ta'sirlarining yig'indisi jami mahsulot bo'yicha materiallar sig'imi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_q \pm \Delta_P \pm \Delta_X \pm \Delta_Z = \pm \Delta_{umum.o'zg.}$$

Shundan so'ng har bir omilning ta'siriga baho berilib, xulosa qilinadi.

Endi yuqorida 22-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida, avvalo, iste'mol qilingan material xarajatlar qiymatini (hajmini) ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblab olib undan keyin materiallar sig'imi ko'rsatkichining omilli tahlilini amalga oshiramiz. Mahsulot ishlab chiqarish uchun iste'mol qilingan material xarajatlar hajmini (qiymatini) ifodalovchi ko'rsatkichlar 24-jadvalda keltirildi.

24- jadval

Material xarajatlar hajmi ko'rsatkichlari

Material xarajatlar nomi	Material xarajatlar qiymati, ming so'm			
	Bazis davridagi material xarajatlar hajmi $q_0 X_0 Z_0$	1- shartli material xarajatlar hajmi $q_1 X_0 Z_0$	2- shartli material xarajatlar hajmi $q_1 X_1 Z_0$	Hisobot davridagi material xarajatlar hajmi $q_1 X_1 Z_1$
Paxta bo'yicha				
o'g'it	2986,4	3132,7	772,7	5514.3
urug'	802,8	841,9	1289	3212
YMM	1949.4	2045	5076,7	4946,7
Jami:	**5738,8**	**6019,6**	**7138,4**	**13673**

Materiallar sig'imini hisoblash uchun zarur bo'lgan yalpi mahsulot ko'rsatkichlari 22–23-jadvallarda keltirilgan.

Endi, yuqorida 22–24-jadvallarda keltirilgan hisob-kitob ma'lumotlaridan foydalanib, materiallar sig'imining omilli tahlilini amalga oshirish mumkin.

Materiallar sig'imining omilli tahliliga o'tishdan oldin uni ifodalovchi quyidagi zanjirli bog'lanish ko'rsatkichlarini hisoblab olish zarur:

I. $\frac{\Sigma q_0 X_0 Z_0}{\Sigma q_0 P_0} = \frac{5738,8}{64404} = 0,089$ yoki 8,9 tiyin.

II. $\frac{\Sigma q_1 X_0 Z_0}{\Sigma q_1 P_0} = \frac{6019,6}{67553} = 0,089$ yoki 21,1 tiyin.

III. $\frac{\Sigma q_1 X_0 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} = \frac{6019,6}{75311} = 0,080$ yoki 8 tiyin.

IV. $\frac{\Sigma q_1 X_1 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} = \frac{7138}{75311} = 0,095$ yoki 9,5 tiyin.

V. $\frac{SF_0}{XKH_1}$ yoki 18,2 tiyin.

Shu hisob-kitoblardan keyin materiallar sig'imi dinamikasi tahlilini bajarish mumkin.

Hisobot yilidagi (V-bog'lanishdagi) materiallar sig'imi ko'rsatkichidan bazis yilidagi (I-bog'lanish) ko'rsatkichini chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma q_1 X_1 Z_1}{\Sigma q_1 P_1} - \frac{\Sigma q_0 X_0 Z_0}{\Sigma q_0 P_0} = \frac{13673}{75311} - \frac{5738,8}{64404} = 0,182 - 0,089 = +0,093$$ yoki 9,3 tiyin.

Demak, hisobot yilida 1 so'mlik paxta yalpi mahsuloti uchun 18,2 tiyinlik, bazis yilida 8,9 tiyinlik material resurslar sarf bo'lgan, oqibatda materiallar sig'imi darajasi hisobot yilida 9,3 tiyinga yoki 104% ga oshgan. Materiallar sig'imi darajasining oshishi moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayganligini bildiradi. Boshqacha aytganda, materiallar qaytimi darajasi pasaygan. Bazis yilida 1 so'mlik material xarajat hisobiga 11,2 so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarilgan:

$$MQ_0 = \frac{\Sigma q_0 P_0}{\Sigma q_0 X_0 Z_0} = \frac{64404}{5738.8} = 11,2 \text{ so'm.}$$

Hisobot yilida esa 5,5 so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan:

$$MQ_1 = \frac{\Sigma q_1 P_1}{\Sigma q_1 X_1 Z_1} = \frac{75311}{13673} = 5,5 \text{ so'm.}$$

Demak, materiallar qaytimi 5,7 so'mga yoki 50,9% ga kamaygan.

Materiallar sig'imi darajasining o'zgarishi 4 ta omil hisobiga sodir bo'lgan.

1-omil – mahsulot miqdori va tarkibiy tuzilishi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma q_1 X_0 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} - \frac{\Sigma q_0 X_0 Z_0}{\Sigma q_0 P_0} = \frac{6019,6}{67553} - \frac{5738,8}{64404} = 0,089 - 0,089 = \pm 0,007 \text{ yoki } 0,7 \text{ tiyin.}$$

Demak, mahsulotlar miqdori va tarkibiy tuzilishida o'zgarish sodir bo'lmaganligi uchun materiallar sig'imi darajasiga ushbu omil ta'sir qilmagan. Biz bu yerda faqat bitta mahsulot – paxta bo'yicha ko'rib chiqdik. Shuning uchun tarkibiy o'zgarish bo'lgan emas. Agar 2 va undan ortiq mahsulot bo'yicha tahlil amalga oshirilganda albatta ushbu omil ta'siri bo'lgan bo'lur edi.

2-omil – mahsulot bahosi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma q_1 X_0 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} - \frac{\Sigma q_1 X_0 Z_0}{\Sigma q_1 P_0} = \frac{6019,6}{75311} - \frac{6019.6}{67553} = 0,089 - 0,089 = -0,009 \text{ yoki } 0,9 \text{ tiyin.}$$

Demak, hisobot yilida 1 s paxtaning o'rtacha bahosi bazis yilidagi bahosiga nisbatan 2016 so'mga yoki 11,3% ga oshgan. Natijada u hisobot yilidagi yalpi mahsulot qiymatini oshirib, 1 so'mlik mahsulot uchun sarf bo'lgan material xarajatlar hajmi (material sig'imi) 0,9 tiyinga yoki 10,1 foizga kamayishiga olib kelgan.

3-omil – bir birlik mahsulot uchun sarflangan material resurslar miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma q_1 X_1 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} - \frac{\Sigma q_1 X_0 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} = \frac{7138}{75311} - \frac{6019,6}{75311} = 0,095 - 0,08 = \pm 0,015 \text{ yoki } 1,5 \text{ tiyin.}$$

Demak, mahsulot bir birligi uchun sarf bo'lgan material resurslari miqdorining oshishi natijasida materiallar sig'imi darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1,5 tiyinga yoki 18,8 foizga oshgan.

4-omil – iste'mol qilingan bir birlik material resurslar qiymati o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma q_1 X_1 Z_1}{\Sigma q_1 P_1} - \frac{\Sigma q_1 X_1 Z_0}{\Sigma q_1 P_1} = \frac{13673}{75311} - \frac{7138}{75311} = 0,182 - 0,095 = \pm 0,087 \text{ yoki } 8,7 \text{ tiyin.}$$

Demak, iste'mol qilingan 1 s material sarflar qiymatining oshishi natijasida 1 so'mlik mahsulot hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar hajmi (materiallar sig'imi) 8,7 tiyinga yoki 91,6 foizga oshgan.

Ushbu 4 ta omil ta'sirlarining yig'indisi materiallar sig'imi ko'rsatkichining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, materiallar sig'imining o'zgarishiga 1- omil ta'sir qilmagan, qolgan uch omil ta'sir qilgan, natijada u bazis yiliga nisbatan 104% ga oshgan (demak, moddiy resurslardan foydalanish darajasi ikki martadan ziyodroq miqdorga kamaygan). Unga bahoning o'zgarishi ijobiy, sarflangan material resurslar miqdori bilan ularning qiymatining o'zgarishi salbiy ta'sir qilgan.

Materiallar sig'imi darajasini pasaytirish uchun quyidagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish zarur:

1) sarflangan material resurslar miqdorini tejash choralarini ko'rish zarur. Tahlil qilingan davrda ularning sarf bo'lgan miqdori 18,8% ga oshgan, natijada materiallar sig'imini oshishiga olib kelgan;

2) material resurslarni arzonroq narxlarda sotib olish choralarini ko'rish zarur. Ularning qiymati tahlil qilinayotgan davrda 91,6% ga oshgan, natijada materiallar sig'imi darajasini keskin oshib ketishiga sababchi bo'lgan;

3) mahsulotlarni sotish bahosini yanada oshirish choralarni ko'rish zarur. Sotish bahosining o'sish darajasi sotib olinayotgan moddiy resurslar narxining o'sish darajasidan yuqori bo'lmasa, moddiy resurslardan foydalanish darajasi albatta pasayadi.

5.5. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan iste'mol qilingan moddiy resurslar va ulardan foydalanish darajasi orasida bevosita funksional bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$YM = MX \cdot KMQ,$$

bunda: YM – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot summasi (hajmi); MX – ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar (resurslar) hajmi; MQ – materiallar qaytimi ko'rsatkichi.

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmi (YM) sarf bo'lgan moddiy resurslar hajmi (MX) bilan materiallar qaytimi ko'rsatkichi (MQ) ko'paytmalarining yig'indisiga teng. Demak, yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga shu ikki omil bevosita ta'sir qiladi:

1) moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishi;

2) materiallar qaytimi darajasining o'zgarishi

Ushbu omillarning ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish», «Ko'rsatkichlar farqi» usullaridan foydalanib, aniqlash mumkin.

Biz bu yerda omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqladik. Buning uchun avvalo yalpi mahsulotni ifodalovchi uchta bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinadi:

I. $MX_0 \cdot MQ_0$ – bazis davrida yetishtirilgan yalpi mahsulot;

II. $MX_1 \cdot MQ_0$ – shartli yalpi mahsulot;

III. $MX_1 \cdot MQ_1$ – hisobot davrida yetishtirilgan yalpi mahsulot.

Shundan keyin yalpi mahsulot hajmining o'zgarishini va unga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin.

Hisobot yilidagi yalpi mahsulot hajmidan (III-bog'lanishdan) bazis yilidagi (yoki reja bo'yicha ko'zda tutilgan) yalpi mahsulot hajmini (I-bog'lanishni) chegirish orqali yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi aniqlanadi:

$$(MX_1 \cdot MQ_1) - (MX_0 \cdot MQ_0) = \pm\Delta_{MX,MQ}.$$

Shartli yalpi mahsulot hajmidan (II-bog'lanishdan) bazis davrida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini (I-bog'lanishni) ayirish orqali yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga moddiy resurslar hajmining o'zgarishini ta'siri aniqlanadi:

$$(MX_1 \cdot MQ_0) - (MX_0 \cdot MQ_0) = \pm\Delta_{MX}.$$

Hisobot davrida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmidan (III-bog'lanishdan) shartli yalpi mahsulot hajmini (II-bog'lanishni) ayirish orqali yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga moddiy resurslar qaytimi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(MX_1 \cdot MQ_1) - (MX_1 \cdot MQ_0) = \pm\Delta_{MQ}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi yalpi mahsulot hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin har bir omil ta'siriga baho beriladi va xulosa qilinadi.

Endi, yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirning tahliliga to'xtalamiz. Buni 25-jadvaldan ko'rish mumkin.

25-jadval

Yalpi mahsulotning o'zgarishiga materiallar hajmi va materiallar qaytimi ta'sirining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi materiallar hajmi va bazis yilidagi materiallar qaytimi bo'yicha	Hisobot yili	o'zgarishi (+, –)	Sh.j. o'zgarishi	
						Moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishi hisobiga	Materiallar qaytimi o'zgarishi hisobiga
1	Moddiy (material) xarajatlar hajmi, ming so'm	5738,8	13673	13673	+7934,2	×	×
2	Materiallar qaytimi, so'm	11,2	11,2	5,5	-5,7	×	×
3	Yalpi mahsulot, ming so'm	64404	153138	75311	+10907	+88734	–77827

Yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 10907 ming so'mga ko'paygan:

$$(MX_1 \cdot MQ_1) - (MX_0 \cdot MQ_0) = (13673 \cdot 5,5) - (5738,8 \cdot 11,2) =$$
$$= 75311 - 64404 = + 10907 \text{ ming so'm.}$$

Bu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan.

1-omil – moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishining ta'siri. Moddiy xarajatlar hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 7934,2 ming so'mga oshgan, natijada shu omil hisobiga yalpi mahsulot hajmi 88734 ming so'mga ko'paygan:

$$(MX_1 \cdot MQ_0) - (MX_0 \cdot MQ_0) = (13673 \cdot 11,2) - (5738,8 \cdot 11,2) =$$
$$= 153138 - 64404 = + 88734 \text{ ming so'm.}$$

Demak, moddiy xarajatlar hajmining oshishi hisobiga yalpi mahsulot hajmi 88734 ming so'mga oshgan.

2-omil – materiallar qaytimi o'zgarishining ta'siri. Materiallar qaytimi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 5,7 so'mga kamaygan, natijada shu omil, hisobiga yalpi mahsulot hajmi 77827 ming so'mga kamaygan:

$$(MX_1 \cdot MQ_1) - (MX_1 \cdot MQ_0) = (13673 \cdot 5,5) - (13673 \cdot 11,2) =$$
$$= 75311 - 153138 = - 77827 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga 1-omil ijobiy, 2-omil salbiy ta'sir qilgan. Ekstensiv omil ta'sirining doirasi natijasi intensiv omilning ta'siriga nisbatan yuqori

bo'lganligi uchun ham yalpi mahsulot hajmi 10907 ming so'mga oshgan. Yalpi mahsulot hajmini keskin oshirish uchun materiallar qaytimi darajasini keskin oshirish choralarini ko'rish kerak.

5.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Moddiy resurslar, moddiy resurslar samaradorligi, materiallar sig'imi, materiallar qaytimi, moddiy resurslar, moddiy resurslar rentabelligi, shartli materiallar qaytimi. Shartli yalpi mahsulot, yalpi mahsulot, sof mahsulot.

Takrorlash uchun savollar

1. Moddiy resurslar deb nimaga aytiladi?
2. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
3. Moddiy (material) resurslar qaytimi qanday hisoblanadi, uning o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
4. Materiallar sig'imi deganda nima tushuniladi? U qanday aniqlanadi?
5. Materiallar sig'imining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi birinchi tartibli omillar qaysilar?
6. Materiallar sig'imining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkinchi tartibli omillar qaysilar? Ularning ta'siri qaysi usullar orqali aniqlanadi?
7. Materiallar qaytimining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmi bilan moddiy resurslar hajmi o'zgarishlarining ta'sirini aniqlash tartibini bayon qiling.
8. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga moddiy resurslar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash yo'lini bayon qiling.
9. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga moddiy resurslar va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan necha omil ta'sir qiladi? Ular qaysilar?
10. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga materiallar qaytimi o'zgarishining ta'siri qanday aniqlanadi?

MASHQ

Moddiy resurslar rentabelligi dinamikasi o'zgarishini omilli tahlil qiling. Buning uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	1. Foyda, ming so'm	1434,7	2529,5	+1094.8
2	2. Moddiy xarajatlar, ming so'm	5738.8	13673	+7934,2
3	3. Moddiy xarajatlar rentabelligi, %	25,0	18,5	-6,5

Rentabellik o'zgarishiga yalpi foyda bilan moddiy xarajatlar hajmi o'zgarishinig ta'sirini aniqlang va omillar ta'siriga baho berib, rentabellikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsating.

Izoh: Moddiy resurslar rentabelligini tahlil etish tartibi moddiy xarajatlar (materiallar) qaytimining omilli tahlili tartibiga o'xshaydi. Farqi u yerdagi yalpi mahsulot hajmi o'rniga, bu yerda foyda summasi olinadi, moddiy xarajatlar hajmi esa o'zgarmasdan qoladi. Shuning uchun darslikning 100–103-betlarida keltirilgan «Materiallar qaytimining omilli tahlili» usuli qoidalaridan foydalanib, tahlilni amalga oshirish mumkin.

XULOSALAR

Mazkur bobda moddiy resurslar va ulardan foydalanish tahlilining ahamiyati, maqsadi va vazifalari, resurslar bilan ta'minlanish darajasining tahlili, ulardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining tahlili, moddiy resurslar va ulardan foydalanishning ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili kabi savollarga javoblar yetarli darajada yoritilgan. Ushbu masalalarni yaxshi o'zlashtirib olish uchun, talabaga darslikdagi ushbu mavzuni o'qib, o'zlashtirishini hamda mavzu bo'yicha keltirilgan nazariy savollarga javob qaytarishni va berilgan mashqni mustaqil bajarishini tavsiya qilamiz.

6-bob. QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING TAHLILI

O'QUV MAQSADI

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili mavzusi bo'yicha rejalashtirilgan masalalarning mazmuni, hisoblash va tahlil etish usullari ushbu bobda yetarli darajada yoritilgan. Bu esa talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar asosini beradi va ularni o'z navbatida talabalarga o'rgatish *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Tannarxni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash, foydaning ko'payishiga va rentabellikning oshishiga, oqibatda xo'jalikning moliyaviy jihatdan mustahkam bo'lishiga olib kelishligi to'g'risidagi bilimni, g'oyani talaba ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadini* belgilaydi.

Tannarxning kamayishi foydaning ko'payishiga va rentabellik darajasini oshishiga olib kelishlari to'g'risidagi fikrlar iqtisodiy tahlil o'quv adabiyotlarida an'anaviy usullar asosida bayon qilingan. Imkoniyatlarni aniqlashda an'anaviy usullar bilan bir qatorda matematik usullardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun matematik usullardan ham foydalanib, tannarxni tahlil etish zarurligi to'g'risidagi fikrlar *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

6.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, mahsulot tannarxi hisoblanadi. Demak, ishlab chiqarish xarajatlari hajmini kamaytirish va mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish samaradorlikni oshirishning asosiy imkoniyatlaridan biridir. Tannarxning pasayishi foydaning ko'payishi va rentabellikning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish xarajatlari hajmi dinamikasini hamda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxi darajasi dinamikasini uzluksiz ravishda tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir, chunki tahlil tufayli xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlari aniqlanadi, natijada ulardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mahsulot tannarxini o'rganish asosida uni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash tahlilning maqsadidir. Ushbu maqsadga tahlil quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish orqali erishadi:

1) mahsulot tannarxi darajasini o‘rganish va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarning ta’sirini aniqlab baho berish;

2) mahsulot tannarxi tarkibi, tarkibiy tuzilishining o‘zgarishini va har bir modda bo‘yicha xarajatlar o‘zgarishini omilli tahlil qilish hamda baho berish;

3) tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatish va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi tahlilining asosiy manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) korxonaning biznes rejasi ma’lumotlari;

2) o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning tannarxi to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobotlarining ma’lumotlari;

3) buxgalteriya hisobining «Asosiy ishlab chiqarish hisobi schoti»ning ma’lumotlari;

4) statistik va boshqa axborot ma’lumotlari.

Mazkur hujjatlardagi ma’lumotlar asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning jami tannarxi va mahsulot birligining tannarxi 1 so‘mlik tovar mahsulotiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar darajasi tahlil qilinadi hamda ularni kamaytirish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

6.2. O‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili

Mahsulot tannarxi korxona xo‘jalik faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichdir. Ushbu ko‘rsatkichni to‘g‘ri hisoblash va tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Tannarx deb nimaga aytiladi? Mahsulot yetishtirish uchun sarf bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pul shaklida ifodalanishi tannarx deb ataladi. Tannarx, o‘z navbatida, jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so‘mlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan xarajat ko‘rsatkichlariga bo‘linadi. Bu bo‘limda bir birlik mahsulot tannarxini tahlil qilish tartibi yoritiladi.

Mahsulot birligining tannarxi tahlilini amalga oshirish uchun solishtirish va zanjirli bog‘lanish usullari keng qo‘llaniladi.

Hisobot davridagi bir birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) tannarxiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o‘zgarishlari aniqlanadi. So‘ngra «zanjirli bog‘lanish» usuli orqali omilli tahlil etilib, omillarning har birining ta’siriga baho beriladi va pasaytirish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

1 s mahsulot tannarxining o‘zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Bu omillar quyidagilardir:

1) 1 gektar ekin maydoni (yoki 1 bosh chorva moli) hisobiga sarf bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o‘zgarishi;

2) 1 gektar ekin maydonidan olingan hosil (yoki 1 bosh moldan olingan mahsulot) miqdorining o'zgarishi (hosildorlik yoki mahsuldorlikning o'zgarishi).

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlaymiz. Tannarx tahlilini o'simlikchilik mahsuloti misolida ko'rib chiqamiz. Tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin 1 s mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur.

Shartli tannarx qanday aniqlanadi? Shartli tannarxni (Z_{sh}) aniqlash uchun hisobot yilidagi 1 gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajatlar hajmini (IX_1) bazis yilidagi hosildorlik darajasiga (H_0) bo'lish kerak:

$$Z_{sh} = \frac{IX_1}{H_0}.$$

1 gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar summasini aniqlash uchun u yoki bu ekin turi uchun qilingan jami xarajatlar hajmini ($\sum qZ$) shu ekin maydoniga (M) bo'lish kerak:

$$IX = \frac{\sum qZ}{\sum M}.$$

Shartli tannarx aniqlanganidan keyin mahsulot birligi tannarxini tahlil qilish mumkin, ya'ni har bir omilning ta'sirini aniqlab, uning darajasiga baho beriladi.

Tahlil quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda 1 s mahsulot tannarxining umumiy o'zgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot yilidagi 1 s mahsulot tannarxidan bazis yilidagi (yoki rejadagi) 1 s mahsulot tannarxi chegirib tashlanadi:

$$Z_1 - Z_0 = \frac{IX}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \pm\Delta_{IX,H}.$$

Ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 ga ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajat summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning shartli tannarxidan uning bazis davridagi (yoki rejadagi) tannarxini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_0}{H_0} = \pm\Delta_{IX}.$$

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning hisobot yilidagi tannarxidan shartli tannarxini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{SF_0}{UK_1 + QK_1 + Z} \pm \Delta_X.$$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi 1 s mahsulot tannarxining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, xulosa qilinadi.

Endi, yuqorida keltirilgan «Zanjirli bog'lanish» usuli qoidalariga asoslanib, mahsulot tannarxining omilli tahlilini paxta tannarxi misolida ko'rib chiqamiz (26-jadval).

26-jadval

1 s paxta tannarxining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi 1 ga xarajati va bazis yilidagi hosildorlik bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Sh.j.o'zgarishi	
						1 gektar xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1	1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	375,5	406,7	406,7	+31,2	×	×
2	1 ga ekin maydonidan olingan hosil (hosildorlik), s/ga	22,5	22,5	23,9	+1,4	×	×
3	1 s paxta tannarxi, so'm	16687	18075	17015	+328	+ 1388	–1060

26-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 s paxta tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 328 so'mga qimmatlashgan:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{406,7}{23,9} - \frac{375,5}{22,5} = 17,015 - 16,687 = +0,328 \text{ ming so'm yoki } 328 \text{ so'm.}$$

Bu o'zgarish bir omilning ijobiy, ikkinchi omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

1 gektar paxta maydoni hisobiga qilingan xarajat summasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 31,2 ming so'mga oshgan, natijada shu omil hisobiga 1 s paxta tannarxi 1388 so'mga qimmatlashgan:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{406,7}{22,9} - \frac{375,5}{22,5} = 18,075 - 16,687 = +1,388 \text{ ming so'm yoki } 1388 \text{ so'm.}$$

1 gektar paxta maydonidan olingan hosil (ya'ni hosildorlik) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1,4 s ga oshgan, natijada shu omil hisobiga 1 s paxta tannarxi 1060 so'mga arzonlashgan:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \frac{406,7}{23,9} - \frac{406,7}{22,5} = 17,015 - 18,075 = -1,060 \text{ ming so'm yoki } 1060 \text{ so'm.}$$

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tannarxni pasaytirishning asosiy imkoniyatlari bo'lib, 1 gektarga qilinadigan xarajatlar hajmini keskin kamaytirish va hosildorlikni yanada oshirish hisoblanadi. Paxta tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish uchun uning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham o'rganish kerak. Buni 6.3-§ dan ko'rish mumkin.

Chorvachilik mahsulotlarining tannarxini tahlil qilish tartibi (usuli) o'simlikchilik mahsulotlari tannarxining tahlili tartibidan farq qilmaydi, faqat ko'rsatkichlar nomi o'zgaradi, xolos.

1 gektar maydon xarajati o'rniga 1 bosh chorva moli xarajati, hosildorlik o'rniga esa mahsuldorlik ko'rsatkichi olinib, tahlil qilinadi. Shuning uchun o'zingiz quyida keltirilgan formulalardan (zanjirli bog'lanish ko'rsatkichlaridan) foydalanib, 1 s sutning tannarxi tahlilini bajaring.

I. IX_0: P_0 – bazis davridagi 1 s sutning tannarxi.

II. IX_1: P_0 – 1 s sutning shartli tannarxi.

III. IX_1: P_1 – hisobot davridagi 1 s sutning tannarxi,

bunda: IX_0, IX_1 – bazis va hisobot davrida 1 bosh sigirga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajati summasi; P_0, P_1 – bazis va hisobot davrida 1 bosh sigir hisobiga olingan mahsulot miqdori (sut mahsuldorlik darajasi).

1 s sut tannarxining umumiy o'zgarishi:

$$(IX_1: P_1) - (IX_0: P_0) = \pm\Delta_{IX,P}$$

Tannarx o'zgarishiga 1 bosh sigirga bo'lgan xarajat summasi o'zgarishining ta'siri:

$$(IX_1: P_0) - (IX_0: P_0) = \pm\Delta_{IX}.$$

Tannarx o'zgarishiga sut mahsuldorligi o'zgarishining ta'siri:

$$(IX_1: P_1) - (IX_1: P_0) = \pm\Delta_{P}.$$

Omillar ta'sirlarining yig'indisi 1 s sut tannarxining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatilgan holda xulosa qilinadi.

6.3. Tannarx moddalari bo'yicha xarajatlar darajasining omilli tahlili

1 s mahsulot tannarxining tahlili bilan bir qatorda uning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham tahlil qilish zarur, chunki tannarx tarkibidagi har bir modda bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish orqali uni arzonlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatish mumkin. Tannarx tarkibidagi har bir moddada o'z aksini topgan xarajatlar hajmining o'zgarishi ham ekstensiv, ham intensiv omillari hisobiga sodir bo'ladi. Bu omillarni miqdor va sifat (qiymat) omillar deb ham atash mumkin. Shu ikki omil ko'paytmasining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi) ga teng bo'ladi, demak, omillar ta'sirining yig'indisi ham har bir moddadagi xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi shart. Masalan, mehnat haqi moddasini olaylik. Bu moddagi mehnat haqini ifodalovchi xarajatlar summasi mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi soatlar miqdori (*KS*) bilan 1 kishi-soatga hisoblangan ish haqi summasi (1 *KH*)ning ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$MHX = KS \cdot 1\ KH.$$

Shundan birinchisi, miqdor omili, ikkinchisi sifat omili (yoki qiymat omili)dir. Shu omillar ta'sirlarining yig'indisi «Mehnat haqi» moddasidagi xarajatlar hajmining o'zgarishiga teng bo'ladi. Bu omillar ta'sirining tahlili keyinroq shu paragrafda keltiriladi.

Endi, xarajat moddalari bo'yicha tannarxning qiyoslama tahliliga to'xtalamiz. Buni 27-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

27-jadval

1 s paxta tannarxining xarajat moddalari bo'yicha tahlili

T.r.	Xarajat moddalari	Bazis yili		Hisobot yili		O'zgarishi (+, –)	
		Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi bo'yicha	Salmog'i bo'yicha
1	Mehnat haqi ajratmalar bilan	6675	40,0	5840	34,3	–835	–5,7
2	O'g'itlar	1669	10,0	1497	8,8	–172	–1,2
3	Urug'lik	450	2,7	867	5,1	+417	+2,4
4	Amortizatsiya	500	3,0	600	3,5	+100	+0,5
5	Ish-xizmatlar	3340	20,0	4045	23,6	+675	+3,6
6	Yoqilg'i-moylash materiallari	1085	6,5	1344	7,9	+259	+1,4
7	Sug'urta	67	0,4	68	0,4	+1,0	–
8	Umumishlab chiqarish xarajatlari	176	1,0	153	0,9	–17	–0,1
9	Boshqa to'g'ri xarajatlar	2731	16,4	2631	15,5	+100	–0,9
10	1 s paxta tannarxi (jami)	16687	100,0	17015	100,0	+328	–

27-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 s paxta tannarxi 328 so'mga qimmatlashgan. Bu asosan 5 ta moddadagi xarajatlar hajmining oshishi hisobiga sodir bo'lgan (urug'lik, amortizatsiya, ish-xizmatlar, yoqilg'i-moylash materiallari, sug'urta). Tannarx tarkibida asosiy ulushni mehnat haqi, ish xizmatlar, boshqa to'g'ri xarajatlar va yoqilg'i-moylash materiallari xarajatlari tashkil qiladi. Shuning uchun ham ushbu xarajatlarni oshib ketish sabablarini bilish uchun omilli tahlil qilish mavjud imkoniyatlarni aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Mazkur xarajatlarning moddalari bo'yicha sodir bo'lgan o'zgarishining sababi «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlanadi. Bu omilli tahlilni mehnat haqi xarajatining o'zgarishi misolida ko'rib chiqamiz. Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlarini hisoblab olish kerak:

I. Bazis yilidagi mehnat haqi xarajati ko'rsatkichi:

$$MH_0 = KC_0 \cdot 1KH_0.$$

II. Shartli mehnat haqi xarajati ko'rsatkichi:

$$MH_{sh} = KC_1 \cdot 1KH_0.$$

III. Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajati ko'rsatkichi:

$$MH_1 = KC_1 \cdot 1KH_1.$$

Shu ko'rsatkichlar asosida tahlil amalga oshiriladi.

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajatidan bazis yilidagi mehnat haqi xarajatini chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$(KC_1 \cdot 1KH_1) - (KC_0 \cdot 1KH_0) = \pm\Delta_{KC,1KH}.$$

Shartli mehnat haqi xarajatidan bazis yilidagi mehnat haqi xarajatini chegirib tashlash orqali uning o'zgarishiga birinchi omilning ya'ni sarflangan kishi-soat (*KC*) miqdori o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(KC_1 \cdot 1KH_0) - (KC_0 \cdot 1KH_0) = \pm\Delta_{KC}.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajatidan shartli mehnat haqi xarajatini chegirib tashlash orqali uning o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni 1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi darajasi (1KH) o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(KC_1 \cdot 1KH_1) - (KC_1 \cdot 1KH_0) = \pm\Delta_{1KH}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi «Mehnat haqi xarajati»ning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Endi mehnat haqi xarajati o'zgarishining omilli tahlilini xo'jalik misolida ko'rib chiqamiz.

28-jadval

1 s paxta tannarxi tarkibidagi mehnat haqi moddasi xarajati dinamikasining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi kishi-soat va bazis yildagi 1 kishi-soatga hisoblangan ish haqi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu jumladan o'zgarishi	
						1 s ga sarf bo'lgan kishi-soat hisobiga	1 kishi-soatga hisoblangan ish haqi hisobiga
1	1 s paxtaga sarf bo'lgan kishi-soat (*KS*)	28,8	31.6	31,6	+2,8	×	×
2	1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi, so'm (1*KH*)	231,8	231.8	185,0	–46,8	×	×
3	1 s paxta tannarxi tarkibidagi mehnat haqi xarajati, so'm (MH)	6675	7325	5840	–835	+650	–1485

28-*jadvaldan ko'rinib turibdiki*, ishlab chiqarilgan 1 s paxtaga sarf bo'lgan mehnat haqi xarajati hisobot yilida bazis yilidagi xarajatiga nisbatan 835 so'mga kamaygan. Ushbu o'zgarish bir omilning ijobiy, ikkinchi omilning salbiy ta'sirida paydo bo'lgan, ya'ni 1s paxtaga sarf bo'lgan kish-soat miqdorining oshishi salbiy, 1 kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasining pasayishi ijobiy ta'sir qilgan.

1 s paxtaga sarf bo'lgan mehnat sarfi bazis yilida 28,8 kishi-soatni, hisobot yilida 31,6 kishi soatni tashkil qilgan, ya'ni o'sish 2,8 kishi-soatga tengdir. Sarf bo'lgan kishi-soat miqdorining oshishi tannarx tarkibidagi mehnat haqi moddasi bo'yicha xarajat hajmining 650 so'mga oshishiga sababchi bo'lgan:

$$(KC_1 \cdot 1KH_0)-(KC_0 \cdot 1KH_0)=(31,6 \cdot 231,8)-(28.8 \cdot 231,8)=$$
$$=7325-6675=+650 \text{ so'm.}$$

1 kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi xarajati hisobot yilida 185 so'mni, bazis yilida 231,8 so'mni tashkil qilgan, natijada hisobot yilidagi xarajat hajmi 46,8 so'mga kamaygan, bu esa 1 s paxta tannarxi tarkibidagi mehnat haqi xarajatini 1485 so'mga kamayishiga sabab bo'lgan:

$$(KC_1 \cdot 1KH_1)-(KC_1 \cdot 1KH_0)=(31,6 \cdot 185)-(31,6 \cdot 231,8)=$$
$$=5840-7325=-1485 \text{ so'm.}$$

Ushbu ma'lumotlar asosida tannarxni pasaytirish imkoniyatlari mavjudligini qayd qilish mumkin. Shunday imkoniyatlardan *biri bo'lib, sarf bo'lgan vaqtni* kamaytirish hisoblanadi.

Agar 1 s paxtaga bo'lgan mehnat sarfi hisobot yilida bazis yildagi 28,8 kishi-soat hajmida saqlanib qolganda edi, hisobot yilida mehnat haqi uchun sarf bo'lgan xarajat 5840 so'm o'rniga 5323 so'mli tashkil qilgan bo'lib, u 517 so'mga tejalgan bo'lar edi, natijada 1 s tannarxi shu summaga kamaygan bo'lar edi:

$$28,8 \cdot 185,0 = 5323 \text{ so'm}; \quad 5840 - 5323 = -517 \text{ so'm.}$$

Mehnat haqi xarajati bilan bir qatorda tannarx tarkibida urug', o'g'it va yoqilg'i-moylash materiallari xarajati *ham salmoqli o'rinni* egallagan xarajatlardan hisoblanadi, ularning kamayishi tannarx kamayishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu xarajatlarning tahlili ham mehnat haqi xarajatlarining tahlilidan farq qilmaydi. Bu xarajatlarning moddalari bo'yicha ham o'zgarishi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi. Bular quyidagilardir:

1) sarflangan resurslar miqdorining o'zgarishi hisobiga;

2) o'rtacha sotish bahosi (yoki tannarxining) o'zgarishi hisobiga.

Ushbu xarajatlar o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli *orqali aniqlash yo'llarini* quyida ko'rsatamiz.

1 s paxta tannarxi tarkibidagi ***o'g'it xarajati dinamikasi tahlilini*** quyidagi formuladan foydalanib amalga oshiramiz:

$$O'X = O'M \cdot O'B,$$

bunda: $O'M$ – 1 s mahsulot uchun sarf bo'lgan o'g'it miqdori; $O'B$ – 1 s o'g'itning o'rtacha bahosi; $O'X$ – 1 s mahsulot uchun sarf bo'lgan o'g'itning jami xarajati.

1 s mahsulot uchun sarf bo'lgan o'g'it xarajatining tahlili quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi:

o'g'it xarajatining umumiy o'zgarishi:

$$(O'M_1 \cdot O'B_1) - (O'M_0 \cdot O'B_0) = \pm\Delta_{O'M,\,O'B}.$$

o'g'it xarajatining o'zgarishiga omillarning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1) sarflangan o'g'it miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$(O'M_1 \cdot O'B_0) - (O'M_0 \cdot O'B_0) = \pm\Delta_{O'M}.$$

2) sarf bo'lgan o'g'it bahosining ta'siri:

$$(O'M_1 \cdot O'B_1) - (O'M_1 \cdot O'B_0) = \pm\Delta_{O'B}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi o'g'it xarajati summasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin ular ta'siriga baho beriladi va xulosa qilinadi.

Urug' xarajati dinamikasining tahlili. 1 s tannarx tarkibidagi «Urug' xarajati» summasining umumiy o'zgarishi:

$$(UM_1 \cdot UB_1) - (UM_0 \cdot UB_0) = \pm\Delta_{UM,UB},$$

bunda: UM_1, UM_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' miqdori; UB_1, UB_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug'ning narxi (bahosi); $(UM_1 \cdot UB_1)$ – hisobot yilida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' xarajati; $(UM_0 \cdot UB_0)$ – bazis yilida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' xarajati.

Urug' xarajati summasining o'zgarishiga omillarning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1-omil, ya'ni sarf bo'lgan urug' miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$(UM_1 \cdot UB_0) - (UM_0 \cdot UB_0) = \pm\Delta_{UM}.$$

2-omil, ya'ni urug'ning o'rtacha narxi o'zgarishining ta'siri:

$$(UM_1 \cdot UB_1) - (UM_1 \cdot UB_0) = \pm\Delta_{UB}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi urug' xarajati summasining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{UM} \pm \Delta_{UB} = \Delta_{UM,UB}.$$

Yoqilg'i-moylash materiallari xarajati dinamikasining tahlili. 1 s tannarx tarkibidagi «Yoqilg'i-moylash materiallari» moddasi xarajatining umumiy o'zgarishi:

$$(YMM_1 \cdot YMB_1)-(YMM_0 \cdot YMB_0)=\pm\Delta_{YMM,YMB},$$

Xarajatning o'zgarishiga omillarning ta'siri:

1) yoqilg'i-moylash materiallari miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$(YMM_1 \cdot YMB_0)-(YMM_0 \cdot YMB_0)=\pm\Delta_{YMM};$$

2) yoqilg'i-moylash materiallari bahosining ta'siri:

$$(YMM_1 \cdot YMB_1)-(YMM_1 \cdot YMB_0)=\pm\Delta_{YMB}.$$

Bu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi «yoqilg'i-moylash materiallari» moddasi summasining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{YMM}\pm\Delta_{YMB}=\Delta_{YMM,\ YMB},$$

bu yerda: YMM_1, YMM_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallari miqdori; YMB_1, YMB_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallarining o'rtacha narxi.

Endi, 1 s paxta uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar hajmining omilli tahlilini yuqorida bayon qilingan «Zanjirli bog'lanish» usuli qoidalari asosida hisobotlar negizida ko'rib chiqamiz. Buni 29-jadvaldan ko'rish mumkin.

29-jadval

1 s paxta tannarxi tarkibidagi moddiy xarajat moddalari bo'yicha dinamikasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilida sarf bo'lgan materiallar miqdori va bazis yildagi narxi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu jumladan o'zgarishi	
					Sarf bo'lgan materiallar miqdori hisobiga	Materiallar narxi hisobiga
O'g'it sarfi bo'yicha: 1 s paxtaga sarf bo'lgan o'g'it, kg	20,5	10,0	10,0	–10,5	×	×
Sarflangan 1 kg o'g'itning narxi, so'm	81,41	81,41	149,7	+68,29	×	×
1 s paxtaga sarf bo'lgan o'g'it xarajati, so'm	1669	814,1	1497	–172	–854,9	+682,9
Urug' sarfi bo'yicha: 1 s paxtaga sarf bo'lgan urug', kg	2,0	2,5	2,5	+0,5	×	×

davomi

Sarflangan 1 kg urug'ning narxi, so'm	225	225	346,7	+121,7	×	×
1 s paxtaga sarf bo'lgan urug' xarajati, so'm	450	562,5	867	+417	+ 112,5	+ 304,5
Yoqilg'i-moylash materiallari bo'yicha: 1 s paxtaga sarf bo'lgan YMM, kg	3,2	3,5	3,5	+ 0,3	×	×
Sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallarining narxi, so'm	339,1	339,0	384	+44,9	×	×
1 s paxtaga sarf bo'lgan xarajatlar summasi, so'm	1085	1187	1344	+259	+102	+157

Paxta ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan materiallarni sotib olish narxlarining keskin oshib ketishi natijasida xarajatlar hajmi ham oshgan, natijada tannarx qimmatlashgan. Tannarxning oshishiga ushbu omil bilan bir qatorda sarf bo'lgan materiallar miqdorining oshib ketishi ham sababchi bo'lgan.

Sarf bo'lgan 1 kg o'g'it narxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1,8 martaga, urug' bo'yicha 1,5 martaga, *YMM* bo'yicha 1,2 martaga oshgan. Sarf bo'lgan materiallar miqdori ham urug' bo'yicha 25% ga, *YMM* bo'yicha 9,4% ga oshgan, faqat o'g'it bo'yicha 49% ga kamaygan.

Shu omillar hisobiga 1 s paxta tannarxi qimmatlashgan. Ushbu o'zgarishga ikki omilning ham ta'siri 29-jadvalda keltirilgan. 29-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 s paxtaga sarf bo'lgan urug' xarajatining o'zgarishiga ikkala omil ham salbiy ta'sir qilgan.

1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' miqdori 0,5 kg ga oshgan, natijada tannarx qimmatlashgan, ya'ni shu omil hisobiga urug' xarajati oshib, 1 s paxta tannarxi 112,5 so'mga qimmatlashgan. Urug'ni sotib olish narxi 121,7 so'mga oshgan, natijada urug' xarajati shu omil hisobiga 304,5 so'mga oshgan, bu esa o'z navbatida paxta tannarxining shu summaga oshishiga olib kelgan.

1 s paxtaga sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallari xarajatining oshib ketishiga ikki omil ham sabab bo'lgan. Sarf bo'lgan miqdorining oshishi hisobiga tannarx 102 so'mga, bahosining oshishi hisobiga 157 so'mga qimmatlashgan

Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lumki, xo'jalikda paxta tannarxini pasaytirish imkoniyatlari mavjud. ammo ulardan yetarli darajada foydalanilmagan.

Chorva mollari tannarxi tarkibidagi har bir xarajat moddasining omilli tahlili ham 1 s paxta tannarxini moddalari bo'yicha mahlil qilish usulidan farq qilmaydi, shuning uchun o'sha usul qoidalariga amal qilib, tahlil qilish

mumkin. Faqat «yem-xashak sarfi» moddasi bo'yicha farq qiladi. Shuning uchun «Yem-xashak sarfi»ning omilli tahlili usulini ko'rib chiqamiz. Ushbu modda bo'yicha xarajatning o'zgarishi ham ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) sarf bo'lgan yem-xashakning oziqa birligidagi miqdorining o'zgarishi;

2) 1 s oziqa tannarxining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlash zarur. Buning tahlilini quyidagi formulalardan foydalanib, amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

I. $OM_0 \cdot OB_0$;

II. $OM_1 \cdot OB_0$;

III. $OM_1 \cdot OB_1$,

bunda: OM_0, OM_1 – 1 bosh mol uchun mos holda bazis va hisobot yillarida sarf bo'lgan oziqa miqdori; OB_0, OB_1 – 1 s oziqaning mos holda bazis va hisobot yillaridagi tannarxi.

Oziqa xarajatining umumiy o'zgarishi:

$$(OM_1 \cdot OB_1) - (OM_0 \cdot OB_0) = \pm\Delta_{OM.OB}.$$

Oziqa xarajatining o'zgarishiga omillarning ta'siri:

sarflangan oziqa miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$(OM_1 \cdot OB_0) - (OM_0 \cdot OB_0) = \pm\Delta_{OM};$$

1 s oziqa tannarxi o'zgarishining ta'siri:

$$(OM_1 \cdot OB_1) - (OM_1 \cdot OB_0) = \pm\Delta_{OB}.$$

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi oziqa sarfining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Natija bilan omillar ta'sirining tengligi ma'lum bo'lgandan keyin omillar ta'siriga baho berilib va xarajatni kamaytirish imkoniyatlari ko'rsatilib, xulosa qilinishi kerak.

6.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish tannarxi, 1 gektar maydon xarajati, 1 bosh mol xarajati, hosildorlik, mahsuldorlik, shartli tannarx, miqdor omillari, sifat omillari, xarajat moddalari, 1 s mahsulot tannarxi, 1 s sut tannarxi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tannarx tahlilining ahamiyati nimadan iborat?
2. Tahlilning maqsadi nimadan iborat?

3. Tannarx deb nimaga aytiladi?
4. 1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi? Ularning nomini ayting.
5. 1 s paxta tannarxi dinamikasi bo'yicha o'zgarishi qanday aniqlanadi va qaysi omil ta'sir qiladi?
6. 1 s paxta tannarxining o'zgarishiga paxta hosildorligi darajasi o'zgarishining ta'siri qanday aniqlanadi?
7. Mahsulot tannarxini tahlil qilishda qaysi usullar qo'llaniladi?
8. 1 s sut tannarxi qanday aniqlanadi va u qaysi omillar ta'siri ostida o'zgaradi?
9. 1 s sut tannarxining o'zgarishiga 1 bosh sigirga qilingan xarajat darajasi o'zgarishining ta'siri qanday aniqlanadi?
10. Tannarx tarkibidagi mehnat haqi moddasi bo'yicha xarajat summasining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi?
11. O'g'it sarfi moddasi bo'yicha xarajatlar hajmining o'zgarishiga sarf bo'lgan o'g'it miqdori o'zgarishining ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash tartibini tushuntiring.
12. 1 s paxtaga sarf bo'lgan urug' xarajatining o'zgarishiga sarf bo'lgan urug' narxi bo'yicha o'zgarishining ta'sirini aniqlang va mazmunini tushuntiring.

MASHQ

Paxta tannarxini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Shartli tannarx	Hisobot yili	Nisbiy o'zgarishi, % hisobida
1	Bir gektar xarajati, ming so'm	375,5	406,7	406,7	+8,3
2	Hosildorligi, s/ga	22,5	22,5	24,0	+6,7
3	1 s paxta tannarxi, so'm	16689	18075	16946	?

Berilgan ma'lumotlar asosida:

1) 1 s paxta tannarxining bazis yiliga nisbatan necha foizga oshganligini (nisbiy o'zgarishini) aniqlang;

2) tannarxning nisbiy o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblang:

a) gektar xarajati hajmining 8,3 foizga oshishi natijasida 1 s tannarxi necha foizga oshganligini;

b) hosildorlik darajasining 6,7 foizga oshishi natijasida 1 s tannarxi necha foizga kamayganligini;

3) omillar ta'siriga baho berib, tannarxni kamaytirish imkoniyatlarini ko'rsating. Tannarxni kamaytirish iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi? Shuni bayon qiling.

XULOSALAR

Mazkur bobda rejalashtirilgan barcha savollarning javobi yetarli darajada yoritildi, ya'ni ishlab chiqarish tannarxi tahlilining ahamiyati, maqsadi va vazifalari, qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxining tahlili, xarajatlarning iqtisodiy elementlari bo'yicha tahlili, tannarxning xarajat moddalari bo'yicha tahlili, ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirining tahlili kabi masalalar yetarli darajada yoritilgan.

Ushbu bobdagi masalalarning mazmun-mohiyatini va omilli tahlil qilish usullarini yaxshi o'zlashtirish uchun talabaga, darslik bo'yicha ushbu mavzuni yaxshi o'qib, o'zlashtirishini hamda mavzu bo'yicha keltirilgan nazariy savollarga javob tayyorlashni va mashqni mustaqil bajarib, uning mazmunini o'zlashtirib olishini tavsiya etamiz.

7.1. Korxona moliyaviy holatining tahlili

O'QUV MAQSADI

Xo'jalikning moliyaviy ahvolining tahlili mavzusida ko'zda tutilgan barcha savollarning javobi ushbu bobda, ham nazariy, ham uslubiy jihatdan talab darajasida aks ettirilgan. Bu esa *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi.

Mavzuning mazmun-mohiyatini va tahlil etish usullarini qo'llash xususiyatlarini tushuntirish orqali korxonaning o'z mablag'larini ko'paytirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, to'lov qobiliyatini yaxshilash, umuman, moliyaviy holatini mustahkamlashga yo'naltirilgan fikr va g'oyalarni talaba ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy holatning tahlilida gorizontal va vertikal tahlil etish usullaridan hamda matematik usullardan foydalanish moliyaviy holatni yanada yaxshilash uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashda katta rol o'ynaydi. Demak, omilli tahlil usullari bilan matematik usullardan foydalanish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

7.1.1. Moliyaviy holatni o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

Respublikamizda iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida tashkil topishi korxonalar faoliyati tahlilining ahamiyatini yanada oshiradi, chunki u mazkur sharoitda faoliyatga joriy etilmagan ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni o'z vaqtida aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Foydalanilmagan resurslarni aniqlab, ulardan samarali foydalanish korxonalar iqtisodiyotini, qolaversa, milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun har bir talaba ishlab chiqarish faoliyatining tahlili bilan bir qatorda moliyaviy faoliyatning tahlilini ham amalga oshirish yo'llarini chu-

qur o'zlashtirib olishi zarur, chunki ular kelajakda qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlari hamda mamlakat iqtisodiyoti ravnaqi yo'lida mutaxassis bo'lib xizmat qiladilar.

Yuqorida keltirilgan boblarda ishlab chiqarish faoliyatining tahlili ko'rib chiqildi, endi moliyaviy faoliyatning tahlil quyida navbatdagi boblarda bayon qilinadi.

Moliyaviy faoliyat tahlili (yoki moliyaviy tahlil) ***deb nimaga aytiladi?***

Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya hisobi va boshqa axborotlarning ma'lumotlari asosida o'rganib, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va *moliyaviy holatni* yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish usuli moliyaviy tahlil deb ataladi.

Moliyaviy tahlilning asosiy qismi bo'lib korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, to'lovga qodirligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati kabi jihatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkichlar darajasini o'rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi. Shuning uchun ham mazkur ko'rsatkichlarni o'z vaqtida tahlil qilib turish – korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiyotni mustahkamlash uchun shart-sharoit yaratadi. Shu nuqtayi nazardan tahlilning ahamiyati nihoyatda katta va beqiyosdir. Tahlil – korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash garovidir.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi bo'lib, korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlarini, moliyaviy barqarorlik darajasini, to'lovga qodirlik ahvolini, o'z va qarz mablag'lari bilan ta'minlanish darajasini, moliyaviy mustaqillik ahvolini, debitorlik va kreditorlik qarzlarining muayyan davrga bo'lgan holatini o'rganish asosida korxona moliyaviy holatiga baho berish va uni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan moliyaviy holat tahlilining asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1) korxonaning aktivlari, kapitali, majburiyatlari holatini aniqlash va o'zgarishiga baho berish;
2) moliyaviy ahvolning barqarorligini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;

3) balans likvidligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishini tahlil qilish;
4) korxonaning to'lov layoqati koeffitsiyentini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish;
5) moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va ularning o'zgarishiga bag'o berish;
6) aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini o'rganish;
7) debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganish;
8) foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish bo'yicha tavsiyalar, takliflar berish.

Moliyaviy holatni tahlil qilishning asosiy manbalari bo'lib, quyidagi axborotlar hisoblanadi:

1) buxgalteriya balansi (1-shakl);
2) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl);
3) asosiy vositalar to'g'risidagi hisobot (3-shakl);
4) pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl);
5) xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl);
6) debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl).

7.1.2. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari, ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili

Buxgalteriya balansi korxona mulki, kapitali va majburiyatlari hajmini ma'lum sanaga aks ettiruvchi maxsus jadvaldir. U ikki qismdan iborat bo'lib, uning aktiv qismida korxonaning asosiy va aylanma mablag'lari (mulki), passiv qismida kapitali va majburiyatlari aks ettiriladi. Balansning aktiv va passiv tomonlari o'zaro teng bo'ladi.

Buxgalteriya balansi, o'z navbatida, balans-brutto va balans-netto turlariga bo'linadi. Xo'jalik mablag'larini boshlang'ich qiymati bo'yicha o'zida aks ettiruvchi balans brutto deb ataladi. Xo'jalik mablag'larni haqiqiy (qoldiq) qiymati bo'yicha aks ettiruvchi balans *balans-netto* deyiladi. Xo'jalik mablag'larining boshlang'ich qiymatidan ularning eskirish summasini chegirib tashlash orqali haqiqiy qiymati aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar buxgalteriya balansi – netto moddalari asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Buxgalteriya balansi aktividagi moddalar «Mablag'larni pul shakliga aylanish tezligi (likvidlik

darajasi)» belgisi bo'yicha, passividagi moddalar esa «Majburiyatlarning to'lov muddati darajasi» belgisi bo'yicha maxsus guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Buni quydagi balans shaklidan ko'rish mumkin.

Buxgalteriya balansi

Aktiv mulkning guruhlari	Yil boshiga	Yil oxiriga	Passiv Mulk manbalarining guruhlari	Yil boshiga	Yil oxiriga
1. O'zoq muddatli aktivlar (*U*)			1. O'z mablag'larining manbalari (*X*)		
2. Joriy aktiv ∑ lar			2. Majburiyatlar:		
2.1. Tovar-moddiy zahiralar (Z)			2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar (*M*)		
2.2. Debitorlik qarzlari (*D*)			2.2. Qisqa muddatli qarzlar va kreditlar (*B*)		
2.3. Pul mablag'lari (*P*)			2.3. Kreditorlik qarzlari (*K*)		
Balans:			Balans:		

Buxgalteriya balansi asosida, birinchi navbatda, korxonaning umumiy moliyaviy holatiga baho beriladi. Buning uchun korxonaning mulki (aktivlari), kapitali va majburiyatlari (passivlari)ning tarkibi va tarkibiy tuzilishi hamda ularning o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlilda gorizontal va vertikal usullaridan foydalaniladi. Tahlilda korxona aktivlari va passivlari, ulardagi umumiy va tarkibiy o'zgarishlar balansning har qaysi tomoni bo'yicha alohida o'rganiladi. Gorizontal tahlil usuli yordamida aktivning har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga ,passivning ham har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. Balans aktivi va passivi bo'yicha moliyaviy holatning tarkibini tahlil qilish bilan birgalikda ularning tarkibiy tuzilishi ham o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir bo'lim va moddalarning balans jamiga nisbatan salmog'i aniqlanadi. So'ngra yil oxiridagi salmog'ini yil boshidagi salmog'iga qiyoslab, tarkibiy tuzilishining o'zgarishi aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Endi, fermer xo'jaligi umumiy moliyaviy holatining tahlilini ko'rib chiqamiz.

30-jadval

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlari dinamikasining tahlili

Korxona aktivlari (mulki)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+; –)	Korxona passivlari (kapital, majburiyatlari)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+: –)
1. Uzoq muddatli aktivlar	43912	44526	+614	1. O'z mablag'lari manbalari	35625	38141	+2516
2. Joriy aktivlar jami	72466	65061	–7405	2. Majburiyatlar jami	80753	71446	–9307
2.1. Tovar-moddiy zaxiralar	30672	32149	+1477	2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar	10128	–	–10128
2.2. Debitorlik qarz lari	41000	32000	–9000	2.2. Qisqa muddatli qarzlar va kreditlar	12161	22939	+10778
2.3. Pul mablag'-lari	794	612	–182	2.3. Kreditor lik qarzlari	58464	48507	–9957
Balans	116378	109587	–6791	Balans	116378	109587	–6791

30-jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxona mulki yilning oxirida shu yilning boshiga nisbatan 6791 ming so'mga yoki 5,08%ga kamaygan. Shu jumladan, uzoq muddatli aktivlar 614 ming so'mga (1,4% ga) oshgan, ammo joriy aktivlar 7405 ming so'mga (10,12% ga) kamaygan. Jami joriy aktivlar tarkibida zahiralarning hajmi 1477 ming so'mga (4,8% ga) oshgan, ammo qolganlari kamaygan. Shundan debitor qarzlari 9000 ming so'mga (22% ga), pul mablag'lari 182 ming so'mga (22,9% ga) kamaygan. Mulkning tashkil topish manbaida ham kamayish sodir bo'lgan. O'z mablag'lari manbai 2516 ming so'mga (7,1% ga) oshgan, ammo majburiyatlar hajmi 9307 ming so'mga (11,5% ga) kamaygan. Kreditor qarzlari 9957 ming so'mga yoki 17% ga kamaygan, qisqa muddatli majburiyatlar 10778 ming so'mga yoki 88% ga oshgan.

Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda balans ma'lumotlari asosida nisbiy ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ular asosida moliyaviy holatni yaxshilash imkoniyatlari aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda mutlaq ko'rsatkichlarga qaraganda nisbiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Nisbiy ko'rsatkichlar amaliyotda moliyaviy koeffitsiyentlar deb ataladi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblashda mutlaq ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berishda quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlar ko'proq ishlatiladi.

1. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti.
2. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.
3. To'lovga qodirlik koeffitsiyenti.
4. O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsiyenti.
5. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.
6. Moddiy aylanma mablag'lar hissasi koeffitsiyenti.
7. Jami aylanma mablag'larning jami mulk qiymatidagi hissasi koeffitsiyenti.

Mazkur koeffitsiyentlarning tahlili asosan navbatdagi paragraflarda aks ettirilgan.

7.1.3. Korxona moliyaviy barqarorligining tahlili

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti hisoblanadi. Xo'jalikning moliyaviy barqarorligi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi va ular orqali tahlil etiladi, xulosalar chiqariladi.

Korxonani qay vaqtda moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin? Korxonaning moddiy oborot mablag'larini tashkil qiluvchi manbalari bilan to'liq qoplangan taqdirda, uni moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin. Demak, moliyaviy barqarorlik deganda moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalari bilan mavjud tovar-moddiy zahiralar hajmining qoplanish darajasini tushunmoq kerak.

Moliyaviy barqarorlik ahvolini o'rganish va tahlil etishning asosiy manbai buxgalteriya balansi-netto hisoblanadi. Buxgalteriya balansi-nettoning quyidagi modeli asosida moliyaviy barqarorlikni aniqlash va tahlil etish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

$$U+Z+P+D=O'+Q+B+K,$$

bunda: U – uzoq muddatli aktivlar; Z – tovar-moddiy zahiralar (moddiy aylanma mablag'lar); P – pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar; D – debitorlik qarzlari; O' – o'z mablag'larining manbalari; Q – uzoq muddatli qarzlar va kreditlar; B – banklarning va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari va qarzlari; K – kreditorlik qarzlari.

Ushbu modeldagi $Z+P+D$ belgilari joriy aktivlarni, $Q+B+K$ belgilari majburiyatlarni bildiradi.

Buxgalteriya balansi-netto modelidan ko'rinib turibdiki, aktivlar (xo'jalik mablag'lari) ikki manba hisobiga, ya'ni o'z va qarz mablag'lari hisobiga tashkil bo'ladi. Qarz mablag'lari o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1) uzoq muddatli majburiyatlar;

3) qisqa muddatli majburiyatlar.

Uzoq muddatli majburiyatlar asosiy vositalarni tashkil etish manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli majburiyatlar joriy aktivlarni tashkil qilish manbalaridan biridir.

Demak, joriy aktivlar ikki manba hisobiga tashkil bo'ladi. Buni yuqorida keltirilgan buxgalteriya balansi-netto modelidan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$Z+P+D=(O'+Q-U)+B+\text{K}.$$

Bu formuladan xo'jalikning joriy aktivlari ikki manba hisobiga, ya'ni o'z joriy aktivlari manbalari $(O'+Q-U)$ bilan qisqa muddatli qarz mablag'lari $(B+K)$ hisobiga tashkil bo'lishligi ko'rinib turibdi.

Moliyaviy barqarorlik mezoniga ko'ra moddiy aylanma mablag'lari hajmi o'z aylanma mablag'lari manbalari bilan to'la qoplansa, korxona moliyaviy barqaror bo'lib, u qisqa muddatli qarzlarini to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan korxona hisoblanadi. Boshqacha aytganda, korxonada moliyaviy barqarorlik mavjud ekanligini yoki unda uning mustahkam ekanligini ko'rsatadi.

Moddiy aylanma mablag'lari hajmi korxonaning o'z aylanma mablag'larini tashkil qilish manbalari bilan to'la qoplansa yoki oshsa, korxona moliyaviy barqaror xo'jalik bo'lib hisoblanadi, ya'ni u qisqa muddatli majburiyatlarni uzish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday korxona to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan korxona deyiladi. Bu holatni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z \le O'+Q-U.$$

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil etuvchi manbalar summasi tovar–moddiy zahiralar summasiga teng bo'lsa $(Z=O'+Q-U)$, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlarining birgalikdagi jami summasi $(P+D)$ qisqa muddatli kreditlar va qarzlar bilan kreditorlik qarzlarning jami summasiga $(B+K)$ teng bo'ladi:

$$P+D=B+K.$$

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil qiluvchi manbalar summasi tovar-moddiy zahiralar summasidan oshsa $(Z<O'+Q-U)$, pul mablag'lari,

qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlarining jami summasi ($P+D$) qisqa muddatli majburiyatlar jami summasidan ($B+K$) katta bo'ladi:

$$P+D>B+K.$$

$P+D$ hajmi $B+K$ hajmidan katta yoki unga teng bo'lsa, korxona qisqa muddatli majburiyatlarini uzish (to'lash) qurbiga yetarli darajada ega bo'ladi. Shunday qilib, moddiy aylanma mablag'larni tashkil qilish manbalari hajmi bilan tovar-moddiy zahiralar orasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati koeffitsiyenti moliyaviy barqarorlik darajasi ahvolini belgilaydi.

Moddiy aylanma mablag'larni tashkil etuvchi manbalar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi:

1) o'z aylanma mablag'larining manbalari;

2) moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy manbalar.

Korxonaning o'z aylanma mablag'larini aniqlash uchun o'z mablag'larining manbalariga (O') uzoq muddatli qarzlar va kreditlarni (Q) qo'shib, ularning jami summasidan uzoq muddatli aktivlar summasini (U) chegirib tashlash kerak:

$$Z_{o'}= O'+Q-U;$$

bunda: $Z_{o'}$ – o'z aylanma mablag'lari manbalari summasini ($O'+Q-U$) bildiradi.

So'ngra ushbu ko'rsatkichni mavjud tovar-moddiy zahiralar hajmiga solishtirish orqali moliyaviy barqarorlik darajasi tahlil etiladi. Buning uchun manbalar summasidan mavjud zahiralar summasini chegirib, o'zgarishi (kam yoki ko'pligi) aniqlanadi, xulosa qilinadi.

Korxonaning moddiy aylanma mablag'larining tashkil bo'lishida o'z aylanma mablag'lari bilan bir qatorda qarz mablag'lari, birinchi navbatda, qisqa muddatli bank kreditlari ishtirok etadi. Shu manbalar yig'indisi asosiy manbalar degan tushunchani beradi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z_{o'}+B=(O'+Q-U)+B.$$

bunda: B – banklar va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari va qarzlari.

Asosiy manbalarni jami summasini mavjud aylanma mablag'lar summasiga (Z) solishtirib, o'zgarishi (ko'p yoki kamligi) aniqlanadi, natijada ushbu ko'rsatkichlar orqali xo'jalikning moliyaviy barqarorligi ahvoliga baho beriladi. Tahlil gorizontal va vertikal usullar yordamida amalga oshiriladi. Tahlil ham davr boshi, ham davr oxiridagi ko'rsatkichlarni, ham davr oxirini davr boshidagi ko'rsatkichlarga qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, aylanma mablag'larning ham davr boshida, ham davr

oxirida manbalar bilan ta'minlanish darajasi hamda ularning davr oxirida davr boshiga nisbatan o'zgarishlarining ahvoli batafsil tahlil etilishi kerak.

Moliyaviy barqarorlik tahlilini yuqorida bayon qilingan qoidalarga asoslanib 36-jadvaldan foydalanib amalga oshirish mumkin.

31-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha moliyaviy barqarorlik darajasini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi, ming so'm	Yil oxiri, ming so'm	O'zgarish, (+, –)
O'z mablag'larining manbalari (O')	35625	38141	+2516
Uzoq muddatli qarzlar va bank kreditlari (Q)	–	–	–
Uzoq muddatli aktivlar (U)	43912	44526	+614
O'z aylanma mablag'lari ($Z_o = O' + Q - U$)	–8287	–6385	+1902
Qisqa muddatli bank kreditlariva qarzlar (B)	12161	22939	+10778
Tovar-moddiy zahiralarni tashkil qiluvchi asosiy manbalar jami ($Z_o + B$)	3874	16554	+12680
Balans bo'yicha mavjud bo'lgan tovar-moddiy zahiralar jami summasi (Z)	30672	32149*	+1477
O'z oborot mabalg'lari manbalarining zahira va sarflarga nisbatan ko'p (+), kamligi (–) ($Z_o - Z$)	–38959	–38534	+425
Asosiy manbalar summasining zahira va sarflar hajmiga nisbatan ko'p (+), kamligi (–) ($Z_o + B - Z$)	–26798	–15595	–11203

31-jadvaldan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida moddiy aylanma mablag'lar o'z mablag'larining manbalari bilan umuman qoplangan emas, bank krediti hisobiga ham to'liq qoplangan emas. Masalan, yil oxirida faqat 51,5% qoplangan, xolos. 15595 ming so'mli (48,5%) moddiy aylanma mablag'lar qoplanish manbaiga ega emas. Shuning uchun fermer xo'jaligi bu qiyin holatdan chiqishi uchun o'z mablag'larining manbalarini oshirishi va qisqa muddatli kreditlardan to'liq foydalanishi zarur. Buning uchun quyidagi choralarni amalga oshirishi kerak:

ortiqcha bo'lgan asosiy vositalarni sotishi zarur. Buni amalga oshirish uchun «Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobotdagi asosiy vositalarni chuqur o'rganib (invetarizatsiya qilib) chiqishi va keraksizlarini aniqlab sotishi zarur;

tovar moddiy zaxiralar tarkibidagi tayyor mahsulot va tovarlarni yuqori daromadli kanallar orqali tezlikda sotishi zarur;

ishlab chiqarish zahiralarining tarkibini ham inventarizasiya qilib, keraksizlarini tezlikda sotishi zarur;

tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi yil oxirida 27313 ming so'mni tashkil qilgan, shu maqsad uchun olingan qisqa muddatli kredit 22939 ming so'mni tashkil qilgan. Qoplanmagan qismiga ham qisqa muddatli kredit olish choralarini ko'rishi zarur;

eng asosiysi tugallanmagan ishlab chiqarishdan olinadigan tayyor mahsulotni kam xarajatlar bilan keskin ko'paytirish choralarini ko'rishi zarur. Buning uchun tezlikda chora-tadbirlar ishlab chiqib, hayotga tadbiq etish zarur.

Ana shu tavsiyalar amalga oshirilsa o'z mablag'lari manbalari keskin oshib, korxona moliyaviy jihatdan barqarorlashadi.

7.1.4. Korxona to'lov qobiliyatining tahlili

Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari. Barcha mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar kabi fermer xo'jaligi ham turli xil korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan iqtisodiy aloqa bo'ladi, ya'ni mol yetkazib beruvchilar, sotib oluvchilar va, shu jumladan, tayyorlov tashkiloti, soliq, bank, sug'urta tashkilotlari va boshqa kreditorlar bilan iqtisodiy munosabatda bo'ladi. Ushbu iqtisodiy aloqalar moliyaviy intizom chegarasida sodir bo'lishi, ya'ni belgilangan muddatlarda amalga oshishi katta ahamiyatga ega. Mol yetkazib beruvchilarga, qarzini o'z vaqtida to'lash, tijorat banklaridan olingan kreditlarni belgilangan muddatda uzish, davlat budjetiga soliqlarni o'z vaqtida to'lash va hokazo to'lovlarni amalga oshirish, sotib oluvchilardan va, shu jumladan, tayyorlov tashkilotlaridan qarzini o'z vaqtida undirib olish kabi jarayonlarning hisob-kitobi iqtisodiy tahlil bo'yicha chuqur bilimni talab qiladi. Bu jarayonlarning natijalari xo'jalikning to'lov qobilyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi, shuning uchun to'lovga qodirlik darajasini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash tahlilning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun tahlilning oldida quyidagi asosiy vazifalar turadi.

1) to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlari hajmini aniqlash, hisoblash;

2) to'lovga qodirlik ko'rsatkichlarini uning barcha turlari bo'yicha aniqlash;

3) to'lov qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ta'sirini hisoblash, baho berish;

4) to'lov qobiliyati ko'rsatkichi darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Ushbu vazifalarni samarali hal etish uchun to'lov qobiliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish zarur. Hisoblash va tahlil etish tartibi ushbu bobda quyida yoritildi.

Buxgalteriya balansi bo'yicha to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlarining maxsus guruhlari. Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, to'lov qobiliyatini ifodalovchi koeffitsiyent hisoblanadi.

Balans bo'yicha xo'jalikning to'lov qobiliyatiga aylanma aktivlarning likvidlik ko'rsatkichlari orqali baho beriladi. Balans likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil etishdagi asosiy manbadir.

Buxgalteriya balansida xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil bo'lish manbalari to'liq aks ettirilgan bo'ladi. Xo'jalik mablag'lari balansning aktivida va ularning manbalari esa passivida ko'rsatiladi. Xo'jalik mablag'lari hozirgi paytda «Uzoq muddatli aktivlar» va «joriy aktivlar» tariqasida, ularning manbalari esa «O'z mablag'lari manbalari» va «majburiyatlar» nomlari bilan balansda aks ettirilgan.

Balans likvidligi deb nimaga aytiladi? Xo'jalikning o'z joriy aktivlari bilan qisqa muddatli majburiyatlarini qoplay olish quvvati *balans likvidligi* deyiladi. Boshqacha aytganda, balans likvidligi qarzlarni to'lashga bo'lgan qurbining darajasini ifodalaydi.

Korxonaning joriy aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlariga bo'lish orqali balansning likvidlik darajasi aniqlanadi, ya'ni to'lovga qodirlik ko'rsatkichi aniqlanadi. To'lovga qodirlik – majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olish qobiliyatini anglatadi.

Aktivlar likvidligi deb nimaga aytiladi? *Aktivlar likvidligi* deb aktivlarning vaqt bo'yicha naqd pul shakliga aylanishiga (o'tishiga) aytiladi. Aktivlarning naqd pulga aylanishi uchun ketadigan vaqt ularning tezligini ifodalaydi.

Aktivlarning har bir turi pul shaklini olganiga qadar o'tgan vaqt qancha kam bo'lsa, uning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Balans bo'yicha to'lov qobiliyatini tahlil etishga kirishishdan oldin balans aktivi va passividagi moddalarni maxsus belgilari bo'yicha guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Balansning aktividagi xo'jalik mablag'lari «likvidlik darajasi (ya'ni pulga aylanish tezligi)» bo'yicha va balansning passividagi xo'jalik mablag'larining manbalari «to'lov muddatlari darajasi» bo'yicha maxsus guruhlarga bo'linadi.

Balans aktivlarini pulga aylanish tezligi bo'yicha quyidagi 4 ta guruhga bo'lib, tahlil etiladi:

A1 – eng yuqori likvidli aktivlar. Bular doimiy harakatdagi aktivlar deb ham yuritiladi. Bu guruhga korxonaning barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar) kiradi;

A2 – tez realizatsiya etiladigan aktivlar. Ushbu guruhga barcha debitorlik qarzlari kiritilib kelinmoqda. Bu guruhga tayyor mahsulot, tovarlar, o'stirish va boquvdagi mollarning qiymatlarini kiritish zarur deb hisoblaymiz, ammo o'stirish va boquvdagi mollarning qiymati balansda ajratib ko'rsatilmaganligi uchun biz ushbu guruhning hajmini debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot va tovarlar qiymati tariqasida oldik va tahlil qildik.

A3 – sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar; bu guruhga moddiy ishlab chiqarish zahiralari to'liq kiritilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, bu guruhga ishlab chiqarish zahiralari (o'stirish va boquvdagi mollar qiymatidan tashqarisi), tugallanmagan ishlab chiqarish va uzoq muddatli investitsiyani kiritib, kelgusi davr xarajatlarini chegirib tashlash kerak.

A4 – qiyinchilik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar. Bu guruhga «Uzoq muddatli aktivlar» kiritilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, bu guruhga uzoq muddatli investitsiyadan tashqari qolgan jami qismini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Balans passivlarini «To'lov muddati darajasi» bo'yicha quyidagi 4 ta guruhga bo'lib, tahlil etiladi:

P1 – tezlikda to'lanadigan majburiyatlar. Bu guruhga joriy kreditorlik qarzlari bilan o'z vaqtida qaytarilmagan bank ssudalari kiradi. Joriy kreditorlik qarzlari kreditorlik qarzlaridan Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan to'lov muddati uzaytirilgan kreditorlik qarzlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

P2 – qisqa muddatli passivlar. Ushbu guruhga muddatida qaytarilmagan ssudalardan tashqari qisqa muddatli kreditlar va qisqa muddatli qarzlar kiradi. Bularning hajmini aniqlash uchun qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasidan Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan to'lov muddati o'zaytirilgan ssuda qarzlari summasini chegirib tashlash kerak. Bularni mo'tadil qisqa muddatli kreditlar va qarzlar deb atash zarur.

P3 – uzoq muddatli passivlar. Ushbu guruhga uzoq muddatli kreditlar va uzoq muddatli qarzlar kiradi.

P4 – doimiy passivlar. Bu guruhga balans passivining I-bo'limidagi barcha moddalar kiritiladi, ya'ni «O'z mablag'larining manbalari»ning jami doimiy passivlar bo'lib hisoblanadi.

Balansning ham aktivi, ham passivini maxsus guruhlarga bo'lib olgandan keyin likvidlik (to'lovga qodirlik) ko'rsatkichlari aniqlanadi va shular asosida to'lov qobiliyati ko'rsatkichi tahlil qilinadi.

To'lovga qodirlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Balans-netto ma'lumotlari bo'yicha maxsus guruhlarga bo'lingan aktivlar va passivlar tarkibidagi moddalar asosida fermer xo'jaligining to'lov qobiliyatiga baho berish uchun amaliyotda balans likvidligining quyidagi nisbiy ko'rsatkichlari qo'llaniladi:

1) mutlaq likvidlik koeffitsiyenti (mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti);

2) tezkor likvidlik koeffitsiyenti (oraliq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti);

3) joriy likvidlik koeffitsiyenti (joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti).

Mazkur koeffitsiyentlar bir-biridan formulaning suratidagi to'lov mablag'larining tarkibi bo'yicha farq qiladi, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda (to'lashda) ishtirok etuvchi likvidli aktivlar tarkibi bilan bir-biridan farq qiladi. Endi, ushbu koeffitsiyentlarni hisoblash usullariga to'xtalamiz.

1. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun yuqori likvidli aktivlarni (*A1*) qisqa muddatli majburiyatlarga (tezlikda to'lanadigan majburiyatlar (*P1*) bilan mo'tadil qisqa muddatli passivlar (*P2*) summalarining yig'indisiga) bo'lish kerak.

$$\text{Kml} = \frac{A1}{P1 + P2}.$$

«Eng yuqori likvidli aktivlar» yuqorida qayd qilinganidek, pul mablag'lari bilan qisqa muddatli investitsiyalardan tashkil topadi. Bu koeffitsiyent xo'jalikning mutlaq to'lovga qodirligi darajasini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, pul mablag'lari bilan qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar) hisobiga qisqa muddatli qarzlarini qancha qismini qaytara olishi (yoki to'lay olishi) mumkinligini bildiradi. Ushbu koeffitsiyent 0,2 dan 0,5 gacha bo'lsa mo'tadil ko'rsatkich bo'lishi mumkin:

$$\text{Kml} = 0{,}2 - 0{,}5.$$

2. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyentni oraliq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti deb ham atashadi. Buni likvidlik koeffitsiyenti formulasining suratiga (*A1*) debitorlik qarzlari, tayyor va tovar mahsulotlari qiymatini qo'shib, yig'indisini (*A2*) joriy kreditorlik qarzlari bilan mo'tadil qisqa muddatli passivlar jamiga bo'lish kerak.

Demak, boshqacha aytganda, ushbu koeffitsiyentni aniqlash uchun «eng yuqori likvidli aktivlar» ga «tez realizatsiya etiladigan aktivlar (*A2*) summasini qo'shib, yig'indisini mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlar» summasiga bo'lish kerak, ya'ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$KTl = \frac{A1 + A2}{P1 + P2}.$$

Agar ushbu koeffitsiyent «1» yoki undan katta bo'lsa, mo'tadil ko'rsatkich bo'lishi mumkin:

$$KTl \geq 1.$$

Demak, ushbu koeffitsiyent shunday bo'lgan taqdirda, korxona mavjud pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar, debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot va tovarlar bilan mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qurbiga (qobiliyatiga) ega bo'la oladi, agar debitorlik qarzlarini tezlikda undira olsa, tayyor mahsulot va tovarlarni o'z vaqtida sotib pulga aylantira olsa, shunda to'lov layoqatiga ega bo'ladi.

*3. **Joriy likvidlik koeffitsiyenti.*** Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun «Eng yuqori likvidli aktivlar» bilan «Tez realizatsiya etiladigan aktivlar» tarkibiga «Sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktiv»larni qo'shib, jami summasini mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish kerak, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib aniqlanadi:

$$Kjl = \frac{A1+A2+A3}{P1+P2}.$$

Formulaning suratidagi ko'rsatkichlar kelgusi davr xarajatlarini chegirib tashlangandan keyin, qolgan jami joriy aktivlar hajmini ifodalaydi. Demak, joriy aktivlar summasini mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish orqali joriy likvidlik koeffitsiyenti aniqlanadi. Boshqacha aytganda, joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti aniqlanadi.

Joriy likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyenti nimani bildiradi? Bu koeffitsiyent xo'jalik debitorlik qarzlarini o'z vaqtida undira olsa, tayyor va tovar mahsulotlarini mo'tadil holatda realizatsiya qila olsa hamda ishlab chiqarish zahiralarining ayrim turlarini zarurat tug'ilganda sota olsa hamda tugallanmagan ishlab chiqarishni pul shakliga aylantira olgan taqdirda korxona aylanma aktivlari bilan mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarni qoplay (tulay) olish imkoniyatiga ega bo'lishligini, ya'ni to'lovga qodir bo'lishligini bildiradi. Bu koeffitsiyent 2 va undan ortiq bo'lsa, uni mo'tadil ko'rsatkich deb atash mumkin:

$$Kk \geq 2.$$

Yuqorida bayon qilingan to'lovga qodirlik (ya'ni likvidlik) koeffitsiyentlarini hisoblash tartibini quyidagi shaklda keltirdik.

1-shakl

To'lovga qodirlik koeffitsiyentlarini hisoblash tartibi

Koeffisiyentlar nomi	Koeffisiyentlarni hisoblash usuli	Koeffisiyentlarni hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning nomi
1. Mutlaq likvidlik (to'lovga qodirlik)koeffitsiyenti	$Kml = \frac{A1}{P1 + P2}$	A1 – Pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli kog'ozlar). P1 – Joriy kreditorlik qarzlari. P2 – Mo'tadil qisqa muddatli passivlar (kreditlar va qarzlar)
2. Tezkor likvidlik (oraliq to'lovgà qodirlik) koeffitsiyenti	$Ktl = \frac{A1 + A2}{P1 + P2}$	A2 – Debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot va tovarlar hajmi (tez realizatsiya etiladigan tovarlar)
3. Joriy likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyenti	$Kjl = \frac{A1+A2+A3}{P1+P2}$	A3 – Sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlarisiz).

To'lovga qodirlik koeffitsiyentlarining omilli tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning balansi-netto asosida ma'lum sanaga to'lovga qodirlik qobiliyatini ifodalovchi koeffitsiyentlar aniqlanadi va tahlil qilinadi.

To'lovga qodirlik koeffitsiyentlarini aniqlash tartibi ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yuqorida yoritildi. Endi tahlil qilish usuliga to'xtalamiz. Buning uchun to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanamiz. Ushbu ko'rsatkichlar 32-jadvalda keltirilgan.

32-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha to'lovga qodirlik koeffitsiyentlarini hisoblash va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

To'lov mablag'lari			To'lov majburiyatlari		
Mablag'larning nomi	Summasi, ming sum		Qisqa muddatli qarzlarning nomi	Summasi, ming so'm	
1.Pul mablag'lari	200	350	1. Joriy kreditorlik qarzlarining jami	58421	41412
			Shu jumladan:		
			– mol yetkazib beruvchilar qarzi	15491	28826
			– shu'ba va tobe xo'jalik jamiyat-lari qarzi	1824	578
			– budjetga to'lovlar bo'yicha qarz	22428	8518
			– maqsadli davlat jamg'armalariga to'lov bo'yicha qarzlar	11916	–
			– ish haqi bo'yicha qarzlar	6762	3490

davomi

2. Qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar)	250	280	2. Qisqa muddatli bank kreditlari	12161	22938
3. Debitorlar	41344	32282	3. Qisqa muddatli zayomlar	–	–
4. Tayyor mahsulot	1335	1935			
5. Tovarlar	–	1503			
6. Ishlab chiqarish zahiralari	2241	1398			
7. Tugallanmagan ishlab chiqarish	27096	27313			
To'lov mablag'larining jami	72466	65061	To'lov majburiyatlarining jami	70582	64350

32-jadval ma'lumotlari asosida likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyentlarining tahlilini ko'rib chiqamiz. Likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil etishda iqtisodiy tahlilning solishtirish va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalaniladi.

Solishtirish usulidan foydalanib, likvidlik (to'lovga qodirlik) ko'rsatkichlarining o'zgarishi aniqlanadi. Hisobot davrining oxiridagi likvidlik koeffitsiyentining u yoki bu ko'rsatkichini shu davrning boshidagi koeffitsiyentiga (yoki belgilangan me'yor koeffitsiyentiga) solishtirib, uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi. So'ngra o'zgarishning sabablari topiladi. O'zgarishning sabablarini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Endi, to'lovga qodirlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning tahlilini navbati bilan ko'rib chiqamiz.

Mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentining tahlili. Ushbu koeffitsiyentning o'zgarishiga yuqorida keltirilgan formuladan ko'rinib turganidek, uch guruh omil ta'sir qiladi:

1) joriy kreditorlik qarzlari hajmining o'zgarishi (*P1*);

2) qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasining o'zgarishi (*P2*);

3) eng yuqori likvidli aktivlar summasining o'zgarishi (*A1*).

Mazkur omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi 4 ta zanjirli boglanish ko'rsatkichlari aniqlanib olinadi:

I. $\text{Kml}_0 = \frac{A1_0}{P1_0 + P2_0}$. **II.** $\text{Kmlsh}_1 = \frac{A1_0}{P1_0 + P2_0}$.

III. $\text{Kmlsh}_2 = \frac{A1_0}{P1_1 + P2_1}$. **IV.** $\text{Kml}_1 = \frac{A1_1}{P1_1 + P2_1}$.

1-shakl

To'lovga qodirlik koeffitsiyentlarini hisoblash tartibi

Koeffisiyentlar nomi	Koeffisiyentlarni hisoblash usuli	Koeffisiyentlarni hisoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning nomi
1. Mutlaq likvidlik (to'lovga qodirlik)koeffitsiyenti	$Kml = \frac{A1}{P1 + P2}$	A1 – Pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli kog'ozlar). P1 – Joriy kreditorlik qarzlari. P2 – Mo'tadil qisqa muddatli passivlar (kreditlar va qarzlar)
2. Tezkor likvidlik (oraliq to'lovgà qodirlik) koeffitsiyenti	$Ktl = \frac{A1 + A2}{P1 + P2}$	A2 – Debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot va tovarlar hajmi (tez realizatsiya etiladigan tovarlar)
3. Joriy likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyenti	$Kjl = \frac{A1+A2+A3}{P1+P2}$	A3 – Sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlarisiz).

To'lovga qodirlik koeffitsiyentlarining omilli tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning balansi-netto asosida ma'lum sanaga to'lovga qodirlik qobiliyatini ifodalovchi koeffitsiyentlar aniqlanadi va tahlil qilinadi.

To'lovga qodirlik koeffitsiyentlarini aniqlash tartibi ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yuqorida yoritildi. Endi tahlil qilish usuliga to'xtalamiz. Buning uchun to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanamiz. Ushbu ko'rsatkichlar 32-jadvalda keltirilgan.

32-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha to'lovga qodirlik koeffitsiyentlarini hisoblash va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

To'lov mablag'lari			To'lov majburiyatlari		
Mablag'larning nomi	Summasi, ming sum		Qisqa muddatli qarzlarning nomi	Summasi, ming so'm	
1.Pul mablag'lari	200	350	1. Joriy kreditorlik qarzlarining jami	58421	41412
			Shu jumladan:		
			– mol yetkazib beruvchilar qarzi	15491	28826
			– shu'ba va tobe xo'jalik jamiyat-lari qarzi	1824	578
			– budjetga to'lovlar bo'yicha qarz	22428	8518
			– maqsadli davlat jamg'armalariga to'lov bo'yicha qarzlar	11916	–
			– ish haqi bo'yicha qarzlar	6762	3490

davomi

2. Qisqa muddatli investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar)	250	280	2. Qisqa muddatli bank kreditlari	12161	22938
3. Debitorlar	41344	32282	3. Qisqa muddatli zayomlar	–	–
4. Tayyor mahsulot	1335	1935			
5. Tovarlar	–	1503			
6. Ishlab chiqarish zahiralari	2241	1398			
7. Tugallanmagan ishlab chiqarish	27096	27313			
To'lov mablag'larining jami	72466	65061	To'lov majburiyatlarining jami	70582	64350

32-jadval ma'lumotlari asosida likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyentlarining tahlilini ko'rib chiqamiz. Likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil etishda iqtisodiy tahlilning solishtirish va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalaniladi.

Solishtirish usulidan foydalanib, likvidlik (to'lovga qodirlik) ko'rsatkichlarining o'zgarishi aniqlanadi. Hisobot davrining oxiridagi likvidlik koeffitsiyentining u yoki bu ko'rsatkichini shu davrning boshidagi koeffitsiyentiga (yoki belgilangan me'yor koeffitsiyentiga) solishtirib, uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi. So'ngra o'zgarishning sabablari topiladi. O'zgarishning sabablarini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Endi, to'lovga qodirlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning tahlilini navbati bilan ko'rib chiqamiz.

Mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentining tahlili. Ushbu koeffitsiyentning o'zgarishiga yuqorida keltirilgan formuladan ko'rinib turganidek, uch guruh omil ta'sir qiladi:

1) joriy kreditorlik qarzlari hajmining o'zgarishi (*P1*);

2) qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasining o'zgarishi (*P2*);

3) eng yuqori likvidli aktivlar summasining o'zgarishi (*A1*).

Mazkur omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi 4 ta zanjirli boglanish ko'rsatkichlari aniqlanib olinadi:

I. $\text{Kml}_0 = \frac{Al_0}{Pl_0 + P2_0}$. **II.** $\text{Kmlsh}_1 = \frac{Al_0}{Pl_0 + P2_0}$.

III. $\text{Kmlsh}_2 = \frac{Al_0}{Pl_1 + P2_1}$. **IV.** $\text{Kml}_1 = \frac{Al_1}{Pl_1 + P2_1}$.

Ushbu koeffitsiyentlardan foydalanib, mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentining o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Ikkinchi bog'lanish ko'rsatkichidan (1-shartli bog'lanish koeffitsiyentidan) bazis davridagi mutlaq likvidlik ko'rsatkichini ayirish orqali koeffitsiyentning o'zgarishiga joriy kreditorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

Koeffisiyentning o'zgarishiga qisqa muddatli passivlar summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun uchinchi bog'lanish ko'rsatkichidan 2-bog'lanish ko'rsatkichini ayirish tashlash kerak.

Koeffisiyentning o'zgarishiga eng yuqori likvidli aktivlar summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 4-bog'lanish ko'rsatkichidan (yil oxiridagi to'lovga qodirlik koeffitsiyentidan) 3-bog'lanish ko'rsatkichini ayirish kerak.

Omillar ta'sirlarining yig'indisi mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shundan keyin omillarning har birining ta'siriga baho berilib, imkoniyatlari ko'rsatilishi kerak.

Endi, yuqorida keltirilgan usul koidalari asosida 22-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Yil oxiridagi mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentidan yil boshidagi koeffitsiyentini chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\textbf{IV–I} = \frac{Al_1}{Pl_1+P2_1} - \frac{Al_0}{Pl_0+P2_0} = \frac{350+280}{41412+22938} - \frac{200+250}{58421+12161} =$$

$$= \frac{630}{64350} - \frac{450}{70582} = 0,01 - 0,006 = +0,004 \text{ yoki } +0,4\%.$$

Demak, mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti yil oxirida yil boshiga nisbatan 0,4 foizga oshgan, ammo bu me'yorga nisbatan nihoyatda past.

Ushbu o'zgarish quyidagi 3 ta guruh omil hisobiga sodir bo'lgan:

1-omil. Joriy kreditlik qarzlari hajmining o'zgarishi hisobiga:

$$\textbf{II–I} = \frac{Al_1}{Pl_1+P2_0} - \frac{Al_0}{Pl_0+P2_0} = \frac{450}{41412+12161} - \frac{450}{58421+12161} = \frac{450}{53573} - \frac{450}{70582} =$$

$$= 0,0084 - 0,0064 = +0,002 \text{ yoki } 0,2\%.$$

Demak, joriy kreditorlik qarzlari summasining 17009 ming so'mga kamayishi tufayli to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 0,2 foizga oshgan.

2-omil. Qisqa muddatli kredit va qarzlar hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\textbf{III–II} = \frac{Al_1}{Pl_1+P2_1} - \frac{Al_0}{Pl_1+P2_0} = \frac{450}{41412+22938} - \frac{450}{41412+12161} =$$

$$= \frac{450}{64350} - \frac{450}{53573} = 0,007 - 0,008 = -0,001 \text{ yoki } 0,1\%.$$

Demak, qisqa muddatli bank kreditlari summasining yil oxirida yil boshiga nisbatan 10777 ming so'mga oshishi to'lovga qodirlik koeffitsiyentini 0,1 foizga pasayishga olib keladi.

3-omil. Eng yuqori likvidli aktivlar hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\textbf{IV–III} = \frac{A1_1}{P1_1 + P2_1} - \frac{A1_0}{P1_1 + P2_0} = \frac{350+280}{41412+22938} - \frac{450}{41412+22938} =$$

$$= \frac{630}{64350} - \frac{450}{64350} = 0,01 - 0,007 = +0,003 \text{ yoki } 0,3\%.$$

Demak, pul mablag'lari bilan qisqa muddatli investitsiyalar hajmining yil oxirida yil boshiga nisbatan 180 ming so'mga oshishi to'lovga qodirlik koeffitsiyentining 0,3 foizga oshishiga sabab bo'lgan. Bu nimani bildiradi? Bu yuqori likvidli aktivlar bilan qisqa muddatli majburiyatlarni to'lay olish qurbining 0,3 foizga oshganligini bildiradi. Bu belgilangan minimum me'yorga nisbatan bir necha marta pastdir. Demak, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar hajmini oshirish choralarini ko'rish zarur.

To'lovga qodirlikni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri **oraliq likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyenti** hisoblanadi. Bu koeffitsiyentning tahlilini ham «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida ko'rib chiqish qulayroq bo'ladi.

Likvidlik koeffitsiyentining o'zgarishiga uning formulasidan ko'rinib turibdiki, 4-ta omil ta'sir qiladi:

1) tezlikda to'lanadigan majburiyatlar hajmining o'zgarishi ($P1$);

2) qisqa muddatli passivlar summasining o'zgarishi ($P2$);

3) eng yuqori likvidli aktivlar summasining o'zgarishi ($A1$);

4) tez realizatsiya etiladigan aktivlar summasining o'zgarishi ($A2$).

Keltirilgan formuladan foydalanib va «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llab «Oraliq likvidlik koeffitsiyenti» ning o'zgarishiga yuqoridagi omillarning ta'siri aniqlanadi. Tahlil etish usuli mutlaq to'lovga qodirlik koeffitsiyentining o'zgarishini tahlil etish yo'lining o'zginasidir. Shuning uchun ushbu koeffitsiyent tahlilini hurmatli talaba o'zingiz mustaqil bajarining.

Buning uchun quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlaridan foydalanning:

I. $\frac{A1_0 + A2_0}{P1_0 + P2_0}$. IV. $\frac{A1_1 + A2_0}{P1_1 + P2_1}$.

II. $\frac{A1_0+A2_0}{P1_1+P2_0}$. V. $\frac{A1_1+A2_1}{P1_1+P2_1}$.

III. $\frac{A1_0+A2_0}{P1_1+P2_1}$.

Bu ko'rsatkichlardan har bir omil ta'sirini aniqlash yo'lini bayon qiling va mazmunini o'zlashtirib oling.

To'lovga qodirlikning asosiy ko'rsatkichlaridan yana biri **joriy likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyenti** hisoblanadi.

Joriy likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffitsiyenti mo'tadil joriy aktivlarning jamini mo'tadil qisqa muddatli mujburiyatlarning jamiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$Kjl = \frac{A1+A2+A3}{P1+P2}.$$

Hisobot davrining oxiridagi joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyentini davr boshidagi koeffitsiyentiga solishtirib, uning oshgan yoki pasayganligi aniqlanadi, so'ngra o'zgarishga omillar ta'siri topiladi.

To'lovga qodirlik koeffitsiyentining o'zgarishiga, yuqorida keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, 5 ta omil ta'sir qiladi, shulardan 4 tasi «Oraliq to'lovga qodirlik» koeffitsiyentining tahlili qismida ko'rsatilgan. Beshinchi omil bo'lib «Sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar (*A3*)» hisoblanadi. Mazkur omillarning ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi zanjirli bog'lanish ko'rsatkichlarini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

I. $Kjl_0 = \frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_0+P2_0}$. II. $Kjl_{sh1} = \frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_0}$.

III. $Kjl_{sh2} = \frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_1}$. IV. $Kjl_{sh3} = \frac{A1_1+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_1}$.

V. $Kjl_{sh4} = \frac{A1_1+A2_1+A3_0}{P1_1+P2^1}$. VI. $Kjl_1 = \frac{A1_1+A2_1+A3_1}{P1_1+P2_1}$.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida joriy likvidlik (to'lovlarga qodirlik) koeffitsiyentining o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi va xulosalar chiqariladi.

Tezlikda to'lanadigan majburiyatlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun ikkinchi ko'rsatkichdan (1-shartli ko'rsatkichdan) birinchi ko'rsatkich (hisobot davrining boshidagi koeffitsiyent) ayiriladi.

Ikkinchi shartli to'lovga qodirlik koeffitsiyentidan 1-shartli koeffitsiyentini ayirish orqali «Qisqa muddatli passivlar» summasining o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

Uchinchi shartli to'lovga qodirlik koeffitsiyentidan ikkinchi shartli koeffitsiyentini ayirish orqali joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyentining o'zgarishiga eng yuqori likvidli aktivlar summasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

To'rtinchi shartli to'lovga qodirlik koeffitsiyentidan uchinchi shartli koeffitsiyentni ayirish orqali «Tez realizatsiya qilinadigan aktivlar»summasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

Davr oxiridagi to'lovga qodirlik koeffitsiyentidan (6-ko'rsatkichdan) 4-shartli koeffitsiyentni (5-ko'rsatkichni) ayirish orqali «Sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar» summasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

Yuqoridagi omillar ta'sirlarining yig'indisi joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shundan so'ng omillarning ta'siriga (ijobiy yoki salbiy) baho berilib, xulosa chiqarilishi kerak.

Endi, 32-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti o'zgarishining omilli tahlilini ko'rib chiqamiz.

Birinchi navbatda, joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyentining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{A1_1+A2_1+A3_1}{P1_1+P2_1}-\frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_0+P2_0}=\frac{630+35720+28711}{41412+22938}-\frac{450+42679+29337}{58421+12161}=$$

$$=\frac{65061}{64350}-\frac{72466}{70582}=1,011-1,027=-0,016 \text{ yoki } -1,6\%.$$

Demak, joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti yil boshida 1,027 miqdorni, yil oxirida 1,011 miqdorni tashkil qilgan, ya'ni yil oxirida to'lovga qodirlik darajasi 1,6 foizga pasaygan. Ushbu koeffitsiyentlar, umuman olganda, me'yorga nisbatan 2 baravar kamdir. Demak, to'lov qobiliyati nihoyatda past. Joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyentining o'zgarishiga 5-omil ta'sir qilgan va ularning har birining ta'siri quyida keltirildi.

1-omil. «Tezlikda to'lanadigan majburiyatlar» hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$II-I=\frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_0}-\frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_0+P2_0}=\frac{450+42679+29337}{41412+12161}-\frac{450+42679+29337}{58421+12161}=$$

$$=\frac{72466}{53573}-\frac{72466}{70582}=1,353-1,027=+0,326 \text{ yoki } +32,6\%.$$

Demak, tezlikda to'lanadigan majburiyatlar (joriy kreditorlik qarzlari) hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 17009 ming so'mga kamaygan, natijada shu omil hisobiga joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 32,6% ga oshgan.

2-omil. «Qisqa muddatli passivlar (qisqa muddatli kreditlar)» bo'yicha majburiyatlar hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$III-II=\frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_1}-\frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_0}=\frac{450+42679+29337}{41412+22938}-\frac{450+42679+29337}{41412+12161}=$$

$$=\frac{72466}{64350}-\frac{72466}{53573}=1,126-1,353=-0,227 \text{ yoki } -22,7\%.$$

Demak, qisqa muddatli passivlar (qisqa muddatli kreditlar) hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 10777 ming so'mga oshgan, natijada joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti yil oxirida 22,7% ga pasaygan.

3-omil. «Eng yuqori likvidli aktivlar» bo'yicha to'lov mablag'lari hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$IV-III=\frac{A1_1+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_1}-\frac{A1_0+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_1}=\frac{630+42679+29337}{41412+22938}-\frac{450+42679+29337}{41412+22938}=$$

$$=\frac{72646}{64350}-\frac{72466}{64350}=1,129-1,126=+0,003 \text{ yoki } +0,3\%.$$

Demak, pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 180 ming so'mga oshgan, natijada shu omil hisobiga joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 0,3% ga oshgan, xolos. Bu juda past ko'rsatkich. To'lovga qodirlikni asosan shu mablag'larni ko'paytirish hisobiga oshirish zarur.

4-omil. «Tez realizatsiya etiladigan aktivlar» bo'yicha to'lov mablag'lari hajmi o'zgarishining ta'siri :

$$V-IV=\frac{A1_1+A2_1+A3_0}{P1_1+P2_1}-\frac{A1_1+A2_0+A3_0}{P1_1+P2_1}=\frac{630+35720+29337}{41412+22938}-\frac{630+42679+29337}{41412+22938}=$$

$$=\frac{65687}{64350}-\frac{72646}{64350}=1,021-1,129=-0,108 \text{ yoki } -10,8\%.$$

Demak, tez realizatsiya etiladigan aktivlar (debitor qarzlari, tayyor mahsulotlar va tovarlar qiymati) bo'yicha to'lov mablag'lari hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 6959 ming so'mga kamaygan, natijada shu omil hisobiga joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 10,8% ga pasaygan.

5-omil. «Sekinlik bilan realizatsiya etiladigan aktivlar» bo'yicha to'lov mablag'lari hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$VI-V = \frac{A1_1+A2_1+A3_1}{P1_1+P2_1} - \frac{A1_1+A2_1+A3_0}{P1_1+P2_1} = \frac{630+35720+28711}{41412+22938} - \frac{630+35720+29337}{41412+22938} =$$

$$= \frac{65061}{64350} - \frac{65687}{64350} = 1,011 - 1,021 = -0,01 \text{ yoki } -1,0\%.$$

Demak, sekinlik bilan realizatsiya qilinadigan aktivlar hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 626 ming so'mga kamaygan, natijada shu omil hisobiga koeffitsiyent 1% ga pasaygan.

Omilli tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligi to'lov qobiliyatining yil oxirida yil boshiga nisbatan o'zgarishi uch omilning salbiy va ikki omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

To'lovga qodirlik koeffitsiyentini oshirish uchun mahsulotlarni sotishdan olinadigan sof pul tushumi hajmini ishlab chiqarish ko'lamini rivojlantirish hisobiga oshirish zarur.

7.1.5. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Buxgalteriya balansi. Balans-brutto. Balans-netto. Balans-aktivi. Balans passivi. Mulk. Kapital. Majburiyatlar. To'lov mablag'lari. To'lov majburiyatlari. Moliyaviy mustaqillik. Moliyaviy barqarorlik. To'lovga qodirlik. O'z mablag'lari. Qarz mablag'lari. O'z aylanma mablag'lari.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy tahlil deb nimaga aytiladi?
2. Korxona moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Tahlilning asosiy manbalari bo'lib, qaysi hisobot ma'lumotlari hisoblanadi?
4. Tahlilning asosiy vazifalarini bayon qiling.
5. Buxgalteriya balansiga ta'rif bering va uning tahlildagi ahamiyatini ko'rsating.
6. Buxgalteriya balansi aktiv qismining tahlili.
7. Buxgalteriya balansi passiv qismining tahlili.
8. Korxona qay vaqtda moliyaviy barqaror xo'jalik bo'la oladi?
9. Korxonaning to'lovga qodirlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
10. To'lovga qodirlik koeffitsiyentining tahlilini tushuntiring.
11. Moliyaviy barqarorlik deb nimaga aytiladi?
12. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti qanday hisoblanadi? Uning mazmunini tushuntiring.
13. To'lov mablag'lari deganda qaysi mablag'lar tushuniladi?
14. To'lov majburiyatlari deganda nima tushuniladi?
15. Balans likvidligi deb nimaga aytiladi?

1-mashq

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, korxonaning o'z aylanma mablag'lari summasini aniqlang va uning moliyaviy holatga baho berishdagi rolini tushuntiring.

Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida
1. O'z mablag'lari manbalari	35600	38500
2. Uzoq muddatli passivlar	10120	11500
3. Uzoq muddatli aktivlar	43000	44100
4. Joriy aktivlar	48000	49200

2-mashq

Korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini toping va uning mazmun-mohiyatini tushuntiring:

1) joriy aktiv: majburiyat;
2) o'z mablag'lari manbai: majburiyatlar;
3) majburiyatlar: o'z mablag'lari manbai;
4) o'z mablag'lari manbai: balans jami;
5) majburiyatlar: joriy aktivlar.

Xulosalar

Mazkur bandda moliyaviy holat tahlilining ahamiyati, maqsadi va vazifalari, buxgalteriya balansi asosida mulk va manbalari tarkibi hamda tarkibiy tuzilishining tahlili, moliyaviy barqarorligining tahlili, korxona to'lov qobiliyatining tahlili, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligining tahlili masalalari yoritilgan. Ushbu masalalarning mazmun-mohiyatini va o'rganish usullarini qo'llash tartibini talaba yaxshi o'zlashtirib olishi uchun, unga ushbu mavzuni darslik bo'yicha o'qib, o'zlashtirishini hamda nazariy savollarga yetarli darajada javob qaytarishni va mashqlarni mustaqil bajarib, o'zlashtirib olishni tavsiya etamiz.

7.2. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili

O'quv maqsadi

Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili bo'yicha rejalashtirilgan barcha savollarning javobi ushbu bandda, ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yetarli darajada yoritilgan. Bular esa talabaga mavzuni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun ta'limiy asos bo'ladi. Shuning uchun ham ular *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini* ifodalaydi.

Mavjud imkoniyatlarni aniqlab, ishga solish orqali foydani ko'paytirish va rentabellikni oshirish – xo'jalikning o'z mablag'larini ko'paytirilishi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlanishiga olib kelishligi to'g'risidagi g'oyani talaba ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar bo'yicha mavjud imkoniyatlarni maksimal darajada aniqlab, faoliyatga jalb etish uchun tahlil jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda matematik usullardan ham keng foydalanish zarur. Shunday yondashish tahlilning ta'sir etuvchi kuchini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Demak, matematik usullardan foydalanish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

7.2.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir qishloq xo'jalik korxonasining oldida turgan maqsad, faoliyat yuritishdan foyda olish hisoblanadi. Foydali faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida asosiy tayanch bo'lib muhim rol o'ynaydi. Zarar bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar salbiy ta'sir qilib, zaiflashishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun ham faoliyatning pirovard natijasini foyda shaklida namoyon bo'lishiga erishish imkoniyatlarini aniqlash yo'llarini talaba yaxshi bilib olishi zarur. Shu maqsadga erishish uchun korxonalar faoliyatining pirovard natijasini ifodalovchi «Moliyaviy natijalar» deb atalmish ko'rsatkichlar holatini uzluksiz ravishda tahlil qilib borish zarur.

Moliyaviy natijalar deganda nima tushunilidi? Moliyaviy natijalar deganda foyda yoki zarar ko'rsatkichlari birgalikda tushuniladi. Ushbu ko'rsatkichlar daromad va xarajatlar orasidagi farq tariqasida aniqlanadi. Daromadlar hajmi xarajatlarga nisbatan ko'p bo'lsa, oraliqdagi farq foydani bildiradi, aksincha bo'lsa, zararni bildiradi. Xullas, foyda daromad va xarajatlar nisbatidagi yuqori o'zgaruvchanlikni, zarar esa ular nisbatidagi quyi o'zgaruvchanlikni ifodalaydi. Foyda qancha ko'p bo'lsa, korxona iqtisodiy jihatdan shuncha mustahkam bo'ladi. Foyda oshgan sayin korxonaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, to'lovga qodirligi oshib boradi, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash darajasi yaxshilanib boradi, oqibatda ishlab chiqarishni kengaytirish, rivojlantirish, moddiy ne'matni yaratuvchilarning moddiy manfaatdorligi darajasini oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun sharoit yaratiladi. Shuning uchun ham har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini

foydali yuritish uchun harakat qilishi kerak. Foydali faoliyat ko'rsatish uchun iqtisodiy tahlilni samarali tashkil qilish talab etiladi, chunki foydani ko'paytirish va zararni yo'qotish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni faqat tahlil orqali aniqlash mumkin.

Tahlilning maqsadi nimadan iborat? Tahlilning maqsadi – foyda va rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasini chuqur o'rganish hamda omilli tahlil qilish asosida ularni yanada ko'paytirish va oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun tahlil quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishi lozim:

1) fermer xo'jaligi moliyaviy natijalari (foydasi va zarari)ning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o'rganish;

2) yalpi foyda (zarar) va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ta'siriga baho berish;

3) asosiy ishlab chiqarish faoliyati foydasi (zarari) va uning o'zgarishini omilli tahlil qilish;

4) umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari) o'zgarishini omilli tahlil qilish;

5) sof foyda o'zgarishini aniqlash va omillar ta'siriga baho berish;

6) korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir qiluvchi omillarga baho berish;

7) foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning asosiy manbalari bo'lib, biznes-reja, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot hamda buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi schotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

7.2.2. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom» ga muvofiq moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) 5 ta turga bo'linadi:

1) mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan olinadigan yalpi foyda (zarar);

2) asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari);

3) umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari);

4) soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar);

5) hisobot davrining sof foydasi (zarari).

Moliyaviy natija foyda bo'lsa ham, zarar bo'lsa ham, ularni aniqlash usullari bir xildir, shuning uchun ularni aniqlashni «foyda» ko'rsatkichi misolida ko'rib chiqamiz.

Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda qanday aniqlanadi? Mahsulotlarni sotishdan olingan jami sof pul tushumidan (*SPT*) sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini (*TN*) chegirib tashlash orqali yalpi foyda (*YF*) aniqlanadi:

$$YF = SPT - TN \text{ yoki } (\sum qp - \sum qz).$$

bunda: q – sotilgan mahsulot miqdori; p – sotilgan 1 s mahsulot bahosi; z – sotilgan 1 s mahsulot tannarxi; $\sum qp$ – mahsulotni sotishdan olingan sof pul tushumi; $\sum qz$ – ishlab chiqarish tannarxi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi qanday aniqlanadi? Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydadan (*YF*) davr xarajatlari (*DX*) bilan asosiy faoliyatning boshqa operatsion xarajatlarini (*BX*) ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (*BD*) qo'shish orqali asosiy faoliyatning foydasi (*AFF*) aniqlanadi: $AFF = YF - DX - BX + BD$.

Umumxo'jalik faoliyatining foydasi qanday aniqlanadi? Asosiy faoliyatning foydasiga (*AFF*) moliyaviy faoliyatning daromadlarini (*MFD*) qo'shib, moliyaviy faoliyat bo'yicha bo'lgan xarajatlarni (*MFX*) ayirib tashlash orqali umumxo'jalik faoliyatining foydasi (*UXF*) aniqlanadi: $UXF = AFF + MFD - MFX$.

Moliyaviy faoliyat daromadlariga quyidagi daromadlar kiritiladi:

1) dividendlar shaklidagi daromadlar;
2) foizlar shaklidagi daromadlar;
3) uzoq muddatli ijara (lizing) dan daromadlar;
4) valyuta kursi farqidan daromadlar;
5) boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyat xarajatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) foiz shaklidagi xarajatlar;
2) uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar;
3) valyuta kursi farqidan zararlar;
4) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foyda (*STF*) qanday aniqlanadi? Bu foyda umumxo'jalik faoliyati foydasiga (*UXF*) favqulodda yuzaga kelgan foydani (*FF*) qo'shish va favqulodda yuzaga kelgan zararni (*FZ*) chegirib tashlash orqali aniqlanadi: $STF = UXF + FF - FZ$.

Hisobot davrining sof foydasi qanday aniqlanadi? Sof foydani (*SF*) aniqlash uchun soliq to'langunga qadar bo'lgan foydadan (*STF*) daromad (foyda) solig'ini (*DS*) hamda foydadan to'lanadigan boshqa soliq va yig'imlarni (*BS*) chegirib tashlash kerak: $SF = STF - DS - BS$.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonaning moliyaviy faoliyatining samaradorligini ifodalovchi nisbiy koeffitsiyentlardir. Ular korxonaning daromadliligini, foydaliligini ifodalaydi. Rentabellik ko'rsatkichlari korxonaning u yoki bu holati bo'yicha foydalilik darajasini ta'riflash va ularga baho berish uchun ishlatiladi.

Rentabellik darajasi bir so'mlik mablag'lar, xarajatlar va fondlar qiymatiga nisbatan olingan foyda hajmini ifodalaydi. Agar ushbu ko'rsatkich darajasi oshib borsa, foydalilikning oshib borishini bildiradi. Hozirgi vaqtda rentabellik ko'plab ko'rsatkichlar orqali ifodalandi. Shulardan asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1) sotilgan mahsulotlar rentabelligi;
2) asosiy vositalar rentabelligi;
3) aktivlar rentabelligi;
4) xususiy kapital rentabelligi;
5) permanent kapital rentabelligi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi. Buni (R_{mr}) aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani (Y_f) 100 foizga ko'paytirib, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga (*TN*) bo'lish kerak:

$$R_{mr} = \frac{Y_f \cdot 100}{TN}.$$

Bu rentabellik xarajatlardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichdir, ya'ni 1 so'mlik qilingan xarajatga qancha foyda olinganligini ko'rsatadi.

Asosiy vositalar rentabelligi. Bu hisobot davridagi sof foydani (*SF*) 100 foizga ko'paytirib, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga (*AIF*) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$R_{av} = \frac{SF \cdot 100}{AIF},$$

bunda: *AIF* – asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati.

Bu rentabellik asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Aktivlar rentabelligi. Buni (R_a) aniqlash uchun soliq to'langunga qadar bo'lgan foydani (*STF*) 100 foizga ko'paytirib, natijasini uzoq muddatli

aktivlar (*UA*) bilan aylanma aktivlar (*AA*) summasining jamiga (ya'ni balansining jamiga) bo'lish kerak:

$$R_a = \frac{STF \cdot 100}{UA + AA}.$$

Aktivlar rentabelligi hisobot davrida 1 so'mlik asosiy vositalar bilan aylanma mablag'lar hisobiga necha so'mlik foyda olinganligini anglatadi.

Xususiy kapital rentabelligi. Buni (*RXK*) aniqlash uchun xo'jalikning hisobot yilidagi sof foydasini (*SF*) 100 foizga ko'paytirib, ularning summasini xususiy kapital (*XK*) ning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak:

$$R_{xk} = \frac{SF \cdot 100}{XK}.$$

Bu ko'rsatkich bir so'mlik xususiy kapital hisobiga necha so'mlik sof foyda olinganligini ko'rsatadi, ya'ni xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi darajasini ifodalaydi.

Permanent kapital rentabelligi. Bu rentabellikni (R_{pk}) aniqlash uchun korxonaning sof foydasini (*SF*) permanent kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga (*PK*) bo'lish kerak:

$$R_{pk} = \frac{SF \cdot 100}{PK}.$$

Korxonaning xususiy kapitali bilan uzoq muddatli qarz kapitali birgalikda permanent kapitalni tashkil etadi. Demak, permanent kapital rentabelligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R_{pk} = \frac{SF \cdot 100}{XK + KK},$$

bunda: *XK* – xususiy kapital; *QK* – uzoq muddatli qarz kapitali.

Permanent kapital rentabelligi koeffitsiyenti xususiy va uzoq muddatli qarz mablag'larining 1 so'miga (100 so'miga) qancha sof foyda to'g'ri kelishligini ko'rsatadi.

7.2.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili

Hisobot yilidagi yalpi foyda hajmini biznes-reja bo'yicha ko'zda tutilgan foydaga yoki bazis yilidagi foyda summasiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy miqdorlardagi o'zgarishi aniqlanadi. Boshqacha aytganda, hisobot yilidagi foydadan bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan foyda summasini ayirib, uning o'zgarishi (ko'payganligi va kamayganligi) aniqlanadi. Biz, bu yerda hisobot yilidagi foydaning bazis yiliga nisbatan o'zgarishining tahlilini keltirdik.

Hisobot yilida har bir mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning bazis yiliga nisbatan o'zgarishini (ko'payishini yoki kamayishini) quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(q_1p_1 - q_1z_1) - (q_0p_0 - q_0z_0) = \pm\Delta_{qpz},$$

bunda: q_1, q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulot miqdori; p_1, p_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi; z_1, z_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 s mahsulotning tannarxi.

Ushbu keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishiga bevosita quyidagi uch omil ta'sir qiladi:

1) sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi $(q_1 - q_0)$;

2) 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi $(p_1 - p_0)$;

3) 1 s mahsulotning o'rtacha ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi $(z_1 - z_0)$.

Yalpi foydaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi» va «Zanjirli bog'lanish» usullari yordamida aniqlash mumkin. Biz sotilgan paxta misolida 33-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida yalpi foyda tahlilini amalga oshiramiz.

33-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha paxtani sotishdan olingan yalpi foydani tahlil etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Sotilgan paxta, s	3600	3783	+183
2	1 s paxta bahosi, so'm	17890	19908	+2018
3	1 s paxta tannarxi, so'm	15410	16682	+1272
4	1 s paxtani sotishdan olingan foyda, so'm	2480	3226	+746
5	Yalpi foyda, ming so'm	8928	12204	+3276

33-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xo'jalik paxtani sotishdan hisobot yilida 12204 ming so'm foyda olib, bu o'tgan bazis yiliga nisbatan 3276 ming so'mga yoki 36,7 foizga oshgan. Buning sababini bilish uchun yuqorida keltirilgan omillar ta'sirining tahlilini «Ko'rsatkichlar farqi» usuli yordamida bajardik.

Yalpi foydaning o'zgarishiga sotilgan paxta miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillarida sotilgan paxta miqdorlari orasidagi farqni bazis yilida 1 s paxtani sotishdan olingan foyda summasiga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(q_1 - q_0) \cdot (p_0 - z_0) = \pm\Delta_q;$$

$$(3783 - 3600) \cdot (17890 - 15410) = +183 \cdot 2480 = +454 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan sotilgan paxta miqdorining 183 s ga oshishi natijasida paxtani sotishdan olingan yalpi foyda summasi bazis yiliga nisbatan 454 ming so'mga ko'paygan. Xullas, sotilgan paxta miqdorining oshishi foyda o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan. Sotilgan paxta miqdori bilan olingan foyda hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Demak, sotilgan paxta miqdori oshsa, olinadigan foyda ham oshadi, kamaysa-kamayadi. Bizning misolda sotilgan paxta miqdorining oshishi foyda summasining oshishiga sabab bo'lgan.

Foydaning o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni 1 s paxtaning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillaridagi o'rtacha sotish baholari orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan paxtaning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = \pm\Delta_p;$$

$$(19908 - 17890) \cdot 3783 = +2018 \cdot 3783 = +7634 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilidagi 1 s paxtaning o'rtacha sotish bahosining bazis yiliga nisbatan 2018 so'mga oshishi yalpi foyda summasini 7634 ming so'mga ko'paytirgan. O'rtacha sotish bahosining oshishi yalpi foydaning o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan.

Demak, o'rtacha baho bilan foyda hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Bahoning oshishi har doim foydaning oshishiga olib keladi, kamayishi esa kamaytiradi.

Foydaning o'zgarishiga 1 s paxta tannarxi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillaridagi 1 s paxta tannarxlari orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan paxtaning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(z_1 - z_0) \cdot q_1 = \pm\Delta_z;$$

$$(16682 - 15410) \cdot 3783 = +1272 \cdot 3783 = -4812 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 s paxta tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1272 so'mga oshgan, natijada uning jami ishlab chiqarish tannarxi 4812 ming so'mga oshgan. Bu esa, o'z navbatida, yalpi foydaga salbiy ta'sir etib, uni shu summaga kamaytirgan. Shuning uchun ham oxirgi natija minus bilan ko'rsatilgan.

Sotilgan mahsulot tannarxi bilan foyda o'rtasida bilvosita bog'liqlik mavjud. Tannarx qimmatlashsa, foyda kamayadi, aksincha, tannarx ar-

zonlashsa, foyda ko'payadi. Bizning misolda 1 s paxta tannnarxining qimmatlashishi (oshishi) umumiy xarajatni oshirib, yalpi foydani shu summaga kamaytirgan.

Keltirilgan omillar ta'sirlarining yig'indisi yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Buni 34-jadvaldan ko'rish mumkin.

34-jadval

Paxtani sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Sotilgan paxta . s	3600	3783	+183
2	1 s paxta bahosi, so'm	17890	19908	+2018
3	1 s paxta tannarxi, so'm	15410	16682	+1272
4	1 s paxtaning foydasi, so'm	2480	3226	+746
5	Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda, ming sum	8928	12204	+3276
	Shu jumladan o'zgarishi: 5.1. Sotilgan paxta miqdorining o'zgarishi hisobiga	×	×	+454
	5.2. 1 s sotish bahosining o'zgarishi hisobiga	×	×	+7634
	5.3. 1 s paxta tannarxining o'zgarishi hisobiga	×	×	–4812

Endi, paxtani sotishdan olingan yalpi foyda tahlilini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, o'zingiz bajaring. Buning uchun quyidagi zanjirli bog'lanish ko'rsatkichlarini ifodalovchi formulalardan foydalaning:

I. $q_0p_0 - q_0z_0$; III. $q_1p_1 - q_1z_0$;

II. $q_1p_0 - q_1z_0$; IV. $q_1p_1 - q_1z_1$.

Yalpi foydaning umumiy o'zgarishi:

$$(q_1p_1 - q_1z_1) - (q_0p_0 - q_0z_0) = \pm\Delta_{qpz}.$$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'siri:

1) sotilgan paxta miqdori o'zgarishining ta'siri:

$$(q_1p_0 - q_1z_0) - (q_0p_0 - q_0z_0) = \pm\Delta_q;$$

2) o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'siri:

$$(q_1p_1 - q_1z_0) - (q_1p_0 - q_1z_0) = \pm\Delta_p;$$

3) 1 s paxta tannarxi o'zgarishining ta'siri:

$$(q_1p_1 - q_1z_1) - (q_1p_1 - q_1z_0) = \pm\Delta_z.$$

Mazkur uch omil ta'sirlarining yig'indisi yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Omillar ta'siri «Ko'rsatkichlar farqi» usuli bilan

aniqlansa ham (yuqorida shu usul bilan aniqlandi), «Zanjirli bog'lanish» usuli bilan aniqlansa ham (buni siz o'zingiz aniqlaysiz), ularning natijasi bir hil bo'ladi, ya'ni har bir omil ta'sirining miqdori bir-biriga mos kelishi kerak. Shu narsani yoddan chiqarmang.

7.2.4. Xo'jalik bo'yicha yalpi foydaning omilli tahlili

Xo'jalik yoki uning tarmoqlari bo'yicha tovar mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlilini amalga oshirish uchun, avvalo, uning bazis yiliga yoki biznes-rejaga nisbatan umumiy o'zgarishi, so'ngra o'zgarishi sabablari aniqlanadi. Buning uchun yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi bevosita omillar aniqlanadi va har birining ta'siri topiladi.

Xo'jalik bo'yicha mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishiga bevosita quyidagi 4 ta omil ta'sir qiladi:

1) sotilgan mahsulotlar fizik miqdorlarining o'zgarishi;

2) sotilgan mahsulotlar strukturasining o'zgarishi;

3) mahsulot birligining (1 s mahsulotning) o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi;

4) mahsulot birligining (1 s mahsulotning) o'rtacha ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi.

Mazkur omillarning yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan oldin bazis va hisobot yillarining haqiqiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda (yoki hisobot yilining reja va haqiqiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda) shartli ko'rsatkichlar ham aniqlab olinishi kerak, ya'ni hisobot yilida sotilgan mahsulotlarning miqdorlariga nisbatan tannarx, pul tushumi va foyda summalari qayta hisoblangan bo'lishi kerak, chunki ushbu shartli ko'rsatkichlar omillarning ta'sirini aniqlash uchun zarur bo'lgan miqdorlardir. Bu shartli ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1) sotilgan mahsulotlarning shartli ishlab chiqarish tannarxi ($\sum q_1 z_0$);

2) Sotilgan mahsulotlarning shartli sof pul tushumi ($\sum q_1 p_0$);

3) 1 so'mlik yoki ming so'mlik sof tushum hisobiga olingan shartli yalpi foyda summasi. Bu ko'rsatkichni jami shartli foyda summasini ($\sum q_1 f_0$) jami shartli sof pul tushumi summasiga ($\sum q_1 p_0$) bo'lib va natijasini 1000 ga ko'paytirib, aniqlashni ma'qul ko'rdik:

$$\frac{\Sigma q_1 F_0}{\Sigma q_1 P_0} \cdot 1000.$$

Uchinchi shartli ko'rsatkich nima uchun kerak? Bu ko'rsatkich sotilgan mahsulot umumiy hajmining o'zgarishi tufayli yuzaga keladigan yalpi foyda summasining umumiy o'zgarishini ikki omil o'rtasida taqsimlash

uchun zarur bo'lgan analitik ko'rsatkichdir, ya'ni sotilgan mahsulotlar fizik miqdori bilan strukturasi o'zgarishlarining ta'sirini ajratib aniqlash uchun zarur bo'lgan analitik ko'rsatkichdir. Demak, ushbu shartli ko'rsatkichdan foydalanib, shu ikki omil har birining sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi.

Endi, omillarning yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sirini aniqlash tartibini (uslubini) ko'rib chiqamiz. Yalpi foydaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» va «Ko'rsatkichlar farqi» usullari yordamida aniqlash mumkin.

1. Yalpi foydaning o'zgarishiga sotilgan mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, shartli sof tushum bilan bazis yilidagi sof tushum orasidagi farqni bazis yilidagi ming so'mlik pul tushumi hisobiga olingan foyda summasiga ko'paytiriladi:

$$\sum q_1 p_0 - (\sum q_0 p_0) \cdot \left(\frac{\sum q_0 F_0}{\sum q_0 P_0} : 1000 \right) = \pm \Delta_q .$$

2. Sotilgan mahsulotlar strukturasi o'zgarishining yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun ming so'mlik shartli sof tushum hisobiga olingan shartli foyda bilan bazis yilidagi ming so'mlik sof tushum hisobiga olingan haqiqiy foyda orasidagi farqni shartli sof tushum summasiga ko'paytiriladi:

$$\left(\frac{\sum q_1 F_0}{\sum q_1 P_0} \cdot 1000 - \frac{\sum q_0 F_0}{\sum q_0 P_0} \cdot 1000 \right) \cdot \sum q_1 p_0 = \pm \Delta_s .$$

3. O'rtacha sotish bahosi o'zgarishining yalpi foydaning o'zgarishiga ta'siri hisobot yilidagi haqiqiy sof pul tushumidan shartli sof pul tushumi summasini ayirish orqali aniqlanadi:

$$\sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0 = \pm \Delta_p .$$

4. Mahsulot tannarxi o'zgarishining yalpi foyda hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxidan ularning shartli tannarxi summasini chegirib tashlash kerak:

$$\sum q_1 z_1 - \sum q_1 z_0 = \pm \Delta_z .$$

Bayon qilingan 4 ta omil ta'sirlarining yig'indisi (ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishidan qat'iy nazar) yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin omillarning har birining ta'siriga baho berilishi va imkoniyatlar ko'rsatilib, xulosalar chiqarilishi kerak. Ushbu omillar ta'sirlarining natijalari 35-jadvalda keltirildi.

35-jadval

Xo'jalik bo'yicha yalpi foydaning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi mahsulot miqdori hamda bazis yilidagi tannarxi va sotish bahosi bo'yicha	Hisobot yili	Hisobot yilining bazis yilidan farqi (+, –)
1. Sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	96686	109366	115231	+18545
2. Sof pul tushumi, ming so'm	110966	125380	135095	+24129
3. Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	14280	16014	19864	+5584
4. 1ming so'm sof tushum hisobiga olingan foyda, so'm	128,69	127,72	147,04	+18,35
5. Omillar hisobiga yalpi foydaning o'zgarishi:				
5.1. Sotilgan mahsulotlar miq-dorining o'zgarishi hisobiga	×	×	×	+1855
5.2. Sotilgan mahsulotlar struk-turasining o'zgarishi hisobiga	×	×	×	–121
5.3. Sotilgan mahsulotlar sotish bahosining o'zgarishi hisobiga	×	×	×	+9715
5.4. Sotilgan mahsulotlar tannarxining o'zgarishi hisobiga	×	×	×	–5865

35-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilidagi yalpi foyda hajmi bazis yiliga nisbatan 5584 ming so'mga yoki 39,1 foizga oshgan. Bu o'zgarish ikki omilning ijobiy va ikki omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, birinchi va uchinchi omillar ijobiy, ikkinchi va to'rtinchi omillar salbiy ta'sir qilgan.

Sotilgan mahsulotlarning fizik miqdori o'rta hisobda hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 13 foizga oshgan:

$$(\sum q_1 p_1 : \sum q_0 p_0 = 125380 : 110966 = 1{,}13 \text{ yoki } 113\% \ (113 - 100) = +13\%).$$

Natijada shu omil hisobiga yalpi foydaning hajmi bazis yiliga nisbatan 1855 ming so'mga ko'paygan:

$$\sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0 \cdot \frac{\sum q_0 f_0}{\sum q_0 p_0} = (125380 - 110966) \cdot \frac{14280}{110966} =$$

$$= +14414 \cdot 0{,}12869 = +1855 \text{ ming so'm.}$$

Sotilgan mahsulotlar strukturasining (tarkibiy tuzilishining) ozroq yomonlashishi natijasida yalpi foyda summasi 121 ming so'mga kamaygan:

$$\left(\frac{\sum q_1 f_0}{\sum q_1 p_0} - \frac{\sum q_0 f_0}{\sum q_0 p_0}\right) \cdot \sum q_1 p_0 = \left(\frac{16014}{125380} - \frac{14280}{110966}\right) \cdot 125380 =$$

$$= (0{,}12772 - 0{,}12869) \cdot 125380 = -121 \text{ ming so'm.}$$

O'rtacha sotish bahosi o'rta hisobda bazis yiliga nisbatan 7,7% ga oshgan:

$\sum q_1 p_1 / \sum q_1 p_0 = 135095 : 125380 = 1{,}077$ yoki 107,7%; 107,7 – 100 = +7,7%.

Natijada shu omil hisobiga yalpi foyda hajmi 9715 ming so'mga ko'paygan:

$$\sum q_1 p_1 / \sum q_1 p_0 = 135095 : 125380 = +9715 \text{ ming so'm.}$$

Sotilgan mahsulotlar tannarxi o'rta hisobda hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 18545 ming so'mga yoki 16,9% ga qimmatlashgan:

$$\sum q_1 z_1 - \sum q_1 z_0 = 115231 - 109366 = +18545 \text{ ming so'm.}$$

Natijada yalpi foyda summasi shu omil hisobiga 18545 ming so'mga kamaygan:

$$\sum q_1 z_0 - \sum q_1 z_1 = 109366 - 115231 = -18545 \text{ ming so'm.}$$

Mazkur hisob kitoblardan ko'rinib turibdiki, xo'jalik bo'yicha mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani ko'paytirish uchun tannarxni keskin kamaytirish, mahsulotlarning fizik miqdorini ko'paytirish va sotilgan mahsulotlar orasida yuqori daromadli mahsulotlar hissasini oshirish zarur.

7.2.5. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlili

Foyda xo'jalikning pirovard moliyaviy natijasini mutlaq ko'rsatkichda ifodalasa, rentabellik ushbu natijani nisbiy ko'rsatkichda ifodalaydi. Samaradorlikka baho berishdagi asosiy ko'rsatkich bo'lib, rentabellik hisoblanadi.

Rentabellik deganda nima tushuniladi? Rentabellik deganda foydalilik, daromadlilik darajasi tushuniladi. Resurslarga, kapitallarga, ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan olingan foyda hajmi tushuniladi. 1 so'mlik

asosiy fondlar hisobiga, yoki 1 so'mlik xususiy kapital hisobiga, yoki 1 so'mlik xarajat hisobiga olingan foyda hajmini ifodalovchi ko'rsatkich tushuniladi. Ushbu ko'rsatkich rentabellik koeffitsiyenti deb ham ataladi.

Biz bu bo'limda sotilgan mahsulotlarning rentabelligi darajasining tahlilini keltirdik.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligini aniqlash uchun olingan yalpi foyda summasini 100% ga ko'paytirib, mahsulot tannarxiga bo'lish kerak. Biz bu yerda mahsulot bir birligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar asosida rentabellikni hisobladik va uning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqladik. Ushbu holatda sotilgan mahsulotlar rentabelligini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$R = \frac{P - Z}{Z}.$$

bunda: P – 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi, so'm hisobida; Z–1 s mahsulotning o'rtacha tannarxi, so'm hisobida; $R - Z$ – 1 s mahsulotni sotishdan olingan foyda, so'm hisobida.

Mazkur formuladan ko'rinib turibdiki, sotilgan mahsulot rentabelligi darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1) o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi;

2) 1 s mahsulot tannarxining o'zgarishi.

Rentabellikning o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlash qulayroqdir. Tahlil taqqoslashdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yilidagi (yoki rejadagi) rentabellik darajasiga solishtirib, umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{P_1 - Z_1}{Z_1} - \frac{P_0 - Z_0}{Z_0} = \pm\Delta_{PZ}.$$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli rentabellik darajasi» aniqlanadi. Buni quyidagi formuladan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$P_{sh} = \frac{P_1 - Z_0}{Z_0}.$$

Shundan so'ng rentabellik darajasining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

«O'rtacha sotish bahosi o'zgarishi»ning rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun shartli rentabellik darajasidan bazis davridagi rentabellik darajasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{P_1 - Z_0}{Z_0} - \frac{P_0 - Z_0}{Z_0} = \pm\Delta_P.$$

«1 s mahsulot tannarxi o'zgarishi» ning rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi rentabellik darajasidan shartli rentabellik darajasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{P_1 - Z_1}{Z_1} - \frac{P_1 - Z_0}{Z_0} = \pm\Delta_Z.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi sotilgan mahsulotlar rentabelligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{PZ} = \Delta_P \pm \Delta_Z.$$

Endi, yuqorida keltirilgan tahlil usulidan foydalanib, sotilgan paxta bo'yicha uning rentabelligining omilli tahlilini ko'rib chiqamiz.

36-jadval

Paxta xomashyosini sotish bo'yicha rentabellikning omilli tahlili

Ko'rsatgichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi o'rtacha baho va bazis yilidagi o'rtacha tannarxi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu jumladan o'zgarishi	
					Baho hisobiga	Tannarx hisobiga
1 s paxtaning o'rtacha sotish bahosi, so'm	17890	19908	19908	+2018	^	×
1 s paxtaning o'rtacha tannarxi, so'm	15410	15410	16682	+1272	ˇ	×
1 s paxtani sotishdan olingan foyda, so'm	2480	4498	3226	+746	^	×
Rentabellik darajasi, %	16,1	29,2	19.3	+3,2	+13,1	–9,9

36-jadvaldagi ma'lumotlar asosida paxtachilik rentabelligi darajasining umumiy o'zgarishini aniqlaymiz:

$$\frac{P_1 - Z_1}{Z_1} - \frac{P_0 - Z_0}{Z_0} = \frac{19908 - 16682}{16682} - \frac{17890 - 15410}{15410} =$$

$$= \frac{3226}{16682} - \frac{2480}{15410} = 0{,}193 - 0{,}161 = 0{,}032 \text{ yoki } 3{,}2\%.$$

Demak, 1 so'mlik xarajat hisobiga bazis yilida 16,1 tiyinlik, hisobot yilida 19,3 tiyinlik foyda olingan, ya'ni 1 so'mlik sotilgan paxta xarajati hisobiga olingan foyda tahlil qilinayotgan davrda 3,2 tiyinga yoki 3,2% ga ko'paygan. Ammo shuni qayd qilish kerakki, bu nihoyatda past ko'rsatkichdir.

Ushbu o'zgarish bahoning ijobiy, tannarxning salbiy ta'siri ostida paydo bo'lgan. O'rtacha sotish bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2018 so'mga yoki 11,3% ga oshgan. Natijada shu omil hisobiga rentabellik darajasi 13,1% ga oshgan:

$$\frac{P_1 - Z_0}{Z_0} - \frac{P_0 - Z_0}{Z_0} = \frac{19908 - 15410}{15410} - \frac{17890 - 15410}{15410} =$$

$$= \frac{4498}{15410} - \frac{2480}{15410} = 0{,}292 - 0{,}161 = 0{,}131 \text{ yoki } 13{,}1\%.$$

1 s paxtaning o'rtacha tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1272 so'mga oshgan. Tannarxning oshishi foydaning kamayishiga, rentabellik darajasining pasayishiga olib keladi. Demak, tannarxning 1272 so'mga oshishi rentabellik darajasiga salbiy ta'sir qilib, uni 9,9% ga pasaytirgan:

$$\frac{P_1 - Z_1}{Z_1} - \frac{P_1 - Z_0}{Z_0} = \frac{19908 - 16682}{16682} - \frac{19908 - 15410}{15410} =$$

$$= \frac{3226}{16682} - \frac{4498}{15410} = 0{,}193 - 0{,}292 = 0{,}099 \text{ yoki } -9{,}9\%.$$

Demak, rentabellikni oshirishning asosiy rezervi bo'lib, bahoni yanada mahsulot sifatini oshirish hisobiga ko'tarish va tannarxni nisbatan pasaytirish hisoblanadi. Agar tannarx hisobot yilida nisbatan pasayganda rentabellik pasayish o'rniga oshgan bo'lar edi, oqibatda foydalilik yuqori darajada oshgan bo'lar edi.

Sotilgan mahsulotlarning barcha turlari bo'yicha rentabellik darajasining o'zgarishini (masalan, g'allachilik, sabzavotchilik va boshqalari bo'yicha) tahlil qilish tartibi sotilgan paxta rentabelligining tahlilidan farq qilmaydi, shuning uchun ham ular bo'yicha rentabellikning tahlilini

sotilgan paxta rentabelligi tahlilida bayon qilingan qoida va usullardan foydalanib amalga oshirish kerak. Shuning uchun bu yerda ularning tahlili yoritilmadi.

7.2.6. Xo'jalik bo'yicha mahsulotlarni sotish rentabelligining tahlili

Xo'jalik bo'yicha (yoki tarmoq bo'yicha) rentabellik darajasini tahlil etish ham katta ahamiyatga egadir.

Xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulotlar rentabelligini aniqlash tartibi sotilgan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha rentabelligini aniqlash tartibidan farq qilmaydi, ya'ni mahsulotlarni sotishdan olingan jami foydani shu mahsulotlarning jami tannarxiga bo'lish orqali xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulotlarning rentabelligi darajasi aniqlanadi:

$$\overline{R} = \frac{\Sigma qf}{\Sigma qz} \cdot 100.$$

Ammo omilli tahlil nuqtayi nazaridan uni aniqlash va tahlil qilish uchun rentabellikka ta'sir qiluvchi omillar ko'rinib turadigan quyidagi formuladan foydalanish, maqsadga muvofiq bo'ladi:

$$\overline{R} = \frac{\Sigma q_i (P_i - Z_i)}{\Sigma q_i Z_i} \cdot 100 = \Sigma R_i C_i,$$

bunda: q_i – i turdagi sotilgan mahsulotlar miqdori; Z_i – i turdagi 1 s mahsulotning tannarxi; P_i – i turdagi 1 s mahsulotning bahosi; C_i – jami mahsulotlarning xarajatiga nisbatan i turdagi sotilgan mahsulot xarajatining salmog'i; R_i – i turdagi sotilgan mahsulotning rentabelligi darajasi.

Xo'jalik bo'yicha o'rtacha rentabellik darajasining o'zgarishiga bevosita uch omil ta'sir qilgan:

1) sotilgan mahsulotlar strukturasining o'zgarishi;

2) o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi;

3) mahsulot birligi tannarxining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlash mumkin. Xo'jalik (yoki tarmoq) bo'yicha o'rtacha rentabellik darajasining tahlilini 37- jadvaldagi ma'lumotlar asosida aniqlaymiz.

37- jadval

Sotilgan mahsulotlar bo'yicha o'rtacha rentabellikni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.		Paxta		Bug'doy		Jami	
		Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot Yili
1	Mahsulot miqdori, s	3600	3783	10433	12929	×	×
2	1 s mahsulot bahosi, so'm	17890	19908	4463	4624	×	×
3	1 s tannarxi, so'm	15410	16682	3950	4030	×	×
4	1 s foydasi, so'm	2480	3226	513	594	×	×
5	1 s bo'yicha shartli foyda ($P_1 - Z_0$)	×	4498	x	674	×	×
6	Pul tushumi, ming so'm	64404	75311	46562	59784	110966	135095
7	Shartli pul tushumi, ming so'm	×	67678	×	57702	×	125380
8	Tannarx, ming so'm	55476	63127	41210	52104	96686	115231
9	Shartli tannarx, ming so'm	×	58296	×	51070	×	109366
10	Yalpi foyda, ming so'm	8928	12184	5352	7680	14280	19864
11	Shartli yalpi foyda, ming so'm	×	17016	×	8714	×	25730
12	Sotilgan mahsulot tannarxi bo'yicha strukturasi, %	57,4	54,8	42,6	45,2	100	100
13	Rentabellik darajasi, %	16,1	19,3	13,0	14,7	14,8	17,2

37- jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'simlikchilik sohasi bo'yicha rentabellik darajasi bazis yilida 14,8% ni, hisobot yilida 17,2% ni tashkil qilgan bo'lib, uning darajasi 2,4% ga oshgan. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik qilingan xarajatga olingan yalpi foyda summasi 14,8 tiyindan 17,2 tiyingacha oshgan, ya'ni 2,4 tiyinga foyda ko'paygan.

O'rtacha rentabellik darajasining o'zgarishiga uchta omil ta'sir qilgan, shundan bittasi – o'rtacha sotish bahosining oshishi ijobiy, sotilgan mahsulot strukturasining yomonlashishi bilan tannarxning qimmatlashishi salbiy ta'sir qilgan.

Sotilgan o'simlikchilik mahsulotlari tarkibidagi yuqori daromadli paxta salmog'i 57,4% dan 54,8% ga pasaygan, paxtaga nisbatan kam daromadli bo'lgan bug'doy salmog'i 42,6% dan 45,2% ga oshgan.

Ushbu ko'rsatkichlar tarmoqda sotilgan mahsulotlar strukturasining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan yomonlashganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham shu omil hisobiga rentabellik darajasi 0,2% ga pasaygan:

$$\frac{\sum q_1(P_0-Z_0)}{\sum q_1 Z_0}-\frac{\sum q_0(P_0-Z_0)}{\sum q_0 Z_0}=\frac{3783(17890-15410)+12929(4463-3950)}{3783\cdot 15410+12926\cdot 3950}-$$

$$-\frac{3600(17890-15410)+10433(4463-3950)}{3600\cdot 15410+10433\cdot 3950}=\frac{3783\cdot 2480+12929\cdot 513}{58296+51070}-$$

$$-\frac{3600\cdot 2480+10433\cdot 513}{55476+41210}=\frac{9382+6633}{109366}-\frac{8928+5352}{96686}=\frac{16015}{109366}-\frac{14280}{96686}=$$

$$=0{,}146-0{,}148=14{,}6-14{,}8=-0{,}2\%.$$

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil bo'lib, o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi hisoblanadi. O'rtacha sotish bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 7,7% ga oshgan:

$$\sum q_1 p_1/\sum q_1 p_0 = 135045/125380 = 1{,}077 \text{ yoki } 107{,}7\%,\ 107{,}7-100 = +7{,}7\%.$$

Natijada shu omil hisobiga o'rtacha rentabellik darajasi 8,9% ga oshgan:

$$\frac{\sum q_1(P_0-Z_0)}{\sum q_1 Z_0}-\frac{\sum q_1(P_0-Z_0)}{\sum q_1 Z_0}=\frac{3783(17890-15410)+12929(4463-3950)}{3783\cdot 15410+12926\cdot 3950}-$$

$$-\frac{3783(17890-15410)+12929(4463-3950)}{3783\cdot 15410+12929\cdot 3950}=\frac{3783\cdot 4498+12929\cdot 674}{58296+51070}-$$

$$-\frac{3783\cdot 2480+12929\cdot 513}{58296+51070}=\frac{17016+8714}{109366}-\frac{9382+6633}{109366}=\frac{25730}{109366}-\frac{16015}{109366}=$$

$$=0{,}235-0{,}146=0{,}089 \text{ yoki } 8{,}9\%.$$

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi uchinchi omil bo'lib, mahsulot birligi tannarxining o'zgarishi hisoblanadi. O'rtacha tannarx hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 5,4% ga qimmatlashgan:

$$\sum q_1 Z_1/\sum q_1 Z_0 = 115231/109366 = 1{,}054 \text{ yoki } 105{,}4\%;\ 105{,}4-100 = +5{,}4\%.$$

Natijada shu omil hisobiga o'rtacha rentabellik darajasi 6,3% ga pasaygan:

$$\frac{\sum q_1(P_1-Z_1)}{\sum q_1 Z_1}-\frac{\sum q_1(P_1-Z_0)}{\sum q_1 Z_0}=\frac{3783(19908-16682)+12929(4624-4030)}{3783\cdot 16682+12929\cdot 4030}-\frac{25730}{109366}=$$

$$=\frac{3783\cdot 3226+12929\cdot 594}{63127+52104}-\frac{25730}{109366}=\frac{12204+7680}{115231}-\frac{25730}{109366}=\frac{19884}{115231}-\frac{25730}{109366}=$$

$$=0{,}172-0{,}235=-0{,}063 \text{ yoki } -6{,}3\%.$$

Mazkur tahliliy hisob-kitoblardan ma'lum bo'ladiki, xo'jalikda mahsulotlarni sotish rentabelligini oshirish imkoniyatlari bo'lib, sotilgan mahsulotlar tarkibida yuqori daromadli mahsulotlar salmog'ini oshirish va sotilgan mahsulotlar bo'yicha xarajatlar darajasini kamaytirish hamda mahsulotlar sifatini yaxshilash hisobiga o'rtacha sotish bahosi darajasini keskin ko'tarish hisoblanadi.

7.2.7. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Moliyaviy natijalar. Foyda. Zarar. Yalpi foyda. Asosiy faoliyat foydasi. Umumxo'jalik faoliyati foydasi. Sof foyda. Rentabellik. Mahsulotlarni sotish rentabelligi. Asosiy vositalar rentabelligi. Aktivlar rentabelligi. Permanent kapital rentabelligi. Yalpi foydaga ta'sir qiluvchi omillar. Rentabelikka ta'sir qiluvchi omillar.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy natijalar deganda qanday ko'rsatkichlar tushuniladi?
2. Rentabellik deganda nima tushuniladi?
3. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda qanday aniqlanadi?
5. Yalpi foydaning o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi? Ularning ta'sirini qaysi usullardan foydalanib aniqlash mumkin?
6. Yalpi foydaning o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi bo'yicha o'zgarishining ta'sirini ko'rsatkichlar farqi usuli orqali aniqlang.
7. Yalpi foydaga ta'sir qiluvchi miqdor va sifat omillarini (bir-biridan farqlab) tushuntiring.
8. Xo'jalik bo'yicha yalpi foydaning o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi? Ular qaysilar?
9. Paxtani sotish rentabelligining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi? Ular qaysilar?
10. Paxtachilik rentabelligi darajasining o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi bilan tannarx o'zgarishining ta'siri qanday aniqlanadi?
11. Xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulotlar rentabelligining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi? Ular qaysilar?
12. Xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulotlar rentabelligining o'zgarishiga sotilgan mahsulot strukturasi bo'yicha o'zgarishining ta'sirini qanday aniqlash mumkin?
13. Xo'jalik bo'yicha sotilgan mahsulot rentabelligining o'zgarishiga baho bilan tannarx o'zgarishining ta'sirini aniqlang va mazmunini tushuntiring.
14. Rentabellikni oshirish imkoniyatlarini bayon qiling.

MASHQ

Paxtani sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasining o'zgarishini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, tahlil qiling. Buning uchun asosiy matn tarkibida (34-jadvalda) keltirilgan ma'lumotlardan foydalaning.

Yalpi foydaning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlab, uning har biriga (ijobiy bo'lsa ham, salbiy bo'lsa ham) baho bering va yalpi foydani yanada ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsating.

Izoh: Tahlil qilish natijasida siz tomoningizdan aniqlangan har bir omil ta'sirining hajmi «Ko'rsatkichlar farqi» usulini qo'llash orqali aniqlangan 157–159-betlardagi ko'rsatkichlardan farq qilmasligi kerak, ular o'zaro mos kelishi shart. Shu qoidani esda saqlab, tahlilni bajaring.

XULOSALAR

Mazkur bobda ko'zda tutilgan savollar: tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari, moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari, sotishdan olingan yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi va boshqa turlarining tahlili, rentabellikning mahsulot turlari va xo'jalik bo'yicha tahlili kabi masalalar talab darajasida yoritilgan. Ushbu masalalarning mazmun-mohiyatini va tahlil etish usullarini qo'llash xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirib olish bo'lajak muxassis-iqtisodchi bakalavrning kasbiy faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularni yaxshi o'zlashtirib olish uchun, talabaga, darslikdagi ushbu bobni yaxshi o'qib, o'zlashtirishini hamda unda keltirilgan nazariy savollarga javob tayyorlashni va berilgan mashqlarni mustaqil bajarib, mazmunini o'zlashtirib olishni tavsiya qilamiz.

O'QUV MAQSADI

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili mavzusi bo'yicha rejalashtirilgan savollarga berilgan javoblarning mazmun-mohiyati ushbu bobda ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yetarli darajada yoritilgan. Bular mavzuni talabalarning o'zlashtirib olishi uchun yetarli darajada ta'limiy asos bo'ladi. Bular esa *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadiga* erishilganligidan dalolat beradi. Tahlil etiladigan masalalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bo'ladigan hisoblashuvlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va moliyaviy intizomni mustahkamlash, oqibatda moliyaviy holatni yaxshilash mumkin ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni talabalar ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlilini amalga oshirishda xorijiy mamlakatlar rezidentlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ahvolini maxsus o'rganish zarur. Bunday yondashish moliyaviy ahvolni yanada yaxshilash bo'yicha fikrlar berishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* tashkil etadi.

8.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy ahvolini mustahkamlashning shart-sharoitlaridan biri bo'lib, hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilish hisoblanadi.

Moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan barcha hisoblashuvlar, umuman olganda, «Debitorlar va kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar» tariqasida yuzaga keladi.

Ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvolning yomonlashuvi ko'p jihatdan katta hajmdagi debitorlik va kreditorlik qarzlarining to'planib qolishiga bog'liq bo'ladi. Debitorlik qarzlarining katta hajmda paydo bo'lishi korxona mablag'larini muomaladan chiqaradi, o'z aylanma mablag'larining yetishmovchiligiga sababchi bo'ladi, natijada kreditorlik qarzining oshishiga olib keladi, bularning hammasi moliyaviy holatga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ushbu qarzlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonni uzluksiz ravishda o'rganish va tahlil etib turish katta ahamiyatga egadir.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari deb qanday qarzlar tushuniladi? Korxona tomonidan boshqa korxona va tashkilotlarga to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlar kreditorlik qarzlari deb, korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik qarzlari deb tushuniladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. To'lov muddatining cho'zilib ketishi korxonalarning moliyaviy ahvoliga katta salbiy ta'sir qiladi.

Tahlilning asosiy maqsadi nimadan iborat? Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarning mavjud holatini o'rganish asosida ular bo'yicha aylanish davrini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash negizida moliyaviy holatni yaxshilash tahlilning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Tahlil o'z maqsadiga quyidagi vazifalarni hal qilish orqali erishadi:

- debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy holatiga hamda ular orasidagi o'zaro tenglik nisbatiga baho berish;
- debitorlik qarzlarning tarkibi va tarkibiy tuzilishining o'zgarishlariga baho berish;
- kreditorlik qarzlarining tarkibi va tarkibiy tuzilishining o'zgarishlariga baho berish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti va uning o'zgarishiga baho berish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini maxsus o'rganish asosida ularning holatiga, dinamikasiga baho berish;
- qarzlarni tugatish va kamaytirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni ko'rsatish.

Mazkur vazifalarni hal qilish orqali tahlil o'z maqsadiga erishadi. Tahlil axborot ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Axborot manbalari bo'lib asosan quyidagi ma'lumotlar hisoblanadi:

1) buxgalteriya balansi (1-shakl) ma'lumotlari;

2) debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakli) ko'rsatkichlari;

3) debitorlik va kreditorlik qarzlarini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi schotlarining ma'lumotlari.

8.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlili

Tahlil etishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tarkibiy tuzilishiga, tashkil topish muddatlariga, dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili taqqoslash usuli yordamida quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, debitorlik va kre-

ditorlik qarzlarining tarkibi va tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir qarz turi hajmi va uning hissasi aniqlanadi.

Buxgalteriya balansida ko'rsatilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining jamiga nisbatan har bir qarz turining hissasi, shu qarz summasini 100 ga ko'paytirib, jamiga bo'lish orqali aniqlanadi. Shundan keyin tahlil amalga oshiriladi. Hisobot davrining oxiridagi qarzlarning hajmini davr boshidagi qarzlarning hajmiga, davr oxiridagi hissasini davr boshidagi hissasiga solishtirib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi. Ushbu o'zgarish mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Qarzlar bo'yicha mutlaq o'zgarishini aniqlash uchun davr oxiridagi summasidan davr boshidagi summasi chegirib tashlanadi, nisbiy o'zgarishini aniqlash uchun mutlaq o'zgarish summasini 100% ga ko'paytirib, natijasini davr boshidagi summasiga bo'lish kerak. Shundan keyin debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy holatiga baho beriladi.

Korxona bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlilini quyidagi jadvaldan foydalanib, amalga oshirish mumkin.

38- jadval

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarni tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O'zgarishi (+, –)	
	Summasi, ming so'm	Salmog'i, %	Summasi, ming so'm	Salmog'i, %	Summasi. ming so'm	Salmog'i. %
I Debitorlik qarzlari: 1. Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi.	32542	79,4	28989	90,6	-3553	+11,2
2. Budjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar	5890	14.4	632	2	–5258	–12,4
3. Xodimlarga berilgan bo'naklar	–	–	280	0,8	+280	+0,8
4. Boshqa debitorlar qarzi	2568	6,2	2099	6,6	-469	+0,4
Jami:	41000	100	32000	100	–9000	–
II Kreditorlik qarzlari: 1.Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar	15491	26,5	28826	59,4	+13335	+32,9
2.Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar	22428	38,4	8518	17,6	–13910	–20,8
3. Mehnat haqi bo'yicha qarzlar	6762	11,6	3490	7,2	-3272	-4,4
4. Sug'urtalar bo'yicha qarzlar	–	–	7052	14.5	+7052	+14.5
5. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar	11916	20,4	–	–	–11916	–20.4
6. Sho'ba korxonalariga qarzlar	1824	3	578	1,2	–1246	–1,8
7. Boshqa kreditorlar	43	0,1	43	0,1	–	–
Jami:	58464	100	48507	100	–9957	–

38-jadvaldan ma'lumki, debitorlik qarzlari yil oxirida 32000 ming so'mni tashkil qilib, u yil boshiga nisbatan 9000 ming so'mga yoki 20 foizga kamaygan. Shu jumladan, budjet tashkilotlarining qarzi 5258 ming so'mga, xaridorlarining qarzlari 3553 ming so'mga, boshqa debitorlik qarzlari 469 ming so'mga kamaygan, faqat xodimlarga berilgan bo'naklar 280 ming so'mga oshgan.

Fermer xo'jaligining boshqa korxona va tashkilotlarga bo'lgan kreditorlik qarzlari 9957 ming so'mga yoki 17 foizga kamaygan. Shu jumladan budjetga bo'lgan qarzi 13910 ming so'mga, shu'ba korxonalariga bo'lgan qarzi 1246 ming so'mga, mehnat haqi bo'yicha qarzi 3272 ming so'mga, maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzi 11916 ming so'mga kamaygan. Faqat ikki tur kreditorlik majburiyati bo'yicha qarzi oshgan. Mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzi 13335 ming so'mga, sug'urtalar bo'yicha qarzi 7052 ming so'mga oshgan. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy tahlilidan keyin to'lov muddati o'tib ketgan qarzlarni maxsus tahlil etib, sabablarini aniqlash zarur. Bu tahlilni amalga oshirish uchun moliyaviy hisobot tarkibidagi 2a-shaklidagi «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma» ko'rsatkichlaridan foydalanish kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini undirish muddati 90 kun qilib belgilangan. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari davlat tomonidan nazoratga olinadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarish muddati qonun bilan 3 yil qilib belgilangan. Shu muddatda to'lanmagan kreditorlik qarzlari yoki undirib olinmagan debitorlik qarzlari korxonaning foyda va zararlar schotiga olib boriladi.

8.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanuvchanligining tahlili

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili paytida aylanuvchanligiga ham alohida e'tibor berish zarur, chunki majburiyatlarning aylanuvchanlik darajasi korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berishda ishlatiladigan muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanligi deganda nima tushuniladi? Debitorlik qarzlarini undirib olish muddati va ularning aylanish ko'rsatkichi tushuniladi. Bu ko'rsatkich esa majburiyatlarning necha kundan keyin naqd pulga, likvid mablag'ga aylanishini xarakterlaydi.

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi? Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumni (*ST*) debitorlik qarzlarning o'rtacha hajmiga (*DQ*) bo'lish kerak:

$$K_D = \frac{CT}{DQ}.$$

Debitorlik qarzlarining aylanish davri kun hisobida qanday aniqlanadi? Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun debitorlik qarzlarining jamini davrning kalendar kunlari soniga ko'paytirib, natijasini sotishdan olingan sof tushumga bo'lish kerak:

$$A_{DQ} = \frac{DQ \cdot 360}{ST}.$$

Shundan keyin debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentining o'zgarishi, majburiyatlarini aylanish davrining o'zgarishi hamda ularning o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1) sof tushum hajmining o'zgarishi;

2) debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi 3 ta bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinadi:

I – bazis yilidagi debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti: $\frac{ST_0}{DQ_0}$.

II – debitorlik qarzlarining shartli aylanish koeffitsiyenti: $\frac{ST_1}{DQ_0}$.

III – hisobot yilidagi debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti: $\frac{ST_1}{DQ_1}$.

Ushbu bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlangandan keyin qarzlarning aylanish koeffitsiyentining o'zgarishi va unga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentining umumiy o'zgarishi:

III–I. $\frac{ST_1}{DQ_1} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm\Delta_{ST;DQ}$.

Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga sof tushum hajmi o'zgarishining ta'siri:

II–I. $\frac{ST_1}{DQ_0} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm\Delta_{ST}$.

Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga debitorlik qarzlari summasi o'zgarishining ta'siri:

III–II. $\frac{ST_1}{DQ_1} - \frac{ST_1}{DQ_0} = \pm\Delta_{DQ}$.

Mazkur omillar ta'sirlarining yig'indisi debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{ST} \pm \Delta_{DQ} = \Delta_{ST,DQ}.$$

Shundan so'ng kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlil qilish tartibi debitorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyentining tahliliga o'xshaydi. Bu yerda ham solishtirish va zanjirli bog'lanish usullari yordamida tahlilni amalga oshirish zarur.

Kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi? Bu – sotilgan mahsulotlar tannarxini kreditorlik qarzlari summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$KQ = \frac{IT}{KQ}.$$

Kreditorlik qarziarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining tahlilini quyidagicha amalga oshirish mumkin.

Aylanuvchanlik koeffitsiyentining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{IT_1}{KQ_1} - \frac{IT_0}{KQ_0} = \pm\Delta_{IT,KQ}.$$

Kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{IT_1}{KQ_0} - \frac{IT_0}{KQ_0} = \pm\Delta_{IT}.$$

Kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga kreditorlik qarzlari o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{IT_1}{KQ_1} - \frac{IT_1}{KQ_0} = \pm\Delta_{KQ}.$$

bunda: IT_1, IT_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi; KQ_1, KQ_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi kreditorlik qarzlarining o'rta hajmi (summasi).

Omillar ta'sirlarining yig'indisi aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga teng kelishi kerak.

8.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Debitorlar. Kreditorlar. Debitorlik qarzlari. Kreditorlik qarzlari. Muddati o'tgan debitorlik qarzlari. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlari. To'lash muddati kelgan majburiyatlar. To'lash muddati o'tgan majburiyatlar. Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti. Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti.

Takrorlash uchun savollar

1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida tushuncha.
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishning ahamiyati va maqsadi.
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining asosiy vazifalari.
4. Debitorlik qarzlarining tarkibi va tarkibiy tuzilishi qanday tahlil qilinadi?
5. Kreditorlik qarzlarining tarkibi va tarkibiy tuzilishini tahlil etish tartibi.
6. Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti qanday hisoblanadi va tahlil etiladi?
7. Kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsiyentning mazmunini tushuntiring.
8. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish yo'llarini tushuntiring.

MASHQ

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentini quyidagi ma'lumotlardan foydalanib tahlil qiling

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1. Debitorlik qarzlar, ming so'm	38300	36500	–1800
2. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	160860	164250	+3390
3. Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	4,2	4,5	+0,3

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlang va har bir omil ta'siriga baho berib, xulosa qiling.

Izoh: Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining omilli tahlilini amalga oshirish tartibi darslikning 176–178-betlarida «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali yoritilgan. O'sha usuldan foydalanib, aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishini tahlil qiling va baho bering.

XULOSALAR

Mavzu bo'yicha rejalashtirilgan savollar: debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining ahamiyati, maqsadi va vazifalari, debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi va tarkibiy tuzilishi dinamikasining tahlili, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili, ularning aylanuvchanlik koeffitsiyentining tahlili, qarzlarni kamaytirish yo'llari kabi masalalar yetarli darajada ushbu bobda yoritilgan.

Ushbu mavzuni yaxshi o'zlashtirib olish korxona va tashkilotlar bilan bo'ladigan barcha hisoblashuvlarni samarali tashkil qilishda, moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu mavzuni darslik bo'yicha diqqat bilan o'qib, o'zlashtirishni hamda unda keltirilgan nazariy savollarga javob tayyorlashni va berilgan mashqni mustaqil bajarib, uni o'zlashtirib olishni tavsiya qilamiz.

9-bob. ASOSIY VOSITALARNING HOLATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI

O'QUV MAQSADI

Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili mavzusi bo'yicha rejalashtirilgan barcha savollarga berilgan javoblarning mazmun-mohiyati ushbu bobda yetarli darajada yoritilgan. Bularning mazmuni va tahlil etish usullarini talabalarga o'rgatish *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasining yaxshilanganligi va ulardan foydalanish darajasining oshganligi albatta ishlab chiqarishning o'sishiga va iqtisodiyotning mustahkamlanishiga olib kelishligi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni talaba ongiga yetkazish va singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Asosiy fondlar samaradorligining omilli tahlilida, hozirgi davrga qadar, asosiy fondlarning o'rtacha qiymati bilan yalpi mahsulot hajmi o'zgarishlarining ta'sirlarini hisoblash bilan chegaralanib qolinmoqda. Samaradorlikning haqiqiy imkoniyatlarini aniqlash uchun, uning tahlilini yuqoridagi omillarning ta'sirlarini hisobga olish bilan bir qatorda, asosiy fondlarning aktiv qismi salmog'i va aktiv qismi qaytimi omillaridan ham foydalanib, amalga oshirish zarur. Shunday yondashuv *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* ifodalaydi.

9.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va manbalari

Barcha sohalarda va, shu jumladan, qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarishni asosiy ishlab chiqarish fondlarining ishtirokisiz tashkil qilib bo'lmaydi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ko'p yillar davrida xizmat qiluvchi, o'zlarining eskirgan qismini yaratilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat qiymatiga o'tkazib boruvchi, o'z natura shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalari asosiy vositalar deb ataladi. Bularga traktor, kombayn, transport vositalari, imoratlar, inshootlar, mahsuldor va ishchi hayvonlar va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalari (shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi va boshqalar)da ishlab chiqarishni zamon talabiga mos holda rivojlantirish ko'p

jihatdan asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish holatiga va ayniqsa, ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham xo'jalikning asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasini hamda ulardan foydalanish ahvolini o'rganish va iqtisodiy tahlil qilish katta ahamiyatga egadir, chunki tahlil tufayli asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish darajasini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi. Shuning uchun ushbu jarayonda ham tahlilni uzluksiz ravishda tashkil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Tahlilning maqsadi bo'lib nima hisoblanadi? Tahlilning maqsadi bo'lib, asosiy ishlab chiqarish fondlarining holatini o'rganish asosida ular bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash va foydalanish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan xo'jalikning ta'minlanish darajasini o'rganish va baho berish;

2) asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish smaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganish va baho berish;

3) asosiy fondlardan foydalanish smaradorligi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash va baho berish;

4) asosiy fondlar va ulardan foydalanish darajasi o'zgarishining ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini o'rganish;

5) asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va jalb qilish bo'yincha takliflar berish.

Asosiy fondlar bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish ahvolini tahlil qilish uchun quyidagi manbalardan foydalanish mumkin:

1) buxgalteriya balansi (1-shakl);

2) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari (2-shakl);

3) asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl);

4) tashkilot, korxonalarning asosiy faoliyati ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisobot (6-shakl);

5) 11-shaklda tuzilgan davlat statistika hisoboti tarkibidagi «Asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va tarkibi» to'g'risidagi 1-bo'lim ma'lumotlari.

9.2. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasining tahlili

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish ko'lamining o'sishi ko'p jihatdan asosiy ishlab chiqarish vositalari (fondlari) bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ushbu bo'limda xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish tartibi bayon qilinadi.

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (*KFT*) – bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini (*AIF*) qishloq xo'jalik yerlari maydoni (*M*) hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$KFT = \frac{AIF}{M}.$$

Bu ko'rsatkich 1 yoki 100 gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmini ifodalaydi

2. Energetik resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (*ET*) – xo'jalikdagi mavjud energetik resurslar quvvatlarining (ot kuchi hisobidagi) (*EQ*) jamini qishloq xo'jalik yerlari maydoniga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkich. Ushbu ko'rsatkich 1 gektar hisobiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvatini ifodalaydi:

$$ET = \frac{EQ}{M}.$$

3. Mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsiyenti (*MFQ*) – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soniga (*T*) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich 1 xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmini ifodalaydi:

$$MFQ = \frac{AIF}{T}.$$

4. Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanish koeffitsiyenti (*MEQ*) – energetik resurslar quvvatlarining jamini (ot kuchi hisobida) ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lib, aniqlanadigan ko'rsatkich:

$$MEQ = \frac{EQ}{T}.$$

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari va energetik resurslar bilan ta'minlanish hamda mehnatning asosiy ishlab chiqarish fondlari va energetik resurslari bilan qurollanish ko'rsatkichlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalikning asosiy fondlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarining o'zgarishini tahlil qilish uchun hisobot yilidagi barcha ko'rsatkichlarining har birini bazis yilidagi ularning ko'rsatkichlari bilan solishtirilib, o'zgarishi

(oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi va uning sabablari topiladi. Ularning tahlilini bir ko'rsatkich misolida, ya'ni xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish koeffitsiyentining tahlili misolida ko'rib chiqamiz:

$$KFT = \frac{AIF}{M}.$$

bunda: KFT – xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasi (koeffitsiyenti); AIF – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmi (qiymati); M – qishloq xo'jalik yerlari maydoni (ko'pincha taqqoslama kadastr maydon olinadi).

Bu formuladan ko'rinib turibdiki, xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanish darajasining o'zgarishi quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) qishloq xo'jalik yerlari maydoni hajmining o'zgarishi;

2) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmining o'zgarishi.

Mazkur omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun, avvalo, quyidagi 3 ta zanjirli bog'lanish ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur:

1) bazis yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti:

$$KFT_0 = \frac{AIF_0}{M_0}.$$

2) shartli fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti:

$$KFT_{sh} = \frac{AIF_0}{M_1};$$

3) hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti:

$$KFT_1 = \frac{AIF_1}{M_1}.$$

Shundan so'ng, xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanish darajasining tahlilini amalga oshirish mumkin.

Hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentidan bazis yilidagi ta'minlanish koeffitsiyentini chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{AIF_1}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \pm\Delta_{M,AIF}.$$

Ushbu o'zgarishga birinchi omilning, ya'ni qishloq xo'jalik yerlari maydoni hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentidan bazis yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_0}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \pm\Delta_M.$$

Fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentidan shartli fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_1}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \pm\Delta_{M\,AIF}.$$

Bu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyentining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin omillarning ijobiy va salbiy ta'sirlari ta'riflanib, xulosa chiqariladi.

Endi, xo'jalikning hisobot ma'lumotlari asosida asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasi dinamikasining tahlilini ko'rib chiqamiz (39-jadval).

39-jadval

Asosiy fondlar bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish darajasining tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)
1	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	138444	142000	+3556
2	Asosiy fondlar aktiv qismining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	83066	88040	+4974
3	Asosiy fondlar aktiv qismining salmog'i, %	60	62	+2
4	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, ga	3291	3200	–91
5	Qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti (taqqoslama bahoda), ming so'm	56409	60731	+4222

Asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasining omilli tahliliga o'tishdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlarini hisoblab olish kerak:

I. $KFT_0 = \frac{AIF_0}{M_0} = \frac{138444}{3291} = 42{,}1$ ming so'm.

II. $KFT_{sh} = \frac{AIF_0}{M_1} = \frac{138444}{3200} = 43{,}3$ ming so'm.

III. $KFT_1 = \frac{AIF_1}{M_1} = \frac{142000}{3200} = 44{,}4$ ming so'm.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida, birinchi navbatda, xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasining umumiy o'zgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish darajasidan (III-bog'lanish ko'rsatkichidan) bazis yilidagi fondlar bilan ta'minlanish darajasi (I-bog'lanish ko'rsatkichi) ni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_1}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \frac{142000}{3200} - \frac{138444}{3291} = 44{,}4 - 42{,}1 = +2{,}3 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilida asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasi bazis yiliga nisbatan 2,3 ming so'mga yoki 5,5 foizga oshgan.

Shundan keyin ushbu o'zgarishga omillar ta'siri aniqlanadi.

1-omilning, ya'ni yer maydoni hajmi o'zgarishining xo'jalikning asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Shartli asosiy fondlar bilan ta'minlanish (II-bog'lanish) ko'rsatkichidan bazis davridagi ta'minlanish (I-bog'lanish) ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_0}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \frac{138444}{3200} - \frac{138444}{3291} = 43{,}3 - 42{,}1 = +1{,}2 \text{ ming so'm.}$$

Demak, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonining 91 gektarga kamayishi natijasida 1 gektar hisobiga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning qiymati 1200 so'mga oshgan, ya'ni fondlar bilan ta'minlanish darajasi shu omil hisobiga 2,9% ga oshgan.

2-omilning, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi o'zgarishining fondlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fondlar bilan ta'minlanish (III-bog'lanish) ko'rsatkichidan «shartli» fondlar bilan ta'minlanish (II-bog'lanish) ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{AIF_0}{M_1} - \frac{AIF_0}{M_0} = \frac{142000}{3200} - \frac{138444}{3291} = 44{,}4 - 43{,}3 = +1{,}1 \text{ ming so'm.}$$

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmining 3556 ming so'mga (142000–138444) oshishi natijasida 1 gektar hisobiga to'g'ri keladigan fondlar hajmi 1100 so'mga ko'paygan, ya'ni fondlar bilan ta'minlanish darajasi 2,5 foizga oshgan.

Tahlil natijalari 40-jadvalda aks ettirildi.

40-jadval

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi yer maydoni va bazis yilidagi asosiy fondlar hajmi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Shu j. omillar ta'siri	
						Yer maydoni hisobiga	Asosiy fond hajmi hisobiga
1	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	138444	138444	142000	+3556	×	×
2	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, ga	3291	3200	3200	–91	×	×
3	Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish, ming so'm	42,1	43,3	44,4	+2,3	+1,2	+1,1

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasining oshishiga ikki omil ham ijobiy ta'sir qilgan, natijada ta'minlanish darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 5,5 foizga oshgan. Tahlil natijalarini 40-jadvaldan ko'rish mumkin.

Xo'jalikning energetik resurslar bilan ta'minlanishi, mehnatning energetik resurslar bilan qurollanishi, mehnatning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan qurollanish ko'rsatkichlarining tahlili «xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasi»ning tahliliga o'xshaydi. Shuning uchun quyidagi formulalardan foydalanib, ularni tahlilini amalga oshirish mumkin:

Xo'jalikning energetik resurslar bilan ta'minlanish darajasi (ko'rsatkichi (*XET*):

$$XET = \frac{EQ}{M},$$

bunda: EQ – energetik resurslar quvvati (ot kuchi hisobida).

Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanish darajasi (ko'rsatkichi) (*MEQ*):

$$MEQ = \frac{EQ}{T},$$

bunda: T – ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soni.

Mehnatning asosiy ishlab chiqarish vositalari (fondlari) bilan qurollanish darajasi (*MFQ*):

$$MFQ = \frac{AIF}{T}.$$

Ushbu ko'rsatkichlarning tahlilini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, amalga oshirish mumkin. Bularning tahlili «Xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanish» darajasining tahlili kabi amalga oshiriladi, shuning uchun ularga bu yerda to'xtalmadik.

Hurmatli talaba! o'zingiz mustaqil ravishda ushbu ko'rsatkichlarning tahlilini yuqorida bayon qilingan usul qoidalariga amal qilib bajaring.

9.3. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligining tahlili

Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi oshgan sayin ishlab chiqarish rivojlanib, uning hajmi osfiib boradi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi darajasini o'rganish asosida mavjud imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyatga egadir. Ushbu bo'limda asosiy vositalardan (fondlardan) foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari va tahlil qilish yo'llari yoritildi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi quyidagi 3 ta ko'rsatkich bilan ifodalanadi:

1. Fond qaytimi (*FQ*) – bu yalpi mahsulot hajmini (*YM*) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga (*AIF*) nisbati tariqasida aniqlanadi:

$$FQ = \frac{YM}{AIF}.$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy fondlar hajmi hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmini (summasi) bildiradi. Ushbu ko'rsatkich tahlil etilayotgan davrda oshgan bo'lsa, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining oshganligini bildiradi.

2. Fond sig'imi (FS) – fond qaytimining aksini ifodalovchi ko'rsatkichdir:

$$FS = \frac{AIF}{YM}.$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari summasini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich pasaygan bo'lsa, bu fondlardan foydalanish samaradorligi oshganligini ko'rsatadi.

3. Fond rentabelligi (*FR*) – sof foydani (*SF*) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmiga (*AIF*) bo'lish orqali aniqlanadigan ko'rsatkich:

$$FP = \frac{SF}{AIF}.$$

Bu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan sof foyda summasini bildiradi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining tahlili solishtirish va zanjirli bog'lanish usullari yordamida amalga oshiriladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining har bir turi bo'yicha hisobot yilidagi ko'rsatkichini bazis yilidagisiga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi, so'ngra o'zgarishning sabablari topiladi. Omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» yoki indeks usullaridan foydalanib, aniqlash mumkin.

Biz asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining tahlilini uning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan fond qaytimi misolida ko'rib chiqamiz.

Hisobot yilidagi fond qaytimini bazis yilidagi fond qaytimiga solishtirib, uning umumiy o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$\frac{YM_1}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_0} = \pm\Delta_{AIF,YM},$$

bunda: AIF_0, AIF_1 – mos holda bazis va hisobot yillaridagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (hajmi); YM_0, YM_1 – mos holda bazis va hisobot yillaridagi yalpi mahsulot qiymati (hajmi).

Bu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmining o'zgarishi;

2) yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi.

Fond qaytimining o'zgarishiga omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlaymiz. Omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin shartli fond qaytimi ko'rsatkichini aniqlab olish zarur. Buni aniqlash uchun bazis yilidagi yalpi mahsulot hajmini hisobot yilidagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak:

$$FQ_{sh} = \frac{YM_0}{AIF_1}.$$

Fond qaytimining o'zgarishiga birinchi omilning, ya'ni asosiy fondlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli fond qaytimi ko'rsatkichidan bazis yilidagi fond qaytimi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YM_0}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_0} = \pm\Delta_{AIF}.$$

Fond qaytimining o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fond qaytimi ko'rsatkichidan shartli fond qaytimi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YM_1}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_1} = \pm\Delta_{YM}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shu hisob-kitoblardan so'ng fond qaytimi dinamikasining o'zgarishiga oid xulosa qilinadi, uni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Endi, 41-jadvalda keltirilgan amaliy ma'lumotlar asosida fond qaytimi dinamikasi o'zgarishining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Birinchi navbatda, fond qaytimining umumiy o'zgarishi aniqlanadi.

Buning uchun hisobot yilidagi fond qaytimini bazis yilidagi fond qaytimiga solishtirib o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi.

$$\frac{YM_1}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_0} = \frac{60731}{142000} - \frac{56409}{138444} = 0{,}428 - 0{,}407 = 0{,}021 \text{ so'm (2,1 tiyin).}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan fond qaytimi darajasi, ya'ni 1 so'mlik asosiy vositalar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 2,1 tiyinga yoki 5,2 foizga oshgan.

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan.

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{YM_0}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_0} = \frac{56409}{142000} - \frac{56409}{138444} = 0{,}397 - 0{,}407 = 0{,}01 \text{ so'm (10 tiyin).}$$

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (hajmi) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 3556 ming so'mga (142000 – 138444 = +3556 ming so'm) oshgan, natijada shu omil hisobiga fond qaytimi darajasi 10 tiyinga yoki 2,4% ga pasaygan. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik asosiy fond hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi 10 tiyinga kamaygan.

Fond qaytimining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{YM_1}{AIF_1} - \frac{YM_0}{AIF_1} = \frac{60731}{142000} - \frac{56409}{142000} = 0{,}428 - 0{,}397 = +0{,}031 \text{ so'm (3,1 tiyin).}$$

Demak, yalpi mahsulot hajmining 4322 ming so'mga (60731 – 56409 = +4322 ming so'm) oshishi natijasida fond qaytimi darajasi (1 so'mlik asosiy fond hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot summasi) 3,1 tiyinga yoki 7,8% ga oshgan.

Shunday qilib, fond qaytimining darajasi miqdoriy omilning salbiy, sifatiy omilning ijobiy ta'siri ostida o'zgarib, oqibatda u 5,2% ga oshgan.

Bu asosan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi tufayli sodir bo'lgan. Biz fond qaytimining tahlilini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosida ko'rib chiqdik.

Endi, fond qaytimining tahlilini asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv (aktiv) qismi va undan foydalanish samaradorligi bilan bog'langan holda ko'rib chiqamiz, chunki mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi mehnat vositalari bo'lib, asosiy fondlarning aktiv qismi hisoblanadi.

Fond qaytimining o'zgarishiga quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

1) asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv (aktiv) qismi salmog'ining o'zgarishi;

2) asosiy ishlab chiqarish aktiv fondlarining qaytimi darajasining o'zgarishi.

Mazkur omillar ko'paytmalarining yig'indisi asosiy fondlar qaytimining umumiy hajmiga teng bo'ladi:

$$FQ = AS \cdot AQ.$$

bunda: FQ – fond qaytimi darajasi; AS – asosiy fondlar aktiv (aktiv) qismining salmog'i; AQ – asosiy aktiv (aktiv) fondlar qaytimi.

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimining umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi.

Fond qaytimi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli fond qaytimi» ko'rsatkichi aniqlab olinishi kerak.

«Shartli fond qaytimi» ko'rsatkichini aniqlash uchun hisobot yilidagi asosiy fondlar aktiv qismi salmog'ini bazis yilidagi asosiy aktiv fondlar qaytimiga ko'paytirish kerak:

$$FQ_{sh} = AS_1 \cdot AQ_0.$$

Shundan keyin fond qaytimining o'zgarishiga asosiy fondlarning aktiv qismi bilan bog'liq bo'lgan omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlash mumkin.

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy fondlar aktiv qismi salmog'i o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Shartli fond qaytimi»dan bazis yilidagi fond qaytimini chegirib tashlash kerak:

$$(AS_1 \cdot AQ_0) - (AS_0 \cdot AQ_0) = \pm\Delta_{AS}.$$

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy aktiv (aktiv) fondlar qaytimi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi fond qaytimidan shartli fond qaytimini chegirib tashlash kerak:

$$(AS_1 \cdot AQ_1) - (AS_1 \cdot AQ_0) = \pm\Delta_{AQ}.$$

Shu omillar ta'sirlarining yig'indisi fond qaytimining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Endi, 41-jadvaldagi hisobot ma'lumotlari asosida fond qaytimining tahlilini ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda, asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismining (FAQ) salmog'i bilan aktiv qismining qaytimi aniqlanadi.

Asosiy fondlar aktiv qismining salmog'ini aniqlash. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun asosiy fondlar aktiv qismi hajmining jamini asosiy ishlab chiqarish fondlarining jami hajmiga bo'lish kerak:

bazis yili uchun $AS_0 = \frac{FAQ_0}{AIF_0} = \frac{83066}{138444} = 0{,}6$ yoki 60%;

hisobot yili uchun $AS_1 = \frac{FAQ_1}{AIF_1} = \frac{88040}{142000} = 0{,}62$ yoki 62%;

asosiy fond aktiv qismining qaytimini aniqlash:

bazis yili uchun $AQ_0 = \frac{YM_0}{FAQ_0} = \frac{56409}{83066} = 0{,}679$ so'm (67,9 tiyin);

hisobot yili uchun $AQ_1 = \frac{YM_1}{FAQ_1} = \frac{60731}{88044} = 0{,}69$ so'm (6,9 tiyin).

Mazkur ko'rsatkichlar aniqlanganidan keyin fond qaytimining tahlilini amalga oshirish mumkin.

Birinchi navbatda, fond qaytimining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$(AS_1 \cdot AQ_1) - (AS_0 \cdot AQ_0) = (0{,}62 \cdot 0{,}69) - (0{,}6 \cdot 0{,}679) =$$
$$= 0{,}428 - 0{,}407 = +0{,}021 \text{ so'm (2,1 tiyin).}$$

Demak, fond qaytimi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,1 tiyinga yoki 5,2 foizga oshgan.

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv qismi salmog'i o'zgarishining ta'siri:

$$(AS_1 \cdot AQ_0) - (AS_0 \cdot AQ_0) = (0{,}62 \cdot 0{,}679) - (0{,}6 \cdot 0{,}679) =$$
$$= 0{,}421 - 0{,}407 = +0{,}014 \text{ so'm (1,4 tiyin).}$$

Demak, fondlar aktiv qismining 2 foizga oshishi fond qaytimi darajasini 1,4 tiyinga yoki 3,4% ga oshishiga olib kelgan.

Fond qaytimining o'zgarishiga asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv qismi qaytimi o'zgarishining ta'siri:

$$(AS_1 \cdot AQ_1) - (AS_1 \cdot AQ_0) = (0{,}62 \cdot 0{,}69) - (0{,}62 \cdot 0{,}679) =$$
$$= 0{,}428 - 0{,}421 = +0{,}007 \text{ so'm (0,7 tiyin).}$$

Demak, fondlar aktiv qismi qaytimining 1,1 tiyinga oshishi fond qaytimi darajasining 0,7 tiyinga yoki 1,7% ga oshishiga sabab bo'lgan.

Xulosa: ikki omil ham fond qaytimining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilib, uning darajasini 5,2% ga oshishiga olib kelgan.

Tahlil natijalarini analitik jadvalga joylashtirilsa, xulosa chiqarish qulayroq bo'ladi, chunki unda hamma ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham, omillarning ta'sir qilish darajalari ham aniq ko'rinib turadi.

41-jadval

Fond qaytimining omilli tahlili

T.r.	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi aktiv qismi salmog'i va bazis yilidagi aktiv qismi qaytimi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, –)	Sh.u j. o'zgarishi	
						Aktiv qismining salmog'i o'zgarishi hisobiga	Aktiv qismi qaytimining o'zgarishi hisobiga
1	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ming so'm	138444	×	142000	+3556	×	×
2	Asosiy fond aktiv qismining hajmi (FAQ), ming so'm	83066	×	88040	+4974	×	×
3	Yalpi mahsulot, ming so'm	*56409*	×	*60731*	+4222	×	×
4	Asosiy fondlar aktiv qismining salmog'i, koef.	0,60	0,62	0,62	+0,02	×	×
5	Asosiy fondlar aktiv qismining qaytimi, so'm	0,679	0,679	0,69	–0,011	×	×
6	Fond qaytimi, so'm	0,407	0,421	0,428	–0,021	+0,014	+0,007

41-jadvaldan ko'rinib turibdiki, fond qaytimining 2,1 tiyinga yoki 5,2 foizga oshishi ikki omilning ham ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

9.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Asosiy fondlar. Asosiy fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti. Fond qaytimi. Fond rentabelligi. Shartli asosiy fondlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti. Shartli fond qaytimi. Asosiy fondlarning aktiv qismi.

Takrorlash uchun savollar

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichining mazmunini tushuntiring.
2. Xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichi qanday hisoblanadi?
3. Xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichining o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi va ularning ta'siri qanday aniqlanadi?
4. Xo'jalikning energetik resurslar bilan ta'minlanish ko'rsatkichi qanday aniqlanadi va qaysi omillar uning darajasining o'zgarishiga ta'sir qiladi?
5. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
6. Fond qaytimi tahlilining mazmun-mohiyatini tushuntiring. U qanday tahlil qilinadi?
7. Fond rentabelligi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi? Uning mazmunini va tahlil qilish usulini tushuntiring.
8. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga asosiy fondlar bilan bog'liq bo'lgan birlamchi omillar ta'sirining tahlilini bayon qiling.
9. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga asosiy fondlar bilan bog'liq bo'lgan ikkilamchi omillar ta'sirini aniqlash tartibini tushuntiring.
10. Fond qaytimining o'zgarishiga necha omil ta'sir qiladi? Ular qaysilar?
11. Fond qaytimining o'zgarishiga omillar ta'sirini qaysi usullardan foydalanib aniqlash mumkin?

MASHQ

Darslikda keltirilgan 41-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, fond qaytimining omilli tahlilini «Ko'rsatkichlar farqi» usulini qo'llab bajaring va omillar ta'siriga baho berib, fond qaytimini oshirish imkoniyatlarini ko'rsating.

Tahlilda omillar ta'sirini aniqlashda quyidagi formulalardan foydalaning:

$(AS_1 - AS_0) \cdot AQ_0$ – asosiy aktiv fondlar salmog'i o'zgarishining fond qaytimining o'zgarishiga ta'siri;

$(AQ_1 - AQ_0) \cdot AS_1$ – asosiy aktiv fondlar qaytimi o'zgarishining fond qaytimining o'zgarishiga ta'siri.

Izoh. Fond qaytimining asosiy aktiv fondlar salmog'i bilan asosiy aktiv fondlar qaytimi ta'siri ostida «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali amalga oshirilgan tahlili darslikning 188–191-betlarida keltirilgan. Siz «Ko'rsatkichlar farqi» usulini qo'llab, amalga oshirgan omilli tahlil natijalari o'sha betlarda keltirilgan tahlil natijalariga mos kelishi kerak. Shu ikki usul bilan aniqlanadigan omillar ta'sirlarining yig'indisi bir-biridan farq qilmasligi kerak. Shu qoidani esdan chiqarmang.

XULOSALAR

Rejalashtirilgan barcha savollarning javoblari ushbu bobda to'liq aks ettirilgan, ya'ni asosiy vositalar bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish samaradorligi tahlilining ahamiyati, maqsadi va vazifalari, ular bilan ta'minlanish darajasining tahlili, fondlardan foydalanish samaradorligining tahlili, asosiy vositalar va ulardan foydalanishning ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili masalalari yetarli darajada ushbu bobda yoritilgan. Bularni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun, talaba mavzuni darslik bo'yicha o'qib, o'zlashtirishini hamda nazariy savollarga javob tayyorlashini va mashqni mustaqil bajarib, o'zlashtirib olishini tavsiya qilamiz.

O'QUV MAQSADI

Xususiy kapital tahlili mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan savollarga berilgan javoblar ushbu bobda yetarli darajada yoritilgan. Bular esa, talaba ushbu mavzu bo'yicha ta'lim asoslarini egallashi uchun yetarli bo'ladi. Xususiy kapital tahlilining mazmun-mohiyati va tahlil usullarini qo'llash tartibining yetarli darajada yoritilishi *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Korxonaning xususiy kapitali holatiga qarab, uning moliyaviy mustaqilligiga baho beriladi. Mavjud imkoniyatlarni topish hisobiga xususiy kapital hajmining oshirilishi, moliyaviy mustaqilligi darajasining keskin oshishiga olib kelishligini tavsiflovchi fikr va g'oyani talaba ongiga etkazish va singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbaining asosiy qismini tashkil qiladi. Lekin xususiy kapitalning tahlilida ularning o'zaro nisbati koeffitsiyenti va xususiy kapital bilan qarz kapitalining o'zaro nisbati koeffitsiyenti tahlili o'z ifodasini topgan emas. Shularni hisobga olgan holda tahlil etish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* tashkil etadi.

10.1. Xususiy kapitalni tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va manbalari

Xususiy kapitalning ta'rifi, hisobga olinishi va shakllanishi O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonunida o'z aksini topgan. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi chaqiriq 6-sessiyasida qabul qilingan va u 1996-yil 30-avgustda Respublika Prezidenti tomonidan tasdiqlangan.

Xususiy kapital shu qonunning 15 moddasida va shu qonun asosida yuzaga kelgan Moliya vazirligining moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasida hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur qonun va Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnoma hamda moliyaviy hisobotlar asosida xususiy kapital holatlarini o'rganish yo'llari va usullari ushbu bobda yoritildi.

Xususiy kapital bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi, chunki uning holatiga qarab, korxonaning moliyaviy mustaqilligiga

baho beriladi. Korxonaning moliyaviy jihatdan mustahkam bo'lishi biznesni boshqarishda, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda va sherikchilik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ta muhim va dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham xususiy kapital holatini o'rganish katta ahamiyatga egadir.

Korxonaning o'z mablag'lari manbaining asosiy qismi xususiy kapital hissasiga to'g'ri keladi.

Xususiy kapitalning hissasini oshirish va undan foydalanish darajasini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash tahlilning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish orqali erishish mumkin:

1) xususiy kapital tarkibi va uning strukturasi bo'yicha dinamikasini o'rganish orqali umumiy holatiga baho berish;

2) xususiy kapital o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir etish darajasini aniqlash va baho berish;

3) xususiy kapitaldan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlash va ushbu o'zgarishga omillarning ta'sirini hisoblab, baho berish;

4) xususiy kapital tarkibini yaxshilash va foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Xususiy kapital tahlilini amalga oshirish uchun axborot manbai bo'lib, quyidagi hisobot ma'lumotlari hisoblanadi.

1) buxgalteriya balansining passiv tomonidagi I- bo'lim ma'lumotlari;

2) xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari;

3) biznes-rejaning xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlari;

4) xususiy kapitalni hisobga olib boruvchi buxgalteriya hisobi schotlarining ma'lumotlari (8300, 8310, 8320, 8330, 8400, 8410, 8420, 8500, 8510, 8520, 8530 va boshqa schotlarning ma'lumotlari).

10.2. Xususiy kapital tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili

Qishloq xo'jalik korxonalarining o'z mablag'lari manbaining asosiy qismini xususiy kapital tashkil etadi. Uning tarkibi 4 ta kapitaldan tashkil topgan, ya'ni u ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foydani (qoplanmagan zararni) o'z ichiga oladi.

Xususiy kapitalning tahlili uning tarkibi va strukturasini o'rganishdan boshlanadi. Buning uchun xususiy kapitalning har bir turi bo'yicha yil boshi va yil oxiriga bo'lgan summasi hamda har birining jamiga nisbatan hissasi aniqlab olinadi. Shundan keyin tahlilning gorizontal va vertikal usullaridan foydalanib, tahlili amalga oshiriladi. Xususiy kapitalning yil oxiridagi qoldig'i yil boshiga, yil oxiridagi salmog'ini yil boshidagi salmog'iga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi va baho beriladi. Buni 42-jadvaldan ko'rish mumkin.

42- jadval

Xususiy kapital tarkibi va strukturasining qiyoslama tahlili

T.r.	Xususiy kapitalning turlari	Yil boshida		Yil oxirida		O'zgarishi(+, –)	
		Summasi, ming so'm	Salmog'i %	Summasi, ming so'm	Sal-mog'i %	Summasi, ming so'm	Sal-mog'i %
1	Ustav kapitali	1226	19,8	1310	12,4	+84	–7,4
2	Qo'shilgan kapital	300	4,8	320	3,0	+20	–1,8
3	Zahira kapitali	180	2,9	188	1,8	+8	–1,1
4	Taqsimlanmagan foyda	4500	72,5	8780	82,8	+4280	+10,3
JAMI:		**6206**	**100**	**10598**	**100**	**+4392**	–

42-jadvaldan ko'rinib turibdiki, joriy yilda korxonaning xususiy kapitali hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 4392 ming so'mga yoki 70,8% ga oshgan. Ushbu o'sish xususiy kapitalning to'rt turi bo'yicha bo'lgan ijobiy o'zgarish hisobiga sodir bo'lgan, ya'ni ustav kapitalining 84 ming so'mga, qo'shilgan kapitalning 20 ming so'mga, zahira kapitalning 8 ming so'mga va taqsimlanmagan foydaning 4280 ming so'mga oshishi natijasida sodir bo'lgan.

Xususiy kapital strukturasi o'rganilganda ustav, qo'shilgan va zahira kapitallarining yil oxiridagi hajmi yil boshiga nisbatan oshgan bo'lsa ham, ularning xususiy kapitalning jami hajmiga nisbatan hisoblangan hissasining kamayganligi ma'lum bo'ldi, ya'ni ustav kapitalining hissasi 7,4 foizga, qo'shilgan kapitalniki 1,8 foizga, zaxira kapitaliniki esa 1,1 foizga kamaygan.

Mazkur kamayish korxonaning moliyaviy barqarorligiga, moliyaviy mustaqilligiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun bu kapitallar salmog'ini kamaytirmaslik choralarini ko'rish zarur. Buning uchun ularning hajmi bo'yicha o'zgarishini kirim va chiqim moddalari ta'siri ostida o'rganish zarur. Bunday tahlil esa ularning salmog'ini ham oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlab beradi.

Xususiy kapital hajmining oshishi asosan taqsimlanmagan foyda hisobiga sodir bo'lgan.

Xususiy kapital holatini joriy yilda (davrda) tahlil qilish bilan bir qatorda dinamikasini ham o'rganish katta ahamiyatga egadir. Dinamikasini tahlil qilish uchun xususiy kapitalning jami va turlari bo'yicha o'rtacha yillik qiymati va hissasini (salmog'ini) hisoblab olish zarur. Shundan keyin hisobot yilidagi xususiy kapitalning o'rtacha yillik hajmi va salmog'ini bazis yilidagi ularning o'rtacha yillik hajmi va salmog'iga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi.

So'ngra omillar ta'siri tahlili qilinadi. Xususiy kapital hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini «Balansli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlash zarur.

Xususiy kapital tarkibiga kiruvchi kapitallar hajmining o'zgarishi xususiy kapital hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi birlamchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Demak, xususiy kapital hajmining o'zgarishiga quyidagi 4 ta omil bevosita ta'sir qiladi:

1) ustav kapitali hajmining o'zgarishi: $(UK_1 - UK_0)$;
2) qo'shilgan kapital hajmining o'zgarishi: $(QK_1 - QK_0)$;
3) zaxira kapital hajmining o'zgarishi: $(ZK_1 - ZK_0)$;
4) taqsimlanmagan foyda (yoki qoplanmagan zarar)ning o'zgarishi: $(TF_1 - TF_0)$.

Bu omillarning ta'sirini quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$XK_o = (UK_1 - UK_0) \pm (QK_1 - QK_0) \pm (ZK_1 - ZK_0) \pm (TF_1 - TF_0).$$

Mazkur omillarning ta'siri aniqlangandan keyin har birining ta'siriga ijobiy yoki salbiy baho beriladi va xulosa qilinadi. Shundan keyin har bir omilning o'ziga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini o'rganish zarur.

Ushbu omillarning ta'siri aniqlanib, har birining ta'siriga baho beriladi va xulosa qilinadi. Shundan keyin har bir omilli ko'rsatkichning o'ziga (har bir kapital hajmining o'zgarishiga) ta'sir qiluvchi omillar (kirimi va chiqimi turlarining) ta'sirini o'rganish zarur.

Boshqacha aytganda, xususiy kapital hajmining o'zgarishiga ikkilamchi omillar ta'sirining tahlilini amalga oshirish zarur. Agar shunday tahlil amalga oshirilsa, har bir kapital turining kirimi va chiqimi hisobiga xususiy kapital hajmining aniq o'zgarish sabablari aniqlanadi va uni oshirish imkoniyatlari topiladi.

10.3. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili

Xususiy kapitaldan foydalanishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, xususiy kapital rentabelligi hisoblanadi.

Rentabellik daromadlilik, foydalilik degan ma'noni anglatadi. Rentabellik darajasi resurslar, kapitallar va xarajatlarga nisbatan hisoblab olinadi va tahlil qilinadi. Shular orasida xususiy kapital rentabelligi bizning o'rganish obyektimizdir.

Xususiy kapital rentabelligi qanday aniqlanadi? Xususiy kapital rentabelligi sof foydaning xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati tariqasida hisoblanadi, ya'ni u xususiy kapital summasini 100 foizga ko'paytirib, natijasini xususiy kapitalning o'rta qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi. Buni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$R_{XK} = \frac{SF}{XKH};\ (1)\quad \text{yoki}\quad R_{XK} = \frac{SF \cdot 100}{UK + QK + ZK + TF};\ (2)$$

bunda: R_{XK} – xususiy kapital rentabelligi; SF – sof foyda summasi (hajmi); XKH – xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati (hajmi); UK – ustav kapitalining o'rtacha qiymati; QK – qo'shilgan kapitalning o'rtacha qiymati; ZK – zahira kapitalining o'rtacha qiymati; TF – taqsimlanmagan foyda summasi.

Xususiy kapital rentabelligi nimani bildiradi? Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so'mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan sof foyda summasini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich bazis yilidagi yoki biznes-rejada ko'zda tutilgan kapital rentabelligiga nisbatan yuqori bo'lsa, xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshganligini bildiradi. Xususiy kapital rentabelligi qancha yuqori bo'lsa, xo'jalikning moliyaviy ahvoli ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Xususiy kapital rentabelligining tahlili uning hisobot yilidagi darajasini bazis yilidagi (yoki rejada ko'zda tutilgan darajasiga) solishtirib, umumiy o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Rentabellik darajasining o'zgarishi birinchi va ikkinchi tartibli omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Birinchi tartibli omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi;

2) sof foyda hajmining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali aniqlash zarur. Buning uchun quyidagi 3 ta bog'lanish rentabellik ko'rsatkichini aniqlab, so'ngra omillarning ta'sirini aniqlash maqsada muvofiq bo'ladi.

1. $\frac{SF_0}{XKH_0}$ – bazis yilidagi (yoki rejadagi) rentabellik darajasi.
2. $\frac{SF_0}{XKH_1}$ – shartli rentabellik darajasi.
3. $\frac{SF_0}{XKH_1}$ – hisobot yilidagi rentabellik darajasi.

Shundan keyin xususiy kapital rentabelligining omilli tahlili amalga oshiriladi.

Hisobot yilidagi xususiy kapital rentabelligidan (3-bog'lanish ko'rsatkichidan) bazis yilidagi rentabelligini (1-bog'lanish ko'rsatkichini) chegirib tashlash orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{SF_0}{XKH_1} - \frac{SF_0}{XKH_0} = \pm\Delta xkh,\ sf.$$

Bu o'zgarish yuqoridagi ikki omil hisobiga yuzaga kelgan.

Xususiy kapital rentabelligining o'zgarishiga uning o'rtacha qiymati (hajmi) o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli rentabellik darajasidan (2-bog'lanish ko'rsatkichidan) bazis yilidagi rentabellik darajasini (1-bog'lanish ko'rsatkichini) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{SF_0}{XKH_1} - \frac{SF_0}{XKH_0} = \pm\Delta xkh.$$

Xususiy kapital rentabelligining o'zgarishiga sof foyda summasi (hajmi) o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi rentabellik darajasidan (3-bog'lanishdan) shartli rentabellik darajasini (2-bog'lanish ko'rsatkichini) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{SF_0}{XKH_1} - \frac{SF_0}{XKH_1} = \pm\Delta sf.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi xususiy kapital rentabelligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta xkh \pm \Delta sf = \Delta xkh,\ sf.$$

Shundan keyin rentabellik darajasining o'zgarishiga xususiy kapital hajmi o'zgarishining ta'sirini har bir kapitalning turi bo'yicha aniq ko'rsatish va mavjud imkoniyatlarni yetarli darajada bayon qilish uchun ikkinchi tartibli omillar ta'sirining tahlilini amalga oshirish kerak. Buning uchun yuqorida keltirilgan rentabellikning ikkinchi formulasidan foydalanish zarur. Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, xususiy kapital rentabelligining o'zgarishiga quyidagi 5 ta omil ta'sir qiladi:

1) ustav kapitali hajmining o'zgarishi;
2) qo'shilgan kapital hajmining o'zgarishi;
3) zaxira kapitali hajmining o'zgarishi;
4) taqsimlanmagan foyda summasining o'zgarishi;
5) sof foyda summasining o'zgarishi.

Mazkur omillarning rentabellikni o'zgarishiga ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash qulayroqdir. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin xususiy kapital rentabelligini ifodalovchi quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur:

1) $\frac{SF_0}{UK_0+QK_0+ZK_0+TF_0}$;

2) $\frac{SF_0}{UK_1+QK_0+ZK_0+TF_0}$;

4) $\frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_0}$;

5) $\frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_1}$;

3) $\frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_0+TF_0}$; 6) $\frac{SF_1}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_1}$.

Endi, ushbu rentabellik ko'rsatkichlaridan foydalanib, xususiy kapital rentabelligining umumiy o'zgarishini va unga omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

Rentabellikning umumiy o'zgarishi:

$$6) - 1) = \frac{SF_1}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_1} - \frac{SF_0}{UK_0+QK_0+ZK_0+TF_0} = \pm\Delta uk, qk, zk, tf.$$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'sirini aniqlash:

1. Ustav kapitali hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$2) - 1) = \frac{SF_1}{UK_1+QK_0+ZK_0+TF_0} - \frac{SF_0}{UK_0+QK_0+ZK_0+TF_0} = \pm\Delta uk;$$

2. Qo'shilgan kapital hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$3) - 2) = \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_0+TF_0} - \frac{SF_0}{UK_1+QK_0+ZK_0+TF_0} = \pm\Delta qk.$$

3. Zahira kapitali hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$4) - 3) = \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_0} - \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_0+TF_0} = \pm\Delta zk;$$

4. Taqsimlanmagan foyda summasi o'zgarishining ta'siri:

$$5) - 4) = \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_1} - \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_0} = \pm\Delta tf;$$

5. Sof foyda summasi o'zgarishining ta'siri:

$$6) - 5) = \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_1} - \frac{SF_0}{UK_1+QK_1+ZK_1+TF_0} = \pm\Delta sf.$$

Ushbu 5 ta omil ta'sirlarining yig'indisi xususiy kapital rentabelligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin har bir omil ta'siriga baho berilib, rentabellikni yanada oshirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

10.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Xususiy kapital. Ustav kapitali. Qo'shilgan kapital. Zahira kapitali. Taqsimlanmagan foyda. Xususiy kapital rentabelligi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi. Emission daromad. Aksiyalar.

Takrorlash uchun savollar

1. Xususiy kapital deb nimaga aytiladi?
2. Xususiy kapitalni tahlil qilishning ahamiyati nimadan iborat?
3. Xususiy kapital tahlilining vazifalarini bayon qiling.
4. Xususiy kapital tarkibi qaysi kapitallardan tashkil topgan?
5. Xususiy kapital tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlilini tushuntiring.
6. Xususiy kapital dinamikasining tahlili qanday bajariladi?
7. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi deganda nima tushuniladi?
8. Xususiy kapital rentabelligini hisoblash usulini tushuntiring.
9. Xususiy kapital hajmi qanday tahlil qilinadi?
10. Xususiy kapital hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini qaysi usuldan foydalanib aniqlash mumkin?

1-mashq

Xususiy kapital hajmi o'zgarishini «Balansli bog'lanish» usulini qo'llab omilli tahlil qiling. Buning uchun darslikning 198-betida (42-jadvalda) keltirilgan ma'lumotlardan foydalaning. Xususiy kapitalning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlashda 199-betda keltirilgan formuladan foydalaning. Tahlil natijalari bo'yicha har bir omil ta'siriga baho berib, xususiy kapitalni ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsating.

2-mashq

Xususiy kapital rentabelligining tahlilini quyidagi ma'lumotlardan foydalanib amalga oshiring:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Shartli rentabellik	Hisobot yili
1. Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	7100	8402	8402
2. Sof foyda, ming so'm	1065	1065	1470
3. Xususiy kapital rentabelligi, %	15	12.7	17,5

Keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib va «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llab, aniqlang:

1) xususiy kapital rentabelligi darajasining o'zgarishini;

2) qentabellik darajasining o'zgarishiga xususiy kapital hajmi o'zgarishining ta'sirini;

3) qentabellikning o'zgarishiga sof foyda hajmi o'zgarishning ta'sirini;

4) omillar ta'sirlariga baho berib, xususiy kapital rentabelligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsating.

XULOSALAR

Xususiy kapital tahlili bobida tahlilning ahamiyati, vazifalari va manbalari, kapitalning tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili, xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili, uni ko'paytirish imkoniyatlari kabi masalalar yoritilgan. Bularni talaba yaxshi o'zlashtirib olishga harakat qilishi kerak. Shuning uchun unga, mavzuni darslik bo'yicha o'qib, o'zlashtirishni hamda unda keltirilgan nazariy savollarga javob qaytarishni va berilgan mashqlarni mustaqil bajarib, mazmunini o'zlashtirib olishni tavsiya qilamiz.

11-bob. AUDITORLIK FAOLIYATINING MOHIYATI, UNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH

O'QUV MAQSADI

Fanning o'quv dasturiga muvofiq mazkur bobda audit va auditorlik faoliyatining mohiyati va ahamiyati, auditorlik tekshiruvi va professional xizmati hamda auditor va auditorlik tashkilotining huquqlari, vazifalari va mas'uliyatlari kabi masalalarning yoritilishi ushbu mavzu bo'yicha talabalarning egallashi lozim bo'lgan bilimning mazmun-mohiyatini tavsiflaydi. Ularni ham nazariy, ham uslubiy jihatdan o'zlashtirish orqali talaba o'zida nazorat qilish va faoliyatga baho berish ko'nikmasi va malakasini shakllantiradi. Bu esa ushbu *mavzuning ta'limiy o'quv maqsadining* mazmunini tashkil etadi.

Korxonalar faoliyatida sodir bo'ladigan jarayonlarning natijalari qonun va qonunosti yuridik hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi har doim nazorat tekshiruvidan o'tkazilib turilishligi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni talabalar ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

Auditni buxgalteriya hisobi, moliyaviy va boshqaruv tahlili hamda huquqshunoslikning mazmun-mohiyatini chuqur egallagan holda amalga oshirish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadi bo'lib*, hisoblanadi.

11.1. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati, ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Korxonalar faoliyatining asosiy mezoni bo'lib, mavjud mulklardan samarali foydalanish orqali ko'proq daromad va foyda olish hisoblanadi. Bunday natijaga har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt mamlakatda qabul qilingan qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlari talablariga to'liq amal qilgan holda erishishi zarur. Xo'jalikning faoliyatida sodir bo'lgan operatsiyalarning ushbu talablarga mos kelish-kelmasligini doimiy ravishda nazorat tekshiruvidan o'tkazilib turilishi talab etiladi. Bu vazifa davlat nazorati, iqtisodiy nazorat, moliyaviy nazorat, bank nazorati, ichki va tashqi nazorat, hamda auditorlik nazorati orqali amalga oshiriladi. Mazkur nazorat turlari orasida auditorlik nazorati muhim o'rinni egalaydi. Ushbu darslikda mazkur nazoratning mazmun-mohiyati yoritiladi.

Audit deganda nima tushuniladi?

«Audit» so'zining ma'nosi adabiyotlarda turlicha talqin qilinib kelingan. Ayrimlarida u lotin tilidan olingan bo'lib, «u eshitadi», «eshitaman» degan ma'noni, boshqa birlarida esa ingliz tilidan olingan bo'lib, «u yordam beradi», «ko'maklashadi» degan ma'noni bildiradi deb ko'rsatilgan. Bundan tashqari, audit so'zi «tekshiradi», «taftish qilish» degan ma'noni bildiradi deb qayd qilingan fikrlar ham mavjud.

Ma'lum ma'noga ega bo'lgan ushbu so'zlar shaklan bir-biridan farq qilsa ham, ular mazmunan bir-biriga yaqin, bir-birini to'ldiruvchi so'zlardir. Faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitib, ko'rib, tekshirishdan o'tkazib, nuqson-kamchiliklarni aniqlab, ularni tugatish yo'llarini ko'rsatish orqali ko'maklashish o'ziga xos bo'lgan audit faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Audit bugungi kunda maxsus kasb, faoliyat turi va fan sifatida tan olingan.

Audit deganda korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatini va u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy axborotlarni tekshirish va iqtisodiy tahlil etish hamda ular asosida xulosa va tavsiyalar berish usuli tushuniladi.

Audit taftishga nisbatan kengroq ma'noga egadir. Taftish xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarida sodir bo'lgan operatsiyalarning holati va harakatini qonun qoidalariga mos kelish-kelmasligini tekshirib, xulosalar chiqaradi. Audit esa ushbu operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish bilan bir qatorda, har xil professional xizmatlar ko'rsatish orqali xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish, hisob-kitob ishlarini hamda moliyaviy tahlilni yaxshilash bo'yicha takliflar va tavsiyalar beradi.

Auditorlik faoliyati degan qanday faoliyat tushuniladi?

Auditorlik faoliyatining mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26-maydagi Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunda batafsil aks ettirilgan. Ushbu qonunning 2-moddasida auditorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi». Mazkur ta'rifdan ma'lumki, auditorlik faoliyati auditorlik tekshiruvi bilan prfessional xizmat ko'rsatishlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik tekshiruvi tadbirkorlik faoliyati bo'lib, moliyaviy hisobot va u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy axborotlarning qonun-qoidalarga mosligini tekshirib, xulosalar chiqarish hisoblanadi.

Auditning maqsadi nimadan iborat?

Auditning maqsadi – xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti va u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy axborotlarni tekshirish asosida, ulardagi ma'lumotlarning qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmaslik holatini aniqlash hamda xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Audit o'z maqsadiga quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali erishadi:

- harakatdagi qonunlar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga xo'jalik faoliyatini yuritishda amal qilinayotganligini tekshirish;
- xo'jalikda mavjud bo'lgan mol-mulkdan maqsadli foydalanish darajasini tekshirish;
- budjetga tegishli bo'lgan soliqlarning hisoblanishi va o'tkazilishining to'g'riligini tekshirish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirish;
- buxgalteriya hisobi schotlarining yuritilish holatining to'g'riligini tekshirish;
- moliyaviy hisobotning to'g'ri tuzilganligini va undagi ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish va baho berish;
- audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;
- biznes-rejani tuzish va buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish.

11.2. Auditorlik tekshiruvi va auditorlik xizmatlarining tashkil etilishi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati va uning natijalari auditorlik tekshiruvidan o'tkazilib turiladi. Auditorlik tekshiruvining ta'rifi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunda batafsil bayon qilingan. Qonunning 9-moddasida «Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy hisobot axborotlari to'g'riligi va qonun hujjatlariga mos kelishligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotlarini auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir» deb qayd qilingan.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbus shakllarida o'tkaziladi. Bulardan tashqari, auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza etuvchi organlarning tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkinligi qonunda ko'rsatilgan.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan qaysi yuridik shaxslar o'tadilar?

Qonunning 10-moddasiga muvofiq quyidagi subyektlar har yili majburiy tekshiruvdan o'tkaziladi:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish bydjetdan tashqari fondlar;
- ustav fondida davlatga tegishli ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish xo'jalik yurituvchi subyektdan eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima undirishga, shuningdek, uning rahbarini qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Jarimaning to'lanishi xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishdan ozod qilmaydi.

Auditorlik tekshiruvining ikkinchi shakli bo'lib, **tashabbus tarzida o'tkaziladigan tekshiruv** hisoblanadi. Ushbu tekshiruvning mazmuni ham yuqorida qayd qilingan Qonunda o'z aksini topgan. Mazkur qonunning 11-moddasida «Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin» deb ko'rsatilgan. Ushbu tekshiruv shakli xo'jalik yurituvchi subyektlarning qaroriga ko'ra, ikkiyoqlama tuzilgan shartnomaga muvofiq o'tkaziladi. Bu tekshiruvning predmeti, o'tkazish muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasidagi tuziladigan **shartnomada belgilab qo'yiladi**. Ushbu shartnoma auditorlik tashkiloti bilan xo'jalik yurituvchi subyekt o'rtasidagi munosobatlarni, ularning huquqlarini, majburiyatlarini va ma'suliyatlarini ifoda etuvchi huquqiy yuridik hujjatdir.

Tashabbus tarzida o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi to'liq yoki qisman o'tkazilishi mumkin. Buni murojaat etgan xo'jalik yurituvchi subyekt hal qiladi.

Auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusi bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday tekshiruv Qonunning 15-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ishlar uchun haq to'lash tekshiruvni belgilagan organ hisobidan shartnomaga ko'ra amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlarga qanday professional xizmatlar ko'rsatishi mumkin?

Auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlarga O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunining 17-moddasiga muvofiq quyidagi professional xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;
- moliyaviy hisobotni tuzish;
- milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmatini tashkil qilish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish;
- auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional hizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin.

11.3. Auditorlar va auditorlik tashkilotlarining huquqlari, vazifalari va ma'suliyatlari

Auditorning ta'rifi, auditorlik tekshiruviga jalb etilishi va tekshirish natijalari bo'yicha ma'suliyati O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida bayon qilingan. Auditor – auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs bo'lib hisoblanadi.

U auditorlik tekshiruviga qay vaqtda jalb etilishi mumkin? Agar auditor auditorlik tashkilotining shtatdagi xodimi bo'lsa yoki u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzilgan bo'lsa, u auditorlik tekshiruvi o'tkazishga jalb etilishi mumkin.

Auditorning javobgarligi nimalardan iborat?

Agar auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazgan bo'lsa, tijorat sirini oshkor etgan bo'lsa yoki boshqa xatti-harakatlari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar etkazgan bo'lsa, u qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo'ladi.

Auditor auditni o'tkazishda va yakuniy natijalarini rasmiylashtirishda ma'suliyatni sezgan holda yondashishi zarur. U auditorlik faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni hamda boshqa qonuni, nizom va yo'riqnoma kabi yuridik hujjatlarining talablariga to'liq amal qilgan holda amalga oshirishi zarur.

Auditorlik tekshiruvi auditorlik tashkilotlarining topshirig'iga binoan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkiloti deganda qanday yuridik shaxs tushuniladi?

Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi. Auditorlik tashkiloti o'z auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir.

Auditorlik tashkilotlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan tuzilishi mumkin emas.

Auditorlik tashkilotlari, asosan, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati ko'rinishida tuziladi. Bundan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi mumkin. Bular «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga muvofiq quyidagi majburiy shartlarga rioya etilgan holda tashkil etiladi:

1) auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 51 foizi bir yoki bir necha auditorga tegishli bo'lishi kerak;
2) auditorlik tashkilotining shtat birligi kamida ikki auditordan iborat bo'lishi kerak;
3) auditorlik tashkilotining rahbari faqat auditor bo'lishi kerak;
4) auditorlik tashkilotining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ustav kapitali mavjud bo'lishi kerak;
5) auditorlik tashkiloti O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini o'zining fuqarolik javobgarligi xususidagi sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda auditorlik xizmati ko'rsatish to'g'risida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiradilar.

Auditorlik tashkiloti qanday huquqlarga ega?

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 6-moddasiga muvofiq auditorlik tashkiloti quyidagi huquqlarga ega:

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy-hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqish;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'lik hujjatlarni to'liq hajmda olish, shuningdek, ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy javobgar shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish;
- uchinchi shaxslar tomonidan yozma tasdiqlangan axborotni xo'jalik yurituvchi subyektdan olish;
- ishonchli auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan tag'dirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bosh tortish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etishga auditorlar va boshqa mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish.

Auditorlik tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Auditorlik tashkilotining majburiyatlari bo'lib, nimalar hisoblanadi?

Auditorlik tashkilotining majburiyatlari «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida aks ettirilgan. Bularga quyidagi majburiyatlar kiradi:

- auditorlik faoliyatini amalga oshirayotganda ushbu qonunning hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazishga doir shartnoma tuzishdan oldin buyurtmachining talabiga binoan auditorlik faoliyatini o'tkazish huquqini beruvchi tegishli litsenziyani, auditorning malaka sertifikatini taqdim etishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektning so'roviga binoan auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha qonun hujjatlarining talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlari asoslanilgan qonun hujjatlarining normalari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi;

– auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;
– auditorlik hisobotida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi buzilishi faktlarini hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni aks ettirishi;
– xo'jalik yurituvchi subyektga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari zarar yetkazganligini aniq tasdiqlab turgan faktlarni aniqlagan taqdirda bu haqda xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyatiga (mulkdoriga) ma'lum qilishi hamda auditorlik hisobotiga tegishli qaydni kiritishi zarur. Zarur hollarda auditorlik tekshiruvining natijalarini ma'lum qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qatnashchilarning umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishi shart.

Auditorlik tashkiloti zimmasida qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Auditorlik tashkilotining ma'suliyati nimadan iborat?

Auditorlik tashkilotining ma'suliyati bo'lib, qonun hujjatlari talablariga mos holda auditorlik tekshiruvini sifatli va obyektiv holda o'tkazish hamda hisobot va yakuniy xulosani to'g'ri tuzish va tekshiruv jarayonida qonunbuzarlik holatlariga yo'l qo'ymaslik uchun o'z burchiga obyektiv yondashish hisoblanadi.

Agar ular moliyaviy hisobot hamda u bilan bog'liq bo'lgan boshqa moliyaviy axborotlarini tekshirish natijalari asosida tuzgan yakuniy xulosasida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishi oqibatida yetkazilgan zararlar uchun xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchi subyektlar oldida javobgar bo'ladilar.

Agar auditorlik tashkiloti tekshiruvni sifatsiz o'tkazganligi yoki lozim darajada o'tkazmaganligi oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektga yoki auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga zarar etkazilgan bo'lsa, uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashi shart.

11.4. Auditni rejalashtirish bosqichlari va auditorlik tekshiruvini o'tkazish ish dasturi

Auditorlik tekshiruvining natijalari obyektiv va haqqoniy bo'lishligi uchun u puxta ishlab chiqilgan dastur asosida amalga oshirilishi kerak.

Mazkur dastur «Auditni rejalashtirish» nomli auditorlik faoliyatining 3-sonli milliy standartiga mos holda ishlab chiqilmog'i zarur. Auditni rejalashtirish ushbu standartga muvofiq uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1) auditning dastlabki rejasini tuzish;
2) auditning umumiy rejasini tuzish;
3) audit dasturini tuzish.

Auditning dastlabki rejasi tekshiruv buyurtmasi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektdan buyurtma tushgandan keyin to shartnoma tuzilguncha qadar bo'lgan davr oralig'ida tuziladi. Ushbu reja xo'jalik faoliyatining bayoni, boshqaruv tizimining bayoni, buxgalteriya hisobining shakli va tashkiliy tuzilishining tavsifi hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining tahlili kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlik shartnomasi tuzilganidan keyin auditning umumiy rejasi tuziladi. Ushbu reja auditorlik shartnomasida aks ettirilgan maqsad va qo'yilgan vazifalarga mos holda tuziladi. Unda tekshiriladigan xo'jalikning nomi, audit davri, auditni o'tkazishga ketadigan (kishi-soat hisobidagi) vaqt, auditorlik guruhining rahbari, auditni bajaruvchilar, tekshirishga mo'ljallangan ishlar hajmi kabilarning nomi ko'rsatiladi. Bu reja auditorlik guruhi rahbari tomonidan tuziladi, imzolanadi va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Auditni rejalashtirishning uchinchi bosqichi bo'lib, audit dasturini tuzish hisoblanadi. Ushbu dastur auditning umumiy rejasi asosida tuziladi. Ammo dasturda umumiy rejada ko'zda tutilgan jarayonlar hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarga aniqliqlar kiritilib, kengaytirilgan holda ular dasturda o'z aksini topadi.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ish dasturi ham auditorlik tashkilotining rahbari va auditorlik guruhining rahbari tomonidan tuziladi.

Ish dasturida tekshiriladigan tashkilot nomi, audit davri, sarflanadigan kishi-soatlar miqdori, auditorlik guruhining tarkibi, rejalashtiriladigan auditorlik, audit bo'limlari bo'yicha auditorlik amallari ro'yxati aks ettiriladi.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ish dasturi uch bo'limdan iborat bo'ladi:

1) buxgalteriya hisobi va ichki audit holati hamda moliyaviy hisobot sifatini baholash;
2) korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish;
3) kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar va tavsiyalar berish.

Ish dasturining 1-bo'limida auditor quyidagi auditorlik amallarining mavjudligi va qonuniyligiga e'tiborni qaratishi kerak:

– ta'sis hujjatlarining mavjudligi va ustav kapitaliga tegishli bo'lgan balans ma'lumotlarining haqqoniyligini;

– buxgalteriya hisobi registrlari, aylanma va qoldiq balanslarini tanlab tekshirish;
– xo'jalik mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha inventarizatsiya ma'lumotlarining mavjudligi;
– ilgarigi davrlarda auditorlar va soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarning dalolatnomalari hamda auditorlik xulosalarining mavjudligini;
– xo'jalikda ichki auditning tashkil etilish holatini tekshirish;
– hisob va hisobotga oid qonunlar va nizomlarning mavjudligini hamda ularga amal qilish ahvolini.

Ish dasturining 2-bo'limida korxonaning moliyaviy hisoboti va u bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlardagi moliyaviy axborotlarning qonun hujjatlariga mos kelish-kelmaslik holatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ko'zda tutiladi, ya'ni quyidagilar dasturda aks ettiriladi:
– ta'sis hujjatlari, xo'jalikning ichki va tashqi munosabatlarini belgilaydigan me'yoriy hujjatlar mavjudligini tekshirish;
– xususiy kapitalning shakllanishi, kredit resurslarining mavjudligi hamda ishlatilishi holatini tekshirish;
– kassa, hisob-kitob schoti va bankdagi boshqa schotlarda saqlanayotgan pul mablag'lari va pul hujjatlarini;
– uzoq muddatli va joriy aktivlar mavjudligi va holatini;
– mehnatga haq to'lash, hisobdor shaxslar bilan, debitorlar va kreditorlar bilan, budjet bilan bo'ladigan hisob-kitoblar holatini;
– xarajatlar, daromad va moliyaviy natijalarning holatini.

Dasturning 3-bo'limida auditorlik tekshirishi natijasida aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilish bo'yicha berilgan maslahatlar va tavsiyalar aks ettiriladi.

11.5. Tayanch iboralar va tekshirish uchun savollar

Tayanch iboralar

Audit; auditor; auditorlik tashkiloti; auditorlik faoliyati; auditorlik tekshiruvi; majburiy auditorlik tekshiruvi; tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi; auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi; professional xizmatlar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. «Audit» so'zining ma'nosi nimadan iborat?
2. Auditorlik faoliyatining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
3. Auditorlik tekshiruvining tasnifi.

4. Majburiy auditorlik tekshiruvi deganda nima tushuniladi?
5. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining mazmuni nimadan iborat?
6. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Auditning maqsadi nimadan iborat?
8. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari nimalardan iborat?
9. Auditorlik tashkiloti deganda qanday yuridik shaxs tushuniladi?
10. Auditorlik tashkiloti qanday huquqlarga ega?
11. Auditorlik tashkilotining majburiyatlari nimalardan axborot?
12. Auditorlik tashkilotining ma'suliyati nimalardan iborat?
13. Auditni rejalashtirish bosqichlarining tasnifi.
14. Auditning umumiy rejasining mazmunini tushuntiring.
15. Audit dasturining mazmuni va tarkibiy qismlarining tasnifi.

Test savollari va javoblari

1. Auditorlik tekshiruvi qaysi shakllarda o'tkaziladi?

A) Majburiy va ixtiyoriy shakllarda.

B) Majburiy va tashabbus shakllarida.

D) Majburiy va nazorat organlarining tashabbusi bilan.

2. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning qaysi moddasiga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladi?

A) 11-moddasiga muvofiq.

B) 17- moddasiga muvofiq.

D) 10- moddasiga muvofiq.

3. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning qaysi moddasiga muvofiq auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlarga professional xizmatlar ko'rsatadi?

A) 10- moddasiga muvofiq.

B) 17- moddasiga muvofiq.

D) 3- moddasiga muvofiq.

4. Auditorlik tashkiloti deganda qanday shaxs tushuniladi?

A) Auditorlik faoliyatini amalga oshirish guvohnomasiga ega bo'lgan shaxs tushuniladi.

B) Auditorlik faoliyatini amalga oshirish listsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxs tushuniladi.

D) Moliya vazirligi tamonidan tashkil qilingan tashkilot tushuniladi.

5. Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortgan xo'jalik yurituvchi subyektdan eng kam oylik ish haqining necha baravarida jarima o'ndiriladi?

A) O'n baravaridan yuz baravarigacha.

B) Yuz baravari miqdorida.

D) Yuz baravaridan besh yuz baravarigacha.

XULOSA

Ushbu bobda fanning o'quv dasturiga muvofiq rejalashtirilgan:

- audit va auditorlik faoliyatning mohiyati, ahamiyati, maqsadi va vazifalari;
- auditorlik tekshiruvi va auditorlik xizmatlarining tashkil etilishi;
- auditorlar va auditorlik tashkilotlarining huquqlari, vazifalari va ma'suliyatlari;
- auditni rejalashtirish bosqichlari va auditorlik tekshiruvini o'tkazish ish dasturi kabi savollarga berilgan javoblar yetarli darajada yoritildi.

Mazkur masalalarning mazmun-mohiyatini talaba yaxshi o'zlashtirib olsagina, u o'zida egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmani shakllantiradi. Buning uchun u darslikda keltirilgan ushbu mavzuni mustaqil o'qib, ularning mazmuni o'zlashtirishini va unda keltirilgan «o'z-o'zini tekshirish» nazariy va test savollariga mustaqil javob tayyorlashini tavsiya qilamiz.

O'QUV MAQSADI

Namunaviy o'quv dasturiga muvofiq pul mablag'lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi, vazifalari va manbai. kassadagi pul mablag'lari auditi, hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari auditi va valuta mablag'lari auditini mazmun-mohiyati, ahamiyati va audit qilish yo'llarining ushbu bobda yoritilishi va talabalarning ular qurollantirilishi – mavzuning ta'limiy o'quv maqsadini tashkil qiladi.

Pul mablag'lari auditining mazmun-mohiyatini va ahamiyatini tushuntirish orqali pul mablag'laridan samarali foydalanish ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir qilib, oqibatda iqtisodiyotning o'sishiga, foydaning ko'payishi olib kelishi to'g'risidagi fanlar va g'oyani talaba ongiga yetkazish va singdirish–mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Pul mablag'lari auditini iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalangan holda amalga oshirish zarur. Shunday yondashish mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadlarini ifodalaydi.

12.1. Pul mablag'lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.

Pul insoniyatning buyuk kashfiyotlaridan biridir. Pul bozor iqtisodiyotining tani-yu joni hisoblanadi. Pul bozor munosabatlarining asosiy vositasi. Pul yordamida barcha iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladi. Pul tovar ayriboshlashni jadalllashtirganidan iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida pul mablag'laridan samarali foydalanish uning iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir qiladi, oqibatda iqtisodiy o'sishga olib keladi, ya'ni pul daromadining va foydaning ko'payishiga sababchi bo'ladi, agar aksi bo'lsa iqtisodiyotning zaiflashishiga, pul daromadi va foydaning kamayishiga olib keladi. Shuning uchun pul mablag'lari holati va harakati hisobini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish katta ahamiyat kasb etadi.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi pul mablag'laridan foydalanish darajasiga baho berish hamda ularning holati, kirim va chiqimining buxgalteriya hisoblari va hisobotlarida aks ettirilish jarayonini hamda ularning

qonunchilikka qay darajada mos kelishlik holatini tekshirish va xulosalar chiqarish hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvining maqsadiga quyidagi **vazifalarni** hal qilish orqali erishiladi:

1. Pulli xarajatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishlik holatini tekshirish;
2. Buxgalteriya hisobi schotlari, bosh daftar, oborot qaydnomalari va hisobotlar ma'lumotlarining o'zaro mos kelishligini tekshirish;
3. Kassa, hisob-kitob schoti va bankdagi boshqa schotlarning yuritilishi qabul qilingan nizomlarning qoida va tartiblariga mos kelishligini tekshirish;
4. Kirimga olingan va maqsadli sarflangan pul mablag'larining belgilangan qonun-qoidalarga mosligini tekshirish;
5. Pul mablag'larining buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini va hisobotlarda aks ettirilishining to'g'riligini tekshirish;
6. Tekshirish natijalarini tekshiruv xulosasida obyektiv aks ettirish.
7. Pul mablag'lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning ma'lumot manbalari bo'lib buxgalteriya balansi, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, chet el valutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumot, pulli cheklar, buxgalteriya hisobining 5000, 5100, 5200, 5500-schotlarining ma'lumotlari, bosh daftar, hisob-kitob schotidan ko'chirma kabi hujjatlar hisoblanadi.

12.2. Kassadagi pul mablag'larining auditi

Fermer xo'jaligi kassasidagi pul mablag'lari buxgalteriya hisobining 5010-«Milliy valutadagi pul mablag'lari» va 5020-«horijiy valutadagi pul mablag'lari» schotlarida hisobga olib boriladi. Kassadagi pul mablag'lari holati va harakati kassa hisobotida bosh daftar va aylanma qaydnomalarda aks ettiriladi. Ushbu hujjatlar pul mablag'larini audit qilishda asos bo'ladi.

Kassadagi pul mablag'larining holati va harakati fermer xo'jaligi rahbariyati tomonidan doimiy ravishda tekshirilib nazoratdan o'tkazilib turiladi. Shunga qaramasdan, auditorlik tekshiruvidan o'tkazib turilishi ham qonun hujjatlarida belgilab qo'yilishiga asosiy sabab bo'lib, tegishli tashkilotlarga taqdim qilinadigan «pul oqimlari to'g'risida»gi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot ma'lumotlarining to'g'riligini

hamda ularning qonun hujjatlariga mos kelishlik darajasini aniqlash hisoblanadi.

Xo'jalikning kassadagi pul mablag'larining auditi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- kassadagi pul mablag'larining haqiqiy miqdori inventarizatsiya qilinadi;
- haqiqiy pul mablag'larining miqdori buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirilib, farqi aniqlanadi;
- kassa schotlaridagi ma'lumotlar buxgalteriya balansining aktiv tomonidagi «Joriy aktivlar» ga tegishli bo'lgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi;
- pul mablag'larining kirimi va chiqimi «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari bilan solishtirilib, tekshiruvdan o'tkaziladi;
- pul mablag'larining buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirilishi ekspertiza qilinadi.

Tekshirish natijalari umumlashtirilib belgilangan tartibga rasmiylashtiriladi. Auditor pul mablag'larini audit qilish paytida noqonuniy operatsiyalar yuzaga kelganligini aniqlashi zarur. Bularga misol qilib,

- turli yo'llar bilan naqd pullarni noqonuniylashtirilishini;
- pul mablag'larini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi schotlari bilan hisobotlaridagi ma'lumotlarning o'zaro mos kelmaslik holatlarining mavjudligini ko'rsatish mumkin.

Auditor kassadagi pul mablag'larini kassa kirim-chiqim orderlari, ko'chirmalari, buxgalteriya hisobi schotlari, aylanma qaydnomalari va moliyaviy hisobotlar orqali tekshiradi. Tekshirish natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar, mos kelmasliklar va noqonuniy operatsiya ma'lumotlarini aks ettiradi, bunda noqonuniy operatsiyalarni yuzaga kelishiga aybdor bo'lgan shaxslar aniq ko'rsatilishi kerak.

12.3. Bankdagi hisob-kitobi schotidagi pul mablag'larining auditi

Fermer xo'jaligi boshqa qishloq xo'jalik korxonalari kabi o'zining pul mablag'larini bankdagi 5110-«Hisob-kitob schoti» da saqlaydi. Fermer xo'jaligining boshqa korxona, tashkilot va muassasalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblari asosan shu schot orqali amalga oshiriladi. Pul mablag'larining kirimi va qoldig'i ushbu schotning debet tomonida, chiqimi esa qoldiq tomonida aks ettiriladi. Bu schot pul mablag'larining holati va harakati

to‘g‘risidagi ma’lumotlar bankdan olingan «Bank ko‘chirmasi» va unga ilova qilingan hujjatlar orqali fermer xo‘jaligi buxgalteriyasiga ma’lum bo‘ladi. Mazkur hujjatlar asosida xo‘jalikda yuritiladigan «Hisob-kitob schoti»ning debet va kredit tomonidan pul mablag‘larining kirim va chiqimlari aks ettiriladi.

Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘larining auditi ushbu hujjatlar, aylanma qaydnomalar, balans, bosh kitob va «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» ma’lumotlariga asoslanib olib boriladi.

Pul mablag‘larining audit qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat? Pul mablag‘larini audit qilishning asosiy maqsadi bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi, hisob ishlarining to‘g‘ri yuritilganligini va moliyaviy hisob-kitob intizomiga to‘liq rioya qilinayotganligini tekshirish hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar va tasdiqlangan nizomlar asosida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonun, «Bank va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun, «Naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizom, «O‘zbekiston Respublikasi banklarida joriy va hisob-kitob schotlarining ochilishi to‘g‘risida»gi nizom, «O‘zbekiston Respublikasi banklarida joriy va hisob-kitob schotlarining ochilishi to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma, «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini buzganligi uchun jarimalar to‘g‘risida»gi nizom va boshqa me’yoriy-yuridik hujjatlarni ko‘rsatish mumkin.

Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘larining auditi quyidagi tartib bo‘yicha amalga oshiriladi:

- bank ko‘chirmalari va ularga ilova qilingan hujjatlarning to‘g‘riligi va o‘zaro mos kelishligi tekshiriladi;
- ko‘chirmalar va ilova qilingan hujjatlarda bank muhrining mavjudligi tekshirilad;
- topshirilgan naqd pullarning bank tomonidan to‘liq qabul qilinganligi dastlabki hujjatlar asosida tekshiriladi;
- bank cheklaridan to‘g‘ri foydalanganlik ahvoli tekshiriladi;
- hisob-kitob schoti operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi yozuvlarining aks ettirilish holati tekshiriladi;
- hisob-kitob schoti bo‘yicha aks ettirilgan ma’lumotlar bosh kitob, aylanma qaydnoma, balans hamda «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» ma’lumotlarga mos kelishligi tekshiriladi.

Auditor, birinchi navbatda, buxgalteriya balansida 5110-«Hisob-kitob»schotining qoldig'ini tekshiradi. Balansdagi hisob-kitob schotining qoldig'i aylanma qaydnoma, bosh kitob ma'lumotlari bilan solishtirilib tekshiriladi. Farq aniqlansa, alohida qayd qilinadi. Hisob-kitob schotidagi ma'lumotlarni analitik schot va bank ko'chirmalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilib, jarayon natijasiga baho beriladi. Fermer xo'jaligida yuritiluvchi hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari qoldiqlarining to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun auditor bankka yozma ravishda murojaat qilib, ushbu schotning bankdagi haqiqiy qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotni oladi. Fermer xo'jaligining hisob-kitob schotidan to'langan pul mablag'lari haqiqatan ham bajarilgan ishlarning hajmiga, qabul qilingan tovar-moddiy boylik miqdoriga to'liq mos kelishligi zarur. Ushbu bog'liqlik qonuniyatini auditor esda saqlashi zarur.

«Hisob-kitob schoti»dagi pul mablag'lari holati va harakatini aniq qilish natijasida paydo bo'lgan mos kelmaslik, moliyaviy intizomning buzilishi, noqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar natijalari umumlashtiriladi, rasmiylashtiriladi va ular auditor hisobotida va xulosasida batafsil aks ettiriladi.

12.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Pul. Pul mablag'lari. Valuta mablag'lari. Pul oqimlari. Buxgalteriya balansi. Moliyaviy hisobot. Auditor. Pul mablag'lari auditi. Kassa auditi. Hisob-kitob schoti auditi. Valuta mablag'lari auditi.

Takrorlash uchun savollar

1. Kassadagi pul mablag'larining inventarizatsiyasi tushunchasi.
2. Kassadagi pul mablag'larini audit qilish tartibi.
3. Kassadagi pul mablag'larining auditi.
4. Kassadagi pul mablag'lari auditi natijalarini rasmiylashtirish.
5. Kassadagi pul mablag'larining hisobi.
6. Hisob-kitob schotining mazmuni.
7. Hisob-kitob schotidagi pul mablag'larini tekshirish tartibi.
8. Hisob-kitob schotidagi pul mablag'larining auditi.
9. Hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari auditi natijalarini rasmiylashtirish.

XULOSALAR

Namaunaviy o'quv dasturiga mos holda mavzu bo'yicha rejalashtirilgan savollar: pul mablag'lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari, kassadagi pul mablag'larining auditi, hisob-kitob schotidagi pul mablag'larining auditi va chet el valutasidagi pul mablag'lari auditining mazmun mohiyati va uni o'tkazish yo'llari yetarli darajada yoritilgan. Bularni talaba yaxshi o'zlashtirib olishi uchun darslik bo'yicha mavzuni yaxshi o'qib, mazmun – mohiyatini egallashi, keltirilgan nazariy savollarga yetarli darajada javob tayyorlashi va masalani mustaqil bajarishini tavsiya qilamiz.

13-bob. MEHNAT HAQI, TURLI DEBITOR VA KREDITORLAR, BUDJET VA BUDJETDAN TASHQARI TO'LOVLAR BO'YICHA HISOB-KITOBLAR AUDITI

O'QUV MAQSADI

Namunaviy o'quv dasturiga mos holda rejalashtirilgan masalalar – mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar, turli debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar, budjet va budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar auditining mazmun-mohiyati va ahamiyatining ham nazariy, ham uslubiy jihatlarining yoritilishi mavzusining *ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil qiladi.

Mavzudagi masalalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish orqali talabalar ongiga mehnat haqini to'g'ri hisoblash va to'lash xodimlarda moddiy va ma'naviy qiziqishni uyg'otishligi, debitor va kreditor qarzlarini mo'tadil holatga keltirish moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga olib kelish, budjetga to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida to'lanishi davlat budjetining mustahkamlanishi va mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga olib kelishligi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni singdirish mavzuning *tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

13.1. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarining auditi

Fermer xo'jaligida mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar buxgalteriya hisobida 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar hisobi schoti» va 6720-«Deponentlashgan ish haqi hisobi schoti»da olib boriladi. Ushbu hisob-kitob schotlari balansga nisbatan passiv schotlar bo'lib hisoblanadi.

Mehnat haqining ma'lum sanaga qoldig'i va joriy davr uchun hisoblangan summasi 6710-schotining kreditida, joriy davrda xodimlarga berilgan mehnat haqi summasi hamda undan ushlangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar uning debetida hisobga olib boriladi.

Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar auditi 6710, 6720-schotlari hamda shular bilan korrespondensiyada bo'ladigan boshqa schotlarning ma`lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar hisobi schoti» kreditlanib, quyidagi schotlar debetlanadi:

2010-«Asosiy ishlab chiqarish schoti».

2310-«Yordamchi ishlab chiqarish schoti».

2510-«Umumishlab chiqarish harajatlari hisobi schoti».

0800-«Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schotlar».

8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) schoti».

9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketish schoti».

9400-«Davr harajatlarini hisobga oluvchi schotlar».

9720-«Favquloddagi zararlarni hisobga oluvchi schot» va boshqa schotlarning debeti bilan ham korrespondensiyalanishi mumkin.

Xodimlarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari auditi, asosan, yuqorida ko'rsatilgan schotlardagi ma'lumotlarni o'zaro solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Xodimlarga berilgan ish haqi summasi va undan ushlab qolingan soliq, boshqa ushlangan summalar bo'yicha hisob-kitoblar auditi 6710-schoti va u bilan korrespondensiyada bo'lgan schotlarning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ma'lumki, ishchi-xizmatchilarga berilgan ish haqi va undan ushlangan summalar 6710-schotning debetida va quyidagi schotlarning kreditida aks ettiriladi:

6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schot».

4710-«Kreditga sotilgan tovar bo'yicha xodimlarning qarzini hisobga oluvchi schot».

6990-«Boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schotlar».

5010-«Milliy valutadagi pul mablag'lari hisobi schoti» va boshqa schotlar bilan ham korrespondensiyalanishi mumkin.

13.2. Turli debitorlar va kreditorlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi

Turli debitorlar bilan bo'ladigan operatsiyalarning hisob-kitoblari buxgalteriya hisobida 4800-«Turli debitorlar qarzlarini hisobga oluvchi schotlar» da aks ettiriladi. Bu schot, o'z navbatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

4810-«Uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan joriy to'lovlar schoti».

4820-«Qisqa muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar schoti».

4830-«Olinadigan foizlar schoti».

4840-«Olinadigan dividendlar schoti».

4850-«Olinadigan royalti schoti».

4860-«Da'volar bo'yicha olinadigan schotlar».

4890-«Boshqa debitorlar qarzlari schoti».

Bular aktiv schotlardir. Bularning debetida qoldig'i va joriy davrda yuzaga kelgan qarzlar summasi, kreditida joriy davrda undirib olingan qarzlar summasi aks ettiriladi.

Turli debitorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar auditi yuqorida keltirilgan va ular bilan o'zaro aloqada (korrespondensiyada) bo'lgan schotlar, bosh daftar, aylanma qaydnoma, balans, moliyaviy hisobot tarkibidagi «debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» (2[a] shakli) va dastlabki hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Auditor ushbu operatsiyalarning qonuniyligiga alohida e'tibor berishi zarur. Audit paytida auditor to'lash muddati o'tib ketgan qarzlar, tan olinmagan qarzlar, asossiz qarzlarni aniqlashi va aybdor kim ekanligini ko'rsatishi zarur.

Turli kreditorlar bilan bo'ladigan operatsiyalarning hisob-kitoblari buxgalteriya hisobida 6900-«Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schotlar»da hisobga olib boriladi. Bular, o'z navbatida, quyidagi schotlarni o'z ichiga oladi:

6910-«To'lanadigan qisqa muddatli ijara haqi schoti».

6920-«Hisoblangan foizlar schoti».

6930-«Royalti bo'yicha qarz schoti».

6950-«Uzoq muddatli majburiyatlar-joriy qismi schoti».

6960-«Da'volar bo'yicha to'lanadigan schotlar».

6970-«Hisobdor shaxslarda bo'lgan qarz schoti».

6990-«Boshqa majburiyatlar schoti».

Bu schotlar balansga nisbatan passiv schotlari bo'lib hisoblanadi. Bularning kreditida majburiyatlarning qoldig'i va joriy davrda yuzaga kelgan majburiyatlarning summalari, debetida esa to'langan summalar aks ettiriladi.

Turli kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitob auditi ushbu schotlar va ular bilan o'zaro aloqada bo'lgan schotlarning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Audit etishda buxgalteriya hisobi schotlari nafaqat o'zaro

solishtirilib, hatto ular bosh daftar, aylanma qaydnomalar, balans, moliyaviy hisobot tarkibidagi 2a-shakl bo'yicha yuritiladigan «Debitorlik va kreditorlik qarzlari harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma», dastlabki hujjatlardagi ma'lumotlarga qiyoslanib, amalga oshiriladi.

Korxonalar faoliyatida o'zaro nizolar kelib chiqishi mumkin. Bularni auditor alohida tekshirib, asosli xulosa chiqarishi kerak. Auditor bildirilgan da'volarning mazmun-mohiyatini yaxshi o'rganib, ularning qanchalik to'g'ri ekanligini, yuridik jihatdan asoslanganligini, buxgalteriya hisobi schotlarida asosli aks ettirilganligini tekshirib, obyektiv xulosaga kelishi kerak.

Da'volar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'riligi 6960-«Da'volar bo'yicha to'lanadigan schotlar»ning krediti va ular bilan o'zaro aloqada bo'lgan quyidagi schotlar debeti orqali auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi kerak:

1100-«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schotlar» (1110–1120-schotlari bo'yicha);

1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (1010–1090 schotlarning har biri bo'yicha);

0800-«Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schotlar» (0810–0890 schotlarining har biri bo'yicha);

2800-«Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schotlar» (2800–2830 schotlarining har biri bo'yicha);

4860-«Da'volar bo'yicha olinadigan schotlar» va boshqa schotlar;

Da'volarning to'langanligi 6960-«Da'volar bo'yicha to'lanadigan schotlar»ni debeti va quyidagi schotlarning krediti orqali tekshiriladi:

5110-«Hisob-kitob schoti».

5210-«Mamlakat ichidagi valuta schotlari».

Auditorlik tekshiruvi natijasida turli debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar, o'zaro mos kelmasliklar, da'volar auditor hisobotida va xulosasida aks ettiriladi.

13.3. Budjet va budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi

Qishloq xo'jalik korxonalari ham boshqa ishlab chiqarish sohalarining korxonalari kabi budjetning daromad qismining shakllanishida ma'lum miqdorda soliq to'lovlari orqali o'z hissasini qo'shadi.

Budjetga to'lovlar bo'yicha bo'ladigan operatsiyalarning hisob-kitoblari buxgalteriya hisobida 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz schoti»da, budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar 6520-«Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar schoti»da hisobga olib boriladi.

Bu schotlar passiv schotlari bo'lib hisoblanadi. 6410-schotining kreditida soliqlar qoldig'i va joriy davrda budjetga to'lash uchun hisoblangan soliqlar summasi, debetda esa budjetga to'langan soliqlar summasi aks ettiriladi.

6520-schotining kreditida korxona tomonidan to'lanmagan ajratmalar bo'yicha qarzining qoldig'i va hisobot davrida hisoblangan ajratmalarning summalari, debetida esa to'langan ajratmalar summalari ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jalik korxonasining budjet oldidagi majburiyatlari (to'lovlari) auditning muhim obyekti hisoblanadi. Soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va budjetga to'lanishi, asosan, soliq organlari orqali nazorat qilinadi. Shu bilan bir qatorda xo'jalik faoliyatiga xolisona baho berish uchun auditorlik nazoratidan o'tazishni hayot taqozo etadi. Shuning uchun shartnomaga asosan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni auditi o'tkaziladi.

Korxonaning budjet oldidagi majburiyatlari moliyaviy hisobotning birinchi shakli «Buxgalteri balansi» bilan, ikkinchi shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da keltirilgan. Budjet bilan korxonaning hisob-kitoblari buxgalteriya hisobining 6410-schotida olib boriladi. Auditor dastavval ushbu schotning qoldig'ini buxgalteriya balansi bo'yicha aniqlaydi. Mazkur schotning qoldig'i Bosh kitob, aylanma qaydnomalar va «moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot tarkibida keltirilgan «Budjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumotnoma» ko'rsatkichlari bilan solishtirilib, tekshiriladi.

Turli mulk shaklidagi korxonalar budjetga bir necha turdagi soliqlar va to'lovlarni to'laydi. Soliq turlari korxonaning mulk shakli, faoliyat yo'nalishiga bevosita bog'liq va «Soliq kodeksi» bilan muvofiqlashtirilib boriladi.

Korxonaning budjet bilan soliqlar bo'yicha bo'ladigan operatsiyalar hisob-kitoblarining auditi quyidagi ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi:

- soliq bazalarining to'g'ri hisoblanganligini aniqlash;
- soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanilganligini tekshirish;
- soliq stavkalari va soliq summalarining to'g'ri hisoblanganligini tekshirish;

- soliqlarning belgilangan muddatda va tegishli summani to'liq budjetga o'tkazilganligini tekshirish;
- buxgalteriya hisobi schotida soliq bo'yicha bo'lgan operatsiyalarning to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;
- budjetga to'lovlar bo'yicha taqdim qilinadigan hisobot ma'lumotlarining to'g'riligini tekshirish.

Auditor korxonaning soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarini 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz schoti» va u bilan o'zaro bog'lanadigan schotlardagi yozuvlar orqali tekshiradi. Hisoblangan soliqlarning to'g'riligi 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz schoti»ning kreditidagi yozuvlar 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar», 9820-«Foydadan hisoblangan soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schotlari bilan solishtirilib ko'riladi. Budjetga to'langan soliqlarning to'g'riligi esa 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz schoti»dagi debet summa bilan 5110-«Hisob-kitob schoti»dagi kredit summasi o'zaro solishtirilib ko'riladi. Sotilgan tayyor mahsulotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i bilan aksiz solig'ining to'g'ri hisoblanganligini aniqlash uchun 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schot»ning debetidagi va 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdor schoti»ning kreditidagi summalarni o'zaro solishtirilib tekshirish orqali aniqlanadi. Boshqa soliq turlari ham ma'lum schotlardagi yozuvlar orqali audit qilinadi.

Budjet bilan bo'ladigan hisob-kitoblar turlarining har biri alohida analitik hisob registrlarida aks ettirib boriladi va o'shalar audit qilishda asos bo'ladi. Budjet bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda tekshirish natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar va noqonuniy sodir bo'lgan operatsiyalar auditor hisobotida va xulosasida aks ettiriladi.

Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi 6520-schot va ular bilan bevosita aloqada bo'lgan schotlardagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu schotning krediti (ajratmalarining hisoblanishi) quyidagi 0710, 0720, 0810–0890, 1010, 2010, 2310, 2510, 2790, 9419, 9550 va korrespondensiyada bo'lgan boshqa schotlarning debetidagi ma'lumotlar bilan solishtirilib, auditorlik tekshiruvi nazoratidan o'tkaziladi. Ushbu schotlar debetida (to'langan mablag'lar summasi)

quyidagi 5010, 5110, 5210, 5510, 5530-schotlarining krediti bilan solishtirilib audit qilinadi.

Audit vaqtida ushbu schotlarning ma'lumotlari bosh daftar, aylanma qaydnomalar, balans ma'lumotlari o'zaro solishtirilib, tekshiriladi.

Auditor mulkiy va ijtimoiy sug'urtalar bo'yicha yuzaga kelgan operatsiyalarni tekshirganda sug'urta qilingan mol-mulklarning miqdoriga, ijtimoiy sug'urtalarni tekshirganda belgilangan me'yorlar asosida tuzilgan hisob-kitoblarning ma'lumotlari va aniqlangan summalarning to'g'riligiga alohida e'tibor berishi kerak.

Ijtimoiy sug'urtani tekshirayotganda davlat ijtimoiy sug'urta fondi, nafaqa fondi, aholining bandlik fondi kabi fondlarning har birini hisob-kitobining to'g'riligiga ahamiyat berish kerak.

Budjetdan tashqari to'lovlarning hisob-kitoblari bo'yicha olib borilgan tekshiruv natijasida aniqlangan kamchiliklar auditorlik hisoboti va xulosasida o'z aksini topadi.

13.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar. Mehnat haqi auditi. Nafaqa auditi. Debitorlar. Kreditorlar. Debitorlar auditi. Kreditorlar auditi. Da'volar bo'yicha hisob-kitoblar auditi. Budjet bilan hisob-kitoblar auditi. Ijtimoiy sug'urta auditi.

Takrorlash uchun savollar

1. Mehnat haqi bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar auditining tasnifi.
2. Hisoblangan mehnat haqi va undan ushlanadigan to'lovlar to'g'riligi qanday tekshiriladi?
3. Nafaqa bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning auditi.
4. Turli debitorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar auditining tasnifi.
5. Turli kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar auditi.
6. Da'volar bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar auditining tasnifi.
7. Davlat budjetiga soliqlar bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblar auditi.
8. Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi.

XULOSA

Fanning o'quv dasturiga muvofiq ushbu mavzu bo'yicha rejalashtirilgan savollar: mehnat haqi bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari auditi, turli debitorlar va kreditorlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi, budjet va budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi mazmun-mohiyati va uni o'tkazish yo'llari ushbu bobda yetarli darajada yoritilgan. Bularni talaba yaxshi o'zlashtirib olsa, bu mavzu bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka egasi bo'la oladi. Shuning uchun talaba ushbu mavzuni mustaqil o'qib, masalalarni ham nazariy, ham uslubiy mazmunini yaxshi egallashini tavsiya qilamiz, chunki kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishida ular asos bo'lib, xizmat qiladi.

14-bob. MODDIY BOYLIKLAR VA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI AUDITI

O'QUV MAQSADI

Moddiy boyliklar bo'lib, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, xomashyo va materiallar, tovar mahsulotlar kabi mehnat vositalari va mehnat predmetlari hisoblanadi.

Mazkur mavzuda asosiy vositalar xomashyo va materiallar, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxi auditining ham nazariy, ham uslubiy jihatlarining yoritilishi mavzuning *ta'limiy o'quv maqsadini tashkil etadi*, chunki bu mavzu bo'yicha ularni o'zlashtirish orqali talaba egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka unda shakllanadi.

Moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha o'tkaziladigan auditning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini tushuntirish orqali talabalar ongiga moddiy boyliklarni saqlanishi va ulardan samarali foydalanilishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, xarajatlarning kamaytirilishi esa foydaning ko'payishiga, iqtisodiyotning mustahkamlanishiga olib kelishligi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni singdirish imkoniyatini beradi. Bu esa *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadini* ifodalaydi.

Auditni uyushtirishda nafaqat asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar holatini, balki ulardan foydalanish samaradorligini ham tekshirish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun shu jarayonni o'zaro bog'lagan holda o'rganish *mavzuning rivojlantiruvchi o'quv maqsadini* tashkil qiladi.

14.1. Asosiy vositalarning auditi

Asosiy vositalar uzoq muddat xizmat qiluvchi va ishlash jarayonida o'z shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalaridir. Bularga binolar, inshootlar, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va boshqa mehnat vositalari kiradi. Fermer xo'jaliklarida asosiy vositalar buxgalteriya hisobining 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar» va 0310-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»da hisobga olib boriladi. Bu schotlar balansga nisbatan aktiv schotlar bo'lib hisoblanadi. Bularning debetida ularning qoldig'i bilan joriy davrda qabul qilinganlarini kirimi, kreditida esa ularning chiqimi aks ettiriladi. Asosiy vositalarning eskirishi 0200-«Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar»da hisobga olib boriladi. Bu schotning kreditida asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summasi,

debetida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish paytida ularga hisoblangan eskirish summasining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Yuqoridagi schotlardan tashqari 010-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar schoti» yuritiladi.

Mazkur schotlardagi ma'lumotlar, balans, aylanma qaydnoma, bosh kitob va hisobot ko'rsatkichlari asosiy vositalar auditini o'tkazish uchun asos bo'ladi. Audit ularning qoldiqlarini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun auditor buxgalteriya balansidagi asosiy vositalarning hisobot davri boshidagi va oxiridagi qoldiqlarini aylanma qaydnomalar va bosh kitob qoldiqlari bilan solishtirib tekshiradi.

Auditor asosiy vositalarning ushbu schotlardagi qoldiqlarini ularning haqiqiy qoldig'i bilan ham solishtiradi. Asosiy vositalarning haqiqiy qoldig'i inventarizatsiya qilish natijasida aniqlanadi. Shundan keyin asosiy vositalarning harakati, ya'ni kirim va chiqimi audit qilinadi.

Asosiy vositalarning kirimi audit qilinganda kirim hujjatlari asosida asosiy vositalarning to'g'ri baholanishiga, buxgalteriya hisobi schotlarida ham sonining, ham hajmining to'g'ri aks ettirilishiga e'tibor beriladi. Yangi jihozlar qabul qilinganida ularning to'liqligiga, texnik holatiga alohida e'tibor beriladi. Ayrim hollarda korxona tomonidan ma'naviy eskirgan asosiy vositalar xarid qilingan bo'lishi mumkin. Qurilish orqali kirim qilingan asosiy vositalarning smetalari, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining hisob-kitoblari to'liq tekshiriladi. Asosiy vositalar ta'sischilardan, homiylardan va boshqa shaxslardan tekinga olingan bo'lsa, ushbu jarayonni auditor qabul qilish hujjatlari, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari va buxgalteriya yozuvlarini solishtirish orqali tekshiradi.

Auditor asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va tugatilishi holati auditini ham maxsus amalga oshiradi. Asosiy vositalar to'liq eskirgan, o'z foydalanish muddatini to'liq o'tagandan keyingina hisobdan chiqarilishi lozim. Agar asosiy vosita to'la eskirmasdan yoki o'zi bajaradigan ish hajmini bajarmasdan xo'jalikdan chiqib ketgan bo'lsa, uning sabablari chuqur o'rganiladi. Imorat va inshootlar xo'jalikdan chiqarilganda, ularga amortizatsiya to'g'ri hisoblanganligi, buzishdan olingan inventar va materiallarning to'liq kirim qilinganligi, tabiiy ofat natijasida xo'jalikdan chiqqan bo'lsa, so'g'urta qaytimi olingan-olinmaganligi, chorva mollari so'yish orqali chiqarilgan bo'lsa, go'sht va go'sht mahsulotlarining to'liq daromadga olinganligi, ko'p yillik dov-daraxtlar bo'lsa, siyraklashib qolgan holati kabilar chuqur tekshirilishi kerak. Bunday operatsiyalarni auditor asosiy vositalarning holatini va eskirishini aks ettiruvchi hujjatlar hamda ularning pasporti orqali tekshiradi.

Auditor asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirilishiga alohida e'tiborni qaratishi kerak. Auditor 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar», (0310-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar schotlari») va ular bilan bog'liq bo'lgan schotlarning buxgalteriya hisobi yozuvlarini bir-biriga solishtirib chuqur tekshiradi. Asosiy vositalarning ko'payishini ularning turlari bo'yicha 0110-«Yer», 0120-«Binolar,inshootlar va uzatuvchi moslamalar», 0130-«Mashina va asbob-uskunalar», 0160-«Transport vositalari» va boshqa schotlarning debet tomonida aks ettirilgan bo'ladi. Auditor ushbu schotlardagi yozuvlarni 0820, 0840, 0310, 4710, 8510, 8530 va boshqa schotlarning kreditdagi yozuvlari bilan o'zaro solishtirish orqali tekshiradi. Asosiy vositalarning ko'payganligi to'g'risidagi ma'lumotlar dastlabki hujjatlarda (qabul qilish dalolatnomalari, schot-fakturalar, nakladnoylar, vedomostlarda) o'z aksini topgan bo'ladi. Asosiy vositalarning kamayishini ham auditor 9210, 9310, 0200, 8530, 5110, 5200 va boshqa schotlardagi ma'lumotlar bilan o'zaro solishtirib tekshiradi. Audit qilish natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar auditor tomonidan umumlashtirilib, belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Tekshiruv natijasi auditorlik hisoboti va xulosasida o'z aksini topadi.

14.2. Xomashyo va materiallarning auditi

Xomashyo va materiallar tovar-moddiy boyliklarning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jalik korxonasida xomashyo va materiallarni to'g'ri hisobga olish va nazoratini tashkil qilish iqtisodiyot taraqqiyoti nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga egadir. Xomashyo va materiallar mahsulot ishlab chiqarishning asosini tashkil qiladi. Ularning qiymati ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladi. Ular qancha kam sarflansa, mahsulot shuncha arzonga tushadi. Demak, xomashyo va materiallardan samarali foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan moddiy xarajatlar hissasi kamayib, foyda oshib boradi. Shuning uchun ham xomashyo va materiallar hamda ulardan foydalanish darajasini audit qilish muhim ahamiyatga ega.

Xomashyo va materiallar buxgalteriya hisobida 1010-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar»da hisobga olib boriladi. Bular, o'z navbatida, quyidagi schotlarni o'z ichiga oladi:

1010-«Xomashyo va materiallar».

1020-«Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar».

1030-«Yoqilg'i».

1040-«Ehtiyot qismlar».

1060-«Idish va idishbop materiallar».

1070-«Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar».

1080-«Inventar va xo'jalik jihozlari».

1090-«Boshqa materiallar».

Ushbu schotlar balansga nisbatan aktiv schotlardir. Bu schotlarning debetida saldosi va joriy davrdagi kirimi, kreditida esa joriy davrdagi chiqimi (sarf-xarajati) hisobga olib boriladi.

Ushbu schotlarning ma'lumotlari xomashyo va materiallarni audit qilish uchun asos bo'ladi. «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» ma'lumotlarini ular bilan o'zaro aloqada bo'ladigan schotlar, bosh daftar, aylanma qaydnoma va balans ma'lumotlari bilan solishtirish orqali auditorlik tekshiruvi amalga oshiriladi.

Auditor xomashyo va materiallarning holati va harakatini quyidagi tartibda audit tekshiruvidan o'tkazadi:

- xomashyo va materiallarning haqiqiy qoldig'ini inventarizatsiya o'tkazish orqali aniqlaydi va uni buxgalteriya hisobi schotlaridagi qoldig'i bilan solishtirish yo'li bilan tekshiradi;
- xomashyo va materiallar narxining to'g'ri qo'yilishi va unga amal qilinishini tekshiradi;
- materialllar kirimi va chiqimi bilan bog'liq operatsiyalarni to'g'ri hujjatlashtirilganligini va buxgalteriya hisobi schotlarida aniq aks ettirilganligini tekshiradi;
- sarflangan xomashyo va materiallarning mahsulot tannarxiga to'g'ri olib borilganligini tekshiradi;
- tovar-moddiy boyliklar tarkibidagi materiallarning normativ zahiralar bo'yicha saqlanish holati tekshiriladi.

Auditor xomashyo va materiallarni audit qilganda, ishlab chiqarish jarayonining xomashyo va materiallar bilan ta'minlanish darajasiga, materiallarga bo'lgan talab darajasining asoslanganligiga, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga ketadigan asosiy va qo'shimcha materiallarning me'yoriga mos kelishligiga, mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning asoslanganligiga, xomashyo materiallar uchun ortish-tushirish va tashish xarajatlarining to'g'riligiga va boshqalarga e'tibor berishi kerak.

Xomashyo va materiallarning qoldig'i buxgalteriya balansining aktiv tomonidagi, ikkinchi bo'limda aks ettirilgan. Ushbu qoldiq moddiy resurslarning haqiqiy hajmi bilan solishtiriladi. Buning uchun auditor xomashyo va materiallarning inventarizatsiyasini o'tkazadi. Inventarizatsiya jarayonida xomashyo va materiallarning sifatiga, foydalanish muddatlariga alohida e'tibor beriladi.

Xomashyo va materiallarning haqiqiy qoldig'i aniqlanganidan so'ng, ularning harakati va ulardan foydalanish ahvoli tekshiriladi. Bunday tekshiruv faqat hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Auditor ishonch qog'ozlari, *schot-fakturalar, kirim nakladnoylari, chiqim* nakladnoylari kabi dastlabki hujjatlardan keng foydalanadi.

Xomashyo va materiallar harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar 1000 schotning debeti va u bilan aloqada bo'lgan schotlarning kreditidagi yozuvlar orqali audit qilinadi. Bunda mol yetkazib beruvchilar bilan olib borilgan hisob-kitoblar (6010, 5110, 5200, 5500 va boshqa schotlar bo'yicha), materiallar bo'yicha mol yetkazib beruvchilarga bildirilgan da'volar va ularning undirilib olinishi 1000, 6010, 5110, 5200 va boshqa schotlar bo'yicha tekshiriladi. Auditor xomashyo va materiallar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'riligining auditini 1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar», 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz», 4410-«Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar», 5110-«Hisob-kitob schoti» va boshqa schotlar orqali amalga oshiradi.

Xomashyo va materiallarning ishlab chiqarishga sarf qilinishi, sotilishi va hisobdan chiqarilishi 1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar»ning krediti va u bilan bog'liq bo'lgan schotlarning debetidagi yozuvlar orqali audit qilinadi. Ushbu schotning kreditidagi yozuvlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish»,2310-«Yordamchi ishlab chiqarish», 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari», 2800-«Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schotlar», 9720-«Favquloddagi zararlar», 4730-«Moddiy zararlarni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzlari», 6310-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan bo'naklar», 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar», 5110-«Hisob-kitob» schoti, 5200-«Chet el valutalaridagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlar» kabi schotlarning debetidagi yozuvlar bilan solishtirish orqali tekshiriladi. Mos kelmaslik holatlarining sababi o'rganiladi.

Auditor korxonada mavjud bo'lgan xomashyo va materiallarning holati va harakatini tekshirib bo'lganidan keyin unda aniqlangan xato-kamchiliklar va noqonuniy operatsiyalar auditor hisoboti va xulosasida aks ettirilishi kerak.

14.3. Ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx auditi

Iqtisodiyotning har qanday subyekti xarajat qilmay turib, o'z faoliyatini yurgiza olmaydi. Shunday subyektlardan biri bo'lib, fermer va shirkat xo'jaliklari hisoblanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab

chiqarish xarajatlarsiz sodir bo'lmaydi. Ishlab chiqarish xarajatlari, asosan, urug', o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari, yem-xashak, mehnat haqi kabilardan iborat bo'ladi. Xarajatlar qancha kam sarflansa, tannarx pasayadi, foyda ko'payadi, oqibatda korxona iqtisodiyoti mustahkam bo'ladi. Shu bois xarajatlarni doimiy ravishda nazorat qilib turish katta ahamiyatga ega.

O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari buxgalteriya hisobining 2010-«Ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar»da hisobga olib boriladi. Ushbu schotning debetida xarajatlarning davr boshiga qoldig'i va joriy davrda sarf bo'lgan xarajatlar, kreditida qabul qilingan tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi summasi aks ettiriladi.

2010-schotining debeti mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar hamda yordamchi ishlab chiqarish, boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bilvosita xarajatlar aks ettiriladi. Bunda 2010-schoti debetlanib, quyidagi schotlar kreditlanadi:

1010-«Xomashyo va materiallar schoti».

1030-«Yoqilg'i».

2310-«Yordamchi ishlab chiqarish schoti».

2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari schoti».

6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar schoti».

6520-«Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar schoti» va boshqa schotlar bilan ham korrespondensiyada bo'lishi mumkin.

2010-schotning krediti quyidagi schotlarning debeti bilan korrespondensiyalanadi:

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar schoti».

9110-«Realizatsiya qilingan tayyor mahsulotlarning tannarxi schoti».

2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar schoti».

9720-«Favquloddagi zararlar schoti».

Demak, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi 2010-schotining debeti 1010, 1030, 2310, 2510, 6710, 6520 va korrespondensiyalangan boshqa schotlardagi yozuvlar orqali, kreditdagi tayyor mahsulot tannarxi summasi 2810, 9110, 2610, 9720-schotlaridagi ma'lumotlar orqali audit qilinadi.

Audit jarayonida tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxining to'g'ri hisoblanishiga, ya'ni quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi kerak:

– mahsulot ishlab chiqarish tannarxining to‘g‘ri shakllanganligiga;
– tannarx tarkibining to‘g‘ri aniqlanganligiga (moddiy xarajatlar, ish haqi xarajatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligiga);
– tayyor mahsulotning sotish bahosining to‘g‘ri belgilanganligiga.

Ma’lumki, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bilan ishlab chiqarish xarajatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘ladi. Ular korxonaning moliyaviy holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu maqsadlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmini, tannarxini haqiqatda qilingan xarajatlarning turlari bo‘yicha hisobga olib borish va audit qilish ijobiy natijalar beradi. Tayyor mahsulotlar tannarxini o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar bo‘yicha audit qilish moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini tejashga olib keladi.

Ishlab chiqarish hajmi ortib borgan sari xarajatlarning umumiy hajmi ham oshib boradi. Bu, asosan, o‘zgaruvchan xarajatlar hisobiga sodir bo‘ladi. Auditor mazkur bog‘liqlik va ularning o‘zgarishini e’tiborga olib, mahsulot hajmi va uning tannarxi tahlilini amalga oshirish keraki. Ishlab chiqarish xarajatlari auditining natijalari auditor hisoboti va xulosasida o‘z aksini topishi lozim.

14.4. Tayanch iboralar va tekshirish uchun savollar

Tayanch iboralar

Moddiy boylik. Asosiy vositalar. Asosiy vositalar auditi. Tovar-moddiy boyliklar. Xomashyo va materiallar auditi. Tayyor mahsulot. Tayyor mahsulot auditi. Inventarizatsiya. O‘simlikchilik tayyor mahsuloti auditi. Ishlab chiqarish xarajatlari auditi. Tannarx auditi.

Takrorlash uchun savollar

1. Asosiy vositalar auditining maqsadi nimalardan iborat?
2. Asosiy vositalar auditi qaysi ma’lumotlar asosida tashkil etiladi?
3. Asosiy vositalar haqiqiy qoldig‘i qanday aniqlanadi?
4. Asosiy vositalar kirimi va chiqimining auditi.
5. Asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va tugatilishining auditi.
6. Xomashyo va materiallar auditi uchun qaysi schotlarning ma’lumotlari asos bo‘ladi?
7. Xomashyo va materiallarning qoldig‘i qanday aniqlanadi va qanday tekshiriladi?
8. Xomashyo va materiallar auditi qanday ketma-ketlikda tekshiriladi?

9. Xomashyo va materiallarning sarflanishi, sotilishi va hisobdan chiqarilishini auditi.
10. Ishlab chiqarish xarajatlarining auditi.
11. Tayyor mahsulot tannarxining auditi.

XULOSA

Fanning o'quv dasturiga muvofiq rejalashtirilgan savollar: asosiy vositalarning auditi, xomashyo va materiallarning auditi, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning auditi hamda ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx auditi ushbu bobda yetarli darajada yoritildi. Mavzu bo'yicha talaba egallashi lozim bo'lgan bilim va malakaga ega bo'lishi uchun bularni u yaxshi o'zlashtirib olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan talaba ushbu mavzuni mustaqil o'qib va unda keltirilgan nazariy savollarga mustaqil javob tayyorlash orqali o'zlashtirib olishini tavsiya qilamiz

15-bob. XUSUSIY KAPITAL VA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI. AUDIT NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH VA RASMIYLASHTIRISH

O'quv maqsadi

Fan o'quv dasturiga muvofiq rejalashtirilgan xususiy kapital auditi , moliyaviy natijalar auditi hamda audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishning mazmun-mohiyatini ushbu bobda yoritilishi va talabalarga o'quv quroli tariqasida yetkazilishi mavzuning *ta'limiy o'quv maqsadini* tashkil etadi, chunki talaba mavzu bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikma shularning yaxshi o'zlashtirishi orqali unda shakllanadi.

Mavzuda ko'zda tutilgan masalalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali xususiy kapital va moliyaviy natijalarning hisob-kitobini to'g'ri olib borish va ularni ko'paytirish imkoniyatlarini ko'rsatish o'z mablag'lari manbalarining oshishiga va moliyaviy mustaqillikning mustahkamlanishiga olib kelishligi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni hamda audit natijalarini to'g'ri rasmiylashtirish xo'jalik yurutuvchi subyektda va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga audit natijalariga nisbatan ishonchning oshishiga olib kelishi to'g'risidagi fikr va g'oyalarni talabalar ongiga singdirish *mavzuning tarbiyaviy o'quv maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

15.1. Xususiy kapital auditi

Xususiy kapitalning ta'rifi, hisobga olinishi va shakllanishi O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunida o'z aksini topgan. Xo'jalikning o'z mablag'lari manbaining asosiy qismini xususiy kapital tashkil etadi. Xususiy kapital o'z ichiga ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foydani oladi. Xususiy kapital korxona faoliyatini samarali yuritishda katta rol o'ynaydi, chunki xo'jalik mablag'larining shakllanishida xususiy kapital hissasi oshib borsa, xo'jalik moliyaviy jihatdan mustaqil, barqaror korxonaga aylanadi.

Shuning uchun xususiy kapital holatini va harakatini hamda undan foydalanish samarasini audit qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta rol o'ynaydi.

Xususiy kapital holati va harakati buxgalteriya hisobining 8300-«Ustav kapitalini hisobga oluvchi schot», 8400-«Qo'shilgan kapitalni hisobga oluvchi schot», 8500-«Rezerv kapitalni hisobga oluvchi schot», 8700-«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schot»larda aks ettiriladi. Bu schotlar passiv schotlardir. Bu schotlarning kreditida qoldig'i va joriy davrdagi ko'payishi, debetida esa kamayishi hisobga olib boriladi.

Ushbu schotlarning ma'lumotlari, korxonaning ustavi, bosh daftar, aylanma qaydnomalar va «Xususiy kapital harakati to'g'risida hisobot» ma'lumotlari auditni o'tkazish uchun asos bo'ladi. Audit xususiy kapitalning har bir turi bo'yicha amalga oshiriladi. Ustav kapitalining auditi 8310-schotining krediti quyidagi 1000,0100 (ulush sifatida turli aktivlar qabul qilinganda), 8400, 5010, 5110, 8810-schotlarining debetidagi ma'lumotlarni solishtirish orqali amalga oshiriladi. 8310-schotining debeti 4610, 6610 va boshqa schotlarning kreditidagi yozuvlar bilan solishtirilib, audit qilinadi.

Qo'shilgan kapitalning auditi 8400-schotining krediti va quyidagi schotlarning debetidagi yozuvlarni bir-biriga solishtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda quyidagi schotlar debetlanib, 8400 kreditlanadi.

0610, 5810 – qimmatli qog'ozlar qaytarib bermaslik sharti bilan olinganda;

0100 – asosiy vositalar qaytarib bermaslik sharti bilan olinganda;

4610 – ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi to'langunga qadar mulklarning ijobiy kursi farqi sodir bo'lganda;

8510 – mulklarni qayta baholanishida ularning qiymatidagi farqni qoplashga yo'naltirilganda.

Zahira kapitali ham audit obyekti bo'lib hisoblanadi. Zahira kapitali buxgalteriya hisobining 8500-schotida hisobga olib boriladi. Bu schot korxona ta'sis hujjatlariga asosan, foyda hisobidan hosil qilingan zahiralar, aktivlarni qayta baholashdan yuzaga keladigan inflatsion zahiralarni hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Zahira kapitalining tashkil etilishi ushbu schotning kreditida, ishlatilishi esa debetida aks ettiriladi.

8500-schotning krediti quyidagi schotlarning debeti bilan solishtirilib, audit qilinadi:

0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar».

0600-«Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar».

0810-«Asosiy vositalarni xarid qilish schoti».

8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi».

8500-schotining debeti quyidagi schotlarning krediti bilan solishtirilib, audittorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar».

0600-«Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar».

9560-«Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar schoti».

6610-«To'lanadigan dividendlar schoti».

Audit jarayonida xususiy kapital hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha aniqlangan xato-kamchiliklar va yuzaga kelgan nuqsonlar auditor hisoboti va xulosasida o'z aksini topadi.

15.2. Moliyaviy natijalarning auditi

Qishloq xo'jalik korxonasi faoliyatining moliyaviy natijalari bo'lib, foydasi va zarari hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar va ularni aniqlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevralidagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish-xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom»da aks ettirilgan.

Nizomga ko'ra korxona foydasi (zarari) quyidagi 5-turga bo'linadi:

– mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda;

– asosiy faoliyat foydasi;

– umumxo'jalik faoliyati foydasi;

– soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda;

– hisobot davrining sof foydasi.

Ma'lumki, korxona foydasi oshgan sayin uning iqtisodi mustahkamlanadi, o'zaro hisob-kitoblar vaqtida amalga oshiriladi, ishlovchi xodimlar qo'shimcha moddiy rag'batlantiriladi, davlat budjetining daromad qismini to'ldirish imkoniyati yaratiladi. Shuning uchun foydaning to'g'ri hisoblanganligini va ishlatilganligini bilish uchun auditorlik nazorat tekshiruvidan o'tkazib turiladi.

Auditorlik tekshiruvi 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi schoti», 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar» hamda ular bilan bevosita aloqada bo'lgan schotlardagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Foydaning auditi 9910-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schot» ma'lumotlari orqali amalga oshiriladi. Bu schot aktiv-passiv schoti bo'lib, hisoblanadi. Bu schotning kreditida hisobot davrining yakuniy daromadlari, debetida esa yakuniy xarajatlari aks ettiriladi. Debeti bilan krediti orasidagi farq hisobot davrining foydasi yoki zararini bildiradi. Kreditdagi summasi debetdagi summasiga nisbatan ko'p bo'lsa, oraliqdagi farq foydani bildiradi, agar aksi bo'lsa, u zararni bildiradi. Foyda bo'lsa, ushbu schotning kreditida, zarari esa debetida aks ettiriladi.

9910-schotining krediti undagi ma'lumotlarni quyidagi schotlarning debetidagi ma'lumotlar bilan solishtirish orqali audit qilinadi:

9010-«Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar schoti» (qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar);

9300-«Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9310–9390 schotlari);

9500-«Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9510–9590-schotlari);

9710-«Favquloddagi foydalar schoti»;

9910-schotining debeti quyidagi schotlarning krediti bilan solishtirish orqali tekshiriladi:

9110-«Realizatsiya qilingan tayyor mahsulotlarning tannarxi (sotilgan qishloq mahsuloti tannarxi) schoti»;

9400-«Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» (9410, 9420, 9430-schotlari);

9600-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xaarajatlarni hisobga oluvchi schotlar» (9610, 9620, 9690-schotlari);

9720-«Favquloddagi zararlar schoti».

Hisobot yili oxiriga yillik buxgalteriya hisobotini tuzishda 9910-schoti yopiladi. Hisobot yilining sof foydasi 9910-schotining debeti orqali 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) schoti»ning kreditiga, zarari esa debetiga o'tkaziladi. Demak, 9910-schoti bo'yicha o'tkaziladigan audit tekshiruvini 8710-schoti bilan hal bog'lagan holda amalga oshirish zarur.

9910-schotining auditidan so'ng 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi» (qoplanmagan zarari) ham auditorlik nazoratidan o'tkaziladi.

Taqsimlanmagan foyda quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi (8710-schoti debetlanadi):

– ta'sischilarga dividend tariqasida daromad to'lashga (6610-«To'lanadigan devidentlar schoti» kreditlanadi);

– zahira kapitalini yaratishga yo'naltirilgan hissasiga (8520-schoti kreditlanadi)

– dividendlar aksiya ko'rinishida to'langan taqdirda (4610-schoti kreditlanadi);

– dividendlar va zahira kapitaliga ajratishdan qolgan qismi 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar) schoti»ga o'tkazilganda (8720-schoti kreditlanadi);

Demak, auditor 8710-schotini audit qilishda u bilan o'zaro aloqada bo'lgan 6610, 8520, 4610, 8720-schotlarining ma'lumotlari bilan solishtirib, audit etishi zarur.

Hisobot yili davrida foydadan daromad solig'i to'langan bo'lsa, ushbu jarayonni ham auditorlik nazoratidan o'tkazish zarur. Buning uchun 9820-«Foydadan hisoblangan soliq schoti», 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz schoti», 5110-«hisob-kitob schoti» ma'lumotlarini o'zaro solishtirish orqali tekshirish zarur.

Moliyaviy natijalarning auditi natijasida aniqlangan o'zaro mos kelmaslik holatlari, nuqsonlar va xato-kamchiliklar auditor hisoboti va xulosasida aks ettirilishi kerak.

15.3. Audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Auditorlik tekshiruvi natijalari uni o'tkazish jarayoni davrida auditor tomonidan umumlashtirilib va rasmiylashtirilib boriladi. Tekshirish natijalari qay darajada sodir bo'lishidan qat'iy nazar, ular dalillar bilan isbotlanishi kerak, ya'ni har bir tekshirilgan obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan qonun-qoidalarga mos kelishi yoki kelmasligi isbotlanishi kerak. Bularni ma'lum tartibda talab qilinadigan hujjatlarda aks ettirish orqali isbotlash mumkin. Demak, audit natijalarini (kamchiliklar va nuqson-xatolarini) umumlashtirish dalolatnoma, ma'lumotnoma, tushuntirish xati, bildirishnoma kabi hujjatlarni tuzish orqali amalga oshiriladi.

Dalolatnoma qay vaqtda tuziladi?

Dalolatnoma buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan chetga chiqishlar va moliyaviy hisobotlar bo'yicha qoidabuzarliklar aniqlangan paytda tuziladigan hujjatdir.

Ma'lumotnoma qay vaqtda tuziladi?

Ma'lumotnoma tekshirish jarayonida audit qilinayotgan obyektning mablag'lari to'g'risidagi obyektiv holatini isbotlash, qonun-qoidalarining buzilganligini ko'rsatish hamda faoliyat yuritish operatsiyalarning belgilangan mezonlarga mos kelganligini isbotlash uchun tuziladigan hujjat.

Tushuntirish xati qay vaqtda talab qilib olinadi?

Tekshirilayotgan obyekt bo'yicha bo'ladigan hisob-kitoblarda qonun, nizom, yo'riqnoma kabi yuridik hujjatlarning talablari va qoidalari buzilishi sodir bo'lgan taqdirda ma'sul xodimlardan talab qilib olinadigan hujjatdir.

Bildirishnomalar qay vaqtda yoziladi?

Auditorlik tekshiruv nazorati borayotgan paytda, auditor tomonidan tekshirilayotgan yuridik shaxs bilan o'zaro iqtisodiy aloqada bo'lgan shirkat, fermer va boshqa korxonalarga hamda bank muassalariga, debitorlik va kreditorlik qarzlarining haqqoniyligini, hisob-kitob, valuta va boshqa maxsus schotlardagi pul mablag'larining to'g'riligini bilish maqsadida yozma ravishda yuboriladigan hujjatdir.

Ushbu hujjatlar, o'z navbatida, auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish uchun asos bo'ladi. Auditorlik nazorati tekshiruvining natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish auditorlik hisoboti va xulosasini tuzib, tugatish orqali amalga oshiriladi.

Auditorlik hisoboti – auditorlik tekshiruvining yakuniy natijalarini aks ettiruvchi hujjatdir. Auditorlik hisobotining mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunining 18-moddasida bayon qilingan, ya'ni «Auditorlik hisoboti– auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek, auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat» dir deb ushbu moddada qayd qilingan.

Auditorlik hisobotida tekshiruv jarayonida buxgalteriya hisobi bo'yicha belgilangan tartibdan chetga chiqishlar va moliyaviy hisobot bo'yicha qoidabuzarliklarni bartaraf etish hamda korxona xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'icha tavsiya va taklif berilishi zarur.

Auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi va ular oshkor qilinishi mumkin emas. Hisobotning har bir beti auditorlik tekshiruvini

o'tkazgan auditor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak. Auditorlik hisoboti asosida auditorlik xulosasi tuziladi.

Auditorlik xulosasi deganda qaysi hujjat tushuniladi?

Auditorlik xulosasi deganda moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat tushuniladi. Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi.

Auditorlik xulosasining hisobotdan farqi nimadan iborat?

Auditorlik hisobotida audit obyekti, auditni o'tkazuvchi shaxs (shaxslar), auditning asosiy maqsadi va tekshiruv natijalari aks ettiriladi. Auditorlik xulosasida esa faqat audit natijalari ko'rsatiladi, ya'ni moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelish-kelmasligini ifodalovchi ma'lumotlar xulosada aks ettiriladi. Mamlakatimizda auditorlik xulosasi ikki turda namoyon bo'ladi:

– ijobiy auditorlik xulosasi;

– salbiy auditorlik xulosasi.

Audit qilingan xo'jalikning moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobining ishonchli obyektiv ma'lumotlari asosida tuzilgan bo'lsa, xo'jalikda sodir etilgan barcha operatsiyalar buxgalteriya hisobi schotlarida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun, nizom va yo'riqnomalarga mos holda aks ettirilgan bo'lsa, ijobiy auditorlik xulosasi beriladi.

Xo'jalik faoliyatida jiddiy kamchiliklar apiqlanganda, moliyaviy hisobot to'g'ri tuzilmaganda, buxgalteriya hisobini yuritishda qonunchilik talablari buzilgan taqdirda salbiy xulosa beriladi.

Auditorlik xulosasi yuridik hujjat hisoblanadi. U imzolangan kundan boshlab, unga o'zgartirish kiritish mumkin emas. Xulosa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun ochiq hujjat hisoblanadi.

15.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Xususiy kapital. Ustav kapitali. Zahira kapitali. Qo'shilgan kapital. Taqsimlanmagan foyda. Moliyaviy natijalar. Foyda. Yalpi foyda. Sof foyda. Yakuniy moliyaviy natija. Dalolatnoma. Ma'lumotnoma. Auditorlik hisoboti. Auditorlik xulosasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Xususiy kapital deganda nima tushuniladi?
2. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun bo'yicha xususiy kapital tarkibini tushuntiring.
3. Xususiy kapital auditining mazmunini tushuntiring.
4. Ustav kapitalining auditi.
5. Qo'shilgan kapital auditi.
6. Zahira kapitalining auditi.
7. Moliyaviy natijalar to'g'risida tushuncha.
8. Foydaning auditi.
9. Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotning auditi.
10. Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini audit qilish tartibini tushuntirish.
11. Audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish jarayonini tushuntiring.
12. Auditorlik hisobotining mazmunini tushuntiring.
13. Auditorlik xulosasining mazmunini bayon qiling.

Xulosa

Fan o'quv dasturiga muvofiq ushbu mavzu bo'yicha rejalashtirilgan savollar: xususiy kapital auditi, moliyaviy natijalar auditi, audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish kabi masalalar ham nazariy, ham uslubiy jihatdan yetarli darajada yoritilgan. Ushbu mavzu muammolarini talabaning yaxshi o'zlashtirishi u egallagashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishga asos bo'ladi. Shuning uchun talabaga ushbu mavzuni darslik bo'yicha o'qish va mavzu bo'yicha keltirilgan nazariy savollarga mustaqil javob tayyorlash orqali yaxshi o'zlashtirib olishini tavsiya etamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . T.: – «O'zbekiston», 1992-y.
2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining korxonalar to'g'risida»gi qonuni. T.: – «O'zbekiston», 1992-y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. – Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami (2-qism). T., – 1998-y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri). – «Xalq so'zi» gazetasi, 2004-y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi 2003-y 27-oktabrdagi PF –3342-son farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005–2007-yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida» gi farmoyishi. – «Xalq so'zi», 2004-yil 5-noyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 4-apreldagi «Auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida»gi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» gi 2003-yil 24-martdagi farmoni. «Xalq so'zi» 2003-yil mart.
10. Karimov I.A. – Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. «Xalq so'zi», 2007-yil 14-fevral.
11. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.– T., «O'zbekiston», 1996.
12. Karimov I.A. – Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori. – T., «O'zbekiston ovozi», 2000-yil 22-iyul.
13. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. – T., «O'zbekiston», 1998.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulotlar (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom» haqidagi 54-son qarori. «Soliq va bojxona xabarlari», 1999-yil 25-fevral, 3-mart.

15. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 300-sonli qaroriga 3-ilova: «Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini fuqarolarga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi». – O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami. – T., «O'qituvchi», 1998.
16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori. – T.: 2008-yil 21-yanvar.
17. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. – T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999-y.
18. Abdullayev Y., Ibrohimov A., Rahimov M. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. – T., «Mehnat», 2001-y.
19. Bakett M. «Fermer xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish» – T., «Mehnat», 1998-y.
20. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F., «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». Darslik. – T., «Sharq», 2005-y.
21. Do'stmuradov R.D. «Audit asoslari» Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» – T.: 2003-y.
22. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. – T., «Fan», 1994-y.
23. Ibragimov A.T. «Moliyaviy tahlil». – T.: «Mehnat», 1995-y.
24. Musayev H.N. «Audit». Darslik. – T.: «Moliya», 2003-y.
25. Национальные стандарты бухгалтерского учета Республики Узбекистан. – Т., Ассоциация бухгалтеров и аудиторов Узбекистана. 2002.
26. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – Samarqand, «Zaraf-shon», 2001.
27. Pardayev M.Q. va boshqalar. Boshqaruv tahlili (ma'ruzalar kursi). – Samarqand. 2004.
28. Pardayev M.Q., Abdikarimov I.T. – «Iqtisodiy tahlil». – T.: «Mehnat», 2004.
29. Подольский В.И. и др. «Аудит». Учебник. М.: ЮНИТИ, 2000.
30. Rahmonov K.R. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini tahlil qilish. – T., 1996.
31. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий АПК. Учебник. – Минск, 2001.
32. Sanayev N., Narziev R. «Audit». Darslik – T.: «Sharq», 2001.

33. To'laxo'jayeva M.M. «Moliyaviy ahvolning auditi». – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1996.
34. Холдервик К. «Финансово-экономический анализ деятельности предприятия». – М.: «Финансы и статистика», 1996.
35. Xorazmiy A., Shodmonqulov Sh. – «O'g'it me'yori, sharoit va hosildorlik». – «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnali, 2006-yil, 7-soni.
36. Egamberdiyev E. «Miqroiqtisodiyot», Darsrlik, – Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti, 2004.
37. Qudratov T.Q., Ibragimov M.M. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: «Ilm-Ziyo», 2005.
38. Qudratov T.Q. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2006.
39. Qudratov T.Q. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining statistik tahlili. O'quv qo'llanma. Samarqand. 1990.
40. Qudratov T.Q., Dusmatov S.M. Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan usiubiy ko'rgazmalar va topshiriqlar to'plami (uslubiy qo'llanma.). – Samarqand. 1996.
41. Qudratov T.Q. Korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili fanidan bajariladigan amaliy mashg'ulotlar to'plami va ularning yechish bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Samarqand 2002.
42. Qudratov T.Q. Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili. Ma'ruzalar kursi. – Samarqand. 2002.
43. Qudratov T.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Muammoli leksiyalar kursi. – Samarqand, 2004.
44. Qudratov T.Q., Dehqonov S. Qishloq xo'jalik statistikasi. O'quv qo'llanma. – T., «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2004.
45. Qudratov T.Q., Fayzieva N. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanidan amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Samarqand, 2005.
46. Qudratov T.Q., Fayzieva N. Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamQXI – 2006.
47. Qudratov T.Q va boshqalar «Fermer xo'jaligi faoliyatining iqtisodiy tahlili». Metodik qo'llanma. – Samarqand. «Tayms», 2006.

48. Qudratov T.Q., Ibragimov M. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. II nashr. – Toshkent «Ilm-Ziyo», 2008.
49. Qudratov T.Q., Qudratova O., Fayzieva N. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamQXI. 2008.
50. Qudratov T. va boshq. Qisloq ho'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. O'quv qo'lanma. – Samarqand. N.«Doba» XT., 2008.
51. Qudratov T., Fayziyeva K. – Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik. – Samarqand. N.«Doba» XT., 2010.
52. www.gaap.ru (xalqaro buxgalteriya standartlari).
53. http://www. finanaliz. kiev.ua./
54. http://www. finstat. ru./
55. www.uzlaw.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunlari to'plami.

MUNDARIJA

Kirish 3

1-bob. **KORXONALAR FAOLIYATINING TAHLILI FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI** 7

1.1. Tahlil fanining shakllanishi, tashkil topishi va rivojlanishi 7
1.2. Bilish nazariyasi va tahlil 10
1.3. Korxonalar faoliyatining tahlili fanining mazmuni, predmeti va vazifalari 10
1.4. Tahlil fanining metodi va unda qo'llaniladigan usullar 13
1.5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari va uning natijalarini rasmiylashtirish 19
1.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 20

2-bob. **QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HAJMINING HAMDA ULARNING O'ZGARISHIGA OMILLAR TA'SIRINING TAHLILI** 22

2.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifning tahlili 22
2.1.1 Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi va vazifalari 22
2.1.2. Talab va taklif hajmlari hamda ularning o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar 24
2.1.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab va taklif hajmining omilli tahlili 25
2.1.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 27
2.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ahvolining tahlili 28
2.2.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari 29
2.2.2. O'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili 30
2.2.3. Ekin maydoni strukturasi o'zgarishining yalpi hosilning o'zgarishiga ta'sirining tahlili 33
2.2.4. O'rtacha hosildorlikning omilli tahlili va uni oshirish imkoniyatlari 35
2.2.5. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili 36
2.2.6. Ishlab chiqarilgan chorva mahsuloti miqdorining o'zgarishiga ona mollar strukturasi o'zgarishi ta'sirining tahlili 39
2.2.7. O'rtacha mahsuldorlikning omilli tahlili va uni oshirish imkoniyatlari 40

2.2.8. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar. 42
2.3. Mahsulotlarni sotish hajmi va uning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili 43
2.3.1. Tahlilning ahamiyati, vazifalari va manbalari 43
2.3.2. Mahsulot sotish bo'yicha rejaning bajarilishini va dinamikasini tahlil qilish 45
2.3.3. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi hajmining omilli tahlili 48
2.3.4. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlar bajarilishining tahlili 52
2.3.5. Sotilgan mahsulot sifatining va uning o'rtacha sotish bahosi bilan pul daromadi hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili 54
2.3.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 58

3-bob. **YER-SUVDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI** 60

3.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari 60
3.2. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samradorligining tahlili 61
3.3. Qishloq xo'jalik yerlarida iste'mol qilingan suvdan foydalanish samaradorligining tahlili 65
3.4. Yer va undan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili 68
3.5. Suv va undan foydalanish darajasining ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili 71
3.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 73

4-bob. **MEHNAT RESURSLARI, MEHNAT UNUMDORLIGI VA ULARNING MAHSULOT HAJMI O'ZGARISHIGA TA'SIRINING TAHLILI** 75

4.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari 75
4.2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish darajasining tahlili 77
4.3. Mehnat unumdorligi to'g'risida tushuncha va uning ko'rsatkichlarini hisoblash usullari 80
4.4. Mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlarining tahlili 81
4.5. Xo'jalik bo'yicha mehnat unumdorligining omilli tahlili 86
4.6. Ishchi kuchi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili 90
4.7. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 92

5-bob. **MODDIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANISH VA ULARDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARINING TAHLILI** 95

5.1. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish tahlilining ahamiyati, vazifalari va manbalari 95
5.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari, ularning mazmuni va hisoblash usullari 96
5.3. Materiallar qaytimining omilli tahlili 100
5.4. Materiallar sig'imining omilli tahlili 103
5.5. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili 111
5.6. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 114

6-bob. **QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING TAHLILI** 116

6.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari 116
6.2. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining tahlili 117
6.3. Tannarx moddalari bo'yicha xarajatlar darajasining omilli tahlili 120
6.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar. 127

7-bob. **XO'JALIK MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARINING TAHLILI** 130

7.1. Korxona moliyaviy holatining tahlili 130
7.1.1. Moliyaviy holatni o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari 130
7.1.2. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari, ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili 132
7.1.3. Korxona moliyaviy barqarorligining tahlili 135
7.1.4. Korxona to'lov qobiliyatining tahlili 139
7.1.5. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 151
7.2. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili 152
7.2.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va vazifalari 153
7.2.2. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari 154
7.2.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili 157
7.2.4. Xo'jalik bo'yicha yalpi foydaning omilli tahlili 161
7.2.5. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlili 164
7.2.6. Xo'jalik bo'yicha mahsulotlarni sotish rentabelligining tahlili 168
7.2.7. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar. 171

8-bob. **DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING TAHLILI** 173

8.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi va vazifalari 173
8.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlili 174
8.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanuvchanligining tahlili 176
8.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 179

9-bob. **ASOSIY VOSITALARNING HOLATI VA ULARDAN FOYDALANIŞH SAMARADORLIGINING TAHLILI** 181

9.1. Tahlilning ahamiyati, maqsadi va manbalari 181
9.2. Asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanish darajasining tahlili 182
9.3. Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligining tahlili 188
9.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 193

10-bob. **XUSUSIY KAPITAL TAHLILI** 196

10.1. Xususiy kapitalni tahlil qilishning ahamiyati,vazifalari va manbalari 197
10.2. Xususiy kapital tarkibi, strekturasi va dinamikasining tahlili 195
10.3. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili 198
10.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 202

11-bob. **AUDITORLIK FAOLIYATINING MOHIYATI, UNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH** 205

11.1. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati, ahamiyati, maqsadi va vazifalari 205
11.2. Auditorlik tekshiruvi va auditorlik xizmatlarining tashkil etilishi 207
11.3. Auditorlar va auditorlik tashkilotlarining huquqlari,vazifalari va ma'suliyatlari 209
11.4. Auditni rejalashtirish bosqichlari va auditorlik tekshiruvinio'tkazish ish dasturi 212
11.5. Tayanch iboralar va tekshirish uchun savollar 214

12-bob. **PUL MABLAG'LARINING AUDITI** 217

12.1. Pul mablag'lari hisobini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari. 217
12.2. Kassadagi pul mablag'larining auditi 218
12.3. Bankdagi hisob-kitobi schotidagi pul mablag'larining auditi 219
12.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 221

13-bob. **MEHNAT HAQI, TURLI DEBITOR VA KREDITORLAR, BUDJET VA BUDJETDAN TASHQARI TO'LOVLAR BO'YICHA HISOB-KITOBLAR AUDITI** 223

13.1. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarining auditi 223
13.2. Turli debitorlar va kreditorlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi 224
13.3. Budjet va budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi 226
13.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 229

14-bob. **MODDIY BOYLIKLAR VA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI AUDITI** 231

14.1. Asosiy vositalarning auditi 231
14.2. Xomashyo va materiallarning auditi 233
14.3. Ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx auditi 235
14.4. Tayanch iboralar va tekshirish uchun savollar 237

15-bob. **XUSUSIY KAPITAL VA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI. AUDIT NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH VA RASMIYLASHTIRISH** 239

15.1. Xususiy kapital auditi 239
15.2. Moliyaviy natijalarning auditi 241
15.3. Audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish 243
15.4. Tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar 245

ADABIYOTLAR RO'YXATI 247

Qudratov Turdibay, Fayziyeva Nodira

KORXONALAR FAOLIYATINING TAHLILI VA NAZORATI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5610100 – Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha o'qiyotgan talabalarga darslik sifatida tavsiya etilgan

«VORIS-NASHRIYOT» – 2012
Toshkent, A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Muharrirlar *A. Xusanov*
Texnik muharrir *M. Akramova*
Badiiy muharrir *J. Gurova*
Musahhih *D. Sagatova*
Kompyuterda sahifalovchi *B. Babaxodjayeva*

Nashriyot litsenziyasi AI 195. 28.08.2011. Bosishga 20.07.2012. da ruxsat etildi.
Bichimi 60×84 $^{1}/_{16}$. «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.
Bosma t. t6,0. Jami 500 nusxa.
402-raqamli buyurtma.

«Niso Poligraf» ShK bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, H. Bayqaro ko'chasi, 41-uy.